X.A.Dadaboyev, Z.T. Xolmanova

TURKIY TILLARNING QIYOSIY-TARIXIY GRAMMATIKASI

"Tafakkur Bo'stoni"
Toshkent – 2015

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

H.A. Dadaboyev, Z.T. Xolmanova

TURKIY TILLARNING QIYOSIY-TARIXIY GRAMMATIKASI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta vaxsus ta’lim vazirligi tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan

Toshkent – 2015

UO'K: 811.512.1(09)(075)
81.2-2
T89
X.Dadaboyev
Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi [Matn] : o'quv qo'llanma / X.Dadaboyev, Z.Xolmanova – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2015. -224 b.

KBK-81.2-2ya73

Mas'ul muharrir: f.f.d., prof. **Sh.Usmanova**
Taqrizchilar: f.f.d., prof. **Q. Sodiqov**
f.f.n., **dots. A.Rafiyev**

Mazkur qo'llanma "Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi" fanining mazmun-mohiyatini yoritish maqsadida tuzilgan bo'lib, turkiy tillarning grammatik tizimi, umumturkiy taraqqiyot davri va hozirgi rivojlanish bosqichidagi fonetik-fonologik, leksik-semantik, struktur-grammatik xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan. Qo'llanma o'zbek tili, qardosh turkiy tillar va rus tilidagi mavjud adabiyotlar asosida tuzilgan bo'lib, fanning asosiy masalalarini qamrab oladi.

Qo'llanma matni O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Lotin alifbosiga asoslangan o'zbek tilidagi o'quv adabiyotlarini yaratish to'g'risida"gi 2004- yil 23-yanvar 20-sonli buyrug'iga asosan tayyorlandi.

O'quv qo'llanma talabalar, katta ilmiy xodim-izlanuvchi va turkiy tillar grammatikasi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan.



UO'K: 811.512.1(09)(075)
KBK-81.2-2ya73

ISBN 978-9943-993-04-4

© "Tafakkur Bo'stoni", 2015
© X.Dadaboyev va boshq., 2015
© "Ilm Ziyo nashriyot uyi", 2015

So'zboshi

Oliy o'quv yurtlari bakalavriat yo'nalishi o'quv rejasiga kiritilgan "Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi" fanining maqsadi hozirgi turkiy tillarning fonetik-fonologik, morfem-morfologik, leksik-semantik va struktur-grammatik xususiyatlarini yaxlit holda tahlil qilish, turkiy tillar grammatikasida oltoy tillariga xos lingvistik jarayonlar ifodasini yoritish, turkiy tillarni tasniflashda fonetik, leksik, grammatik, geografik, etnik mezonlarning o'rnini izohlash; turkiy tillarning umumiy va xususiy taraqqiyot bosqichlari haqida muayyan tasavvur hosil qilish, tipologik o'ziga xosliklarini umumlashtirish, farqli jihatlarini ajratishdan iborat.

"Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi" fani doirasida o'rganiladigan asosiy masalalarning amaliy qiymati quyidagilarda ko'rinadi:

– talabalar milliy tilning shakllanish jarayoni, o'zbek tili mansub bo'lgan oltoy tillari oilasi, turkiy tillar guruhining grammatik jihatdan o'ziga xosligi, fonetik, leksik, morfologik xususiyatlari haqida muhim ma'lumotga ega bo'ladilar;

– turkiy tillar tasnifi, tarqalish hududlari, turkiy tillarda so'zlashuvchi xalqlar haqida muayyan tasavvur hosil qiladilar;

– turkiy tillarning dastlabki taraqqiyot jarayonidagi lingvistik xususiyatlarning hozirgi turkiy tillarda saqlanib qolish darajasi, lisoniy va nolisoniy omillar haqida bilim ko'nikmalariga ega bo'ladilar;

– turkiy tillarning dastlabki taraqqiyot davriga xos bo'lgan grammatik xususiyatlarning dialektlarda saqlanib qolishi, bu jihatdan shevalarning muhim lingvistik baza sifatidagi ahamiyatini anglab yetadilar;

– hozirgi turkiy tillar grammatikasini qiyoslash tilning ichki taraqqiyoti, lingvistik jarayonlar, leksema semantikasidagi o'zgarishlar, ma'no kengayishi, semantik torayish va ularni yuzaga keltiruvchi omillarni o'rganish imkoniyatini beradi.

Hozirgi kunda barcha sohalarda globallashuv jarayoni ta'siri ko'zga tashlanmoqda. Ana shunday vaziyatda "Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi" fanining asosiy masalalari borasida to'plangan bilim ko'nikmalari turkologiya sohasini takomillashtirishda, umumturkiy global masalalarni hal qilishda, turkiy tillarda yaratilgan yozma yodgorliklar mazmunini o'zlashtirishda, turkiy tillar, xususan, o'zbek tili taraqqiyot xususiyatlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, milliy til, qardosh tillar tarixi, takomiliga jiddiy e'tibor qaratish barcha ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning, mamlakat rivojining, millat ravnaqining asosiy mezonini belgilaydi.

Kirish

"Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi" fanini o'rganish jarayonida turkologiya tarixida yuz bergan muhim voqealarni alohida qayd etish lozim bo'ladi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida turkiy tillarni qiyosiy o'rganish sohasida bir qator izlanishlar yuzaga keldi. Rossiya Fanlar akademiyasining Tilshunoslik instituti turkiy tillar bo'limi, uning Sankt-Peterburg va Sibir tarmoqlari tilshunoslari tomonidan turkiy tillar fonetikasi, leksikasi, grammatik qurilishini o'rganish yuzasidan ilmiy izlanishlar yaratildi.

Turkiy tillar tarixini o'rganishda ikki yo'nalish – tarixiy grammatika va adabiy tillar tarixini yaratish yuzasidan izlanishlar olib borildi. 60-70- yillarda turkiy tillar tarixi bo'yicha bir qancha monografiyalar, darsliklar, qo'llanmalar yaratildi. Turkologiya tarixida sinxronik va diaxronik aspektdagi tadqiqotlar yuzaga keldi. Turkiy tillar tasnifi, turkiy tillar fonetikasi, leksikologiyasi, semasiologiyasi, terminologiyasi, leksikografiyasi, grammatikasiga doir izlanishlar olib borildi, monografiyalar, qo'llanmalar yaratildi, ilmiy maqolalar e'lon qilindi. Turkiy tillarda yaratilgan yozma yodgorliklar o'rganildi, nashr etildi.

Turkiy tillar fonetikasi sohasida jiddiy yutuqlarga erishildi. Eksperimental-fonetik tekshirishlar asosida turkiy tillarning fonematik sistemasi (unli va undosh tovushlar tizimi), aksentuatsiyasi, gap intonatsiyasi yoritildi. Turkiy tillar leksikologiyasi, leksikografiyasi bo'yicha olib borilgan ishlar turkiy tillar leksikasini ham sinxron, ham diaxron aspektda tekshirishga qaratilgan tadqiqotlar uchun zamin yaratdi. Turkiy tillarga oid ikki tilli lug'atlarda turkiy bo'lmagan til (masalan, rus tili)ning leksik-grammatik xususiyatlarini turkiy til vositasi orqali aks ettirish, ko'chma ma'nodagi so'z va iboralarni tarjima qilish, old qo'shimcha (prefiks) li so'zlarning turkiy tillardagi muqobilini topish, ularning semantik xususiyatlarini har jihatdan yoritish masalalariga e'tibor qaratildi.

Turkiy tillar morfologiyasi, xususan, so'z turkumlarining leksik-semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlari ilmiy asosda tadqiq qilindi. Ot, sifat, ravish va fe'l turkumiga xos kategoriyalar o'rganildi. Turkiy tillar sintaksisi bo'yicha ham bir qator ishlar amalga oshirildi. So'z birikmalari, sodda va qo'shma gap sintaksisiga oid fundamental tadqiqotlar yaratildi.

Turkiy tillar dialektologiyasi turkologiyaning asosiy yo'nalish-

laridan biri hisoblanadi. Turkiy tillar dialektologiyasi masalalariga bag'ishlangan ilmiy konferensiyalarning muntazam ravishda o'tkazilishi, "Turkiy tillar dialektologiyasi masalalari" to'plamining nashr etilishi dialektologiyaning turkiy tillar fonetik, leksik, grammatik sohalariga doir masalalarni hal qilishdagi ahamiyatini yoritishga xizmat qiladi.

Turkiy tillarning sheva va lahjalari monografik tarzda o'rganilganligi sababli turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi uchun muhim qiymatga ega bo'lgan fonetik, grammatik va leksik xususiyatlar aniqlandi. Turkiy tilli respublikalarning dialektologlari tomonidan dialektologik atlaslarning tuzilishi soha taraqqiyotidagi muhim qadamlardan hisoblanadi. Turkiy tillarning sheva va lahjalari bo'yicha to'plangan faktik materiallar asosida bir qator lug'atlar ham tuzilgan.

Qayd etilgan tadqiqotlar, amalga oshirilgan ishlar "Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi" fani masalalariga doir manbalar sifatida ahamiyatlidir.

Keying yillarda turkologiya sohasida bir qator yangi tadqiqotlar yuzaga keldi. Eng qadimgi sug'd, ko'k turk (o'rxun-enasoy, turkiy run), eski uyg'ur (turk) yozuvlaridagi yodgorliklarni o'rganishga oid izlanishlar olib borilmoqda. Ko'k turk xoqonligi davrida yaratilgan Bug'ut mangutoshi, uning tiklanish tarixi, yodgorlikda saqlanib qolgan sug'dcha bitig talqini, sug'd tilidagi arablar istilosi bilan bog'liq nazariy qarashlar, ko'k turk bitiglari, ko'k turk yozuvining o'ziga xos jihatlari, imlo xususiyatlari, ko'k turk xatida bizgacha yetib kelgan To'nyuquq, O'ngin, Kul tegin, Bilga xoqon, Suji bitiglarining matni talqini, turkiy yozma yodgorliklar asosida rasmiy uslubning yuzaga kelishi, taraqqiyot bosqichlari, hujjat turlari haqida muhim ma'lumotlar qayd etilgan.[1]

Turkiy tillar leksik qatlamini tadqiq etishda o'rxun-enasoy yozma yodgorliklari eng qadimiy obidalardan hisoblanadi. Ammo ayrim turkologlar bu yodgorliklar tilining turkiy tillar uchun "bobo til" sifatida qaralishini ma'qullamaydilar va hozirgi turkiy tillardagi arxaik elementlarning o'rxun-enasoy tosh bitiglarida uchramasligini asos sifatida keltiradilar. Bu yodnomalar tilining umumturkiy til emas, balki shu tilning kichik bo'lagi ekanligini o'rinli ta'kidlaydilar. Darhaqiqat, yozma manbalar davr tili xususiyatlarini imkon qadar to'liq aks ettiradi, ammo yodgorliklar tili davr tilining ayni o'zi emas. Bunda muallifning so'z qo'llash mahorati,

[1] *Is'hoqov M., Sodiqov Q., Omonov Q. Mangu bitiglar.-T., 2009.- B.116.*

fikrini to'liq aks ettira olish qobiliyati, nutqiy imkoniyati ham o'ziga xos o'rin tutadi. O'rxun-enasoy yozma yodgorliklari turkiy tillarning qadimiy xususiyatlarini mukammal aks ettira olmasa-da, turkiy tillarning tarixiy taraqqiyot bosqichiga oid muhim manba sifatida ahamiyatlidir.

Hozirgi kunda turkiy tillarning qadimgi davrini o'rganishga doir tadqiqotlar ham amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, turkiy tillar tarixida aniq yechimini topmagan, hozirgacha hal qilinmagan murakkab va dolzarb masalalar ko'p. Turkiy adabiy tillar tarixini davrlashtirish, o'zaro qiyoslash, umumturkiy taraqqiyot bosqichidan keyingi rivojlanish jarayoni, turkiy tillar dialektlari o'rtasidagi munosabat, o'xshash va farqli jihatlarni tahlil qilish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu muammolarni turkiy adabiy tillar grammatikasini qiyoslash, umumxalq turkiy so'zlashuv tili hamda adabiy kitobiy tilning turli tarixiy davrlardagi uslubi, ichki – intralingvistik omillarning o'rni, tashqi – ekstralingvistik omillar ta'siri, yozuvning ahamiyati va xalqning madaniy taraqqiyot saviyasini nazarda tutgan holda hal qilish maqsadga muvofiq.

Qadimgi turkiy qabilalardan bo'lgan xunlar, xazarlar, bulg'orlar tili hamda chuvash, yoqut tillari aloqadorligi masalalari ham o'z yechimini kutmoqda. Bu masalalarni ijobiy hal qilishda o'rxun-enasoy yozuvidagi bitigtoshlardan oldingi davr manbalaridagi faktik materiallarga ham murojaat etish zarur bo'ladi.

Turkiy tillarning boshqa tillar bilan aloqadorligini o'rganish muammosini hal etish ham ahamiyatlidir. Zotan, turkiy xalqlar qadim zamonlardan beri hind-yevropa, fin-ugor, semmit, mo'g'ul va boshqa xalqlar bilan yondosh holda yashagan va o'zaro munosabatda bo'lgan. Xalqlar o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy aloqalar tilda o'z ifodasini topadi. Tadqiqotlar jarayonida boshqa tillarning turkiy tillarga ta'sirini o'rganish bilan bir qatorda, turkiy tillarning german, roman, slavyan, mo'g'ul, fors-tojik kabi qardosh bo'lmagan tillarga ta'sirini tekshirish, tadqiq qilish, substrat holatlarni aniqlash ham muhimdir.

Turkiy tillarning tarixiy fonetikasi va morfologiyasining umumlashtirilgan tahlili M.Ryasyanen izlanishlarida[2], nazariy masalalari umu-

[2]*Räsänen M. Materialen zur Lautgeschichte der türkischen Sprachen. Studia Orientalia. XV.-Helsinki, 1949; shu muallif. Materialen zur Morfologie der türkischen Sprachen. Studia Orientalia, XXI, 1957.*

miy va farqli xususiyatlari, tarixi A.Emre[3], A.Dilachar[4] va boshqa bir qator turkologlar tadqiqotlarida aks etgan. A. Gafero'g'luning "Turk tili tarixi" kitobida turkiy tillarning shakllanish davridan keyingi taraqqiyot bosqichigacha bo'lgan davr ilmiy izlanishlar tahlili asosida yoritilgan. Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamahshariy, Yusuf Xos Hojib, Xorazmiy, Rabg'uziy asarlaridan namunalar tahlil etilgan.[5]

Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasini o'rganishda umumturkiy taraqqiyot bosqichi, keyingi davrdagi rivoji haqida tasavvurga ega bo'lish lozim. Turkiy tillardan biri bo'lgan o'zbek adabiy tili tarixi quyidagicha davrlashtirilgan:[6]

1. ***Eng qadimgi turkiy til*** (qadimgi davrlardan milodning V asrlariga qadar. Adabiyotlarda eng ko'hna davri *oltoy*, keyingi bosqichi *xun davri*, deb yuritiladi). Bu davrlarga xos yozma manbalar saqlanib qolmagan.

2. ***Qadimgi turkiy adabiy til*** (milodiy VI-X asrlar). Eng qadimgi turkiy yozma yodgorliklar shu davrga oiddir. Turkiy adabiy til tarixi ham shu davrdan boshlanadi. Bu davr o'z ichida quyidagi guruhlarga ajraladi:

a) Ko'k turk tili (Birinchi va Ikkinchi turk xoqonliklari davrida yaratilgan ko'k turk yozuvli o'rxun-enasoy, tuva, talas, farg'ona yodgorliklari tili);

b) Uyg'ur xoqonliklari davrida yaratilgan ko'k turk, uyg'ur, moniy, braxma yozuvlaridagi yodgorliklar tili (hozirgi adabiyotlarda "qadimgi uyg'ur tili" deb yuritilmoqda).

3. ***Eski turkiy adabiy til*** (XI asr—XIV asrning birinchi yarmi). Bu davr o'z ichida quyidagilarga bo'linadi:

a) Qoraxoniylar davri tili – qoraxoniylar davrida yaratilgan yodgorliklar tili;

b) Chig'atoy turkiysi;

d) Eski xorazm turkiysi (Oltin O'rda va Xorazm adabiy muhitida amal qilgan til);

e) Eski qipchoq tili (Misrda arab tilida yozilgan grammatikaga oid manbalar va lug'atlar hamda g'arbiy turk o'lkalarida qipchoqlar yaratgan asarlar tili);

[3] *Emre A.C. Türk lehçelerinin mukayeseli grameri. I.Fonetik. -Istanbul, 1949.*

[4] *Dilaçar A. Türk Diline Genel Bir bakiş.-Ankara, 1964.*

[5] *Caferoğlu A. Türk dili tarihi.I, II. 3-baski. –Istanbul: Enderun kitab evi. 1969.-S.247.*

[6] *Davrlashtirish o'zbek tilshunosligidagi murakkab masalalardan hisoblanib, tarixiy sharoit bilan bevosita bog'liq bo'lgani sababli adabiyotlarda har xil tasniflar keltirilgan. Biz adabiyotlardagi davrlashtirishning umumlashtirilgan ko'rinishi sifatida mazkur tasnifni keltirishni ma'qul topdik.*

f) Eski onado'li turkchasi (XIII–XV asrlarda o'g'uz turklari qo'llagan yozma adabiy til. Keyinchalik uning negizida "usmonli turkchasi" adabiy tili shakllandi).

4. Eski o'zbek adabiy tili (XIV asr ikkinchi yarmi–XX asr boshlari).

5. Hozirgi o'zbek adabiy tili. XX asr boshlaridan hozirga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.[7]

O'zbek adabiy tilining birinchi, ikkinchi, uchinchi bosqichdagi taraqqiyot darajasi turkiy tillarning umumtaraqqiyot davriga xos fonetik-fonologik, leksik-semantik, so'z yasalishi, struktur-grammatik xususiyatlarni aks ettiradi. Har bir turkiy til dastlabki rivojlanish bosqichida umumturkiy xususiyatlarni namoyon etgan. Tarixiy taraqqiyot, qardosh va qardosh bo'lmagan tillar ta'siri natijasidagi farqli jihatlar til taraqqiyotining nisbatan keyingi bosqichlariga xosdir.

Turkiy tillarning umumiy fonetik-fonologik, morfem-morfologik xususiyatlari, grammatik tuzilishi haqidagi asosiy ma'lumotlar V.A.Bogoroditskiy[8], M.Ryasyanen[9], K.G.Menges[10], A.N.Kononov[11], L.S.Levitskaya[12], A.M.Sherbak,[13] B.A.Serebrennikov, N.Z.Gadjiyeva[14], N.A.Baskakov[15] tadqiqotlarida, jamoa tomonidan yaratilgan nashrlarda[16], A.Rafiyev[17], Y.Abdurasulov[18] qo'llanmalarida va boshqa bir qator manbalarda keltirilgan.

[7] *Sodiqov Q. Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi.-T., 2006.- B. 208.*

[8] *Богородицкий В.А. Введение в татарское языкознание.-Казань, 1953.*

[9] *Ryasyanen M. Materialen zur Morphologie der turkishen Sprachen. -Helsinki,1957.*

[10] *Menges K. G., The Turkic Languages and Peoples.-Wiesbaden,1968.*

[11] ***Кононов А.Н.Показатели собирательности-множественности в тюркских языках.-Л.,1969; Он же. Грамматика языка тюркских рунических памятников (VII-IX вв.).-Л.,1980.***

[12] *Левитская Л.С. Историческая морфология чувашского языка. - М.,1976.*

[13] *Щербак А.М. Очерки по сравнительной морфологии тюркских языков (имя, глагол).- Л.,1977,1981.*

[14] *Серебренников Б.А., Гаджиева Н.З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. –М.,1986.*

[15] *Баскаков Н.А. Введение в изучение тюрских языков.-М.,1969; Он же: Историко-типологическая морфология тюркских языков.-М.,1979 ;он же: Алтайская семья языков и ее изучение. -М., 1981.*

[16] *Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. Ч.2.-Морфология.-М.,1956; Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков.-М: Наука,1988. -560 с.*

[17] *Рафиев А. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. -Т., 2004 .*

[18] *Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси.-Т.: Фан, 2009. -259 б.*

Ushbu qo'llanma turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasiga oid mavjud manbalar asosida tuzilgan bo'lib, fan doirasidagi tushunchalarni, fanning muhim masalalarini, hozirgi turkiy tillarning asosiy xususiyatlarini talabaga yetkazish maqsadi qo'yilgan. Qo'llanmada quyidagi transkripsiya belgilaridan foydalanildi:

a –til orqa, keng, qattiq unli
a: –til orqa, cho'ziq unli
ä –til oldi, keng, yumshoq unli
u– til orqa, tor, lablangan,qattiq unli
ü – til oldi, tor, lablangan yumshoq unli
i – til oldi, tor, yumshoq unli
ı –til orqa, o'rta keng, qattiq unli
e –o'rta keng, lablanmagan unli
ö – til oldi, o'rta keng, lablangan unli
o – til orqa, o'rta keng, qattiq, lablangan unli
ğ – jarangli sirg'aluvchi undosh
š – jarangsiz sirg'aluvchi undosh
č – jarangsiz portlovchi undosh

Qolgan tovushlarni ifodalashda lotin yozuvi asosidagi yangi o'zbek alifbosida mavjud harflardan foydalanildi.

1-§. TURKIY TILLAR TARAQQIYOTINING UMUMIY TAVSIFI

Asosiy tushunchalar: *bobo til, til oilasi, oltoy tillari oilasi, til guruhlari, turkiy tillar guruhi, genetik qardoshlik, tillar tasnifi, tasniflash mezonlari, geneologik tasnif, sharqiy turkiy tillar, g'arbiy turkiy tillar,* ***r*** *guruhi,* ***d*** *guruhi,* ***tau*** *guruhi,* ***tag'liq*** *guruhi,* ***tag'li*** *guruhi.*

Hozirgi turkiy tillar taraqqiyoti quyidagi davrlarni o'z ichiga oladi:

1.Turkiy tillar taraqqiyotining Oltoy davri (eradan avvalgi III asrlarga qadar).

2.Qadimgi xun davri (eradan avvalgi III asrlar va yangi eraning V asrlariga qadar).

3. Qadimgi turk davri (V–X asrlar).

4. O'rta turk davri (X–XV asrlar).

5. Yangi turk davri (XV–XX asrlar).

6.Eng yangi turk davri (XX asr).[19]

Oltoy tillari oilasi. Hozirgi tilshunoslik fanida tillar o'rtasida genetik aloqadorlikning yangi qirraralari ochilmoqda. Taxminan 200 til oilasidan 22tasi Yevrosiyoga, 20ga yaqini Afrikaga, qolganlari Amerika, Avstraliya, Yangi Gvineyaga to'g'ri keladi. XIX asr oxirida, asosan, 4 ta til oilasi ajratilgan: turkiy, mo'g'ul, tungus-manchjur, koreys tillari. XX asrda mazkur tillarning qardosh ekanligi ta'kidlandi va umumlashtirilib *oltoy tillar oilasi* deb nomlandi. Bu kabi an'anaviy til oilalaridan kengroq bo'lgan, bir-biriga qardoshligi to'la asoslanmagan til oilalarini "makrotiloilalari" deb nomlash taklif qilingan. V.M.Ilyich-Svitich tadqiqotlarida aks etgan nostratik gipoteza (lotin tilida *noster* "bizniki" ma'nosini beradi) til oilalarini yanada kengroq doiradagi genetik asosga birlashtirishni nazarda tutadi. Nostratik makrotiloilasiga hind-yevropa, ural, oltoy, kartvel, dravid tillari kiritilgan. Bu tillar o'rtasidagi o'xshashlik, asosan, olmoshlarda kuzatiladi:

tatap. *мин,* mord. *мон*, "men"; zansk. *minens*, rus. *мне*;

mar. *тый,* mo'g'. *ci* (>^{x} ti), rus. *ты*;

udm. *ми* , teleut *мету*, xaysa *ти*, rus. *мы*;

komi *майо*, mo'g'. *tere*, rus. *том*;

o'zb. *ким,* fin. *кеп*, somali *кита* "kim".

O'zaro o'xshashlik bir qator leksik asoslarda ham kuzatiladi:

turkiy *qulaq*, gruz. *quri* "quloq", fin. *kuule*, yun. *klyo* "eshitmoq";

turkiy *qaryn* "qorin", arab. *qurb*, tamil *karuppai*, lat. *corpus* "tana";

mo'g'. *moren* "daryo", tamil *marai* "yomg'ir", rus *море* ;

turkiy *tuman*, rus. *темный*;

turkiy *kelin,* lat.*glos*, rus *золовка,* fin. *kaly* "ukaning xotini";

turkiy *qara*, teleut *kari*.

Nostratik gipoteza muayyan faktik materiallarga ega bo'lsa-da, hali ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan emas.

Oltoy tillari o'rtasida ko'plab o'xshashliklar kuzatiladi. Masalan,

turkiy – *qol*, xalxa – *гол* (geografik nom), manchj. *dolo*, kor. *кол* "vodiy";

turkiy *baj*, mo'g'. *bajan,* tung.-manchj. *bajan* "boy";

turkiy *bek, beki*, tung.-manchj. *beki* "berk";

---

[19] *Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. - Т.: Фан, 2009. -Б.13*

turkiy *san* "sana", mo'g'. *sana-* "bilmoq", tung.-manchj. *sa-* "bilmoq"; mo'g'. *moren* "daryo", evenk. *му* , kor. *мул* "suv";

mo'g'. *modun*, tung-manchj. *mo* "daraxt". kor. *мой* "o'rmon, tog'".

O'zbek tilidagi *мен* mo'g'ul tilidagi *minu* "menga", evenk tilidagi *минду* "menga" so'zlariga mos keladi. O'rin-payt kelishigi turkiy tillarda *-da*, mo'g'ul tilida *-da*, tungus-manchjur tilida *-de*.[20]

Turk, mo'g'ul, tungus-manchjur, koreys tillarida aksariyat o'rinlarda fonetik moslik kuzatiladi.

Oltoy oilasidagi tillarning o'xshashligi, ayniqsa, so'z yasalishi tizimida yaqqol namoyon bo'ladi.

Til oilalarini o'rganish tilshunoslarning dastlabki e'tiborida bo'lgan. Jumladan, oltoy tillari oilasiga kiruvchi tillar xususida tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, N.A. Baskakovning "Алтайская семья языков и ее изучение"; V.Kotvichning "Исследование алтайских языков", N.P. Direnkovaning "Грамматика алтайского языка" kabi izlanishlari shular jumlasidandir.

Bir qator turkologlar tadqiqotlarida oltoy tillarining genetik jihatdan qarindosh ekanligi asoslangan. J.Deni "Dunyo tillari" kitobida turkiy, mo'g'ul, tungus-manchjur guruhiga kiruvchi tillarning quyidagi umumiy belgilarini ko'rsatadi:

1. Fonetik sathda: unlilar uyg'unligi, so'z boshida sonor tovushlarning ishlatilmasligi, so'zda undosh tovushlarning yonma-yon kelmasligi, so'z oxiridagi n tovushining beqarorligi;

2. Morfologik sathda: grammatik rodning yo'qligi, o'zakning mustaqil ma'no anglatishi, agglyutinativ xususiyatga egaligi; suffiksal xarakterdaligi, ya'ni prefikslarning yo'qligi, predloglar o'rnida ko'makchilarning qo'llanishi, grammatik son – birlik va ko'plikning mavjudligi.

3. Sintaktik sathda: gapning muayyan qurilishga egaligi, son bilan ifodalangan aniqlovchilarda sonda moslashuvning uchramasligi, so'roq ma'nosining ifodalanishida yuklamalarning qatnashishi, aniqlovchi vazifasida keluvchi sifat, son, olmoshlarning aniqlanmishga muvofiq o'zgarmasligi va h.k.

4. Leksik sathda: lug'at tarkibida umumiy qatlamning mavjudligi, bir bo'g'inli so'zlarda mushtaraklikning yaqqol sezilishi, siyosiy-ijtimoiy muhit ta'sirida hukmron til leksikasining o'zlashganligi va shu kabilar.

---

[20] *Шайкевич А.Я., Абдуазизов А.А., Гурджиева Е.А. Введение в языкознание.- Т.:Ўқитувчи, 1989.-С.228.*

Oltoy tillariga mansub bo'lgan turk, mo'g'ul, tungus-manchjur va koreys tillarining genetik aloqalarini o'rganish davom etmoqda. Bu borada tadqiqotlar yaratilmoqda.[21]

Turkologiya sohasidagi ilk tadqiqotchilardan biri Filipp fon Stralenbergdir. U o'n uch yil davomida Sibirdagi qavmlarning ijtimoiy hayoti va tillariga doir "Tatar tillari" nomli asar yaratdi. Bu asari bilan Ural-oltoy maktabiga asos soldi. Stralenberg turkiy qavmlarni "Kichik Tatariston" va "Katta Tatariston" kabi nomlar ostida ikki hududiy guruhga ajratgan. Asarga ilova qilingan "Poliglotta tabulasi" jadvalida qalmiq, tatar tillariga oid so'zlar bilan bir qatorda mo'g'ul, tungus so'zlari ham keltirilgan. "Tabula" o'ttiz ikki "Tatar" (bu ta'bir Stralenbergniki) sheva va lahjalari haqida bahs yuritadi. Bu jadvalda har lahja va shevaga doir hisob raqamlari bilan bir qatorda "teŋri", "gök" kabi o'ttiz beshta turkiy so'z ham berilgan.

"Tabula"da qayd etilgan o'ttiz ikki til, dastavval, olti guruhga ajratilgan:

1. Fin-ugor (muallif izohiga ko'ra "uyg'ur"): majar, fin, vogul, cheremis, permyak, votyak, ostyak.
2. Turk-tatar: tatar, yoqut, chuvash.
3. Samodiy.
4. Mo'g'ul-manchjur: qalmiq, manchjur, tangut.
5. Tungus: tungus, kamasin, arin, koryak, kuril.
6. Qoradengiz va Xazar dengizi o'rtasidagi xalqlar tili.

Stralenberg asarida turkiy xalqlar: chuvash, tatar, boshqird, yoqut, turkman, qoraqalpoq, baraba va xon turklari tillari haqida fikr bildirilgan. Stralenberg yaratgan Ural-Oltoy nazariyasi XIX asr boshlariga qadar bu sohadagi yagona manbalardan biri bo'lib keldi[22].

Olimlar oltoy tillarini o'rganar ekanlar, birinchi navbatda, ularning tasnifi masalasini hal qilishga kirishdilar. Ko'plab olimlar tasnifida, xususan, V.Shotta va N. Baskakov ishlarida oltoy tili uch guruhga bo'linadi:

1. **Turkiy tillar guruhi.** Bu guruhga o'ttizdan ortiq tillarni kiritish mumkin. Shuning uchun ham N.A. Baskakov turkiy tillar oltoy oilasining katta qismini tashkil qilishini ta'kidlagan.

[21] *Усманова Ш. Олтой тилларида муштарак маиший лексика. Филол. фан. д.-ри... дисс.-я.-Т., 2011.-324 б.; shu muallif. Олтой тилларида муштарак маиший лексика.-Т.:Фан, 2010.*

[22] *Stralenberg D.Messershmidt bilan birgalikda Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajarayi tarokima" asarini ham fanga ma'lum qildi. Qarang: Caferoğlu A. Türk dili tarihi.I, II. 3-baski. -Istanbul Enderun kitabevi. 1969. -S.11.*

2. **Mo'g'ul tillari guruhi.** Bu guruhga *qalmiq, xalxa, buryat, mo'g'ul, dunsyan* kabi tillar kiradi.

3. Tungus-manchjur tillari. Bu guruh boshqalarga qaraganda kichikroq bo'lib, *evenk, nigedal, xumari, solon, nanay, manchjur, sibin, jurjen* tillarini o'z ichiga oladi.

Turkiy tillar. Turkiy xalqlar ijtimoiy turmush taqozosi tufayli ko'p hollarda ko'chmanchilik bilan kun kechirgan. Ko'chmanchi qabila va o'troq xalqlarning aralash holda hayot kechirishi aniq lingvistik chegarani aniqlashga monelik qiladi.

Turkiy qabilalarning dastlabki maskani Janubiy Sibir va Shimoliy Mo'g'uliston (Oltoydan Amurgacha) hududlariga to'g'ri kelgan. Eramizdan avvalgi 206-yilda turkiy qabila (xun)larning birinchi zafarli yurishi boshlandi. Miloddan avvalgi I asrda xunlar ittifoqi ikkiga bo'lindi: biri Mo'g'uliston cho'llarida qoldi; ikkinchisi Sharqiy Qozog'iston tomon siljidi. Shu davrdan turkiy qabilalarning g'arbga yurishi boshlandi. Eramizning IV asrida turkiy qabilalar alan (skif, ostgot–sharqiy got), daklarni mag'lubiyatga uchratib, ularni o'zlariga qo'shib oldi va Dunayga chiqdi. Ushbu yurishning eng rivojlangan davri V asr o'rtalaridagi Attila hukmdorligiga to'g'ri keladi. II – VI asrlarda Yevropaga kelgan turkiylardan yozma yodgorliklar saqlanib qolmagan.

Keyinchalik turkiy dialektlar bulg'or guruhiga birlashdi. Eramizning V asrida turkiylar yanada kuchli, xitoy manbalarida *tyukyu* deb nomlangan ittifoqni tashkil qildilar. Bu davrdan o'rxun-enasoy yozuvida bitilgan qoyatosh yozuvlari, qabrtoshlar, kumush va sopol idishlardagi bitiglar yetib kelgan.

VII asr oxirlarida Bolqon bo'ylaridagi slavyanlarni mag'lubiyatga uchratgan bulg'orlar turkiylar hisoblanadi. Bulg'or guruhiga kiruvchi chuvash tili boshqa turkiy tillardan keskin farqlanadi va bu til, hatto, qo'shni tatarlarga ham mutlaqo tushunarsiz. Bu holat chuvash tilining qadimiy xususiyatlarni saqlab qolganligi bilan izohlanadi.

Chorvador turkiy qabilalar, dastlab, Mo'g'uliston va Yuqori Enasoy daryosi bo'ylarida turkiy tillarning ijtimoiy-siyosiy guruhini tashkil qilgan. Tuva tili shu guruhga mansub bo'lib, mo'g'ul tilining kuchli ta'siriga uchragan. Tofalar (karagas) tili ham shu guruhga mansub bo'lgan. Tuvadan shimoliy g'arb tomongacha bo'lgan hududda yashagan qizil, qavchin, sagay kabi turkiy qabilalardan xakas xalqi va xakas tili

shakllandi. Xakasiyada shor tili, Polsk viloyati sharqida – chulim tili, Sharqiy Sayanda kamasin tili yuzaga keldi.

Shimoli-sharqiy turkiy tillar guruhidan yoqut tili ajralib chiqqan. Yoqut tili shevalaridan dolgan tili rivojlandi. Yettisuv va Shinjon bo'ylaridagi o'troq aholidan janubi-sharqiy (qarluq) guruhi paydo bo'ldi. X asrda markazi Bolosog'un bo'lgan qoraxoniylar davlati yuzaga keldi. Qoraxoniylar poytaxti Koshg'arga ko'chirildi.

Sharqiy Turkistonda hukmdorlik uyg'urlarga o'tgach, ko'pgina qabilalar Orol dengizi tomon siljidilar va o'g'uz qabilalari ittifoqini tashkil etdilar (VIII asrlar). Buning oqibatida janubi-g'arbiy dialekt (o'g'uz dialekti) shakllandi.

Shimoli-g'arbiy Erondagi saljuqiylar mahalliy fors aholisi tili bilan moslashgan holda ozarbayjon tilining shakllanishiga zamin yaratdilar. Turk tili XIX asrdan boshlab adabiy til sifatida shakllandi.

O'rta Osiyoda qolgan o'g'uzlar tili turkman tilining shakllanishiga asos bo'ldi. Janubi-g'arbiy turkiy tillar guruhiga gagauz tili ham kiradi.

Quman (polovets) tilining davomi sifatida qumiq tili yuzaga keldi (Dog'iston shimolida), qorachoy-balqar, qrim-tatar, qaraim tillari shakllandi.

XIX asr ikkinchi yarmida tatar adabiy tili me'yorlari ishlab chiqildi. O'tgan asrnirng 30-yillarida tatar tiliga yaqin bo'lgan boshqird adabiy tili yuzaga keldi.

No'g'ay va qozoq dialektlari ta'sirida no'g'ay, qoraqalpoq, qozoq tillari shakllandi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili janubi-sharqiy (qarluq) guruhi negizida yuzaga keldi. Qipchoq dialektlari eng qadimiy bo'lib, ularda singarmonizm, 8 fonemali unlilar tizimi saqlanib qolgan. Aksincha, qarluq dialektlari asosida shakllangan o'zbek adabiy tili tovush tizimi eroniy tillar ta'sirida muayyan o'zgarishlarga uchradi, unli fonemalar soni qisqarib, 6 taga tushib qoldi.

Keyingi davrlarga kelib mo'g'ul guruhidagi turkiy tillar – uyrot, qalmiq, buryat tillari shakllandi. Amur bo'ylarida tungus-manchjur guruhiga mansub nanay, ulch, udegey tillari yuzaga keldi.

Sibir guruhiga evenk (tungus) tili taalluqlidir. Ural tillari oilasi finugor va samodiy tillaridan iborat.[23]

[23] *Шайкевич А.Я., Абдуазизов А.А., Гурджиева Е.А. Введение в языкознание.-*

Turkiy tillarni ilk bor tasnif qilgan olim Mahmud Koshg'ariydir. Turkiy tillar grammatikasiga oid ilk manba Koshg'ariyning "Kitabu jevahir-ul nahv fi-lug'ati't-turk" asaridir. Uning "Devonu lug'otit turk" asari ham bu jihatdan ahamiyatli.[24] Asar ikki qismdan tashkil topgan: 1) muqaddima; 2) lug'at. Muqaddima qismida turkiy tillarning mavqeyi, lug'atning oldiga qo'yilgan vazifalar, asar mundarijasi, turkiy tillarda so'z tuzilishi va yasalishi, turkiy qabilalar va turkiy tillarning o'ziga xos xusisiyatlari yoritilgan. "Devon"ning lug'at qismi sakkiz bo'limdan iborat: 1.Hamzali so'zlar bo'limi (boshida *alif, vov, yoy* harflari keladigan so'zlar). 2.Solim (tarkibida *alif, vov, yoy* harflari keladigan so'zlar) bo'limi. 3.Muzoaf bo'limi (tarkibida bir harfi takrorlangan so'zlar). 4. Misol (boshida, o'rtasida yoki oxirida *alif, vov, yoy* harflaridan biri kelgan so'zlar) bo'limi. 5.Uch harfli so'zlar bo'limi. 6.To'rt harfli so'zlar bo'limi. 7.G'unnalilar (tarkibida burun tovishlari keladigan so'zlar) bo'limi. 8.Tarkibida ikki undosh qator kelgan so'zlar bo'limi.

Mahmud Koshg'ariy turkiy tillar qurilishini tasvirlashda qiyosiy metoddan foydalangan. Yigirmaga yaqin qabila tillaridagi leksik birliklarni misollar asosida izohlagan. So'zning lug'aviy ma'nosi, qaysi qabila tilida ko'proq uchrashi, fonetik tuzilishi borasida muhim ma'lumotlar keltirgan. U turkiy tillarning leksik, morfologik va fonetik xususiyatlarini bir-biriga qiyoslab, o'xshash va farqli jihatlarini ko'rsatdi. Lug'atda turkiy tillar leksikasiga mansub 7500 atrofidagi so'z izohlangan.

Koshg'ariy XI asrda yashagan turkiy xalqlarning tillarini ikki qismga ajratadi:

1.Sharqiy turkiylar tili. 2.G'arbiy turkiylar tili. Birinchi guruhga Bolosog'un, Koshg'ar atrofida yashaydigan xalqlarning tillarini kiritdi. Bular *chigil, qarluq, uyg'ur, tuxsi, yag'mo* kabi xalq va qabilalar tillaridan iborat edi. Qolgan tillarni ikkinchi guruhga kiritdi.

Mahmud Koshg'ariy qabilalar hayoti va tilini tarixiy asosda yoritdi. Keyingi davrlarda mavqeyi nisbatan pasaygan qarluqlar, tangutlar, basmil va boshqa qabilalar tili ham devonda keng izohlangan. Asarda keltirilgan qabilalar leksikasi haqidagi ma'lumotlar tarixiy jihatdan muhim ahamiyatga egadir. Mahmud Koshg'ariy ayrim shevalargagina

---

T.: Ўқитувчи, 1989.-С.228.

[24] Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг киёсий-тарихий грамматикаси.-Т.: Фан, 2009. -Б.8

xos bo'lgan til hodisalarini ham, ko'pchilik qabilalarning umumlashgan til xususiyatlarini ham izchil ravishda yoritdi. Bu ma'lumotlar O'rta Osiyo xalqlari tillarining, jumladan, o'zbek tilining shakllanishida asos bo'lgan qabilalarni aniqlashda muhim material bo'lib xizmat qiladi.

"Devon"da qabilalar tilida so'z yasalishi masalasi ham yoritildi. Mahmud Koshga'ariy til faktlari asosida qabilalarning bir-biriga bo'lgan munosabatini ko'rsatdi, qabilalarning bir-birlari bilan qo'shilishi natijasida yuzaga kelgan boshlang'ich xalq tili namunalarini o'sha davrdagi iqtisodiy, ijtimoiy sharoitlar asosida yoritib berdi. O'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, uyg'urlar, tatar va boshqa xalqlarning qadimgi sodda tillari namunalarini mukammal izohladi. Bu xalqlar devon materiallari asosida o'zlarining tillari qaysi qabila tili asosida shakllanganini aniqlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Mahmud Koshg'ariy o'z davriga xos til xaritasini ham yaratdi.[25]

Mahmud Zamahshariyning "Muqaddimat ul-adab", Abu Hayyonning "Ad-durrat -ul mudi'ye fi-l-lug'atit-turkiy", "Kitob ul-idrok li-lison ul-atrok", Faxriddin Muhammad ibn Mustafoning "Qavoyid ul-lisani turk", Jamoliddin Ibn Muxannaning "Xiliat ul-inson va xalibat ul-lison", Jamoliddin at-Turkiyning "Kitobi ul-lug'ot al-mushtoq fi-l-lug'ati at-turk val-qipchoq", muallifi noma'lum "Kitob-i-majmu-u-tarjimon turki va ajamiy va mo'g'uliy", "Kitob-at-tuhfat-uz-zakiyatu fi-l-lug'at-it-turkiy" asarlarida ham turkiy tillar grammatikasi, leksikasiga doir ma'lumotlar berilgan.

XV asr olamida ulug' mutafakkir shoir, madaniyat va davlat arbobi Alisher Navoiyning mashaqqatli mehnati, izlanishlari hamda Husayn Boyqaroning homiyligi tufayli turkiy tillar orasida o'zbek tilining mavqeyi ko'tarilgan edi. Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida turkiy tilning keng imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslab berdi.

Turkiy tillar tasnifi bir qator mezonlarga asosan amalga oshirilgan.

N.A.Baskakov turkiy bobo tilni ikki guruhga ajratgan: **g'arbiy turkiy tillar**: *bulg'or, o'g'uz, qipchoq, quman, saljuqiy, usmonli turk, turkman, chuvash, gagauz, ozarbayjon, qaraim, qumiq* tillari; **sharqiy turkiy tillar:** *o'rxun-enasoy, qadimgi uyg'ur, uyg'ur, qarluq, tatar, boshqird, qozoq, no'g'ay, qoraqalpoq, o'zbek, qirg'iz, oltoy, tuva, xakas, shor, yoqut* tillari.[26] Har bir guruh o'z ichida yana kichik guruhlarga ajratilgan:

[25] *Koshg'ariy Mahmud. Devonu lug'otit turk. I-III.-T., 1960-1963*

[26] *Баскаков Н.А. Тюркские языки. -М., 1960.*

I. ***G'arbiy xun tarmog'i*** (g'arbiy hudud).

1. **Bulg'or guruhi** (shimoli-g'arbiy areal):

a) qadimgi tillar – *bulg'or, xazar, avar, sabir (suvarlar) tili*; b) hozirgi tillar – *chuvash tili*.

2. **O'g'uz guruhi** (janubi-g'arbiy areal):

1) og'uz-turkman guruhi: a) qadimgi tillar – *X–XI asrlardagi o'g'uzlar tili*; b) hozirgi tillar – *turkman tili, truxman dialekti*);

2) o'g'uz-bulg'or guruhi: a) qadimgi tillar – *pecheneglar, uzlar (qora klobuklar) tili*; b) hozirgi tillar – *gagauz tili, bolqon turklari tili va dialekti*;

3) o'g'uz-saljuq guruhi; a) qadimgi tillar – *saljuqiylar, eski usmon tillari*;

b) hozirgi tillar – *ozarbayjon, turk tillari*.

3.**Qipchoq guruhi** (shimoli-sharqiy areal):

1) qipchoq-palovets guruhi:

a) qadimgi tillar – *polovets tillari (qipchoq yoki kumanlar tili)*;

b) hozirgi tillar – *qaraim, qumiq, qorachoy-balqar, qrim-tatar tillari*;

2) qipchoq-bulg'or guruhi: a) qadimgi tillar – *g'arbiy oltino'rda tili*; b) hozirgi tillar – *tatar, boshqird tillari*;

3) qipchoq-no'g'ay guruhi: a) qadimgi tillar – *eski qozoq, eski qoraqalpoq tillari*; b) hozirgi tillar – *no'g'ay, qoraqalpoq, qozoq tillari*.

4. **Qarluq guruhi** (janubi-sharqiy areal):

1) qarluq-uyg'ur guruhi: qadimgi tillar – *qoraxoniy uyg'ur va qoraxoniylar davridan keyingi tillar*;

2) qarluq-xorazm guruhi: a) qadimgi tillar – *qarluq-xorazm, sharqiy oltin o'rda, chig'atoy, eski o'zbek, eski uyg'ur tillari*; b) hozirgi tillar – *o'zbek va uyg'ur tillari*.

II. ***Sharqiy xun tarmog'i*** (sharqiy hudud).

1.**Uyg'ur-o'g'uz guruhi** (shimoliy areal):

1) uyg'ur-tukyu guruhi: a) qadimgi tillar – *qadimgi o'g'uz, qadimgi uyg'ur tillari*; b) hozirgi tillar – *tuva tili, tofalar dialekti*;

2) yoqut guruhi: *hozirgi yoqut tili*;

3) xakas guruhi: hozirgi tillar – *xakas, shor, chulim tillari, kamasin dialekti*.

2. **Qirg'iz-qipchoq guruhi**: a) qadimgi til – *qadimgi qirg'iz tili*; b) hozirgi tillar – *qirg'iz, oltoy tillari*.[27]

[27] *Баскаков Н.А. Историко-типологическая фонология тюркских языков. М.: Наука, 1988.-С.111-112*

Namangan davlat universiteti inv: № 222855/1

V.V Radlov turkiy tillarni geografik o'rniga ko'ra to'rt guruhga bo'lgan:

1. Sharqiy guruh: *oltoy, chulum turklari, karagas, xakas, shor, tuva va enasoy turklari tillari.*

2. G'arbiy guruh: *Sibir tatarlari, qirg'iz, qozoq, boshqird, tatar, qoraqalpoq tillari.*

3. O'rta Osiyo guruhi: *uyg'ur va o'zbek tillari.*

4. Janubiy guruh: *turkman, ozar, turk tillari.*

Bu tasnifga ko'ra *yoqut tili* alohida guruhni tashkil etadi.

F.Korsh, I.Bensig, K.Menges, V.A.Bogoroditskiy, G.Ramstedtlar ham turkiy tillarni geografik joylashish o'rniga ko'ra tasniflagan.

A.Samoylovich turkiy tillarni fonetik xususiyatlariga ko'ra tasnif qilgan:

1.**R** guruhi: *bulg'or, chuvash tillari.*

2.**D** guruhi: *uyg'ur, shimoli-sharqiy turkiy tillar.*

3.**Tau** guruhi: *oltoy, qirg'iz, qumuq, qorachoy-balqar, qaraim, tatar, boshqird, qozoq, no'g'ay tillari.*

4. **Tag'liq** guruhi: *eski o'zbek tili , hozirgi uyg'ur va hozirgi o'zbek tili.*

5. **Tag'li** guruhi: *Xorazm o'zbeklari, turkman-qipchoq tillari.*

6. **O'l (bo'l-o'l)** guruhi: *janubi-g'arbiy turkiy tillar (ozar, turk, gagauz tillari).*

A.Samoylovich turkiy tillarning fonetik tasnifini quyidagicha umumlashtirgan:

<table>
<tr><td>1</td><td>"Taxar" guruhi</td><td colspan="4">"Toquz (toquz va boshqalar)" guruhlari</td></tr>
<tr><td>2</td><td>"Ura" guruhi</td><td>"Adaq" guruhi</td><td colspan="3">"Ayaq" guruhlari</td></tr>
<tr><td>3</td><td colspan="4">"Bol (pol, pul, bul)" guruhlari</td><td>"O'l" guruhi</td></tr>
<tr><td>4</td><td>"Tau (Tu)" guruhi</td><td>"Ta g' " guruhi</td><td>"Tau" guruhi</td><td colspan="2">"Tag' (dag)" guruhlari</td></tr>
<tr><td>5</td><td>"I" guruhi</td><td>"Ig" guruhi</td><td>"I" guruhi</td><td>"Ik (ig)" guruhi</td><td>"I" guruh</td></tr>
</table>

6	"Kalan (yulna)"	"Kalg'an" guruhi				"Qalan" guruhi
	I "R" guruhi Bulg'archa (b.IX)	II "D" guruhi Uyg'urcha (Kuzeydoğu) (b.V)	III "Tau" guruhi Kıpçakça (Kuzeybatı) (b.VI)	IV "Tag'lık" guruhi Çağatayca (Güneydoğu) (b.VII)	V "Tag'lı" guruhi Kıpçak-türkmen (b.VIII)	VI "O'l" guruhi Türkmen (Güney-batı) (b.IV)

A.Samoylovich tasnifida turkiy tillarning fonetik jihatdan o'zaro farqlanishi ham ko'zga tashlanadi.[28]

Tabbert-Stralenbergni Paltava guberniyasi va Sibirda yashagan turkiy qabilalar tilidagi yaqinlik qiziqtirgan bo'lsa, 1733-1743-yillarda tarixchi va etnograf olim G.F.Myuller Sibirda yashaydigan elatlarning til xususiyatlari haqida boy material to'pladi, "Tatar tili va boshqa Sibir dialektal so'zlari to'plami" nomli lug'atini tuzdi. Mazkur lug'atdan boshqird, chulim tatarlari, teleut, shor tillari, Abakandagi xakas, Sibirdagi buxoroliklar va yoqut tiliga mansub so'zlar o'rin olgan. Lug'atda yuzdan ortiq turkiy so'zlarning qiyosiy jadvali berilgan. Masalan, *qor* so'zining 12 turkiy tildagi varianti keltirilgan: qangli. *buran*, boshq. *kar*, tuv. *kar*, tobol. *kar*; chat. *kar*; tomck. *kar*, teleut. *kar*, kuznetsk. *kar*, xakas. *xar*, buxor. *qar*; yoq. *čarr*.

1868-1877-yillarda Sankt-Peterburgda L.Budagovning ikki jildlik "Turk lahjalari qiyosiy lug'ati" nashr etildi.[29]

V.V. Radlov 1859-yildan boshlab turkiy til va lahjalarni o'rganishga kirishdi va to'rt jild, sakkiz qismdan lug'at nashr qildirdi.[30]

Turkiy tillarning nisbatan mukammal qiyosiy grammatikasi, asosan, XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya fanlar akademiyasi hamda Sankt-Peterburg tilshunoslik instituti olimlari tomonidan yaratildi. Mahmud Koshg'ariy, N.A.

---

[28] *Samoylovich A. Türkdillerininsiniflandirilmasinadairbazieklemeler (А.Самойловичнинг 1922 йилда Петроградда нашр этилган «Некоторые дополнения к классификации тюркских языков» номли мақоласини проф. др. Меҳман Муса ўғли таржима килган) // Dil araştirmalari. Uluslararasi hakemli dergi.-Ankara. 2007.-S.184.*

[29] *Будагов Л.З. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. Том I.- СПб.1869, 1960. -820 с.; Том II. СПб. 1871.- 417 с.*

[30] *Будагов Л.З. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. Том I.- СПб.1869 1960. -820 с.; Том II. СПб. 1871 - 417 с.*

Baskakov, B.A. Serebrennikov, N.Z. Gadjiyeva, A.M. Sherbak, E.R. Tenishev, L.S.Levitskaya, L.A.Pokrovskaya kabi olimlarning izlanishlari natijasida turkiy tillarning mukammal qiyosiy-tarixiy grammatikasi shakllandi.

Hozirgi turkiy tillarning tarqalish doirasini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. O'zbek tili. Bu til O'zbekiston Respublikasining (poytaxti – Toshkent) davlat tili bo'lib, bu tilda 21 milliondan ortiq kishi (O'zbekiston, Afg'oniston, Pokiston, Tojikiston) so'zlashadi.

2. Turk (usmonli turk) tili. Bu til Turkiyaning (poytaxti – Anqara) davlat tili bo'lib, unda 72 milliondan ortiq kishi (Turkiya, Kipr, Iroq, Suriya, Yunoniston, Bolgariya) so'zlashadi.

3. Turkman tili. Bu til Turkmaniston Respublikasining (poytaxti – Ashxobod) davlat tili bo'lib, bu tilda 4 milliondan ortiq kishi (Turkmaniston, Afg'oniston, Xuroson, Pokiston) so'zlashadi.

4. Ozarbayjon tili. Bu tilda so'zlashuvchi aholining soni 31 milliondan oshadi (Ozarbayjon, Gruziya, Eron). Bulardan 20 milliondan ko'prog'i Eronda, 10 milliondan ziyodi esa Ozarbayjonda yashaydi. Bu til Ozarbayjon Respublikasining (poytaxti – Boku) davlat tilidir.

5. Qozoq tili. Bu til Qozog'iston Respublikasining (poytaxti – Astana) davlat tili bo'lib, unda 11 millionga yaqin kishi (Qozog'iston, Xitoy) so'zlashadi.

6. Qirg'iz tili. Bu til Qirg'iziston Respublikasining (poytaxti Bishkek) davlat tili bo'lib, bu tilda 3,3 milliondan ortiq kishi so'zlashadi (Qirg'iziston, Xitoy).

7. Tatar (Qozon tatarlari) tili. Bu til Tatariston Respublikasining asosiy davlat tili bo'lib, bu tilda so'zlashuvchilar 7,5 milliondan ortiqdir (Tatariston-Rossiya, Qrim-Ukraina).

8. Uyg'ur tili. Bu tilda so'zlashuvchilar 17 milliondan ortiqroq bo'lib (Xitoy, Qozog'iston, Rossiya), ular, asosan, Xitoy Xalq Respublikasining Shinjon-uyg'ur avtonom hududida yashaydilar.

9. Chuvash tili. Mazkur til Chuvash Respublikasida yashovchi xalq tili bo'lib, unda 2 milliondan ko'proq kishi gaplashadi.

10. Boshqird tili. Ushbu til Boshqirdiston Respublikasida yashovchi asosiy xalqning tili bo'lib, unda 2,5 millionga yaqin kishi so'zlashadi.

11. Qoraqalpoq tili. Qoraqalpog'istonda yashovchi xalqlar tili bo'lib, bu tilda 600 mingdan ortiq kishi so'zlashadi.

12. Yoqut (Saxa) tili. Bu til Yoqutiston Respublikasida yashovchi xalqning tili bo'lib, 400 mingdan ko'p kishi so'zlashadi.

13. Qorachoy tili. 400 ming kishi so'zlashadi (Kavkaz – Rossiya).

14. Tuva tili. Tuva Respublikasida yashovchi asosiy xalqning tili bo'lib, bu tilda 300 mingdan ko'proq kishi muloqotga kirishadi (Tuva – Rossiya, Mo'g'uliston).

15. No'g'ay tili. 300 ming kishi so'zlashadi (Kavkaz – Rossiya)

16. Qumiq tili. 283 ming kishi so'zlashadi (Kavkaz – Rossiya).

17. Gagauz tili. 247 ming kishi muloqot qiladi (Moldaviya, Ruminiya, Bolgariya)

18. Balqar tili. 200 ming kishi so'zlashadi (Kavkaz – Rossiya).

19. Oltoy (uyrot) tili. 180 ming kishi so'zlashadi (Oltoy o'lkasi – Rossiya).

20. Xakas tili. 150 ming kishi gaplashadi (Xakasiya – Rossiya, Kanzu viloyati –Xitoy).

21. Xalach tili. 30 000 ming kishi so'zlashadi (Eron).

22. Qaraim tili. 10 000 kishi so'zlashadi (Litva, Ukraina, Polsha, Qrim).[31]

Bulardan tashqari shor, karagas (tofalar) tillari ham turkiy tillarga mansubdir.

O'rxun, pechena, qipchoq, qadimgi uyg'ur, bulg'or va xazar kabi turkiy tillar o'lik tilga aylangan.

Ba'zi adabiyotlarda turkiy xalqlar miqdori 42ta deb ko'rsatiladi: o'zbeklar, turklar, bolqon turklari, gagauz turklari, Karay turklari, Qrim turklari, chulim turklari, Kumandi turklari, Kandak turklari, karagas turklari, Uranxay turklari, Iroq turklari, Suriya turklari, Kipr turklari, Stavropol turklari, Saxa (yoqut) turklari, oltoy turklari, tuva turklari, Dog'iston turklari, mesxeti turklari, Yevropadagi turklar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, uyg'urlar, sariq uyg'urlar va salarlar, tatarlar, chuvashlar, boshqirdlar, qrimlar, ozarbayjonlar, qumiqlar, qorachoylar, balqarlar, no'g'aylar, xakaslar, Tobol tatarlari, barabalar, shorlar, kashgaylar, Hamza turkmanlari tillari.

Turkiy tillda so'zlashuvchi xalqlar Afg'oniston, Eron, Yugoslaviya, Albaniya, Gretsiya (Yunoniston) va boshqa mamlakatlarda ham yashaydi.

---

[31] *Boz Erdoğan, Yaman Ertuğrul. Universiteler için turk dili (yazılı ve sözlu anlatım) - Ankara, Savaş yayinevi, 2011.-S.73-74.*

Turkiy tillarda so'zlashuvchi yana shunday elatlar mavjudki, ularda ona tilidan, asosan, maishiy hayotda foydalaniladi, bu tillarning ijtimoiy vazifasi juda chegaralangan. Ular o'zlarining rasmiy yozuvlariga ega emas. Zarurat tug'ilganda, eski alifbodan foydalanadilar. Bunga qaraim, shor, chulim tillari kiradi. Ushbu tillar bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Turkiy tillarga mansub o'zbek tili *turkiy, sart, chig'atoy* terminlari bilan nomlanib kelgan.

Savol va topshiriqlar

1.Til oilasi va til guruhlarini farqlang. *Oltoy tili, qadimgi til, bobo til* tushunchalari haqida ma'lumot bering. Oltoy tillari oilasi, oltoy tili xususiyatlari yoritilgan adabiyotlarni o'rganing.

2. Mahmud Koshg'ariy tasnifining asosiy xususiyatlarini ayting.

3. N.A.Baskakov tasnifidagi eng muhim xususiyatlarni ajrating.

4. V.V.Radlov tasnifini izohlang.

5. A.Samoylovich tasnifini misollar asosida yoriting.

Test sinovi

1.Oltoy tillarining dastlabki tasnifi kim tomonidan amalga oshirilgan?

A) A.Samoylovich C) F.Stralinberg

B) V.Radlov D) N.Baskakov

2.Turkiy tillar morfologik xususiyatlariga ko'ra qaysi guruhga mansub?

A) flektiv tillar guruhiga C) izolyativ tillar guruhiga

B) agglutinativ tillar guruhiga D) polisintetik tillar guruhiga

3.Turkiy tillar tasnifi, dastavval, kim tomonidan amalga oshirilgan va bu tasnifda turkiy tillar necha guruhga bo'lingan?

A) M.Koshg'ariy, 2 guruhga C) S.Radlov, 4 guruhga

B) Q.Mahmudov, 3 guruhga D) N.Baskakov, 3 guruhga

4.Muxtor viloyatlardagi turkiy xalqlar qaysi qatorda berilgan?

A) tuva, yoqut C) oltoy, xakasiya

B) oltoy, yoqut D) tuva, oltoy

5.Turkiy tillardan qaysi biri o'zbek tiliga eng yaqin (o'xshash) til hisoblanadi?

A) uyg'ur C) qipchoq

B) qozoq D) qoraqalpoq

6.O'rta va Markaziy Osiyoda yashaydigan qaysi xalqlar "turkiy xalqlar" nomi bilan yuritiladi?

A) qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz B) turkman, uyg'ur, tatar

C) boshqird, chuvash, ozarbayjon D) barcha javoblar to'g'ri

7. *Evenk* tilining ikkinchi nomini belgilang.

A) tungus B) tuva

B) tofalar D) chuvash

2-§. TURKIY TILLAR FONETIKASI

Asosiy tushunchalar: *fonema, tovush o'zgarishlari, geminatsiya, geminat tovush, singarmonizm, unlilar tizimi, undoshlar tizimi, rotatsizm, labdaizm, jaranglilashish, jarangsizlashish.*

Har bir til oilasining boshqa til oilalaridan ajratib turuvchi xususiyatlari mavjud. Turkiy tillar oilasi uchun xos bo'lgan singarmonizm, so'z boshida undoshlarning ketma-ket kela olmasligi, bir bo'g'inda undoshlarning qator kelmasligi, gap bo'laklarining joylashish tartibi kabi xususiyatlar bu tillarni boshqa til oilalaridan farqlab turadi. Muayyan tilga xos xususiyatlar shu til oilasining til qurilishi, grammatik tizimini tashkil etadi. Til oilasining o'ziga xos xususiyatlari muayyan davr nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Tilga xos fonetik-fonologik, leksik-semantik, morfem-morfologik xususiyatlar o'zgaruvchan bo'lib, turli tillardagi o'xshash jihatlar genetik asos til belgilari bilan izohlanadi. Shu bilan bir qatorda tashqi omillar ham nazarda tutiladi.

Mahmud Koshg'ariy turkiy tillar fonetik qonuniyatini birinchilardan bo'lib yoritgan olimdir. U "Devonu lug'otit turk"da fonetik qonuniyatlarning tovush almashuvi, tovush tushishi, tovush ortishi kabi ko'rinishlarini batafsil izohlagan.

Mahmud Koshg'ariy sharqiy va g'arbiy guruh turkiy tillarining qator farqli xususiyatlarini keltiradi. Masalan, sharqiy va g'arbiy guruh turkiy tillarining fonetik jihatdan quyidagicha farqlanishini ko'rsatadi:

So‘z boshida:

Sharqiy turkiy tillarda	G‘arbiy turkiy tillarda
Jarangsiz ***t*** - tovushi keladi: *tebey*	Jarangli ***d***- tovushi keladi: *debey*
Til o‘rta ***y*** tovushi keladi: *yinju, yilkin*	Til oldi ***j*** tovushi keladi yoki ***y*** tovushi kelmaydi: *janju, elkin*
Sonor ***m*** – tovushi keladi: *men, muŋ*	Portlochi ***b*** – tovushi keladi: *ben, buŋ*

Turkiy tillarning unlilar tizimi. Dunyodagi barcha tillarda bo‘lgani kabi turkiy tillarda ham unli va undoshlar oppozitsiyasi mavjud. Hozirgi turkiy tillarda unli va undosh tovushlar miqdori bir xil emas. Tuva, gagauz, chulim, tatar tillarida unlilar miqdori variantlari bilan hisoblaganda yigirmatadan ortadi. Masalan, gagauz tili fonetikasida 18ta unli fonema beriladi: *a, ı, o, u, e, i, o:, u:, a:, aa, ıı, oo, uu, ee, ii, o:o:, u:u:, a:a:*. V.V.Radlov fikricha, umumturkiy bobo til davrida sakkizta unli mavjud bo‘lgan. Turkiy tillarning aksariyatida unli fonemalar 8ta:

Qisqa unlilar	a	ə	o	ɵ	u	ü	ı	i
Cho‘ziq unlilar	a:	ə:	o:	ɵ:	u:	ü:	ı:	i:

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida 6 ta unli fonema mavjud.

Qadimgi turkiy til davriga xos til oldi ***ä*** ning lablangan orqa qator ***a*** unlisiga o‘tishi tatar, boshqird tillari uchun xarakterlidir: *бакыр* “mis”.

O‘zbek tiliga lablanmagan **o** xosdir: *бош, mong.*

Turkiy tillarga xos cho‘ziq **a** unlisi turkman va yoqut tillarida ko‘proq saqlangan.

Turkiy tillarda cho‘ziq unlilar birlamchi va ikkilamchi turlarga ajratiladi. Birlamchi cho‘ziq unlilar tarixi qadimgi turkiy tilga borib taqalsa, ikkilamchi cho‘ziq unlilar turkiy tillar taraqqiyotining keyingi bosqichlarida qadimgi turkiy so‘zlar tarkibidagi ayrim undosh tovushlarning qisqarishi va tushishi natijasida kelib chiqqanligi qayd etilgan. Hozirgi turkiy tillarda so‘zdagi ayrim fonetik o‘zgarishlar natijasida vujudga kelgan cho‘ziq unlilar ham kuzatiladi. Masalan, uyg‘. *o:rak* “o‘roq “, *o:rdak* “o‘rdak” kabi so‘zlarda birinchi unli cho‘ziq talaffuz qilinadi. Bunday unlilar turkologiyada ikkilamchi cho‘ziq unlilar deb yuritiladi.

Bir qator turkiy tillarda ikkilamchi cho'ziq ***a*** unlisi shakllangan: gag., xak., tuv., shor. *a:r* (*ağır*) "og'ir", *a:z* (*ağız*) "og'iz", tuv. *ada:m* (*adağam*) "oyog'im", xak. *aza:m* (*azağam*) "oyog'im", xak. *pa:r* (*bağır*) "bag'ir", turk. *a:č* (*ağach*) "daraxt", gag. *sa:r* (*sağır*) "sag'ir", tuv., xal., shor. *a:l* "ovul".

Turkiy tillarda cho'ziq unlilar so'z ma'nolarini farqlashga ham xizmat qiladi: *bar* "bor" – *baar* "bag'ir", *ol* "u" -*ool* "o'g'il", *sok* "ur" – *sook* "sovuq", *suk* "chorlamoq"-*suuk* "suyuqlik", *ur* "uzoq" - *uur* "uya", *dun* "tun"-*duun* "kecha", *ıt* "it"- *ıt* "tovush", *čırı* "yoritmoq" – *čırı* "yorug'i"[32].

Oltoy, gagauz, qirg'iz, tuva, turkman, yoqut tillarida va o'zbek tilining qorabuloq shevasida unlilar uzun-qisqaligiga ko'ra farqlanadi. Bu holat fiziologik farq bo'lib, ma'noni farqlash uchun xizmat qiladi. Masalan, qorabuloq shevasida: *a:t* "ism" – *at* "ot"(hayvon) , *a:č* "och" (sifat) – *oč-* "och-" (fe'l). Bu so'zlar tarkibidagi unlilar birlamchi cho'ziq unlilar hisoblanib, shu so'z tarkibida azaldan cho'ziq holda mavjud bo'lgan.

Turkiy tillarda unlilar o'zgarishi. Chuvash adabiy tilida unlautda ***a*** ning ***u*** ga o'tishi kuzatiladi: *baš* chuv. *nuc*[33]; *turk. tap-* "топмоқ", chuv. *tup-*; no'g'. *jar-* "yormoq" – chuv. *čur.*

Uyg'ur tilida birinchi bo'g'indagi **a** ning keyingi bo'g'indagi **ı** ta'sirida umlautlashuvi kuzatiladi: *etu* "uning oti", *белик* "baliq", *elip* "olib", *bešim* "boshim" (ko'plikda *bašım).*

a >ı: ***a*** fonemasining **ı** ga o'tishi bir qator turkiy tillarda uchraydi: *tap-*, *tart-* tuv. *tıp-; tırt; jat-* "yotmoq" – yoq. *sıt-; jaz-* "yozmoq" – chuv. *šır-; saqla-* – chuv. *šıxla-, altın* – chuv. *ıldan; bal* "asal" – chuv. *пăл.*

a >i: *al-*"olmoq" – chuv. *il-*. Ba'zi so'zlardagina ***a*** saqlanib qolgan: ***ata*** "ota" – chuv. *atte.*

e >a: chuvash tili uchun xarakterli: ozarb. *tən*, "teng", uyg'. *tən*, chuv. *tan*; ozarb. *kəs-* "kesmoq", uyg'. *kəs,* chuv. *kas;* ozarb. *tər* "ter", uyg'. *tər,* chuv. *tar.*

ə >i o'zgarishi tatar, boshqird, chuvash, xakas tillari uchun xos: ozarb. *ət*, uyg'. *ət* "tana", tatar *it* "go'sht", boshq. *it,* xak. *it.*

o>u o'zgarishi tatar, boshqird, qisman, chuvash tillariga xos: *toğız*

[32] *Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг киёсий-тарихий грамматикаси.-Т.: Фан. 2009. -Б.26*

[33] *Федотов М.Р. История чувашского языка. Звуки. Чебоксари, 1971. -С. 8-20*

"to'qqiz": qoz., *toğız,* qirg': *toğuz*, turk. *dokuz*, boshq. *tuğız*, q-qalp. *toğız*, qum. *toğuz*, tat. *tuğız.*

Bobo til davriga xos bo'lgan cho'ziq ***o:*** unlisi faqat turkman tilida uchraydi: *jo:l, o:t* "olov", *o:n, jo:q.*

Cho'ziq **ö:** unlisining **yö** diftongiga o'tishi yoqut tilida kuzatiladi: turkm. *gö:l* - yoqut *kyöl*; turkm. *cö:k* - yoqut. *yöx;* turkm. *dö:rt* - yoqut. *tyört;*

ɵ: >'va. Chuvash tilida bir qator so'zlardagi **ӧ:** unlisi **-'*va*-** birikmasi ko'rinishida namoyon bo'ladi: chuv. *kvak* "ko'k", *t'vada* "to'rt".

Diftonglar. Turkiy tillarda **j(i)** komponentli diftonglar mavjud.

aj: tat. *qajda* "qayda", "qozoq. *qajda,* qum. *qajda,* xak. *xajda.*

əj: chuv. *kajik* "kiyik"; tat. *kiək.*

oj: tat. *ujna-* "o'ynamoq", qirg'. *ojno-*, xak. *ojna-*. Turkiy tillarda soxta diftonglar ham uchraydi: qazaq. *tav* "tog'"; boshq. *hiv* "suv", tat. *kiəv* "kuyov";

o, ɵ unlilari qozoq, qoraqalpoq, no'g'ay, qorachoy-balqar tillarida so'z boshida diftonglashgan holda talaffuz etiladi: q-qalp. *uoq* "o'q", q-balq. *uot* "olov", *uon* "o'n", qoz. *uoraq* "o'roq". Shunga o'xshash talaffuz singarmonizm saqlangan ayrim o'zbek shevalarida ham kuzatiladi.

Chuvash tili turkiy tillardagi so'z oxirida unli orttirilishi bilan ham xarakterlanadi: chuv. *kule* "ko'l": turk. *göl*; qirg'. *köl,* tat. *kül*, chuv. *uğ* "o'q", turkm. *oq*; turk. *ot.* Bu hodisa oxirgi bo'g'inning aksariyat hollarda chuvash tiliga xos ochiq holatda bo'lishi natijasidur.

Chuvash adabiy tilida quyidagi unli tovushlar mavjud: a, ə, e, yo, ı, o, u, ӧ, i. Chuvash tilidagi "a" tovushi rus tilidagi "a" tovushidan kelib chiqqan. Ba'zi bir so'zlarning chuvash va rus tillarida talaffuz qilinishini solishtirish jarayonida, mazkur tovushlarning farqini kuzatish mumkin: *qarantaŝ, karta, učitel* "o'qituvchi", *osen* "kuz", *kofe* "qahva", *parikmaxer* "sartarosh" va h.k.

ə va yo reduksiyalangan unlilar bo'lib, ular qadimgi *u* va *o* tovushlaridan kelib chiqqan, deb hisoblanadi. **ə** tovushi urg'uli bo'g'indan keyin xuddi rus tilidagi "o" tovushi kabi talaffuz qilinadi. **ə** va **o** tovushlari urg'u qabul qilishi mumkin: *vakar, xerex, dene* va boshqalar. Adabiy tilda birinchi bo'g'indagi so'z kuchsiz seziluvchi urg'u bilan aytiladi. **o** tovushi xuddi nemis tilidagi til oldi **i** fonemasi kabi talaffuz qilinadi. Qolgan jarangli unlilarning talaffuzi rus tilidagi unlilarga mos keluvchi tovushlar talaffuzidan farq qilmaydi.

Chuvash tili dialektida **o** tovushi bo'lgani holda chuvash adabiy tilida uning o'rnida **u** fonemasi ishlatiladi. **o** tovushi esa faqatgina o'zlashgan so'zlarda uchrashi mumkin.

Ayrim turkiy tillarda unlilar uyg'unlashuvining buzilish holatlari kuzatiladi. Ushbu holat chuvash tilida ham uchraydi. Chuvash tilida qo'shimcha bo'g'inlarda unlilar uyg'unlashuviga hamma hollarda ham amal qilinavermaydi. Masalan, - *sem* ko'plik qo'shimchasi chuvash tilida orqa qator asoslariga ham, old qator asoslariga ham bir xil ko'rinishda birikadi: *ɤvilmzem* "o'g'illarim", *lajazem* "otlar", *eššem* "ishlar", *enezem* "sigirlar".

Chuvash tili vokalizmining boshqa bir o'ziga xosligi shundaki, bunda ikki unlining yonma-yon kelishi mavjud emas. Biror bir unli tovushdan keyin boshqa unli kelmaydi. Agar so'z yasalishida yoki morfologik tuzilishda ikkita unlining ketma-ket kelishi zarur bo'lsa, bu holatda har ikki unlini bir-biridan ajratuvchi **y** yoki **n** tovushi keladi. Hozirgi vaqtda ikkita qo'sh unlilarni talaffuz qilishning artikulyatsion qiyinchiliklari bartaraf etilgan va ular chuvash tilida erkin muomaladadir. Masalan, *kooperatsiya, poet, poema* va h.k.

Unlilarning o'zgarishi. Chuvash tilida unlilarning o'zgarishi juda keng tarqalgan hodisadir. **a, o** unlilari gap oxirida talaffuz etilmaydi. **o** unlisi so'z oxirida kelganda, ayniqsa, murakkab so'zlarda III shaxsga tegishli qo'shimchasi bo'lsa, bu affiksdan oldin **sh** tovushi keladi va qarindoshlik munosabatlarini, ya'ni kattalik va o'lchamni bildiradi.

Reduksiyaga uchragan unlilarning o'zgaruvchanlik holati ba'zan so'z o'rtasida ham kelishi mumkin. So'z yasalishida va so'z o'zgarishida esa tushib qoladi. **a** va **yo** unlilari so'z o'rtasida kelganda o'zi bilan alohida bo'g'in hosil qiluvchi undosh tovushlarni ham tushirib qoldiradi, masalan, *karantak-kantak* "oyna", *ankarti- karti* "poliz", *asatte- atte* "bobo" va h.k.

Urg'u. Chuvash tilidagi urg'u rus tiliga nisbatan kuchsizroqdir, agarda urg'u reduksiyalangan unliga ega bo'lmasa, u taqdirda hammavaqt so'zning oxirgi bo'g'inida keladi. Agar so'zning oxirgi bo'g'inida **a** yoki **yo** tovushi bo'lsa, urg'u to'la unlili eng yaqin bo'g'inga ko'chadi, so'zda hamma unlilar reduksiyalangan bo'lsa, adabiy tilda urg'u birinchi bo'g'inga tushadi.

Hozirgi turkiy tilarning, deyarli, hammasida har bir unli paydo bo'lish o'rniga ko'ra oppozitsiya (ziddiyat) hosil qiladi:

Orqa qator unlilar	Old qator unlilar
a, o, u	**ä, ö,ü**

Hozirgi o'zbek tili bundan mustasno, ya'ni old qator unlilar o'zaro farqlanmaydi.[34]

Turkiy tillarda singarmonizm. Turkiy tillardagi singarmonizm hodisasi oldingi bo'g'in (yoki o'zak)dagi unliga keyingi bo'g'in (yoki bo'g'inlar)dagi unlilar, ba'zan undoshlarning artikulyatsiya o'rni va usuliga ko'ra moslashuvidir. A.M. Sherbak ta'kidlaganidek, bir bo'g'inli so'zlardagi unli sifat jihatidan doimiy va mustaqil bo'lib, ko'p bo'g'inli so'zlardagi keyingi unlilar esa birinchi bo'g'inga muvofiqlashadi. Masalan, *bar -gan -lar, kol-ga* (o'zbek tili qipchoq shevalari), *yüksältmäk* (ozarbayjon tili). Singarmonizmning bu ko'rinishi – palatal yoki tanglay singarmonizmida birinchi bo'g'in unlisi mustaqil bo'lib, keyingi bo'g'indagi unlilar unga tobe bo'ladi, ya'ni birinchisiga moslashadi. Palatal yoki tanglay singarmonizmi qadimiy bo'lib, turkiy bobo til davriga oiddir.

Turkiy tillar oilasiga mansub bo'lgan hozirgi uyg'ur tilida singarmonizmning boshqa ko'rinishi ham mavjud. Bu tilning o'ziga xos xususiyati asl turkiy bir bo'g'inli so'zlarda (ba'zan ko'p bo'g'inli so'zlarda ham) keyingi bo'g'indagi tor **i** unlisi ta'sirida undan oldingi bo'g'indagi keng **a** unlisi torayadi va **e** tovushiga o'tadi: *baš-beši, bala-belesi*. Bu hodisa *teskari singarmonizm* deb ataladi. Teskari singarmonizm, uyg'ur tilidan tashqari, o'zbek tilining Namangan va Uychi shevalarida ham uchraydi: *belik* "baliq", *jeyim* "joyim", *temiŋ* "toming", *yeŋi* "yangi".

O'zaklar tarkibidagi unlilar turkiy tillarda, ba'zan bir turkiy til doirasida ham, bir xil bo'lavermaydi: ayni bir so'zning birinchi bo'g'inida bir turkiy tilda yoki shevada oldingi qator unlisi, ikkinchi turkiy tilda (shevada) orqa qator unlisi kelishi mumkin. Bunday hodisa turkologiyada *singarmonistik variantlar* deb yuritiladi. Masalan, qadimgi uyg'. *turna - tirna*, qirg'.*čomul - čömül*, qoz. *šay-šäy*, ozarb. *okuz-öküz*.

Turkiy tillarda dastlabki bo'g'indagi unlilarning lablanishi natijasida keyingi bo'g'indagi unlilar ham lablanadi: qirg'. *köllärdä*, alt. *kalda*, yoq. *qorobun* "ko'ryapman"; *turuoxput* "turamiz", *oğolar* "bolalar", qirg'. *quldor* "qo'llar", turk. *kolu* "qo'li" .Turkiy tillardagi labial singarmonizm unli hosil bo'lishida labning ishtirokiga asoslanadi: **o, ö, u, ü** unlilari

[34] *Миртожиев М. Ўзбек тили фонетикаси.-Т.:Фан, 2013.*

lablangan, **a, a, ı, i,** unlilari lablanmagan unlilardir. Labial singarmonizm, ayniqsa, qirg'iz tilida yaqqol ifodalanadi: *duioloro* "tuyalarga", *oglonloro* "o'g'illarga", *qopoloq* "kapalak", *tundo* "tunda", *koldorunuzdun* "qo'llaringizdan". Singarmonizmning bu turi o'g'uz va qipchoq guruhiga mansub tillarda keng tarqalgan bo'lib, o'zbek va xakas tillarida kam kuzatiladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida singarmonizm sezilmas darajaga kelib qolgan. Bu hodisa ayrim so'zlar tarkibidagina saqlangan. O'zbek adabiy tilida singarmonizmning buzilishi, birinchi navbatda, o'zbek tilining ichki taraqqiyoti asosida yuz berdi. Buni boshqa turkiy tillardagi singarmonizm qonuniyatiga bo'ysunmaydigan affikslar, singarmonistik variantlarning mavjudligi ham tasdiqlaydi. O'zbek adabiy tilidagi singarmonizmning kuchsizlanishida sug'd, xorazmiy, saq va fors-tojik kabi sharqiy eroniy tillar hamda arab tilining ta'siri katta bo'ldi. Bu tillar ta'siri natijasida turkiy til (eski o'zbek tili) fonetikasi, leksikasi, grammatikasida ayrim o'zgarishlar yuzaga keldi.

Turkiy tillarga oid fonetik xususiyatlar bobo til davridagi unlilar uyg'unligi misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Keyingi bo'g'inlar sifati birinchi bo'g'inlar sifatiga moslashgan. So'zlarda, asos (*boğinlarda*) va qo'shimchalarda faqat orqa qator (*tog'larda*) yoki faqat old qator unlilari ishtirok etgan (*köllerde*).

Singarmonizm yoki *garmoniya* chuvash tili vokalizmining o'ziga xos xususiyatlaridandir. Singarmonizm unli tovushlarning progressiv assimilyatsiyasiga asoslanadi va birinchi bo'g'indagi jarangli tovush so'zda hukmron bo'ladi. Keyingi bo'g'inlarning unlilari unga bog'lanadi va shu tufayli har bir so'zda alohida bir kategoriyali unli bo'ladi. Shuningdek, oldingi va orqa qatordagi barcha tovushlar ham bir xil sifatga ega unli bo'lishi mumkin. Shu asosda unlilar orqa qatorda bo'lsa, affikslarda ham xuddi shunday reallashadi yoki aksincha bo'lishi ham mumkin. Masalan, *ayan* "ayb", *ayapan, ayappa, ayaplat* "ayblash", *ayaplakan* "ayblovchi", *ayaplanakan* "ayblanuvchi" va boshqalar.

Ayrim turkiy adabiy tillarda singarmonizm o'z kuchini yo'qotib bormoqda. Rus va boshqa tillardan kirib kelgan yangi so'zlar yordamida morfologik shakl tuzilganda singarmonizmga rioya qilinmaydi. Agar XX asr boshlariga qadar tilda singarmonizmning buzilishi 18-23 % bo'lsa, keyingi davrda bu holat nisbatan ko'proq foizni tashkil etadi.

Turkiy tillar orasida unlilar mosligi ham mavjud. Tovush mosligi deganda bir tildagi biror tovushga ikkinchi qardosh tildagi boshqa bir tovushning muntazam holda mos kelishi tushuniladi. Masalan o'zbek tilidagi **e** tovushiga tatar tilida **i** tovushi mos keladi : *kel // kil, et //it, bet //bit* kabi; o'zbek tilidagi **e** tovushiga ozarbayjon tilidagi **a** tovushi mos keladi: *men //man, kel //gal, ellik// alli* va h.k.

Turkiy tillarda undoshlar tizimi. Turkiy tillar undosh tovushlar miqdori jihatidan, deyarli, farqlanmaydi. Turkiy tillar fonetikasiga bag'ishlangan adabiyotlarda undoshlar 20tadan - 30 tagacha bo'lgan miqdorda ko'rsatiladi.

Undoshlar tizimida umumiy jihatlar bilan birga farqli xususiyatlar ham mavjud. Masalan, turkiy tillarda undoshlar so'z tarkibida qo'llanish o'rni nuqtayi nazaridan o'zaro farqlanadi.

Turkiy tillarda undoshlar tizimidagi umumiy jihatlar quyidagicha:

– sof turkiy so'zlar sonor tovush bilan boshlanmaydi (bunday so'zlar uchrasa, ular boshqa tildan o'zlashgan yoki keyingi fonetik taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan bo'ladi);

– sonorlar ko'proq so'zning oxirgi qismida uchraydi. Sonor bo'lmagan undoshlar esa so'zning boshida ham, oxirida ham keladi. Bu hodisa turkiy tillar tarixining eng qadimgi davrlarida kuchli bo'lgan;

– turkiy bobo til va undan keyingi davrlarda jarangli undoshlar so'z boshida juda kam qo'llangan. Umuman, turkiy tillar taraqqiyotida so'z boshida jarangli undoshlarning kelishi kam kuzatiladi;

– turkiy bobo til davrida **r, l, m, n, b, d, č** kabi undoshlar so'z boshida kelmagan. A.Sherbak tiklagan bir bo'g'inli turkiy bobo til o'zaklari ichida *na* (nima) o'zagidan boshqa sonor yoki jarangli undosh bilan boshlangan o'zak uchramaydi (*y* bilan boshlangan o'zaklar bundan mustasno). Hozirgi turkiy tillarda jarangli undoshlar bilan boshlanadigan o'zaklar fonetik o'zgarishlar orqali hosil bo'lgan ikkilamchi hodisadir.

Turkiy tillarning o'g'uz guruhi (turkman, turk, ozarbayjon tillari)da so'z boshida undoshlarning jaranglilashuvi keng tarqalgan: boshqa turkiy tillarda so'z boshida keladigan **k, p, t** kabi jarangsiz undoshlar o'rnida bu tillarda **g, b, m, d** jarangli undoshlari keladi. Masalan, o'zbek tilidagi *kel, ko'r, tog', tosh*[35] so'zlari ozarbayjon tilida *gal, gur, dağ, daš* ko'rinishiga ega. So'z boshida undoshlarning jaranglilashuvi qarluq, qipchoq tillarida

[35] *O'zbek adabiy tilidagi misollar joriy alifbodagi transliteratsiya asosida berildi.*

ham uchrab turadi. Masalan, o'zbek tili va uning shevalarida bir so'zning *teraza-deraza, tokcha-dakcha, tala-dala* kabi jarangsiz va jarangli tovush bilan boshlanuvchi variantlari mavjud; qozoq tilida *bayga* "poyga" *di:rmen* "tegirmon" kabi so'zlar jarangli tovush bilan boshlanadi. So'z boshida jarangsiz undoshlarning ko'proq saqlanishi Sibir hududidagi turkiy tillar va chuvash tili uchun xarakterlidir.

Turkiy tillarga xos fonetik hodisalardan biri so'z o'rtasidagi jarangsiz undoshlarning intervokal pozitsiyada jaranglilashuvidir. Shu nuqtayi nazardan turkiy tillarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1) bir bo'g'inli so'zlar tarkibida jaranglilashish sodir bo'ladigan turkiy tillar. Bu guruhga mansub tillarda bir bo'g'inli o'zaklarga unli bilan boshlanuvchi affiks qo'shilsa, o'zak oxiridagi jarangsiz undosh jaranglilashadi. Masalan, xak. *pas-pazı* "bosh-boshi", *at-adi* "ot-oti"; tuv. *as-azıp* "osib": qoz. *šıq-šığıb* "chiqib", *kap-kabı* "qopi"; tat. *aq-ağım* "oqim" kabi;

2) bir bo'g'inli so'zlar tarkibida jaranglilashish sodir bo'lmaydigan turkiy tillar. Bu tillarda bir bo'g'inli o'zaklarda har qanday sharoitda ham jarangsiz undosh saqlanadi. Masalan, o'zbek tilida: *ot-oti, ek-ekib, oq-oqib.* Ammo bu tillarda ham ko'p bo'g'inli so'zlar oxiridagi **k, q, p** jarangsiz undoshlari intervokal pozitsiyada jaranglilashadi: uyg'. *yazlik-yazligi* "yozligi", *ayaq-ayiğim* "oyog'im". o'zb.*o'rtoq-o'rtog'i, o'simlik-o'simligi;* Bunday jaranglilashuv undoshlardan keyin egalik affiksi qo'shilgandagina sodir bo'ladi, boshqa hollarda esa ular jarangsizligicha qoladi: *qishloqi, qo'rqib, qiziqib* va h.k. Qarluq va o'g'uz guruh tillariga boshqa tillardan kirgan so'zlarda ham bu undoshlar jaranglilashmaydi.

Turkiy tillarda ayrim jarangli undoshlar (masalan, **b, d**) ning so'z oxirida kelishi chegaralangan, shuning uchun o'zbek tiliga boshqa tillardan jarangli undoshlar bilan tugagan so'z qabul qilinsa, bunday undosh jarangsizlashadi. Masalan, uyg'. *javop*, qrim-tat. *šarap,* qoz. *mektep* o'zb. *kitop, yot* (kitob, yod) va h.k. Bu so'zlarga unli bilan boshlanadigan affiks qo'shilsa, ular yana jaranglilashadi: *kitabi, yadida, javabi, šarabi, mektebi* singari.

Turkiy tillarning konsonantizmi (undoshlar tizimi)da kuzatiladigan hodisalardan biri undoshlar geminatsiyasi, ya'ni undoshning miqdor jihatdan o'zgarib, cho'ziq tovushga o'tishi, ikkilanishidir. Yozuvda bunday undoshlar ikkita bir xil harf bilan aks ettiriladi. A.Sherbak

fikricha, intervokal pozitsiyada undoshlar jaranglilashuvi mavjud bo'lgan tillardagina geminatlar bo'lishi mumkin. Intervokal pozitsiyada undoshlarning jaranglilashuvi esa barcha turkiy tillarga xos. Bu holat turkiy bobo til davrida ham undoshlar geminatsiyasi mavjud bo'lganligini ko'rsatadi.

Undoshlar geminatsiyasining assimilyatsiya natijasida vujudga kelishi turkiy tillarda eng ko'p tarqalgan: o'zb. *yetti* "yetdi", *shaharri* "shaharni"; qum. *minni* 'mindi", qoz. *atti* "otni" kabi. Geminat tovushlarning o'zak tarkibida uchrashi turkiy tillarda bir xil emas. Qarluq, o'g'uz va bulg'or tillarida bunday tovushlar ko'p kuzatilsa, qipchoq guruhi va Sibir hududidagi tillarda (yoqut tili bundan mustasno) bu hodisa kam uchraydi. Masalan, *to'qqiz* so'zi o'zbek tilida *to'qqiz,* chuvash tilida *taxhar*, qozoq tilida *toğuz*; qirg'iz tilida *toğus* shaklida keladi.

Turkiy tillar o'zaro yaqinligiga qaramay, har bir turkiy til o'ziga xos fonetik taraqqiyot jarayoniga ega. Shu bois turkiy bobo tilda ayni bir undosh bo'lgani holda, muayyan turkiy tillarda boshqa-boshqa undosh qo'llana boshlagan. Bu jihatdan, ayniqsa, **y-j-d-č** undoshlarining qo'llanishi xarakterlidir:

o'zb.	turkm.	qoz.	olt.
yil, yoq	*yil, yoq*	*jil, joq*	*dil, doq*

Misollardan ko'rinib turibdiki, qarluq va o'g'uz guruhi tillarida so'z boshida keladigan **y** tovushi o'rnida qipchoq va Sibir guruhi tillarida **j, d** tovushlari qo'llanadi.

Qarluq, qipchoq va Sibir guruhi tillarida so'z boshida keladigan **k, t** tovushlari o'rnida o'g'uz tillarida **g, d** tovushlari ishlatiladi:

o'zb.	ozarb.	uyg.	turkm..	yoq.	tat.	boshq.
kel	*Gal*	*kal*	*gel*	*kel*	*kil*	*kil*
tosh	*Daš*	*taš*	*daš*	*tas*	*taš*	*taš*

Rotatsizm va labdaizm chuvash tili bilan boshqa turkiy tillar undosh tovushlari qiyosida yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek tilidagi *yuz, ez, to'qqiz, qozon, kuz, eshik, eshit, yetmish, oltmish* so'zlari chuvash tilida *serr, taxhar, xuran, ker, alak* (darvoza), *ilt, sitmel, utmal* ko'rinishlariga

ega. Bu jihatdan chuvash tili mo'g'ul tillariga ancha yaqin. Mo'g'ul tillari bilan boshqa turkiy tillar orasida ham ***l-š*** mosligi mavjud (*tanil – taniš*). Bu holat chuvash-mo'g'ul tillari munosabati qadim davrlardan boshlanganini ko'rsatadi.

Rotatsizm va labdaizm qoldiqlari boshqa turkiy tillarda ham uchrab turadi: ozarb., turkm. *dešik-delik* "teshik"; boshq. *kašik- kalak* "choy qoshiq", o'zb. *semir-semiz, ko'rar-ko'rmas, sergak-sez.*

Turkiy tillarning yuqorida ta'kidlangan xususiyatlari bu tillar fonetik tizimidagi asosiy jihatlar hisoblanadi. Ba'zi o'rinlarda umumiy fonetik xususiyatlardan chekinish hollari ham kuzatiladi. Masalan, qarluq guruhi tillarida so'z boshida ba'zan **y** emas **j** keladi: o'zbek tilida *jo'namoq, jun*; uyg'ur tilida *jurak* (yurak) kabi. O'g'uz guruhi tillarida so'z boshida **t** o'rnida **d** tovushi qo'llanishi xarakterli bo'lgani holda, ozarbayjon tilida ayrim so'zlarda aksincha holat kuzatiladi: *taniš, tarla* "dala", *tutašma-* "ushlamoq" kabi. O'zbek tilida so'z boshida **y** va **d** tovushlarini parallel qo'llash hollari ham mavjud: *dumaloq / yumaloq* kabi. Bu holat turkiy tillarning umumtaraqqiyot bosqichlariga xos xususiyatlar bilan bir qatorda xususiy taraqqiyot jarayoniga doir jihatlarni ham namoyon eta borishi bilan izohlanadi.

q>ğ: chuvash tilida so'z o'rtasidagi **q** muntazam ravishda **ğ** ga almashadi: *saqal – suğal* "soqol", *saqız – sağız* "daraxt yelimi , *čaqır- – suğər* - "chaqirmoq"; q>ğ almashuvi xakas, tuva tillarida ham kuzatiladi: tat. *ja,qa,* tuv. *čağa,* xak. *čağa* "yoqa", *čağın* "yaqin".

Chuvash tilida so'z oxiridagi **q** tovushining tushib qolishi kuzatiladi: *balıq* "baliq" – chuv. *pul', ažaq* "oyoq" – chuv. *ura; ačıq* "ochiq" – chuv. *už.*

Hozirgi turkiy tillar ichida chuvash tili o'zining fonetik tizimi jihatidan alohida ajralib turadi. Shuning uchun boshqa turkiy tillar bilan chuvash tili tovushlarining mosligini solishtirish farqli jihatlarni kuzatish imkonini beradi.

Boshqa turkiy tillardagi **a** unlisiga hozirgi chuvash tilida, aksariyat hollarda, **u** unlisi mos keladi. Turkiy tillardagi *z* fonemasi *o'*rnida chuvash tilida **r** fonemasi ishlatiladi:

Turkiy tillarda	Chuvash tilida:	Turkiy tillarda	Chuvash tilida:
bar//par	*pur* "bor"	*buz*	*păr* "muz"

kazz//ga	*xur* " oz"	*qaz-*	*hur-* "qozmoq"
atla//xatla	*ot* "hatlamoq"	*qazan*	*huran* "qozon"
yat	*yut* "yotmoq"	*omuz*	*amar* "ko'krak"
balıq	*pula* "baliq"	*buzau*	*paru* "buzoq"
bayan	pujan "boy"	*semiz*	*samar* " semiz"
altı	*ult* "olti"	*öküz*	*vakar* "hokiz"

Ba'zan, aksincha, turk tilidagi **r** ro'rnida **z** ishlatiladi: *çir - yaz, her- kiz–his.*

Chuvash tilidagi asl so'zlarda quyidagi undosh tovushlar uchraydi: **v, y, k, l, m, n, r, p, s, t, x, č, š** hamda yumshoq va qattiq ko'rinishdagi belgilar. Bu tovushlarni ovoz va shovqin ishtirokiga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin: sonor va shovqinli. Sonorlar guruhiga – **v, y, l, m, n, r,** shovqinlilar guruhiga – **k, p, s, t, x, č, š** tovushlari kiradi. **v** fonemasi doim jarangli talaffuz qilinadi, uning jarangsiz holati chuvash tilida mavjud emas. Boshqa turkiy tillardagi jarangsiz talaffuzi o'zlashma so'zlar ta'siri natijasidir.

Chuvash tilida shovqinli undoshlar ikki ko'rinishda bo'ladi. Jarangli va jarangsiz undoshlarning talaffuzi ularning so'zlardagi artikulyatsion o'rniga bog'liq. Ular ikki holatda jarangli talaffuz qilinishi mumkin:

a) unli tovushlar orasida kelganda. *sakar-sagar* "non", *epir–ebir* "biz", *laša –laja* "ot";

b) bir tomonda sonor undosh, ikkinchi tomonda unli bo'lganda: *kurka – kurga* "cho'mich", *kampa – kamba* "qo'ziqorin" va h.k.

Chuvash tilidagi jarangli undoshlar o'zining akustik jihatidan rus tilidagi jarangli undoshlardan farq qiladi. Ular ovoz bog'lamlarining kuchsiz artikulyatsiyasida talaffuz etilgani uchun nisbatan kuchsiz tebranishda ekanligi, ya'ni to'laligicha musiqiy ohang bermasligi seziladi. Shovqinli undoshlarning jarangsiz talaffuzi ushbu fonetik holatlarda kuzatiladi:

a) so'zning to'liq talaffuz etilishida: *kayak* "qush", *paxar* "asal";

b) so'z oxirida: *ak-* "ekmoq", *pux-* "yig'moq";

d) so'z o'rtasida barcha undoshlar, ya'ni sonor va shovqinlilardan oldin kelganda: *xapxa* "darvoza", *utmal* "oltmish" va shu kabilar;

e) shovqinli undoshlarning jarangsiz talaffuzi cho'zilganda ular jarangli bo'lib ham kelishi mumkin, bunda ularning ikki xil farqi kuzatiladi: unlilar orasida - *kukka, appa;* unlilar va sonorlar orasida: *ultta* "olti", *karkka* "kurka" kabi.

Tovushlar cho'ziqligi. Chuvash tilida shovqinli tovushlar faqat jarangsiz ko'rinishda bo'ladi. Tovushlar cho'ziqligining fonetik holati ikkita unli orasida kelishi bilan aniqlanadi. Masalan, *kukka, alla, anne, appa, eppin, perre, atte, čečče* va boshqalar.

Chuvash tilida barcha undoshlar qattiq va yumshoq ko'rinishda bo'ladi. Undoshlarning so'zlardagi yumshoqligi *yo, ya, i, u* unlilari bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Undoshlar unlilardan oldin yoki keyin kelishidan qat'iy nazar undoshlarga palatalizatsiyalanuvchi bo'lib ta'sir etadi. Bu xususiyat chuvash tilini rus tilidan farqlaydi. Rus tilida undoshlarning yumshoq talaffuz etilishida faqat regressiv assimilyatsiya holatlari kuzatiladi, chuvash tilida esa assimilyatsiyaning regressiv va progressiv holatlari kuzatiladi.

Chuvash tilining rus tilidan yana bir farqi – oldingi qator unlilarining qattiq undoshlar bilan mos kelmasligi. Bu tartibga rioya qilmaydigan yagona holat **s** tovushining jarangsiz va jarangli ko'rinishidir. Bu tovush yumshoq talaffuz etilmaydi: *sive* "sovuq", *kekse* "qisqa", *simes* "yashil", *ese* "sen", *esir* "siz" va h.k.

Chuvash tilida undoshlarning yumshashi old qator unlilarining undan oldin yoki undan keyin keluvchi undoshlarga assimilyativ ta'siri asosida yuzaga keladi. Singarmonizm ta'siri tufayli so'zlarda faqat old qator unlilar bilan orqa qator unlilari palatalizatsiyalashgan bo'ladi. ammo shu bilan birga, chuvash tiliga xos bo'lmagan orqa qator unlilarining yumshoq undoshlar bilan birga kelishi kuzatiladi. Bunday hollarda quyidagi 6ta yumshoq undosh kelishi mumkin: **y, s, č, l, n, t.** Masalan, *tuy, somrak, puslax, čuxan, pačar, tapač* va h.k; **s** tovushidan qadimgi **dj** affrikati shakllangan, shuning uchun turk tilida unga ***dj, j, d, č, y*** mos keladi. Masalan, tat. *suk*, turk.*yok*, qirg'.*yuk*, shor. *dok*.

Ushbu hollarda yumshoq **l, n, t** tovushlarining bo'lishi hamda turli fonetik o'zgarishlar natijasida **y** tovushining va oxirgi reduksiyalangan **yo** unlisining tushib qolishi kuzatiladi.

Undoshlarning o'zgarishi. Morfologik xususiyatga ega bo'lgan jarangsiz **t** tovushining jarangli **č** tovushi bilan ketma-ketligi otlarda III shaxs egalik shaklida kuzatiladi, fe'llarda esa o'tgan zamon III shaxs shaklida keladi. Masalan. *yat* "ism" – *yače* "uning ismi", *pasport* "pasport" – *pasporče* "uning pasporti", *suk* "daraxt" – *suče* "daraxti".

Turkologlar turkiy bobo til davrida so‘z boshida jarangli va jarangsiz undoshlar birdek ishtirok etganligini ma’lum qilishgan. Ayrim hollarda so‘z boshida b undoshining bo‘lmasligi haqida fikr bildirilgan, tovush o‘zgarishlarining anlautdagi ko‘rinishlari ko‘p uchrashi ta’kidlangan.

Anlautdagi tovush almashuvi:

p~b: ozarb. *palta* ~ balta “bolta”, qoz. sheva. *pal* ~ bal “asal”, qirg‘. sheva. *putaq* ~ butoq; no‘g‘. dial. *pišak* ~ *bišak* “mushuk”; *putun* ~ butun;

t ~ d: ozarb. dial: *tovšan* ~ *dovšan* “quyon”.

Fonetik xususiyatlar turkiy tillarning ichki farqlanishida ham muhim belgi sanaladi. Masalan, qozoq tilining uch asosiy lahjasi bor: shimoli-sharqiy, janubiy va g‘arbiy.

Shimoli-sharqiy lahja qozoq adabiy tilining asosini tashkil qiladi. Janubiy lahja lug‘at qurilishi jihatidan adabiy tildan ba’zi bir fonetik farqlarga ega:

a) **k** ning **g** ga o‘tish holati kuzatiladi: *guriš* (*ko‘riš* o‘rnida) “ko‘rish”, *gөң (kөң* o‘rnida) “gung”;

b) **j** ning **y** ga o‘tishi: *yaq* (*jaq* o‘rnida) “yoq”;

d) **s** ning **š** ga o‘tishi: *mišıq* (*mšıq* o‘rnida) “mushuk”;

e) I shaxs ko‘plikdagi *–alıq/-yelіq* buyruq-istak mayli qo‘shimchasi oxiridagi undoshning tushishi: *boralı* (*baraıq* o‘rnida) “boraylik”;

f) *bilan* ko‘makchisining to‘liq shakli *-mınan* qo‘llanadi (*-man* o‘rnida).

G‘arbiy lahja janubiy lahjadan quyidagi asosiy xususiyatlari bilan farqlanadi:

a) keng unlilarning tor unlilarga (o>u) o‘tishi, masalan: *qul* (*qol* o‘rnida) “qo‘l”;

b) y>n (so‘roq olmoshlarida kuzatiladi): *qanda* (*qayda* o‘rnida) “qayerda”;

d) I shaxs ko‘plikdagi kishilik olmoshlarida qaratqich kelishigi qisqargan shaklining qo‘llanishi: *bizің* (*bizdің* o‘rnida) “bizniki”;

e) *bardI / baruvlı* fe’llarining teng qo‘llanishi.

Tatar milliy tili uch lahjadan iborat. Tatar tili lahjalari fonetik jihatdan quyidagicha farqlanadi:

Markaziy yoki o‘rta lahja Volganing o‘rta oqimida yashovchi tatarlar tili bo‘lib, Tataristonning asosiy xalq tili hisoblanadi. Ular qozon tatarlari (kazanlı) nomi bilan yuritiladi. Markaziy lahjaning asosiy xususiyatlari:

a) so‘z boshida **y** o‘rnida **j** qo‘llanadi: *jir* “yer”;

b) **k>q, g>ğ** almashuvi kuzatiladi;

d) **a** unlisining ikki varianti mavjud: rus tilidagi **a** ning hamda lablanlangan å ning qo'llanishi kuzatiladi;

e) lablanmagan tor **i** tovushi mavjud: *qiš* o'rnida *qiš*.

G'arbiy lahja yoki tatar tilining mishar lahjasi. Bu lahja vakillari Tataristondan tashqarida Rossiya Federatsiyasining Gorkiy, Tambov, Voronej, Ryazan, Orenburg viloyatlari, Mordova Avtonom Respublikasi va Boshqirdistonda yashaydi. Bu lahjaning asosiy fonetik xususiyatlari:

a) so'z boshida **j> y** o'zgarishi uchraydi: *jir >yir* "yer";

b) **q>k, ğ>g** almashuvi kuzatiladi: *qarğa* o'rnida *karga* "qarg'a";

d) unlilarning lablanmasligi xarakterlidir: ŷ (o), u (ɵ): *ken* (*kŷn* o'rnida, yozuvda *kon*) "kun"; *begen* o'rnida, yozuvda *bogen* "bugun"; lablangan ***a*** mavjud emas;

e) **č > s**: barabanlilar tilida *aksa* (*akča* o'rnida) "pul";

Sharqiy lahja yoki *sibir* (turinsk, babarin, tomsk, tyumen, ishim, yalutar, irtish, tobolsk) tatarlari lahjasining asosiy xususiyatlari:

a) jarangli undoshlarning jarangsizlashishi: **b > p, d > t, z > s;**

b) so'z boshida **j > y** ning **č** ga o'tishi.

Qosimov tatarlari lahjasining asosiy belgilari:

a) til orqa ***q, ğ, ќ*** undoshlarining ishlatilmasligi va ular o'rnida arab tilidagi ɛga yaqin bo'g'iz tovushining qo'llanishi, masalan: *al-*(*qal-* o'rnida) "qolmoq";

b) so'z boshida **y** o'rnida **j** qo'llanishi: *jul* (*yol* o'rnida) "yo'l".

d) **ɨ** unlisining boshqa lahjalardagi **e** o'rnida qo'llanishi, masalan: *trirzi* (*tereze* o'rnida) "deraza".

Boshqirdistondagi permlik yoki gazli tatarlari aralash lahjada gaplashadi; ularning tili tatar va boshqird tillari oralig'ida turadi.

Ural tatarlari, jumladan, oldingi Shimoliy Ural uyezdida yashovchi nasroniy-tatarlar tilining asosiy fonetik xususiyatlari:

a) so'z boshida **y** o'rnida **j** qo'llanishi, masalan: *jigit* (*yeget* o'rnida) "yigit".

b) qo'shimchalarda **č > s** almashuvi kuzatiladi: *kilgüs* (*kilgič* o'rnida) yozilishi "kilgeč".

d) diftonglarning cho'ziq unlilarga almashuvi, masalan: *bozau* (*buzav* o'rnida, yozilishi *buzau*) "buzoq"; *šulı* (*šulıy* o'rnida) "shunday"; *ätä* (*äytä* o'rnida) "aytib" va h.k.

Shimoliy yoki cho'l tatarlari tilining quyidagi fonetik xususiyatlari bu lahjaning qipchoq-polovets kichik guruhiga mansubligini asoslaydi:

a) so'z boshi va oxiridagi *ḱ* ning tushib qolishi: *ava* (*ḱavak* o'rnida) "kovak", *saba* (*sabaḱ* o'rnida) "sabo";

b) qipchoq-no'g'ay tilida boshqa turkiy tillardagiga nisbatan biroz orqa qator (chuqur orqa qator emas) *k* ning mavjudligi, masalan: *kun* "kun" (*k..un* emas);

d) old qator, keng unlilardan keyin keladigan undoshlarning yumshoq talaffuz etilishi: *söz* (*sөz* o'rnida) "so'z" ;

e) **y** undoshidan keyin keluvchi undoshlarning yumshoq talaffuz etilishi; masalan: *sayl..amaq< saylamoq*, *bayl..amaq< baylamaq*.

Savol va topshiriqlar

1. Turkiy tillarda singarmonizm hodisasi va uning mohiyatini yoriting.
2. Undoshlar geminatsiyasi haqida fikr bildiring.
3. Turkiy tillardagi unlilar tizimi haqida ma'lumot bering.
4. O'zbek tili va boshqa turkiy tillardagi unlilar tizimini qiyosan tahlil eting.
5. Turkiy tillarning undoshlar tizimidagi asosiy xususiyatlarni ajrating.

Test sinovi

1. O'rxun-enasoy yodnomalarida jami nechta yozuv belgisi mavjud va ulardan nechtasi unli tovushni ifodalaydi?

A) 41 ta belgi, 4 tasi unli C) 41 ta belgi, 6 tasi unli
B) 38 ta belgi, 8 tasi unli D) 40 ta belgi, 10 tasi unli

2. Keng unlidan so'ng va bir bo'g'inli so'zlarning oxirida qo'llangan *ğ* tovushi qozoqchada qanday talaffuz etiladi?

A) lab-lab **v** tovushi tarzida C) til orqa **ğ** tovushi tarzida
B) til oldi **t** tovushi tarzida D) lab-tish **v** tovushi tarzida

3. Turkiy tillardan biri bo'lgan *karagas* tili yana qaysi termin bilan yuritiladi?

A) tofa B) qaraim
B) gagauz D) salar

4.Turkiy tillardagi z o'rnida r tovushining kelishi qaysi tillarga xos?

A) qaraim tiliga C) chuvash tiliga
B) tuva tiliga V) shor tiliga

5.Anlautdagi tovush almashuvi...

A) qo'shimchadagi C) so'z o'rtasidagi

B) so'z oxiridagi D) so'z boshidagi tovush o'zgarishi

6.Boshqird tilidagi unlilar soni...

A) 6ta C) 9ta

B) 8ta D) 11ta

7.O'zbek tilidagi z o'rnida chuvash tilida r ning qo'llanishi qaysi fonetik hodisaga misol bo'ladi?

A) labdaizm C) singarmonizm

B) rotatsizm D) assimilyatsiya

O'quv loyihasi

Mavzu:	**Turkiy tillarning fonetik xususiyatlari**
Ishtirokchilar:	5 talabadan iborat guruh
Ta'limning maqsadi:	turkiy tillarning fonetik tizimi, unli va undoshlar tavsifi, tasnifi, turkiy tillarning o'ziga xos tabiatini belgilaydigan singarmonizm mohiyatini o'zlashtirish.
Rejalashtirilayotgan o'quv natijalari:	hozirgi turkiy tillarning fonetik xususiyatlarini umumlashtirish, turkiy tillarga va o'zlashma so'zlarga xos fonemalarni tavsiflash, fonetik jarayonlarning so'z grammatik strukturasidagi o'rnini yoritish.
Loyihalashtirish faoliyati bo'yicha talaba quyidagi amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladi:	-turkiy tillar fonetikasining asosiy masalalarini umumlashtirish; -turkiy tillarning o'ziga xos fonetik xususiyatlarini ajratish; -fonetik o'zgarish, morfologik qayta bo'linish hodisalarini misollar asosida yoritish; g) turkiy tillar fonetik tizimini loyiha taqdimoti asosida yoritish.
Talabalar loyihani muvaffaqiyatli bajarishlari uchun lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar quyidagilardan iborat:	turkiy tillarning fonetik tizimi; unli va undoshlar tavsifi, singarmonizm, ikkilamchi cho'ziqlik hodisasi, singarmonizmning hozirgi turkiy tillarda saqlanib qolish darajasini tahlil qilish.

Talaba avval o‘zlashtirilgan quyidagi bilimlarni mustahkamlaydi:	tovush va fonema, fonetik o‘zgarishlar, morfologik qayta bo‘linish, so‘z grammatik strukturasidagi o‘zgarishlarni izohlash.

3-§.TURKIY TILLAR LEKSIKASI

Asosiy tushunchalar: *leksika, leksema, semantika, semantik o‘zgarishlar, semantik kengayish, semantik torayish, o‘z qatlam, o‘zlashgan qatlam, turkiy so‘zlar, forscha-tojikcha so‘zlar, arabcha so‘zlar.*

Turkiy tillarni bir til oilasiga birlashtiruvchi va boshqa til oilalaridan farqlovchi xususiyatlardan biri leksik tarkibning bir-biriga yaqinligi hamda grammatik qurilishning mushtarakligidir. Shuning uchun chuvash va yoqut tillaridan boshqa hamma turkiy tillar bir-biriga tushunarlidir.

Tildagi barcha so‘zlar uning lug‘at boyligini tashkil etadi. Tilning lug‘at boyligi ikki manba – ichki va tashqi manba orqali ortib boradi. Boshqa tillardan so‘z olish natijasida turkiy tillarda ham o‘z qatlam va o‘zlashgan qatlam farqlanadi.

O‘z qatlam. O‘z qatlamga turkiy tillarga oid, shuningdek, turkiy tillar uchun umumiy bo‘lgan so‘zlar kiradi. Turkiy tillar lug‘at tarkibida umumturkiy so‘zlar asosiy miqdorni tashkil etadi: *tosh, tog‘, yer, bosh, suv, til, qo‘l, kishi, bola; oq, qora, qizil, ko‘k, sariq, yashil, yaxshi, yomon; bir, ikki, uch, besh, olti, yetti, yuz, ming: men, sen, u, biz, siz, bu, shu; kel, ol, bor, tur, qara; ildam, erta, indin, ilgari.*

Turkiy tillarning bevosita o‘ziniki bo‘lgan qatlam tilning ichki imkoniyatlari asosida hosil bo‘lgan so‘zlardan iborat. Bunda uch holat kuzatiladi:

1) asli turkiy so‘zlardan shu tildagi affikslar yordamida yasalgan so‘zlar: *qatnashchi, terimchi, og‘machi, birlashma*;

2) boshqa tildan o‘zlashgan so‘zlarga turkiy qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida hosil bo‘lgan so‘zlar:

a) arabcha so‘zlardan: *aqlli, mashhurlik*;

b) forscha- tojikcha so‘zlardan: *mardlik, go‘shtli;*

d) ruscha-baynalmilal so‘zlardan: *limonli, sportchi.*

3) o‘zlashgan so‘zga o‘zlashgan qo‘shimchani qo‘shish natijasida hosil bo‘lgan so‘zlar ham ichki imkoniyat asosida yasalgan so‘z hisoblanadi: *kitobxon, doimiy, adabiyotshunos.*

Turkiy tillar leksikasining umumiy xususiyatlari quyidagicha:

1. O'zak aksariyat o'rinlarda cv (undosh + unli) qolipida bo'ladi.

2. Turkiy so'zlarda ot-fe'l omonimligi ko'p uchraydi: *to'y, tut, yoz.*

Turkiy tillarda omonimiyani yuzaga keltiruvchi hodisa – qadimgi turkiy til so'zlariga xos turkum sinkretizmi o'z ifodasini topgan. E.V.Sevortyan tomonidan "fe'l-ot asoslar" deb nomlangan bu hodisa turkiy tillarning boshlang'ich taraqqiyot bosqichlarida bir bo'g'inli leksik asosning ayni bir lug'aviy ma'noga ega bo'lgani holda ism sifatida ham, fe'l sifatida ham ishlatilishini ifoda etadi. E.V.Sevortyan o'z qarashlarida "fe'l-ot omonimligi", "fe'l-ot omoformalar" terminlarini qo'llagan. Shu bilan bir qatorda, bu hodisani "leksik-morfologik sinkretizm" deb qarash to'g'riroq ekanligini e'tirof etgan.[36] Hozirgi o'zbek tilidagi *yoz, tut, shish, to'y* kabi so'zlarda turkum sinkretizmi xususiyatlari namoyon bo'ladi.

3.Turkiy so'zlarda tarixiy fonetik o'zgarishlar sezilib turadi: *yiğoč-yağač; jil-yil, jilan-yilan -ilan; sal jilmoq-siljimoq.*

4.Tana a'zolari nomlari, asosan, turkiy qatlamga oid: *köz, quloq, til, baš, qaš.*

5.Tub fe'llar turkiy hisoblanadi: *ber, bil, qač, kir, qoy, tol, bur, ayt.*

6.Sonlar (*beš, yetti*), olmoshlar (*men, siz*) turkiy qatlamga mansubdir.

7.Turkiy tillarda so'z tartibi quyidagicha:

asos+so'z yasovchi+lug'aviy shakl yasovchi+sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha.

qo'y + chi + lar + imiz

Qadimgi turkiy til davri turkiy tillarning umumtaraqqiyot bosqichiga xos xususiyatlarning to'laligicha namoyon bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bu davr tiliga oid tadqiqotlarda turkiy tillarning fonetik, leksik, grammatik taraqqiyotiga xos umumiy jihatlarning kuzatilishi qayd etilgan.[37] XV asrning leksik xususiyatlari aks etgan nomalarda qadimgi

---

36 Севортян Э. В. Этимологический словарь тюркских языков (Общетюркские и межтюркские основы на гласные). М.:Наука.1974. –С.32-40.

37 Батманов И.А. Язык енисейских памятников древнетюркской письменности.-Фрунзе,1959; Насылов В. М. Язык орхона-енисейских памятников.-М.,1960; Раджабов А.А. Язык орхона-енисейских памятников древнетюркской письменности. Дисс. ... канд. филол. наук. -Баку,1967; Махматкулов М. Аналитический способ словообразования в языке древнетюркских памятников. Дисс. ... канд. филол. наук.-Ташкент,1973; Аманжолов А.С. Материалы и исследования по истории древнетюркской письменности. Дисс. ... д-ра. филол. наук.-Алма-Ата, 1975 va h.k

turkiy tilga mansub bir qator so‘zlarning mavjudligi kuzatiladi.[38] Navoiy asarlarida 1400ga yaqin qadimgi va eski turkiy til so‘zlari qo‘llangan.[39] “Boburnoma”da qadimgi turkiy til davrida keng iste’molda bo‘lgan 1700dan ortiq umumturkiy so‘z uchraydi. Eski turkiy til va eski o‘zbek tili harbiy leksikasining semantik-funksional, tarixiy-etimologik, struktur-grammatik tahlili ko‘pgina harbiy terminlar XI–XV asrda arabcha, forscha-tojikcha, ayniqsa, mo‘g‘ulcha o‘zlashmalar bilan ifodalana boshlaganini ko‘rsatsa-da, eski o‘zbek adabiy tili harbiy leksikasi asosini qadimgi turkiy so‘zlar tashkil etgan. Eski o‘zbek tili manbalariga doir tadqiqotlar ham shu fikrni tasdiqlaydi. XI–XIV asrlarda yaratilgan qo‘lyozma manbalar tilida iste’mol qilingan 700ga yaqin ijtimoiy-siyosiy terminlarning 640dan ortig‘i Navoiy asarlarida kuzatilishi ta’kidlangan.[40] Qadimgi turkiy til olmoshlari ayrim fonetik o‘zgarishlar bilan eski o‘zbek adabiy tilida saqlangan.[41] Qadimgi turkiy til so‘zlarining aksariyati eski o‘zbek adabiy tili davrida hech qanday o‘zgarishlarsiz, ayrimlari fonetik yoki semantik o‘zgarishlar bilan qo‘llangan.[42]

Qadimgi turkiy tilga xos xususiyatlarning hozirgi turkiy tillarda kuzatilishi tadqiqotlarda qayd etilgan.[43] A.M.Sherbak, E.Tenishev, A.Pokrovskaya, N.Gadjiyeva, A.Koklyanova, F.Is’hoqov. A.Yuldashev-larning izlanishlari qadimgi turkiy til davriga xos so‘zlarning hozirgi turkiy tillarda nomlash (ot), ifodalash (harakat –fe’l), ko‘rsatish (olmosh),

---

[38] *Жумаев А. XV аср ўзбек номаларида қадимги туркий сўзларнинг қўлланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. - 1991. -№5. –Б. 47-49.*

[39] *Эгамова Ш. Алишер Навоий асарлари тилидаги қадимги туркий лексика тадқиқи (структур-грамматик, функционал-семантик аспектларда). Филол. фан. ном... дисс.-2007.*

[40] *Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв.- Т., 1991; Дадабоев Х. Алишер Навоий асарларидаги ижтимоий-сиёсий терминларнинг эски туркий обидалар лексикасига муносабати. Алишер Навоий туғилганининг 550 йиллигига бағишланган илмий конференция материаллари.-Т., 1991.-Б.68-70.*

[41] *Юсуфов Б. Местоимения в староузбекском литературном языке (XV-XVI вв.). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. -Ташкент, 1988. -Б.14-19.*

[42] *Насыров И. Лексика “Маджалис ан-нафаис” Алишера Навои. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук.-Т., 1980. -Б. 5.*

[43] *Аширалиев К. Древнетюркские элементы в современных тюркских языках. На материале орхоно-енисейских памятников. Дисс. ... канд. филол. наук. -Фрунзе, 1969; Базарова Д.Х., Шарипова К.А. Развитие лексики тюркских языков Средней Азии и Казахстана. –Т.: Фан, 1990.*

belgilash (sifat) vazifalarida ishlatilayotganligini ko'rsatadi. Turk xoqonligi davriga xos so'zlarning asosiy qismi hozirgi turkiy tillarda qo'llanadi.[44] E.Begmatov DTSga tayangan holda, qadimgi turkiy tilga xos 2500 dan ortiq so'zning hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanishini ta'kidlaydi. Bu so'zlar turli yo'nalishdagi tushuncha ifodalari bo'lib, yigirmaga yaqin leksik-semantik guruhga mansubdir.[45] Ijtimoiy sohaning turli ko'rinishlariga oid tushunchalarni ifodalovchi qadimgi so'zlar hozirgi turkiy tillarda ishlatiladi.

O'zlashgan qatlam. Turkiy tillardagi yunoncha, arabcha, forscha-tojikcha, xitoycha, mo'g'ulcha, ruscha so'zlar o'zlashgan qatlamni tashkil etadi. Turkiy tillardagi o'zlashgan qatlamning asosiy qismi arab, fors-tojik, rus tillaridan kirgan so'zlardan iboratdir.

Arabcha so'zlar diniy terminlar va turli soha nomlaridir. Arabcha so'zlar quyidagi xususiyatlarga ega:

1.*(v)f,h* harflari ishtirok etgan so'zlar, asosan, arabcha: *vazir, fikr, hosil.*

2.'(tutuq belgisi) ishtirok etgan so'zlar arab tiliga mansub: *ma'no, ta'limot, na'ra* va b.;

3.Arabcha so'zlar siniq ko'pligiga ega, ya'ni ko'plik so'z tarkibini o'zgartirish bilan hosil qilinadi: *hol-ahvol, xabar-axbor, ruh-arvoh, xulq-axloq, she'r-ash'or* va h.k.;

4.Arab tili konsonant hisoblanib, arabcha so'zlarda o'zakdoshlar leksema tarkibidagi undoshlar yordamida hosil qilinadi: *hukm-hokim-hakam-mahkama-hokimiyat; fikr-tafakkur-mutafakkir; kitob-maktab-kutubxona-maktub; sinf-tasnif; hurmat-ehtirom-marhamat-muhtaram.*

Turkiy tillardagi arabcha so'zlar: *kitob, maktab, xalq, maorif, shoir, ma'no, ilhom, san'at, tanqid, madaniyat, kashf, a'lo, odob, xat, savod, amal, oila, inson, husn, nutq, soat, avlod, savol, sinf, millat, hikoya, maqol, hayot, shamol, qadr, dohiy, mag'rur, xafa* va h.k.

Forscha-tojikcha so'zlar. Forscha-tojikcha so'zlar turkiy tillar lug'at tarkibida qadimdan mavjud bo'lib kelgan. Forscha-tojikcha so'zlar quyidagi xususiyatlarga ega:

a) ch, l ,g, z undoshlari bilan boshlanadigan so'zlar, asosan, forscha-tojikcha hisoblanadi: *lola, gul,chaman;*

---

[44] *Айдаров Г. Язык орхонских памятников древнетюркской письменности VII века.- Алма-ата, 1971.*

[45] *Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари.-Т.: Фан, 1985. -Б. 66-73*

b) *-xo'r, -noma, -do'z, -xon, -namo, -shunos, -boz, -bon, -dor, be-, no-, ser-* kabi qo'shimchalar forscha-tojikchadir.

Turkiy tillardagi forscha-tojikcha so'zlar: *osmon, oftob, bahor, baho, barg, daraxt, gul, xona, mirob, dasta, bemor, g'isht, dasht, xonadon, shogird, xaridor, sharobxo'r, serob, shirin, mard, mehribon, jonajon, kamtar, kam, chala, go'sht, non, sozanda, sabzavot, reja, dard, ombur, dugona, do'st, peshona, kaft* va h.k.

Mo'g'ulcha so'zlarning o'zlashish omillari tadqiqotlarda qayd etilgan.[46] V.I.Rassadin fikricha, Chig'atoy va uning vorislari hukmronligi davrida eski o'zbek tiliga yuzga yaqin mo'g'ulcha so'z o'zlashgan. Hozirgi turkiy tillarda mo'g'ulcha so'zlar miqdorining bundan ko'proq ekanligi qayd etilgan. Jumladan, oltoy tili shevalarida 830 dan ortiq mo'g'ulcha so'z ishlatilishi aniqlangan.[47]

Eski o'zbek tilida ishlatilgan mo'g'ulcha so'zlar shaxs otlari: *(qorovul, chag'dovul, chig'dovul, yasavul, shig'avul, kuragon, dorug'a);* harbiy kiyim-kechak nomlari: *(dubulg'a, ko'ha, o'pchin);* harbiy harakatga doir terminlar *(burong'or, javong'or, g'o'l// qo'l, shiba* kabilar)dan iborat. Mo'g'ulcha so'zlarning 97%i harbiy terminlardir. *-vul* affiksi orqali yasalgan *hiravul, eravul, bakavul, yasavul, jangdavul, chag'davul* singari harbiy terminlar eski o'zbek tilida faol qo'llangan.

Qadimgi turkiy til manbalarida *erävül* o'rnida *yezäk,* "ilg'or qism",

---

[46] *Баскаков Н.А. Алтайский язык. -М.,1958.- С. 36-44; Очерк развития и формирования алтайского языка и его диалектов.-Уч. Зап. Горно-Алт. НИИЯД. 1960. Вып. №3. -С.48-55; Натачкова Д.Ф. Материалы к изучению истории лексики хакасского языка. В. кн: Вопросы хакасской филологии. –Абакан, 1962.- С.18-20; Рассадин В. И. Монгольские заимствования в алтайском языке // Советская тюркология.- 1973.- №1.-С.62-72; он же. Монголо-бурятские заимствования в сибирских тюркских языках.-М., 1980; Татаринцев Б.И. Монгольские языковое влияние на тувинскую лексику. -Кызыл, 1976; Щербак А.М. О характере лексических взаимосвязей тюркских, монгольских и тунгусо-маньчжурских языков // Вопросы языкознания.-М.,1966.- №3; он же. Грамматика староузбекского языка.-Л., 1962. -С.238; Doerfer G. Turkische' und Mongolische Elemente im Neupersischen. Bd. I, Wiesbuden, 1963.-P.7. –Булар ҳақида қаранг: Дадабоев Х. Эски ўзбек тили обидаларида мўғулча сўзлар // Ўзбек тили ва адабиёти.-Т.,1986.-№ 6. –Б. 32; шу муаллиф. Эски ўзбек обидаларидаги мўғулча сўзлар // Адабиёт кўзгуси. -Т.,1998.-№1.-Б.126-135; шу муаллиф. Chig'atoy adabiy tilidagi mo'g'ulcha o'zlashma so'zlar: IV Uluslararasi turk dili kurultayi Bildirgilari I. -Ankara.2007. -S. 383-389.*

[47] *Рассадин В.И. Монголо-бурятские заимствования в сибирских тюркских языках.-М.: Наука, 1980.-С.19.*

ya'ni "avangard boshlig'i" ma'nosini ifodalovchi *yesăk bašı*, "ayg'oqchi otryad" ma'nosidagi *tutğaq* so'zlari ham qayd etilgan. Izohlarda *tutğaq*-ning, asosan, tunda harakat qilishi ta'kidlangan (DLTind,288). Eski turkiy til obidalarida xonni muhofaza qiluvchi (faqat tunda emas, umuman) shaxs *jatğaq* deyilgan (DLTind,119); *yatğaq, tutğaq* "(tungi otliq otryad" (DTS,592); *bilgüči* "razvedkachilar (DTS,98); *yortuğ* "jang kunlarida yoki biror yerga borishda xonning atrofida boradigan soqchilar" (DLT,III,48) ma'nosidagi turkiy terminlar keyingi davr o'zbek tili manbalarida, deyarli, uchramaydi. Bu so'zlar mo'g'ulcha terminlar o'zlashishi sababli iste'moldan chiqqan.

Fin-ugor tillari orasida chuvash tili oraliq til vazifasini o'taydi. Chuvash tiliga o'zlashgan slavyan so'zlarining aksariyati rus tili orqali o'tgan.

Tuva tilida: a) mo'g'ulcha so'zlar ko'p o'zlashgan; b) fin-ugor, samodiy, tungus-manchjur tillaridan ham so'z o'zlashgan.

Volga bulg'orlari tiliga xos qadimiy so'zlar qabrtoshlarda va boshqa yodgorliklarda saqlanib qolgan:

Aslida	Transkripsiya	Chuvash tilidagi muqobili	O'zbek tilida
جال	*jan*	*čul*	*yil*
جور	*jur*	*čur (čĕr)*	*yuz*
جيرم	*jurum*	*čirim (čirĕm)*	*yigirma*
جيات	*j(i)yet*	*čiччi (čиччĕ)*	*yetti*
جيارمشى	*j(i)yerm(i)nš*	*čipimmiš*	*yigirmanch i*
تمراج	*t(i)m(i)reč*	*tımirči (tımĕrčĕ)*	*temirchi*

Qrim-tatar tilida qo'llanadigan ayrim so'zlar (masalan: *balaban* "katta", *qaranta* "oila") hozirgi turkiy tillarda kuzatilmaydi. *Sьn* "odam", *sămsa* "burun", *kaçan* "bel", *arăm* "ayol", *čĕčĕ* "pichoq", *tulă* "bug'doy" kabi so'zlar faqat bulg'or tilida uchraydi. Bu holat turkiy tillarning eng qadimgi leksik xususiyatlarni turli darajada saqlab qolganligini ko'rsatadi. Bunda, ta'kidlanganidek, ichki taraqqiyot va tashqi omillar ta'siri muhim o'rin tutadi.

Turkiy tillar leksikasi taraqqiyotida leksemalarning semalari doirasida o'zgarish kuzatiladi. Semantik o'zgarishlar, asosan, ma'no kengayishi va ma'no torayishi bilan izohlanadi. Masalan, *oğul / oğlan, qız oğul / qız oğlan*. Hozirgi turk tilida *kız oğlan*: turkman tilida *gız oğlan*.

Ba'zi turkiy leksemalarning hozirgi qo'llanishida semantik torayish kuzatiladi. Bu holat tilning tarixiy taraqqiyoti jarayonidagi ichki qonuniyatlar hamda shu tushunchani ifodalovchi boshqa yasama leksik birlikning shakllanishi yoki boshqa tilga oid leksik birlikning o'zlashishi bilan izohlanadi.

Oğlaq so'zi **ulaq** shaklida ham uchraydi, *oğul* bilan asosdosh. Bu so'z yoqut tilida *uol* shaklida "o'g'il" ma'nosi bilan birga "nevara" ma'nosida ham ishlatiladi. L.Bernshtam yoqut tiliga asoslanib, *oğul* so'zi umuman avlodni bildirishini ta'kidlagan.[48] A. Kononov *oğul* "ona" ma'nosildagi **oğ** va kichraytiruvchi **-ul** affiksidan iborat, degan fikrni aytadi (*qiyos: siŋil*).[49]

Singil / siŋil o'rxun-enasoy yodgorliklarida ham uchraydi. *Siŋil* chulim turklari tilida "erning ukasi yoki jiyani" ma'nosida ishlatiladi.

Eng qadimgi davrlarga xos bo'lgan *aka* so'zi "Boburnoma"da ayollarga nisbatan qo'llangan. *Maxfi kišilär barıb äkäm bilä yaŋa bilä, Pâyanda Sultânbegimni "aka" der edim (BN,146,I);* "Boburnoma"ning 1960-yildagi nashrida ham, Gulbadanbegim asarida ham *oka* shaklida keltirilgan. Gulbadanbegim *onam* o'rnida *okam hazratlari* birligini ishlatgan.[50] Bu so'z Eyji Mano matnida *äkä* shaklida berilgan[51]. M.Salye tarjimasida ham *äkä* ishlatilgan[52]. Ayollarga nisbatan ishlatilgan *aka* so'zi o'zbek tilidagi lug'atlarda uchramaydi. Pave de Kurteyl lug'atida "ona" ma'nosidagi mo'g'ulcha so'z, deb izohlangan.[53]

Chuvash tilida *aka* so'zi *akka* shaklida "opa", "ota tomonidan buvining opasi" ma'nolarida qo'llanadi.

Chig'atoy tilida *ağača, äkäčä* so'zlari "begim", "opa" ma'nolarida ishlatilgan. Bu so'zlarda *-cha* jinsni ifodalashga xizmat qilgan va ayollarga nisbatan qo'llangan.

Turkiy tillar leksikasi taraqqiyotida ma'no ko'chishi turli usullar yordamida yuzaga kelgan. Masalan, metonimiya asosida qabila nomlari

---

[48] *Бернштам А. К семантике термина оғул "сын" // Язык и мышление.-Т.IX. –М.-Л., 1940.-С. 97.*

[49] *Кононов А. К этимологии слова огул "сын". Филология и история монгольских народов. Памяти акад. Б.Я.Владимирцова. -М.,1958.-С.175-176.*

[50] *Гулбаданбегим. Хумоюннома.-Т.: Фан, 1959.*

[51] *Zahir al-din Muhammad Babur. Bābur-nāma (Vaqāyi). Critical edition based on four Chaghatay texts wit introduction and notes by Eiji Mano Kyoto, Syokado, 1995.-P.300.*

[52] *Бабурнаме. Перевод М. Салье. -Т.:Глав. ред. энцик.,1958. -С. 224.*

[53] *Pavet de Courteille A.Dictionnaire Turk – Oriental. Amsterdam, 1972. -P.137.*

odamlarga nisbatan ishlatilgan. V.Vladimirsov mo'g'ullar haqida yozar ekan, *tutukul'yut* qabilasidagi erkaklar *tutukultay*, ayollar *tutukulchin* deb atalganini ta'kidlaydi.

Ayrim so'zlar semantikasidagi o'zgarishlar qism nomining butun denotatni anglatishi va, aksincha, butun nomi bilan denotat qismini nomlash kuzatiladi. M., *tam* qadimgi turkiy tilda "devor"; "uyning ustki qismi"; "uy" ma'nolarida qo'llangan (DLT.I,299). Bu ma'nolar hozirgi turkiy tillarda va shevalarda saqlanib qolgan. Ayrim turkiy tillarda mazkur so'z farqli ma'nolarda qo'llanadi. Jumladan, qozoq tili shevalarining janubi-sharqiy qismida *tam* "yerto'la", shimoli-g'arbiy qismida "qabr" ma'nolarida ishlatiladi. Mo'g'ul tilida bu so'zning "tubsiz chuqur" ma'nosi kuzatiladi. "Shajarayi tarokima"da *tam* va *ev* so'zlari juft qo'llanib, "shahar" tushunchasini ifodalagan: *tam ev saldı "shahar qurdi"*[54] . "Boburnoma"da *tam* ikki ma'noni: obyektni hamda obyektning qismini ifodalovchi leksik birlik sifatida qo'llangan, "uy" ma'nosida kelgan:. *...tamğa va yığačqa ošbu tišlärini qoyub, žörlab yıqıtur (BN,199,I)*; "uyning ustki qismi", "kuzatish joyi" ma'nolarida qo'llangan: *Kun tušga yavuq tamdın tüshüb, meniŋ qašımğa kelib aytadurkim, Yusuf daruğa keltädür (BN,99,II). Tam* so'zi semantikasida o'zgarish yuzaga kelib, hozirgi o'zbek adabiy tilida ma'no taraqqiyoti (sinekdoxa) asosida "uyning, binoning ustini bekitib turuvchi tepa qismi"ni ifodalaydi (O'TIL,IV,139). "Uy" ma'nosi ayrim shevalarda saqlanib qolgan.

Turkiy tillarda so'zlar tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, juft, takror ko'rinishda bo'ladi. Sodda so'zlar: *iŋäk* - ozarb., uyg'., o'zb. *inäk*, olt., gag., qirg'., tuv., turk, turkm., xak. *inek*; chuv. *ene;* yoqut. *inah*. Qadimgi turkiy tilda: *iŋäk*.

Tuva tili shevalarida *jalaŋ* leksemasi to'rt yoshdan oshgan qoramol uchun ishlatiladi. *Quralay / kuralai*: boshq. *koralai,* qoz. *kuralai*, o'zb. (dial.) *kuralay*. L. Budagov lug'atida "yovvoyi echki bolasi" ma'nosida qayd etilgan.

Qo'shma so'zlar: turk. *sačlı sığır* "bizon"; turkm. *dere sığırı* "bug'u"; turkm. *mal ğara* "qoramol"; ozarb. *dağ kečisi*, qirg'. *tō ečki* "tog' echkisi"; *kör sıčan*; boshq. *hukïp sıskan*, gag. *kelemä sıčan* "yumronqoziq", qoz. *mujıma tıškan* "kalamush"; *yarkanat* "ko'rshapalak".

O'ziga xos taraqqiyot bosqichini o'tagan, milliy qadriyatlarni, urf-odat, an'analarni o'zida mujassamlantiruvchi muloqot vositasi hisob-

[54] *Сафаров М. Наблюдения по лексике тюркских языков // Исследования по лексике и грамматике тюркских языков. -Т.: Фан, 1980. -С. 126.*

langan o‘zbek tili tabiatiga xos jihatlar shu tilning umumturkiy taraqqiyot davridagi xususiyatlari tahlilida yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilining umumturkiy taraqqiyot davriga xos fonetik, leksik, grammatik xususiyatlar o‘sha davrda yaratilgan manbalarda, og‘zaki ijod namunalarida, dialektlarda o‘z ifodasini topgan.

Yozma manbalar muayyan davr tilini imkon qadar to‘liq aks ettiradi. Shu bilan bir qatorda, til hodisalarining keyingi holati, lingvistik jarayonlarni ifodalashda, leksema semantikasidagi o‘zgarishlarni, chunonchi, semantik torayish, ma’no kengayishi hodisalarini tahlil qilishda dialektlarning alohida o‘rni bor. Bu jihatdan qadimgi turkiy til xususiyatlari, leksik birliklarning dialektlarda saqlanib qolishi va hozirgi o‘zbek tili davriga qadar yetib kelishida shevalarning ahamiyatini ta’kidlash joiz.

Ta’kidlanganidek, sheva va lahjalar adabiy til taraqqiyotida nafaqat ichki omil sifatida, balki qadimgi xususiyatlarni aks ettiruvchi manba sifatida ham ahamiyatlidir. Dialektlarning qadimgi turkiy til davriga xos xususiyatlarni o‘rganish, leksemalar semantikasidagi jarayonlarni tahlil qilishdagi ahamiyati quyidagilarda ko‘rinadi:

1. Dialektlarda hozirgi adabiy tilda ishlatilmaydigan leksik birliklar qo‘llanadi. Jumladan, o‘zbek tili dialektlarida qadimgi turkiy til davriga xos *puypa-* “ezg‘ilamoq”, *dən-* “aylanmoq”, *janaš-* “yaqinlashmoq”, *buldira-* “tinmoq”, “jimirlamoq” so‘zlari saqlanib qolgan. Hozirgi o‘zbek shevalarida umumturkiy so‘zlarning aksariyat qismi ishlatiladi: *aŋ* (Iqon) “ov”(18), *alaxan* (Janubiy Tojikiston) “bezovta”, *arığ* (Urganch, Xiva, Xonqa) “toza, pok”; *emgək* (Janubiy Xorazm) “mehnat”(29), *bakavul* (Buxoro) “pazanda” (41), *baxsh’* (Andijon) “tabib”, *itmoq* (Qashqadaryo) “yo‘qolmoq” (117), *toŋmaq – doŋmaq* (Janubiy Xorazm) “muzlamoq” (89), *dəŋ* (Xorazm) “muz” (88), *bağıš – bağdaš* (Urganch, Xonqa, Shovot) “chordana qurib o‘tirmoq” (41), *inmək* (Urganch, Xiva, Xonqa, Bog‘ot) “tushmoq”, *čək- “nuramoq” (116).*[55]

2. Hozirgi adabiy tildagi so‘zlarning iste’moldan chiqqan semalari namoyon bo‘ladi. Masalan, mo‘g‘ul tiliga oid *baxši* so‘zi “jarroh” ma’nosini bildirgan. *Baxši* atamasi shaxsning kasb-korini bildiradigan, uning faoliyatini baholovchi sifatlashga aylangan; mo‘g‘. بخش – писцы при ханах Туркестана, незнавщие вовсе по персидски; монголы и хирурга называют *baxši*. В Крымском ханстве значил писец. У

[55] *Ўзбек шевалари луғати.-Т., 1978. Misollar sahifasi qavs ichida berildi.*

туркмен «трубадур. музыкант» (Bud,I,245). *Baxši* Navoiy asarlarida "kotib", "mirzo" ma'nolarida qo'llangan (ANATIL,I,231). Qadimgi turkiy tilda "ustoz" ma'nosidagi xitoy tiliga mansub *baqši* so'zi uchraydi *(DTS,82)*. Bu so'z Navoiy asarlarida qo'llangan *baxši* so'ziga aloqador: ularni "o'rgatuvchi", "bosh", yetakchi" semalari bog'lab turadi. *Baxši*da "so'zlash" semasi ham mavjud bo'lib, mazkur sema hozirda "xalq dostonchisi" tushunchasini ifodalovchi *baxši* so'zi semantikasida namoyon bo'ladi. "Boburnoma"da *baxši* so'zi tibbiyotga aloqador shaxs tushunchasini ifodalagan. *Baxši*ning "Boburnoma"da aks etgan "davolovchi" semasi hozirgi qipchoq shevalarida keng qo'llanadigan "davolovchi" ma'nosidagi *baxši* atamasi semantikasida uchraydi.

Qadimgi turkiy tillarga xos *yumurta, qarinja, bo'la, yezna, jezde, boja* kabi so'zlar shevalarda saqlanib qolgan.

Savol va topshiriqlar

1. Turkiy tillarning umumtaraqqiyot bosqichidagi leksik xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
2. Semantik kengayish va torayish hodisalari haqidagi tushunchalaringizni bayon qiling.
3. Turkiy tillardagi o'z qatlam taraqqiyoti haqida ma'lumot bering.
4. O'zlashgan qatlam so'zlarining o'zlashish omillari va belgilarini ayting.
5. Turkiy tillarga qardosh bo'lmagan tillar ta'siri haqida mulohaza yuriting.

Test sinovi

1. Turkum sinkretizmi nima?

A) "fe'l-ot" omonimligi B) ma'nodosh so'zlar yig'indisi
C) so'z turkumiga ajratish D) qarama-qarshi ma'nolar yig'indisi

2. Turkiy tillar leksikasiga xos bo'lmagan xususiyatni belgilang.

A) **cvc** tartibidagi bo'g'inlar ko'p uchraydi.
B) so'zlar *v,z, g, l* bilan boshlanmaydi.
C) undoshlar qator, qo'sh keladi.
D) qator, qo'sh unlilar uchramaydi

3. Oltoy tilidagi *dülküčü* so'zi qanday ma'noni bildiradi?

A) "tulkichi" C) "tulkiboqar" B) "cho'pon" D) "otboqar"

4. *Tam* so'zining hozirgi o'zbek tilida qo'llanishida qanday ma'no ko'chishi kuzatiladi?

A) metafora C) sinekdoxa

B) vazifadoshlik D) metonimiya

5. *Yomg'ir* so'zida tarixan qanday o'zgarish bor?

A) gaplologiya C) metateza B) sinkopa D) assimilyatsiya

6. Qaraim tilidagi *töräči* so'zining ma'nosini aniqlang.

A) "hokim" C) "hakam" B) "torchi" D) "boshliq"

7. Qaysi tillar leksikasida oltoy bobo til davriga xos xususiyatlar ko'proq saqlanib qolgan?

A) uyg'ur, o'zbek C) qozoq, qirg'iz

B) tuva, chuvash D) qozoq, qoraqalpoq

O'quv loyihasi

Mavzu:	**Turkiy tillar leksikasi**
Ishtirokchilar:	3 talabadan iborat guruh
Ta'limning maqsadi:	turkiy tillar leksikasi, lug'aviy ma'no taraqqiyoti, semantik kengayish, semantik torayish mohiyatini o'zlashtirish.
Rejalashtirilayotgan o'quv natijalari:	hozirgi turkiy tillarning leksik xususiyatlarini umumlashtirish, o'z qatlam va o'zlashgan qatlam tasnifidagi muhim jihatlarni belgilash.
Loyihalashtirish faoliyati bo'yicha talaba quyidagi amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladi	– turkiy tillar leksikasining asosiy masalalarini umumlashtirish; – turkiy tillarning o'ziga xos leksik xususiyatlarini ajratish; – *leksema, sema, so'z, omonimiya, turkum sinkretizmi, sinonimiya* tushunchalarini misollar asosida yoritish; – turkiy tillar leksikasini loyiha taqdimoti asosida yoritish.

Talabalar loyihani muvaffaqiyatli bajarishlari uchun lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar quyidagilardan iborat:	turkiy tillarning leksik tizimi; til taraqqiyotidagi ichki va tashqi omillar, umumturkiy leksemalarning struktur-grammatik xususiyatlari, hozirgi turkiy tillarda saqlanib qolish darajasi haqida bilimga ega bo'lish.
Talaba avval o'zlashtirilgan quyidagi bilimlarga ega bo'lishi kerak:	monosemiya, polisemiya, omonimiya, sinonimiya, turkum sinkretizmi, ichki manba, tashqi manbani izohlash.

4-§. TURKIY TILLAR MORFOLOGIYASI

Asosiy tushunchalar: *morfologiya, grammatik ma'no, grammatik shakl, grammatik ko'rsatkich, grammatik tarkib, morfema, affiksal morfema, sodda morfologik birliklar, murakkab morfologik birliklar, agglyutinativ tillar, flektiv tillar.*

Turkiy tillardagi qadimiy morfologik shakllar tahlil qilinganda oltoy nazariyasidagi fikrlar, ma'lum ma'noda, asoslangandek bo'ladi.

Turk–mo'g'ul–tungus aloqalari morfologiyaning hamma bo'limlarida ko'rinadi. Bu uch guruhga mansub tillar uchun umumiy bo'lgan morfologik ko'rsatkichlar to'liq aniqlangan emas (ayrim turkiy tillarda hozirgi kelasi zamon sifatdoshi, mo'g'ul tillaridagi ravishdosh, tungus-manchjur tilidagi hozirgi zamon sifatdoshi affikslari hamda o'rin va yo'nalish bildiruvchi ***-ra, -ru*** qo'shimchalarini hisobga olmaganda).

Qadimgi turk va mo'g'ul tillaridagi morfologik munosobatlarning o'xshash va farqli tomonlarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

Turk-mo'g'ul tillari uchun umumiy bo'lgan morfologik ko'rsatkich sifatida o'rin kelishigi *-da*, jo'nalish kelishigi *-a*, harakat nomi *-ku*, shaxs oti *-chi*, o'rin-joy belgisini bildiruvchi *-daki*, ot yasovchi *-m, -vul*, fe'l yasovchi *-la* qo'shimchalari xarakterlidir.

Sifat darajalarining qadimgi turkiy tildagi *üp-ürun* (oppoq), *köp-kök* (ko'm-ko'k), *süm-sücüg* (juda shirin), *qap-qara* (nihoyatda qora) shakllari mo'g'ul tilidagi *sav-sayan* (oppoq) , *ib-ilayan* (qip-qizil), *koa-koke* (ko'm-ko'k); buryatcha *dav-daxap* (oppoq), *iv-ilan* (qip-qizil), *xav-xara* (qop-qora) shakllariga mos keladi.

Turkiy tillarda ham, mo'g'ul tillarida ham *alıp kördi, alıp ketti, jazıp bardı* kabi ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari uchraydi.

Turkiy va mo'g'ul tillari o'rtasidagi morfologik yaqinlik turkiy tillarda turlicha namoyon bo'ladi. G'arbiy mo'g'ul tillarida turkiy tillar bilan umumiy bo'lgan morfologik elementlar janubiy mo'g'ul tillaridagiga nisbatan ko'proq uchraydi.

Qirg'iz va qozoq tillaridagi mo'g'ulcha til shakllariga moslik o'zbek va turkman tillarida shu kabi shakllar miqdorining ko'payishi uchun asos bo'lgan. Sibir va oltoy tillarida bunday elementlar ancha. Tuva, yoqut tillarida ham bunday elementlar ko'p uchraydi, bu shakllar ushbu tillarning o'ziga xosligini namoyon etadi.

Turkiy va mo'g'ul tillari o'rtasidagi moslikni qirg'iz, tuva, yoqut tillariga oid quyidagi faktik misollar orqali ko'rish mumkin.

Qirg'iz tilidagi mo'g'ul tili bilan umumiy bo'lgan qo'shimchalar:	Misollar
-lqa, -ol, -l,-loq, -mol.	*kalqa* "eshik"
	tonulqa " yurish"
	yasalqa "bezak"
	tabılqa "topilma"
	qarol "qorovul"
	takol "topshiriqni bajaruvchi shaxs"; "tayanch"
	boljol "belgilangan muddat"
	jırqal "nash'a"
	qozqılon "qo'zg'olon"
	samal "o'spirin"

Tuva tilidagi mo'g'ul tili bilan mushtarak bo'lgan qo'shimchalar:

Qo'shimchalar	Misollar
-l, -lqa, -lda, -mal, -duvar//-duqar	*savvarılqa* "poliz"
	čurulqa "chizish"
	čılda "yig'im-terim"
	qazımal "qazilma"
	ƀaduvar "birinchi"
	dortduqar "to'rtinchi"
	onduqar "o'ninchi"

Oltoy tillari qarindoshligiga oid fikrlar quyidagicha umumlashtirilgan:

1. Turkiy-mo'g'ul-tungus-manchjur tillaridagi aloqadorlik morfologiyaning barcha bo'limlarida kuzatiladi: masalan, ***-(i)d*** ko'plik qo'shimchasi: *torin* (ot)- *torid* (otlar), *valyaqip* (shahar) – *valyad* (shaharlar); *noxor* (o'rtoq) - *noxod* (o'rtoqlar); *tuyal* (buzoq)- *tuyad* (buzoqlar) va h.k.

2. Aniq morfologik o'xshashliklar tahlili turk-mo'g'ul-tungus-manchjur tillariga xos qadimiy shakllarni tiklash imkonini beradi. Tillardagi parallellik morfologik elementlarning bir tildan ikkinchi tilga o'tishi natijasida yuzaga kelgan.

3.Tillarning chatishuvi va o'zaro aloqasida uch nuqtayi nazar farqlanadi. Birinchi qarash tarafdorlari (A.Shleyxer, M.Myuller, qisman A.Meye) bir til tizimining bir qancha tizimlardan iborat ekanligini istisno qilgan holda, tillar chatishuvini inkor etadilar. Ikkinchi qarash tarafdorlari (G.Shuxardt, V.Pizani, Dj. Bonfante va boshqalar) uchun tillar chatishuvi hech qanday to'siq bilmaydigan doimiy va keng ko'lamli jarayon. Uchinchi qarash tarafdorlari (I.V.Boduen-de-Kurtene, V.A. Bogoroditskiy, L.V.Sherba, B.Y. Vladimirsov, A.Rosetti) nisbatan asosli fikrga ega bo'lib, tillar chatishuviga geografik, madaniy yaqinlik, savdo aloqalari, qabila va xalqlarning munosabati asosida yuzaga keladigan real tarixiy hodisa deb qarashadi. Shu bilan birga, ularning fikricha, chatishuv qaysi darajada bo'lmasin, chatishgan til asosidagi qadimiy tilni ajratish mumkin bo'ladi.

Tillarning chatishuvi haqida gap ketganda faqat leksikadagina emas, balki fonetika, morfologiya, sintaksis sohalaridagi bir tomonlama yoki o'zaro ta'sir ham nazarda tutiladi.

Affiksal morfemalar o'zak morfemaga birikish xususiyatiga ko'ra muayyan tilning o'ziga xos jihatlarini namoyon qiladi. O'zak va affiksal morfemalarning tabiatiga ko'ra tillar asosan agglyutinativ, flektiv, polisintetik, amorf tillarga bo'linadi[56].

Turkiy tillar faqat genetik jihatdan qarindosh tillar bo'lib qolmasdan, ayni paytda tipologik jihatdan ham bir xil: tillarning morfologik tasnifi bo'yicha agglyutinativ tillar guruhiga kiradi. So'z o'zagi va so'z shakllaridagi mushtaraklik grammatika tizimida ham aks etadi.

Turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili agglyutinativ hisoblanadi. *Agglyu-*

[56] *Agglyutinatsiya–lotincha "yopishtirish", fleksiya – "bukilish" ma'nosini anglatadi.*

tinatsiya «ketma-ketlik» ma'nosidagi so'z bo'lib, qo'shimchalarning o'zakka ma'lum tartibda va ketma-ket qo'shilishini ifoda etadi. Bunday hollarda o'zak va qo'shimchalar chegarasi sezilib turadi. Agglyutinativ tillarda so'z shakllari o'zgarmas holda qo'shiladigan affikslar yordamida yasaladi. Bunday tillarda affikslar, asosan, bir grammatik ma'noni ifodalaydi. Masalan, *-lar* faqat ko'plik qo'shimchasi sifatida qaraladi.

Turkiy tillarda affikslar monofunksional xarakterga ega. Masalan, *-sar* - shart mayli shakli; *-moq* - noaniq shakl. Ammo ayrim affikslar bir necha vazifa uchun xoslangan. Bu holatni tilning grammatik tizimidagi taraqqiyot bilan izohlash mumkin. Masalan, *-lar* qo'shimchasi grammatik ko'plikni ifodalash bilan bir qatorda (*bolalar, qushlar*), uslubiy ma'noni ham bildiradi (*kulgular, qayg'ular*). Mazkur qo'shimchaning hurmat, kesatiq, kinoyani bildiruvchi grammatik ma'nolari uslubiy jihatlari hisoblanadi. Buyruq mayli shakli da'vat bilan birga son va shaxs ma'nolarini ham ifodalaydi.

Turkiy tillar (o'zbek tili)da o'zakka, dastavval, so'z yasovchi qo'shimcha (morfema)lar, keyin lug'aviy shakl yasovchi va oxirida sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar birikadi: *tila-k-lar-imiz-ni.*

Turkiy tillardagi affiksal morfemalar o'zak morfemadan keyin qo'shilish xususiyatiga ega. Shu jihatdan, old qo'shimchalar turkiy tillar tabiatiga xos emas. *Ser-(sersuv), no-(nomard), be-(begunoh), ba-(badavlat)*... kabi old qo'shimchalar fors-tojik tiliga xos bo'lib, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy omillar ta'sirida turkiy tillarga o'zlashib ketgan. Old qo'shimchalar ruscha-baynalmilal so'zlarda ham mavjud.

Flektiv tillarda o'zak morfema va affiksal morfema chegaralari sezilmaydi. Rus tili, arab tili flektiv tillarga mansubdir: видеть-*вижу*; *ходить-хожу; xulq-axloq; she'r-ash'or* va h.k.

Agglyutinativ tillarga mansub turkiy tillarning morfologik xususiyati quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

1. So'z doimo o'zakdan boshlanadi.

2. O'zak, asosan, o'zgarmasdir. Aksariyat hollarda o'zakdan keyin qo'shilgan har qanday affiks o'zakni fonetik jihatdan o'zgartirmaydi.

3. So'z shakllari, asosan, affikslar vositasida hosil qilinadi.

4. So'z shakllari hosil qilishda supplitiv shakllar ishtirok etmaydi, ya'ni bir so'zning turli shakllari faqat bir o'zakdan hosil qilinadi.

5. O'zak va affiks orasidagi chegara, aksariyat hollarda, aniq va

ravshan bo‘ladi. Masalan, *o‘ylandi* so‘z shaklida *o‘y* – o‘zak, - *la-* fe’l yasovchi affiks, *-n* –lug‘aviy shakl yasovchi va *di* – zamon ko‘rsatkichi.

6. Har bir qo‘shimcha alohida grammatik ma’noni ifoda etgani bois har bir so‘z shaklida bir necha qo‘shimchalarning ketma-ket kelishi kuzatiladi.

Turkiy tillarda so‘zlar tuzilishiga ko‘ra mustaqil ma’noli va yordamchi morfemalardan tashkil topadi. Mustaqil ma’noli morfemalar o‘zak (negiz) qismdan iborat bo‘lib, bunday o‘zak morfema turkiy tillarda sinxron jihatdan yaxlit bo‘ladi, yangi so‘z va shakllarning hosil bo‘lishi uchun asos sanaladi. Otlardagi kelishik, egalik yoki makon ma’nosini anglatuvchi shakllar yordamchi morfemalar hisoblanadi. Turkiy tillarda affiksal morfemalar qo‘shimcha grammatik ma’noni shakllantirishga xizmat qiladi.

Turkiy tillarda o‘zak fonetik jihatdan quyidagi struktur ko‘rinishlarga ega (v-unli, c-undosh):

v: *u; o-(ta), u-(ni), u-(lar).*

vc: *ol, at, iš, oq, ot, eg, ek, op, ep, en, os, es.*

cv: *na, ma, de, bu, šu, ne.*

cvc: *baš, gol, yoz; sač, taš, qoy, yoq, tuš, tus, tut, tur, tik, tam.*

vcc:elt=, ant, **cvcc**:qurt, tart=, qayt= kabi o‘zak tiplari ham uchraydi.

Turkiy tillarda so‘zlarning asos qismida o‘zak va qo‘shimchalar chegarasi farqlanib turadi. Bu fikr asoslidir, chunki, birinchidan, turkiy tillarda o‘zak o‘zgarmas bo‘lgani uchun keyingi taraqqiyot davomidagi o‘zgarishlar, asosan, nutq jarayonida o‘zakdan keyin qo‘shilgan vositalarda sodir bo‘ladi. Ikkinchidan, turkiy tillarda yangi ma’no doimo tovush qo‘shish orqali hosil qilinadi, ya’ni tovush tushishi kam kuzatiladi. Yangi so‘z ham agglyutinatsiya qoidasiga ko‘ra – o‘zakka so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shish orqali hosil qilinadi.

Agglyutinatsiya turkiy tillarning asosiy tipologik xususiyatidir. U orqali quyidagi xususiyatlar belgilanadi:

– morfemalarning aniq chegarasi;

– morfemalarning fonologik jihatdan o‘zgarmasligi;

– morfemalarning aksariyat hollarda bir ma’noliligi;

– morfemalarning nisbatan mustaqilligi.

Turkiy tillarda affikslarning asosga agglyutinatsiya yo‘li bilan qo‘shilishi, o‘zak va affiksal morfemalarning joylashish tartibi va affikslarning

muayyan ketma-ketlikda birikuvi grammatik ma'nolar tizimini hosil qiladi. Affiksal morfemalarning o'zakka qo'shilish tartibi o'zak morfema ma'nosiga bog'liq holda yuz beradi.

Turkiy tillarning aksariyatida murakkab affikslar qo'llanadi. Bu holat eski uyg'ur, yoqut va chuvash tillarida, ayniqsa, keng tarqalgan. Ushbu jihat o'zbek tilida ham kuzatiladi: *mo'l-chilik*. Ba'zi affikslarning murakkab ko'rinishga kelib qolishi bois morfemalarning arxetiplarini tiklash mushkul. Bu muammoni etimologik tadqiqotlar orqali tarixiy so'z yasalishini kuzatish natijasida bartaraf etish mumkin.

Turkiy tillarga oid ayrim affikslarda flektiv xususiyat namoyon bo'ladi. Ba'zi o'zak va qo'shimchalar tarixiy taraqqiyoti davomida o'zgarishlar kuzatiladi. O'zak va qo'shimchalarning birikib ketishi, qo'shimcha qo'shilishi natijasida muayyan tovushlarning tushib qolishi fuziyani namoyon qiladi. Affiksal morfemalarning kelib chiqishi masalasidagi muammolardan biri affikslar fuziyasi, ya'ni qo'shilib ketishi, birlashishi talqinidir. Turkiy tillarda bir xil ma'noli va hatto har xil ma'noli (vazifadagi) affikslar ham fuziya jarayonida o'zgarishga uchragan. Bunday holat qo'shma fe]llarda ham kuzatiladi. Masalan, *olib kel* no'g'ay tilida: *akel*.

Chuvash tilidagi so'zlarning morfem tarkibi turkiy qo'shimchalardagi flektiv holati bobo turk davrida ham mavjud bo'lganligini asoslaydi. Chuvash tili morfologik tuzilishga ko'ra qo'shimchalar muayyan tartibda qo'shiladigan agglyutinativ tillar qatoriga kiradi. Unda so'z yasalishi va so'z o'zgarishi negiz yoki asosga turli affikslar qo'shilishi orqali yuzaga keladi. Hosil bo'lgan so'zlarda negizlar ham, affikslar ham aniq farqlanadi. Masalan, *siranaymaančensenčenyex iyt* "yozilishga ulgurmaganlardan so'ra". Bu jumladagi birinchi so'z 9 ta morfologik qismdan iborat: *sir-an-ay-ma-a/n/če/-n-sen-čen-yex-iyt*.

Chuvash tilida prefikslar mavjud emas. Nutq qismida qat'iy differensiatsiya(chegara)ning yo'qligi turk va fin tillari kabi chuvash tilining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Ko'p hollarda bir so'z ot, sifat, fe'l va ravish bo'lib kelishi mumkin. Masalan, *yanaš* "xato, xatoli, xatosiz". Natijada so'zning morfologik xususiyati uning sintaktaktik vazifasi bilan belgilanadi.

Chuvash tilida otlar bosh kelishikda doimo 0 (nol) ko'rsatgichga ega bo'ladi, asos esa doim unli (**o** va **i** dan boshqa) va undosh tovushlar bi-

lan tugashi mumkin. Qattiq va yumshoq tuslanish variantlari bir-biridan shunisi bilan farq qiladiki, *a, ɔ, u* qattiq variantlari yumshoq variantdagi *ye, yo, o'* larga mos keladi.

O'rin-payt va chiqish kelishiklarining ikki xil varianti bor: *-ta,- te, -tan* affikslari faqat *l, n, r* asosli so'zlarga qo'shiladi. Masalan, *yal-yalta, yaltan* "qishloq", *kil-kilte-kilten* "uy", *varman-varmanta-varmantan* "o'rmon" va boshqalar. Unli va undosh bilan tugovchi barcha so'zlar *ra, re, ran, ren* qo'shimchalarini qabul qiladi.

Qadimgi turkiy til umumturkiy morfologik xususiyatlarni namoyon qiladi. Qadimgi turkiy tilda so'zlar ham, morfemalar ham, qattiq va yumshoq turlarga bo'linadi. Qadimgi turkiy tilda birlamchi cho'ziq unlilar ham farqlangan, undoshlarda jarangli va jarangsiz uyg'unlik bor.

Qadimgi turkiy adabiy tili morfem tuzilishining hozirgi o'zbek adabiy tili bilan mos keluvchi va farq qiluvchi tomonlari mavjud. Ba'zi shakllar iste'moldan chiqqan bo'lsa, ba'zilarining vazifasi o'zgargan. Ayrimlari turli fonetik o'zgarishlarda hozirgi turkiy tillarda uchraydi. Qadimgi turkiy tilda mavjud bo'lib, hozirgi o'zbek adabiy tilida saqlanmagan, lekin umumxalq tilida yoki boshqa turkiy tillarda uchraydiganlari ham yoq emas. Qadimgi turkiy tilda faol sanalgan ayrim shakllar hozirgi o'zbek tilida qoldiq sifatida kuzatiladi.

Ma'lumki, davr o'tishi bilan morfemalar ma'no o'zgarishiga uchrashi mumkin; so'z-morfema ham, affiks-mofema ham o'z ma'nosini yo'qotadi. Ya'ni ulardan biri iste'moldan chiqadi. Shunda tarixan mustaqil morfemalar bir so'zga aylanib, hozirgi paytda ma'noli qismlarga bo'linmaydi. Bunga *qattiq, yuksak, yuksal, egiz, siljimoq* so'zlarini misol sifatida keltirish mumkin.

Qadimgi turkiy til morfemalari hozirgi adabiy tildagidan fonetik variantlarining ko'pligi bilan farqlanadi. Hozirgi adabiy tilda ko'proq morfologik prinsipga amal qilinsa, qadimda fonetik prinsip ustun bo'lgan. Talaffuz qanday bo'lsa, yozuvda ham ko'proq shunga amal qilingan va bu adabiy til me'yori hisoblangan.

Savol va topshiriqlar

1. Turkiy tillarning umumiy grammatik xususiyatlarini bayon eting.

2.Turk–mo'g'ul–tungus-manchjur aloqalari aks etgan tilshunoslik sohalari haqida fikr bildiring.

3. Morfologik birliklarning turlarini ayting.
4. Sodda morfologik birliklarni misollar asosida tushuntiring.
5. Murakkab morfologik birliklar haqida fikringizni bayon eting.

Test sinovi

1.Turkiy tillar morfologik xususiyatlariga ko'ra qaysi guruhga mansub?

A) flektiv C) izolyativ
B) agglyutinativ D) polisintetik

2.Buryatcha *dav-daxap, iv-ilan, xav-xara* so'zlarining ma'nolarini belgilang.

A) "tap-taxir", "qip-qizil", "qop-qora"
B) "oppoq", "ev-ilon", "qop-qora"
C) "oppoq", "qip-qizil", "xavf-xatar"
D) "oppoq", "qip-qizil", "qop-qora"

3. *alıp kördi, alıp ketti, jazıp bordı* so'z shakllarida grammatik ma'no qanday usul orqali ifodalangan?

A) analitik usul orqali C) morfologik usul orqali
B) sintetik usul orqali D) so'zlarni juftlash orqali

4. O'zak va affiksal morfemalarning tabiatiga ko'ra tillar asosan qanday guruhlarga bo'linadi?

A) agglyutinativ, flektiv, polisemantik, amorf
B) agglyutinativ, flektiv, polisintetik, amorf
C) agglyutinativ, adyektiv, polisintetik, amorf
D) agglyutinativ, flektiv, polisintaktik, amorf

5. Qaysi qatorda turkiy tillarga xos xususiyat noto'g'ri ko'rsatilgan?

A) so'z doimo o'zakdan boshlanadi.
B) o'zak, asosan, o'zgarmasdir.
C) so'z shakllari, asosan, affikslar vositasida hosil qilinadi.
D) old qo'shimchalar qadimgi davrga xosdir.

6. Mo'g'ul tilida va ayrim turkiy tillarda uchraydigan *-duqar (dortduqar)* qo'shimchasi...

A) so'z yasaydi C) lug'aviy shakl hosil qiladi
B) sintaktik shakl hosil qiladi D) sintaktik munosabat hosil qiladi.

7. Murakkab fe'l yasovchi *-lan* affiksi bilan yasalgan so'zlarni toping

A) otlandi, o'ylandi
B) ikkilan, yuzlan
C) shaklan, xayolan,
D) uylandi, ishlandi

5-§.TURKIY TILLARDA GRAMMATIK MA'NONI IFODALASH USULLARI

Asosiy tushunchalar: *grammatik ma'no, morfologik birliklar, grammatik shakl, grammatik ko'rsatkich, to'plam va tasnif, so'z turkumlari, turkumlash mezonlari. ismlar, mustaqil so'z turkumlari, yordamchi so'z turkumlari.*

Morfologik birliklar. Fonemalar singari morfologik birliklar ham sodda va murakkab birliklarga bo'linadi. Morfemalar sodda morfologik birliklardir. Murakkab morfologik birliklarni analitik so'z shakllari tashkil etadi.

Turkiy tillarda grammatik ma'no quyidagi usullar orqali ifodalanadi.

1. Elementar morfologik birliklar. Elementar morfologik birliklar boshqa tillardagi shu shakllardan farq qiladi. Ularning o'ziga xosligi agglyutinatsiya bilan bog'liq. Agglyutinativ tillardagi affikslarda mustaqil so'zlarning izlari ko'rinadi, ya'ni ko'pgina affikslar mustaqil so'zlardan yuzaga kelgan. Bunday so'z shakllarining prototiplari so'z birikmasi (sintaktik birikmalar) bo'lgan. Natijada hokim so'z o'zak morfemaga, tobe so'z affiksal morfemaga aylangan.

2. Agglyutinativ usulda grammatik ma'no ifodalash bilan birga, fleksiya asosidagi shakllar ham voqelanadi (ichki fleksiya). Masalan: *kajni* "qayni", *kajna* "qaynona", *bıs* "arralamoq"// *bis-* "kesmoq", *ata, ati* (ota), *anı* (ona). Turkiy tillardagi fleksiya morfologik tipning shakllanishiga bevosita aloqador bo'lmagan muayyan fonetik qonuniyatlar natijasidir.

3. Fonetik ikkilantirish, leksik urg'uni o'zgartirish grammatik ma'noni ifodalashning bir usulidir: *barma-* (fe'l) - *barma* (yurish); *salma* -(fe'l) – salma- (joylash); turk tilida: *arkadašım* (o'rtog'im) - *arkadašım* (men o'rtoqman). Bunda ayrim holatlarda lug'aviy ma'no hosil bo'lishi ham kuzatiladi: ozarb. *axšam* (kecha) - *axšam* (kechqurun); *sabah* (ertalab) - *sabah* (ertaga).

Fonetik usuldagi daraja hosil qilish ham grammatik ma'no ifodalashga xizmat qiladi: *qip-qizil, yam-yašil.*

4. O'zak (negiz)ning takror qo'llanishi natijasida grammatik ma'no ifodalanadi. Negizning to'liq va qisman takrorlanishi, o'zakdagi tovushning o'zgarishi orqali grammatik ma'no aks ettiriladi: *hari – hari* (sap-sariq), *kizil-kizil* (qip-qizil), *yašil-yašil* (yam-yashil): *kosa-kosa suv; arava-arava o'tin; kiz-miz* "qizlar", *taba -mabak* "uy-ro'zg'or ashyolari"; *köpdi köp* "ko'pdan ko'p"; *azdın az* "kamdan kam"; *o bana dušman-dušman baki jordu.* "U menga dushmanlarcha qaradi".

5. Turli so'z shakllari tarkibida keluvchi morfologik birliklarning o'zaro aloqasi natijasida analitik shakllar hosil qilinadi. Turkiy tillarda ayrim fe'llarning sintetik shaklga o'tish holati ham o'ziga xos grammatik ma'no ifodalash usulidir: *jiqilip kete jazdim* (yiqilib keta yozdim), *otup bara jam* (o'tib boraman).

6-§. TURKIY TILLARDA SO'Z TURKUMLARI

Asosiy tushunchalar: *so'z turkumi, ismlar, mustaqil, yo'rdamchi so'zlar turkumi, lugaviy ma]no, grammatik ma'no.*

So'zlarning o'ziga xos belgi-xususiyatlariga ko'ra ma'lum guruhga ajratilishi so'z turkumlari deyiladi. So'zlarni turkumlarga ajratishda muayyan guruhga mansub so'zlarning umumgrammatik kategorial semantikasi va o'ziga xos lisoniy belgilari: morfologik (so'z yasalishi va so'z tarkibi o'zgarishi) hamda sintaktik (so'zlarning birikish) xususiyatlari nazarda tutiladi. Shu belgilar asosida ot, sifat, ravish, fe'l kabi mustaqil so'z turkumlari ajratilgan. Turkiy tillarda son va olmoshlar shakliy belgilari asosida emas, semantik xususiyatiga ko'ra tavsiflanadi. Ayrim turkiy tillarda, xususan, hozirgi turk tilida sifat, son, olmosh, ravish guruhiga kiruvchi so'zlarning ismlar turkumi(ot)ga kiritilishida ham ana shu semantik xususiyat asos qilib olingan.

So'zlarni turkumga ajratish tilshunoslik fan sifatida shakllangan dastlabki davrlarda boshlangan. Dastavval, hindlar so'zlarni *otlar, fe'llar, yordamchilar*ga ajratgan. Keyinchalik, arablar *ismlar, fe'llar, yordamchi so'zlar* tarzida guruhlagan. Bir qator xalqlar ismlar ichidan *ot, sifat, son, olmosh, fe'l*ni mustaqil turkum sifatida umumlashtirgan. Hozirgi turkiy tillarda ismlar nomi ostida bir necha so'z turkumi mujassamlangan.

Jumladan. o'zbek tilshunosligida *ot, sifat, son, olmosh, sifatdosh, harakat nomi, taqlid so'z* ismlar guruhi ostida birlashtirilgan. Ismlarni birlashtiruvchi asosiy omil ularning ko'plik, kelishik, egalik shakllarini olish xususiyatiga ega ekanligidir.

Turkiy tillardagi so'z turkumlari o'ziga xos xususiyatlari bilan flektiv tillardan farq qiladi. Turkiy tillarda grammatik rod kategoriyasi mavjud emas. Ot turkumidagi so'zlar birlik va ko'plikda qo'llanadi. Son, olmosh turkumida yasalish mavjud emas. Grammatik ma'no, asosan, yordamchi so'zlar bilan ifodalanadi.

So'zlarning morfologik tarkibini o'rganish, qardosh tillar bilan qiyoslash, flektiv tillardagi hodisalardan farqli tomonlarini tahlil etish turkiy tillarda so'z o'zgarishining xilma-xil ekanligini ko'rsatadi. Turkiy tillarda so'z turkumlari miqdoriy belgisiga ko'ra farqlansa ham, sifat belgisiga ko'ra umumlashtiruvchi jihatlarga ega.

O'zbek tilida so'z turkumlari jami 12 ta. Ular, asosan, besh guruhga bo'linadi. So'zlar aniq narsa, belgi, harakat, holat kabilarni bildirishi yoki bildirmasligiga ko'ra mustaqil so'zlarga bo'linadi. Mustaqil so'zlar turkumi: *ot, sifat, son. olmosh, fe'l, ravish.* Yordamchi so'zlar turkumi: *ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.* Modal so'zlar, undov so'zlar, taqlid so'zlar o'ziga xos jihatlari bilan yuqoridagi so'z turkumlaridan ajralib turadi. Shu bois ular alohida-alohida guruhni tashkil etadi.

Savol va topshiriqlar

1.So'zning lug'aviy va grammatik ma'nolariga misollar keltiring.
2.Grammatik ma'no va uning yuzaga kelish usullarini ko'rsating.
3.Faqat grammatik ma'no ifodalovchi birliklar haqida so'zlang.
4.Grammatik ma'noning umumiyligini misollar asosida tushuntiring.
5.Morfologik birliklar haqidagi fikringizni bayon eting.

Test sinovi

1. *hari – hari* (sap-sariq), *kizil-kizil* (qip-qizil) so'z shakllarida grammatik ma'no qanday vosita orqali ifodalangan?

A) analitik usul orqali C) morfologik usul orqali
B) sintetik usul orqali D) so'zlarni takrorlash orqali

2. *Morfologik birliklar* terminining izohini toping.

A) grammatik ma'noni ifodalovchi vositalar

B) leksik ma'noni ifodalovchi vositalar

C) grammatik tizimni ifodalovchi vositalar

D) grammatik munosabatlarni ifodalovchi vositalar.

3. Turk tilidagi *arkadašim* (o'rtog'im) - *arkadašim* (men o'rtoqman) so'zlarida grammatik ma'no qanday usul bilan hosil qilinadi?

A) leksik urg'uni o'zgartirish C) morfologik usul orqali

B) sintetik usul orqali D) so'zlarni juftlash orqali

4. Hozirgi turkiy tillarda ismlar nomi ostida guruhlangan so'zlarni belgilang.

A) ot, sifat, son, olmosh, sifatdosh, harakat nomi, ravish

B) ot, sifat, son, olmosh, sifatdosh, harakat nomi, modal so'z

C) ot, sifat, son, olmosh, sifatdosh, harakat nomi, taqlid so'z

D) ot, sifat, son, olmosh, ravish, sifatdosh, harakat nomi, taqlid so'z

5.Elementar (sodda) morfologik birliklarni ko'rsating.

A) qo'shimchalar, ko'makchilar C) ko'makchilar, so'z shakllari

B) qo'shimchalar, affiksal morfemalar D) yordamchi so'zlar, ko'makchilar

6.Kompleks (murakkab) morfologik birliklarni ko'rsating.

A) qo'shimchalar, ko'makchilar

C) ko'makchilar, so'z shakllari

C) qo'shimchalar, yordamchi so'zlar

D) yordamchi so'zlar, ko'makchilar

7.Flektiv xususiyatni namoyon qilgan so'zlarni ko'rsating.

A) hol,ahvol, ruh, arvoh C) qo'zichoq, sana, ata

D) chanqa, o'yla, boyi D) qizaloq, yig'im, yasha

7-§. TURKIY TILLARDA OT SO'Z TURKUMI

Asosiy tushunchalar: *son kategoriyasi, kelishik kategoriyasi, egalik kategoriyasi, turlanish, turdosh ot, atoqli ot, aniq ot, mavhum ot, to'plam va tasnif, ot yasalishi.*

Narsa-buyum, mavhumlik ma'nosini bildiruvchi so'zlar otdir. Turkiy tillardagi ot quyidagi xususiyatlarga ega.

1. Ot turkumi son, egalik, kelishik kabi grammatik kategoriyalarga, turli ma'no hamda vazifa uchun xizmat qiluvchi funksional shakllarga, shuningdek, o'ziga xos yasalish tizimiga ega.

2. Ot sifat, son, olmosh, fe'l va ravish (barcha mustaqil so'zlar) bilan birika oladi.

3. Ot barcha gap bo'laklari vazifasida kela oladi (ega, kesim, ikkinchi darajali bo'laklar, undalma).

Ot so'z turkumi son, egalik, kelishik kategoriyalari bilan o'zgaradi. Otning noaniqligi ko'pgina turkiy tillarda *bir* so'zi yordamida ifodalansa, chuvash tilida *per* so'zi bilan beriladi. Aniqlik holati esa egalik ko'rsatkichlari (*meniŋ bodunum*) va vositasiz to'ldiruvchi (chuv. *keneken par-ka* "kitobni berchi") yoki qaratqich aniqlovchi vositasida ifodalanadi.

Otlarda son kategoriyasi. Otlarda son tushunchasi birlik va ko'plik orqali namoyon bo'ladi. Otlar nutqda har doim birlik yoki ko'plik shaklida bo'ladi. Turkiy tillarda otning son shakli (birlik va ko'plik) sintaktik munosabat bildirmaydi. Grammatik son kategoriyasi odatda birlik va ko'plikdagi shakllar qarama-qarshiligidan tashkil topadi.

Qadimgi turkiy qabilalarda grammatik son kategoriyasi shakllari o'ziga xos tarzda ifodalangan. A.N.Kononov shu nuqtayi nazardan turkiy tillarda son kategoriyasi birlik va ko'plik shakllariga ega emas, deydi. Qadimda so'zlar qo'shimchasiz holda umumlashgan narsa nomini bildirib, nutqiy vaziyat yoki matnga qarab yakka narsani yoki uning yig'indisini bildirgan (*ot* so'zi). Qadimgi turkiylar tasavvurida ko'plik jamlash, yig'ish, to'da ma'nosida ifodalangan. Masalan, hozirgi o'zbek tilida ham ayrim otlar birlik shaklida umumlashgan narsa-predmetni bildiradi: *to'da, poda.* Ko'plik shaklining sintaktik usulda ifodalanishi turkiy yodnomalarda so'zlarning takror qo'llanishida ko'rinadi, keyinroq ko'plik tushunchasi son bilan otning birikishi orqali aks ettirilgan.

Turkiy tillardagi bobo til davridan mavjud bo'lgan jamlikni bildiruvchi ko'rsatkichlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: **l, m, r, s, č, š, z, k, n.** Bu ko'rsatkichlar hozirda iste'moldan chiqqan, bir qator turkiy tillardagi so'zlar tarkibida saqlanib qolgan.

-z ko'rsatkichi – qadimgi turkiy tilda: *ikiz//ikkiz* "egiz", *mügüz* "shoxlar", *göz* "ko'zlar", *yuz, tiz* "tizza", tat. *myogez* "shoxlar", *joldašze* "o'rtoqlar". Bu affiks bir qator etnonimlar tarkibida ham uchraydi va ko'plikni bildiradi: *oğuz, qirğiz.* Bu qo'shimcha tatar tilida II shaxs ko'plikdagi buyruq-istak maylida ham mavjud: *barmağız* "bormangiz". Kishilik olmoshlarining ko'plik shakli ham *z* ko'rsatkichi yordamida hosil qilingan: *-mi+n | bi+ -z = biz ; si+n=sen| si+z=siz.*

Y.Abdurasulov qadimgi turkiy tilda birlikdagi ot sanaladigan *qaz, qız, öz, buz* kabi so'zlar tarkibida *z* undoshining borligi, o'z navbatida, *qaš, qol, ayaq, qulaq, erin, egin* kabi juftlik anglatuvchi so'zlar tarkibida *z* elementining mavjud emasligini ta'kidlab, *z* ko'rsatkichining ko'plik shakli sifatida qaralishiga to'liq isbotini topmagan holat sifatida baho beradi.[57] *Buz* so'zi anglatadigan ma'noda qisman ko'plik tushunchasi mavjud. Izlanishlar *buz* "muz" so'zining "qotmoq, yaxlamoq" ma'nosidagi *bus-* so'zi bilan aloqadorligini ko'rsatadi (ЭСТЯ.1978.23a). *Qaš, qol, ayaq, qulaq, erin, egin* so'zlarida ko'plik (yoki ikkilik) *-š,-l,-q,-n* shakllari orqali hosil qilingan.

-q (-k),-x ko'rsatkichi: yoq. *talax*, qum. *talaq* "taloq", yoq. *qumax* shor. *qumaq* "qumlar". Bu ko'rsatkich *–lıq // lik* murakkab affiksi tarkibida ham uchraydi: chuv. *yuminlix* "dubzor", qad. turkiy t. *ašlıq* "ozuqa, don".

-l ko'rsatkichi alohida affiks holida, deyarli, uchramaydi, tofalar tilidagi *ubališkı* "opalar" (*uba* "opa"), *ahališkı* "akalar" (*aha* "aka") kabi so'zlar tarkibida kuzatiladi.

-l ko'rsatkichi o'rin-joy otini yasovchi *-lıq //- lik, -laq //- lak*; jamlovchi son hosil qiluvchi *-la//-le, -lan* hamda *-lar//-ler* ko'plik qo'shimchasi tarkibida keladi: tat. *qayiliq* "qayinzor", chuv. *xırlix* "qarag'ayzor", qad. turk. *atlaq* "otlar", *itlaq* "itlar to'dasi", *bilgälär* "donishmandlar"; olt. *ekile* "ikkala", *učule* "uchala", xakas. *altalan* "oltovlon".

-m ko'rsatkichi ham murakkab affikslar – taqsim son, tartib son shakllari tarkibida uchraydi: ozarb. *učăm-učăm* "uchtadan", *birimči* "birinchi", *ikimči* "ikkinchi", *üčümčü* "uchinchi", *bešlämči* "beshinchi". Chuvash tilidagi tartib son shakli bo'lgan *-meć* qo'shimchasi tarkibida ham ***-m*** ko'plik ko'rsatkichi mavjud: *ikkemeć* "ikkinchi".

-n ko'rsatkichi jamlash olmoshi tarkibida: *barın* "hamma", jamlovchi son tarkibida: q.-balq. *učävlän* "uchovlon" kuzatiladi. Qadimgi turkiy tilda *-gün* ko'plik shakli uchraydi: *iniyigün* "ukalar", *ikägün* "ikkala", *üčägün* "uchala"; *oğlan* "o'smirlar", *erän* "erlar", *qırqın* "qizlar, joriyalar".

-r ko'rsatkichi asosan *-lar* tarkibida uchraydi: tuva va xakas tillarida *adıŋar* "otlaringiz", olt.*adağar* "otalaringiz", *dolığar* "yo'llaringiz", qirg'. *alasıŋar* "olasizlar". Chuvash tilidagi ko'plik ko'rsatkichi *-sar* tarkibida ham ***-r*** kuzatiladi: *xurinsar* "qayinzor".

-s ko'rsatkichi chuvash tilidagi *-sar, -sem* tarkibida saqlanib qolgan.

[57] *Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси.-Т.:Фан, 2009.-Б.86.*

Jamlovchi son qo'shimchasida ham **-s** ko'plik ko'rsatkichi mavjud: *iksimir* "ikkalamiz".

-č ko'rsatkichi turkiy tillardagi *barča* olmoshi tarkibida kuzatiladi: turkm. *bärčä*, q.qalp. *bärša* "barcha".

-š ko'rsatkichi turkiy bobo til davrida qayd etiladi: *adaš // - ataš* "ota – bolalari bilan", *anaš* (ona – bolalari bilan).

Birlik hozirgi turkiy tillarda nol ko'rsatkichli bo'lsa, narsalarning ko'pligi *-lar//-ler* qo'shimchasi va uning variantlari orqali ifodalanadi.

-lar //-ler: yoq. *sulgular* "otlar"; *kihiler* "kishilar".

-lor //- lər: olt. *olor* "ular" ; yoq. *bərələr* "bo'rilar".

-la //-le //-lə: uyg'. *adamla* "odamlar", *gulə* "gullar"; q.balq. *atala* "otalar".

-lur//-lir: olt. *aldalur* "hayvonlar", *qarlur* "qorlar".

-li: uyg'. *sili* "sizlar".

-nar//-ner: q.qalp. *qatunnar* "xotinlar", *senner* "senlar", tuv. *duuŋner* "quyonlar"; olt. *aŋnar* "hayvonlar", xakas. *maannar* "maynalar".

-nor: turkm. *oglonnor* "o'g'lonlar", yoq. *d'onnor* "xalqlar".

-dar//-der: ozarb. *agačdar* "daraxtlar", boshq. *quldar* "qo'llar", yoq. *sahuldar* "tulkilar"; olt. *balder* "bolalar"; uyg'. *besder* "bizlar", qoz. *sözder* "so'zlar".

-dər: olt. *kəldər* "ko'llar", yoq. *kotordər* "qushlar".

-tar //-ter: boshq. *agastar* " daraxtlar", tuv. *attar* "otlar"; *inekter* "sigirlar"; xak. *xaptar* "qoplar", yoq. *yəlattar* "yoshlar"; *tuŋuretter* "sovchilar".

-zar//zer: ozarb. *gazzar* "g'ozlar", *üküzzer* "ho'kizlar".

-ror //-rer: ozarb. *doxtorror* "doktorlar", *yarrur* "yerlar".

Chuvash tilida *-lar//-ler* qo'shimchasi yo'q. Ko'plik ***–har*** affiksi bilan ifodalanadi: *atahar* "otalar". Ko'p hollarda bu tilda qo'llanadigan *-sem//-zem* qo'shimchasi ko'plik ma'nosini bildiradi: *yuldašzem* "o'rtoqlar".

Hozirgi turkiy tillarda *-lar* qo'shimchasining funksional-semantik vazifalari kengaygan. Bu qo'shimcha flektiv tillardan farqli ravishda otdan boshqa so'z turkumlariga ham qo'shilib kela oladi (fe'l shakllari bundan mustasno). *Dadamlar keldilar* kabi o'rinlarda *-lar* ko'plik qo'shimchasi hisoblanmaydi. Aksariyat turkiy tillarda ko'plik shakli egalik, kelishik shakllaridan oldin qo'shiladi: *bolalarimizni. -lar* qo'shimchasi hurmatni bildirganda I va II shaxsda egalik qo'shimchasidan keyin keladi: *bobomlar, bobonglar.*

Turkiy tillarda affikslar, jumladan, *-lar* affiksi, keyingi taraqqiyot bosqichlarida shakllangan. Turkiy tillardagi ko'plik formasi hisoblangan *-lar*, ko'plik ma'nosini ifodalashdan tashqari, boshqa vazifalarni ham bajarish xususiyatiga ega.

1.Planeta, yulduz nomlari (Quyosh, Mars), atoqli otlarga *-lar* affiksi qo'shilganda grammatik ko'plik ifodalanmaydi. Ko'plik atoqli otlarga qo'shilganda o'zi qo'shilgan otning ko'pligini emas, balki uning boshqalar bilan birgalikda ekanligi yoki geografik nomlarga qo'shilganda shu geografik joyning kengroq, atrofdagi joylar bilan birgalikda tushunilishini bildiradi. Atoqli otlarga *-lar* qo'shilganda kishilar guruhi tushuniladi.

2. Ayrim so'zlar ma'nosiga ko'ra *-lar* ko'plik qo'shimchasini olmaydi: *xaloyiq, dada, ona.*

3. Mavhum otlarga *-lar* qo'shilganda uslubiy ma'no ifodalanadi, ma'no kuchaytiriladi: *sevgi, uyqu, aql, kambag'al, ko'ngil. Uyqularim qochdi.*

4. O'zi bir dona bo'ladigan narsa-buyumlarga *-lar* qo'shilganda ham ma'no kuchaytiriladi: *bosh, til, burun.*

5. Donalab sanalmaydigan narsa va hodisalarni bildiruvchi otlar birlik shaklida kelsa ham, aslida jamlikni bildiradi. M., *Ko'chaga qum to'kilgan* yoki *Ariq to'la suv, ichgani tashna, bolam.* Bunday so'zlarga *-lar* qo'shilsa, shu predmetning turi, navi, xili, xilma-xil ekanligi, mo'lligi anglashiladi: *unlar, yog'lar, suvlar* (gazli suv, mineral suv kabi); *bozordagi unlar.* Ba'zan *-lar* tasviriylik, ifodalilikni kuchaytiradi: *ko'z yoshini artdi – ko'z yoshlarini artdi.*

Ma'lum kasb-hunar, fan, shu kasb-hunarga, fanga oid sohani bildiruvchi otlar ko'plik shaklida qo'llanmaydi: *o'qituvchilik, dehqonchilik, olimlik, matematika, kimyo, tilshunoslik.*

Quyidagi hollarda otlar doimo birlik shaklida bo'ladi:

1. Izohlovchi-izohlanmish munosabatidagi birinchi so'z: *qiz bola, oshpaz xola, muhandis Qodirov.*

2. Sifatlovchi son bilan ifodalanganda: *beshta kitob, o'ntacha sayyoh, uchala bola, bir-ikkita gap, besh kun.*

Hozirgi chuvash adabiy tilida ayrim otlarning I va II shaxslardagi ko'plik shakllarida *-lar* ishlatilmaydi: *attemer* "otalar", *piren atte* "bizning otamiz", *siren ate* "sizning otangiz".

Otlarning kichraytirirsh va erkalash shakllari. Otlarning *-ča, -čaq, -čak* qo'shimchlarini olgan shakli kichraytirish shakllari; *-gina (-kina),*

-qina, -jan, -xan, -ay qo'shimchalarini olgan shakllari erkalash shakllari hisoblanadi.

Turkiy tillarda otlarga xos kichraytirish-erkalash qo'shimchalari quyidagilar:

-č//-š: qad.turk. *atačım* "otaginam", *ögüčum* "onaginam", no'g'. *abašım* "onaginam", tuv. *qušqaš* "qushcha".

-ač//-eč //-aš //-eš//-öš: shor. *ərtegəš* "o'rdakcha", olt. *ayağaš* "qadahcha", *bičigeš* "kitobcha".

-ča//če//-še: tat. *terkimše* "guruhcha", qoz. *bıtaqša* "butoqcha", ozarb. *bağça* "bog'cha", q.qalp. *jolša* "yo'lcha", shor. *qušça* "qushcha".

-čaq//-čak//-jak//-šaq: *yarğučaq* "havoncha"; olt. *balačaq* "bolacha", xakas. *turajak* "uycha", qoz. *qulınšaq* "quluncha".

-čik//-čıq//-juq//-jek: turk. *evčik* "uycha", tuv. *xemčik* "daryocha", turkm. *keprujuq* "ko'prikcha", xak. *kimejek* "kemacha", q.balq. *qızčıq* "qizcha".

-k//-q//-x, -aq//-yek: xak. *xazıŋak* "qayincha", *qoyonok* "quyoncha", shor. *qozanok* "quyoncha", tat. *bašaq,* xak. *pozax* "boshoq", olt. *majaq,* qirg'. *mašaq,* qoz. *masaq* "boshoq", qad. uyg'. *yulaq* "daryocha, irmoq", olt. *qojsanoq* "quticha".

-qa//-ka//-ke//-ğe: qirg'. *atake* "otajon", qoz. *šešeke* "onajon", chuv. *čelğe* "tilcha".

-qay//-kay // -key: tat. *quyankay* "quyoncha", boshq. *yerkey* "yercha", *dusqay* "do'stgina", o'zb. *bolakay.*

-qı//-qi: turkm. *ataqı* "otajon", *anaqı* "onajon", tuv. *avaqım* "onaginam".

-loq: o'zb. *bo'taloq, toyloq.*

-(a)n//-(e)n: *turk. oolan* "o'g'ilcha", qoz. *ɵzen* "daryocha".

-tay//-tey: *qoz. ağatay (bobo),* o'zb. *erkatoy.*

Ba'zi hollarda kichraytirish shakllari shakl-ko'rinishga ega bo'lmagan otlarga qo'shiladi: qad. olt.*salqınak* "yengil shamol" (<salkqin shamol).

Turkiy tillarda kelishiklar tizimi. Ot turkumidagi so'zning yoki ismlarning kelishik qo'shimchalarini olib o'zgarishi *turlanish* deyiladi. Kelishik qo'shimchalari (egalik qo'shimchalari bilan bir qatorda) turlovchi qo'shimcha hisoblanadi. Turkiy tillardagi ism guruhiga oid so'zlarda yagona tipdagi turlanish tizimi mavjud. Har bir kelishik bitta affiksga ega (fonetik variantlari bilan birgalikda).

Turkiy tillarda kelishiklar quyidagicha:

Bosh kelishik	–
Qaratqich kelishigi	*- ıŋ, - iŋ,-nuŋ/ -nüŋ; -uŋ/-üŋ; - ŋu*
Tushum kelishigi	*- ı, -i, –ıγ; - ni / - nu; -ın-// in, -u, -ığ*
Jo'nalish kelishigi	*- qa, -gə,-a, -ə, ya/ -qa, –ja, – a, -kā(<-kāru)*
O'rin-payt kelishigi	*- ta//- tə // -to, -da, -də, //-la//-lo//-za//-zo//-sa//-so//-na//-no*
Chiqish kelishigi	*- tan, -tən, -dan,- dən, - da: -dan: -daŋ: -dyn*
Vosita kelishigi	*-in/ -ın// -un*
Birgalik kelishigi	*-la, -le, -lan, -len,-lı,-li*
O'xshatish-qiyoslash kelishigi	*-ča, -če*[1]

Kelishik qo'shimchalari olmoshlar, harakat nomi, jamlovchi songa qo'shilishi mumkin. Otlashgan so'zlar (otlashgan sifat, otlashgan sifatdosh) hamda olmoshlar ham kelishik qo'shimchalarini qabul qiladi.

Turkiy tillarda kelishik tizimining ikki ko'rinishi mavjud. Birinchisi, nisbatan qadimiy bo'lib, bobo til davriga xosdir. Ikkinchisi, nisbatan keyinroq, ya'ni asos til davrining so'nggi bosqichlarida paydo bo'lgan, deb qaraladi. Turkologlar qadimgi turkiy tildagi kelishiklar soni haqida turlicha fikr bildiradilar: V.V.Radlov 8 ta, I.A. Batmanov 6 ta, V.I.Nasilov 7ta, A.Kononov 11ta kelishik mavjud bo'lganligini ta'kidlaydi. Hozirgi turkiy tillarda kelishiklar miqdor jiqatidan unchalik farq qilmaydi. Tatar, gagauz, ozarbayjon, turkman, o'zbek, qoraqalpoq tillarida 6 ta, qozoq tilida 7ta, xakas va chuvash tilida 8ta, yoqut, turk, boshqird tillarida 9 ta kelishik mavjud.

Turkiy tillarda kelishik shakllari qo'llanishining o'ziga xos xususiyatlari quyidagicha:

1. Ayrim so'z tarkibidagi kelishik shakllari yaxlitlanib qolgan. Qadimgi kelishik shakllari ba'zi so'zlar tarkibida qotib qolgan holda hozir ham uchraydi: : *ičrä, üzrä, ičkäri, tašqarı.*

2. Bir o'zakka ikki xil kelishik shakli qo'shilgan: *meniŋčä, ilgärü* kabi.

3. So'z o'zagining qattiq-yumshoqligiga qarab kelishiklar har xil fonetik variantlarda qo'shilgan. Kelishik qo'shimchasini olgan so'z ba'zan fonetik o'zgarishga uchragan *(aŋa, alarnıŋ).*

4. Ayrim turkiy tillarda kishilik olmoshlari kelishik qo'shimchasi sifatida saqlangan. Masalan, qozoq, qoraqalpoq, xakas, qirg'iz tillarida *mağa, sağaŋ, oğaŋ* kishilik olmoshlari jo'nalish kelishigi *-gä* o'rnida ishlatiladi.

5. Qadimgi yodgorliklarda vosita kelishigi mavjud bo'lgan: *-ın, -in.* Bu kelishik ko'pgina turkiy tillarda kategoriya tizimidan chiqqan, hozirda qo'llanayotgan ayrim so'zlar tarkibida uchraydi: *ačın -toqın, yazın -qıšm.*

Bosh kelishik. Turkiy tillarda bosh kelishik morfologik ko'rsatkichga ega emas. Bosh kelishikning asosiy vazifasi gapda ega vazifasida kelishidir. *Ol yigitlär aytdılar* (QR). *Quyaš har kün üz urur ol qapuqqa* (MN). Qaratqich. tushum, jo'nalish kelishiklari belgisiz qo'llanganda shaklan bosh kelishikka o'xshaydi, lekin ma'nosi va vazifasiga ko'ra farq qiladi: *shirin olma* (bosh kelishik), *olma sharbati* (qaratqich kelishigi).

Qaratqich kelishigi. Qaratqich kelishigi affikslari quyidagicha: *-iŋ -ıŋ, -iŋ, -nuŋ/ -nüŋ; -uŋ/-üŋ; -ŋu.* Bu shakllar bir affiksning turli fonetik ko'rinishlari bo'lib, bulardan qaysi birining ishlatilishi shu affiksni qabul qiluvchi so'zning fonetik tuzilishiga bog'liq. Bundan tashqari, o'zbek tilida qaratqich kelishigi affiksining *-im* shakli ham mavjud bo'lib, uning qo'llanishi *men, biz* olmoshlari bilan chegaralangan: *menim, bizim.* Bu shakl hozirgi badiiy uslubda ham kuzatiladi: *O'zbekiston – vatanim manim* (A.Oripov).

Qaratqich kelishigi affiksining *-nin / -niŋ* shakllari odatda tarkibi (oxirgi bo'g'ini)da lab unlisi bo'lmagan so'zlarga qo'shiladi: *yığačnıŋ budaqı, yelniŋ sözi* kabi. Bu shakl qaratqich kelishigining asosiy ko'rsatkichi sifatida eski o'zbek tilida qo'llangan.

-nuŋ/ -nüŋ shakllari lab uyg'unligi asosida yuzaga kelgan, ya'ni so'z tarkibi (oxirgi bo'g'in)dagi unli lablangan bo'lsa, affiks tarkibidagi unli ham lablangan bo'ladi: *quduqnuŋ tašı, sözüŋ rastı* kabi.

Qaratqich kelishigi affiksida lab uyg'unligining aks etishi, bir qator turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida XIX asr oxiriga qadar davom etgan. XX asr va undan keyingi davrlarda esa bu qonuniyatga, deyarli, amal qilinmagan, ya'ni tarkibida lab unlisi bo'lgan *yurt, quduq, kul, suv* kabilarga ham ko'pincha qaratqich kelishigi affiksi *–nıŋ /- niŋ* shakllarida qo'shilgan: *yurtnıŋ kišisi, quduqnıŋ suvı.*

Undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shiluvchi *-iŋ/ in, -uң / -tiң* shakllarining qo'llanishi turkiy tillar taraqqiyotining ma'lum davrlari bilan chegaralangan, ayrim so'zlar uchungina xos bo'lgan.

Qaratqich kelishigi affiksining *–ıŋ/iŋ,-uŋ/-üŋ* shakllarii hozirgi ozarbayjon, turk, turkman, gagauz kabi o'g'uz guruhidagi turkiy tillarga xos, ya'ni bu tillarda undosh bilan tugagan so'zlarga qaratqich kelishigi affiksining shu shakllari qo'shiladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili uchun qaratqich kelishigi affiksining *-ning* shakli qabul qilingan bo'lib, eski o'zbek tilida amalda bo'lgan boshqa shakllari shevalarda saqlanib qolgan.

Turkiy tillarda qaratqich kelishigi belgisiz ham qo'llanadi. Bunday hollarda qaralmishning qaratqichga umumiy xosligi (shaxs, narsa-predmet, o'rin, paytga munosabati) ifodalanadi: *daraxt bargi.* Belgisiz holat turdosh otlarga qo'shilganda kuzatiladi. Mazkur kelishiklar olmosh, atoqli ot, sifatdoshlarga qo'shilganda belgili qo'llanadi.

Qaratqich kelishigidagi so'zning belgisiz qo'llanishi ko'proq she'riy asarlarda uchraydi. Nasriy asarlarda esa qaratqich kelishigidagi so'z, asosan, belgili qo'llangan. Nasriy asarlarda qaratqich kelishigidagi so'z ham, uning qaralmishi ham ko'pincha belgili qo'llangan. Masalan: *Samarqandnıŋ qorğanınıŋ içidä...* (BN).

Qaratqich kelishigidagi so'z aniqlovchi vazifasida qo'llanadi.

Qaratqich kelishigidagi so'z kesim vazifasida ismlarni kesimga xoslovchi shakllar bilan qo'llangan va qarashlilik ma'nosini ifodalagan: *Gösti sizniŋ, ustixani biznıŋ bolğay.* Qaratqich kelishigi qoshimchasi bu vazifada hozirgi o'zbek tilida kuzatilmaydi, janubi-g'arbiy guruhga xos shevalarda uchraydi.

Hozirgi turkiy tillarda qaratqich kelishigi ko'p variantli bo'lib, ularning qo'llanishi quyidagicha:

1) o'zb., uyg'.*-nıŋ //-niŋ* shakllari: *ataniŋ, biznıŋ;*

2) olt., boshq., tuv., xak.. shor. *-nıŋ//- niŋ // -nuŋ // -noŋ //- diŋ//- duŋ//- doŋ//-tiŋ //-tuŋ //-toŋ* shakllari: *tonnuŋ, moldıŋ, sudıŋ, bezzeŋ, talanıŋ;*

3) qirg'. *nın//-nun //- din//- dun//-tin //-tun* shakllari: *balanin, tonun, tondun, oqtun;*

4) qar. *-nın//-nin* shakli: *atanın, atnın, menin*;

5) turkm. -ıŋ //-uŋ //–nıŋ //-nuŋ: *ağajıŋ, onuŋ*;

6) ozarb., gag., turk. *-in//- un //-nün //-nun: arabanın, onların, benim, bizim;*

7) q.-balq., qum. *-ni //-nu: burnu, boynu;*

8) chuv.-n *//-an//-nan* shakllari ishlatiladi: *pullen* "baliqning", *tiren* "terining", *lajan* "otning", *piren* "bizning" .

Yoqut tilida qaratqich kelishigi mavjud emas. Bu kelishik ifodalaydigan grammatik ma'no aniqlovchi-aniqlanmish munosabati orqali voqelanadi: *at baha* "ot boshi".

Tushum kelishigi. Tushum kelishigining *- nı / -ni, -ın-// in, - ı, -i, - nu; -u, -ığ, -m /- ni, -n* shakllari ishlatiladi. Bular bir affiksning turli ko'rinishlari bo'lib, qo'llanishi jihatdan bir-biridan farqlanadi:

-nı / -ni shakli turkiy tillarda tushum kelishigining asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida qadimdan qo'llanib keladi. Bu affiks tushum kelishigida qo'llanuvchi har qanday so'zga qo'shila oladi. Tushum kelishigining *-n* shakli hozirgi turkiy tillarda badiiy uslubda ishlatiladi. Bu affiks, asosan, III shaxs egalik shaklidagi so'zlar bilan birikadi: *yolın* "yo'lini", *başın* "boshini", *kišisin* "kishisini". O'rxun-enasoy va boshqa qadimgi turkiy til yodgorliklarida I va II shaxs shaklidagi so'zlarga ham qo'shilgan. Ushbu affiks XIII–XIV asrlar eski turkiy tildagi nafaqat she`riy asarlar, shuningdek, nasriy asarlar tiliga ham xos bo'lgan: *Vazir tonın čıqardı* (Tafsir).

Tushum kelishigining *-ın-// in* shakli (turli fonetik shakllari bilan) o'g'uz guruhidagi turkiy tillar uchun xos bo'lib, hozir ushbu guruhga mansub bo'lgan turk va gagauz tillarida qo'llanadi. Bu shakl ayrim o'zbek shevalari, masalan, Xorazm shevalarida ham mavjud.

Turkiy tillar taraqqiyotining oldingi davrlarida tushum kelishigining *–ığ/-/ig* (unlidan keyin: *-ğ/-g*) affiksli shakli ham qo'llangan. Bu shakl O'rxun-enasoy va boshqa qadimgi turkiy til bitiglarida keng iste'molda bo'lgan. XI–XII asrlar eski turkiy til yodgorliklarida ham qo'llangan.

Tushum kelishigidagi so'z belgili yoki belgisiz ishlatilishi mumkin. Muayyan so'z belgili qo'llanganda aniq manbani ifodalaydi, belgisiz qo'llanganda esa shu turdagi manbani ko'rsatadi.

Tushum kelishigining belgisiz qo'llanishi ot turkumidagi so'zlar – turdosh otlarga xos, ya'ni *nimani? (nimalarni?)* so'rog'iga javob bo'luvchi turdosh otlar boshqaruvchi fe'l bilan yondosh holatda kelganda belgisiz qo'llanishi mumkin: *Turğıl, ne'matlar yegil (*QR).

Tushum kelishigining belgili qo'llanishi nasriy asarlar tili uchun xos.

Tushum kelishigi shaklining qaratqich kelishigi o'rnida qo'llanishi XVI–XIX asrlarga oid yodgorliklar hamda "Boburnoma" tiliga xos bo'lgan. Bir qator manbalarda, xususan, Muhammad Solihning "Shayboniynoma" va Alisher Navoiy asarlarida tushum kelishigining bunday ishlatilishi qayd etilmaydi.

Majhul daraja shaklidagi fe'llar, odatda, bosh kelishikdagi so'zni boshqaradi. Shu bilan birga, ayrim manbalarda bunday fe`llar tushum

kelishigidagi so‘zni boshqargan hollar ham mavjud. Bu hol “Boburnoma” tiliga xos bo‘lib, Alisher Navoiyning ayrim nasriy asarlarida ham uchraydi: (*Qasimbek bašlığ beklärni yıbarıldı* – BN).

Harakat ma’nosini ifodalovchi fe’llar bilan boshqarilganda tushum kelishigi vazifasi jihatidan chiqish yoki o‘rin-payt kelishigiga yaqin bo‘ladi. Tushum kelishidagi so‘z holatni ifodalovchi fe’llar bilan boshqarilganda shu so‘zdan anglashilgan narsa-predmet, voqea-hodisa haqidagi mazmunni bildiradi.

Hozirgi turkiy tillarda tushum kelishigining qo‘llanishi quyidagicha:

1) o‘g‘uz guruhidan boshqa turkiy tillarda *-nı//-nu//-nu//-no//-nө//-di//-du//-do//-tu//-ti//-to:* olt. *qaptı* “qopni”, *uguni* “ukkini”, *qardı* “qorni”; tuv. *teveni* “tuyani”, *maldı* “molni”;

2) qar., qum., q.-balq. *-nı//-ni//-nu//-no//-di//-du//-ti//-tu: yuldı* “yo‘lni”, *košto* “kuchni”, *tastı* “toshni”;

3) o‘zbek tili lahjalari, bir qator turkiy tillarda *-nı //–nu//-du//-ti//-mi//-zi//-ši//-si//-xi//-či: qaptı, qardı, uydı, uyı,ottı, šoxxı, soččı*;

4) ozarb., turkm., yoq.*-ni //–nu//-(y)i//-(y)u: apanı, adamı, buğduyu, kөrpoyu*;

5) gagauz, turk tillarida *-i//-u//-yi//-yu: burnu, biyeyi* “yilqini”;

6) oltoy, xakas, shor tillarida: *-n,-bın, -ğın: atın, atıbıŋ, atığın.*

Jo‘nalish kelishigi. Turkiy tillarda jo‘nalish kelishigining *-qa/ -ğa / -gä, -kä/-gə/-a /-ə/ ya/ -qa/ -ja/ a, -kā(<-kāru)* shakllari qo‘llanadi. *-ğa / -gä, -qa / -kä* affikslari jo‘nalish kelishigining asosiy shaklini tashkil etadi. Bu shakllarning ishlatilishi, asosan, shu affiksni qabul qiluvchi so‘zning xususiyatiga bog‘liq: *-ğa* shakli, odatda, unli yoki jarangli undosh bilan tugagan qattiq o‘zakli so‘zlarga qo‘shiladi: *barčağa, uyquğa, suvğa, maqsudğa, yolğa, aqšamğa* kabi; *-qa* shakli jarangsiz undosh bilan tugagan qattiq o‘zakli so‘zlarga qo‘shiladi: *xalqqa*. Yumshoq o‘zakli so‘zlarga *-gä* yoki *-kä* shakli qo‘shilgan. Jo‘nalish kelishigi affiksining yumshoq o‘zakli so‘zlarga qo‘shiluvchi jarangli *-gä*, jarangsiz *-kä* shakllari arab yozuvida bir xil ko‘rinishga ega bo‘lgan, ya’ni *kof* va *alif* orqali ifodalangan. Singarmonizm qonuniga muvofiq unli yoki jarangli undosh bilan tugagan yumshoq o‘zakli so‘zlarga qo‘shilganda, bu affiks *-gä* tarzida, jarangsiz undosh bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda - *kä* tarzida talaffuz qilingan.

Jo‘nalish kelishigi affiksi qattiq va yumshoq shakllarini qo‘llashdagi

singarmonizm qonuniyatining buzilish hollari, asosan, XIX asr yozuv yodgorliklari tiliga xos bo'lib, boshqa tillarning ta'siri bilan izohlanadi.

Jo'nalish kelishigining *-ğa//-gä* shakli III shaxs shaklidagi so'zlarga qo'shilganda egalik affiksi bilan kelishik affiksi o'rtasida *n* undoshi orttirilishi mumkin. Bunday hollarda *n* sonor undoshi bo'lgani uchun jo'nalish kelishigi *-ğa* yoki *-gä* shaklida qo'shiladi: *unğa.*

III shaxs egalik shaklidagi qattiq o'zakli so'zlarga jo'nalish kelishigi affiksining *-na* shaklida qo'shilishi qadimgi turkiy til bitiklari va eski turkiy til obidalari, xususan, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari tilida kuzatiladi.

Jo'nalish kelishigining *-a//-na* shakli o'g'uz guruhidagi turkiy tillar uchun xos bo'lib, bu tillarda qadimdan jo'nalish kelishigi uchun shu shakl qo'llanadi (unli bilan tugagan so'zlarga *-ya//-yä* shakli qo'shiladi). Bu shakl hozirgi ayrim o'zbek shevalarida, jumladan, Xorazm shevalarining o'g'uz guruhida mavjud: *bašıma, bašına.*

Turkiy tillar taraqqiyotining dastlabki davrlarida jo'nalish kelishigining *-qaru-käru//- qarı/-käri// -ra /-ru* shakllari ham iste'molda bo'lgan. Bu affikslar keyinchalik grammatik ma'nosini yo'qotib, so'zning ajralmas qismiga aylangan va bunday so'zlar ravish yoki yordamchi so'zlar turkumiga o'tgan. Qadimgi turkiy yodgorliklar tilida ham bu shakllarning ma'nosi chegaralangan bo'lib, asosan, bir narsa-predmetning boshqa narsa-predmet (obyekt) tomonga yo'nalishini ifodalagan. Keyingi davrlarda *-gäru//-gäri, -qaru//-käri* affiksi *taşqarı, içkäri* kabi so'zlar tarkibida saqlangan bo'lib, bu so'zlar hozirda ravish turkumiga o'tgan. Bu jarayon ancha qadimdan boshlangan. Masalan, O'rxun-enasoy bitiglarida *küngärü* (orqaga-g'arbga), *ilgäri* (oldinga - sharqqa) kabi so'zlar ravish ma'nosida qo'llangan.

-ra//-rä affiksining kelishik vazifasida ishlatilishi qadimgi turkiy yodgorliklarning ayrimlarida kuzatiladi. Bu affiks qadim davrlardanoq o'zining grammatik xususiyatini yo'qota borgan va ayrim so'zlar tarkibida saqlanib, ularning ajralmas qismiga aylangan. Qadimgi yodgorliklar tilidagi *onra* "oldin", *asra* "pastki, quyi", *içrä* "ichkari" kabi so'zlar tarkibidagi *-ra /-ru* ana shu affiksning asos bilan yaxlitlanib qolgan ko'rinishidir.

-ru /-rı affiksning kelishik vazifasida ishlatilishi ham qadimgi davrlardanoq chegaralangan. Bu affiks ham ancha qadim davrlarda o'zining grammatik xususiyatini yo'qotib, ayrim so'zlar tarkibida saqlangan. Bu affiks qadimgi yodgorliklar tilida ravish yoki ko'makchi tarkibida qo'l-

langan; *beri* “bu yoqqa”, “yaqin”, *inaru* “u yoqqa”. Jo‘nalish kelishigi belgisiz qo‘llanishi ham mumkin, ya’ni ma’lum vaziyatlarda kelishik affiksi tushirib qoldiriladi. Ish-harakat yo‘nalgan tomonni ko‘rsatuvchi so‘zlar, asosan, joy nomlari harakatni ifodalovchi fe’llar bilan boshqarilganda, jo‘nalish kelishigi belgisiz qo‘llanishi mumkin.

Jo‘nalish kelishigining belgisiz qo‘llanishi eski o‘zbek adabiy tilidagi nasriy asarlarda ham, she’riy asarlarda ham uchraydi. Bunday qo‘llanish, ayniqsa, “Boburnoma” tiliga xos bo‘lgan.

Jo‘nalish kelishigi shakli boshqa kelishiklar o‘rnida ham ishlatiladi. Kelishik shakllari, xususan, jo‘nalish kelishigi shaklining boshqa kelishiklar vazifasida ishlatilishi, aksariyat, boshqaruvchi fe’lning xarakteri bilan bog‘liq holda yuzaga keladi.

Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchalari:

1) qipchoq, qarluq-uyg‘ur tillari, Sibir, Oltoy turkiy tillarida *-ğa//-qa//-ya//-xa//-ğo//-qo//-xo:* olt. *ayilgä* “uyga”, *yapašqa* “chaylaga”, *toško* “muzga”; qaraim. *atağa, atqa* “otga”, *maa* “menga”; qirg‘. *malğa* “molga”, *tonğo* “to‘nga”, *mağa* “menga”; yoq. *dalğa* “suruvga”, *qısqa* “qizga”, *kyolge* “ko‘lga”, *inaxka* “sigirga”, *qunaŋŋa* “ho‘kizga”, *bihiexe* “bizga”, q.qalp. *atasına* “otasiga”;

2) xakas tili va dialektlarida *-ğaa //-qaa//-xaa//-ka*: *xaska* “o‘rdakka”, *tağaa* “tog‘ga”, *sağa* “senga”, *ağa* “unga”, *palaağa* “bolaga”;

3) o‘g‘uz tillari, qisman oltoy, xakas, shor tillarida *-a//-ya*: ozarb. *adama* “odamga”, *gapıya* “eshikka”, *saase* “senga”; gag. *kira* “dalaga”, *sokaa* “ko‘chaga”, *bana* “menga”; turkm. *gečaa* “echkiga”, *durnaa* “turnaga”; xak. *tağa* “tog‘ga”;

4) chuvash tilida *-a //–na//-ya: xira* “dalaga”, *xulana* “shaharga”.

Tuva tilida jo‘nalish kelishigining o‘ziga xos shakli mavjud: *-če //je. – če* qo‘shimchasi barcha jarangsiz undoshlar va m, n, ŋ sonorlaridan so‘ng, *-je* qo‘shimchasi g, y, r undoshlaridan keyin qo‘shiladi: *xemče uglannır* “daryoga bormoq”, *xəlče čookšulaar* “ko‘lga yaqinlashmoq”, *bajıŋče kirer* “uyga kirmoq”, *sugnu busče xuuldurar* “suvni bug‘ga aylantirmoq”.

Turkiy tillarda *taba* ko‘makchisining variantlari jo‘nalish kelishigi qoshimchasi o‘rnida va unga sinonim tarzida qo‘llanadi: *-tıva//-tive//-tuva//-tuve//-dıva//-dive//-duva//-duve: dagdiva* “tog‘ga”, *kijidive* “odamga”, *ottuva* “olovga”, *xunduve* “quyoshga”. shor. *Men kayaga tebe attım* “Men qoyaga tomon otdim”; tat. *kičke taba* “kechga tomon”, *urmanga taba* “o‘rmonga tomon”; qum. *bazarga taba* “bozorga tomon”.

O'rin-payt kelishigi. O'rin-payt kelishigi *-da//-dä//-də //-do; -tа//- tə// tä//-to, //-la//-lo//-za//-zo//-sa//-so//-na//-no* affiksi bilan ifodalanadi: olt. *tuda* "tog'da", *emde* "dorida", *tošto* "toshda", *qaasta* "qog'ozda", *biste* "bizda"; boshqird. *qazza* "g'ozda", *dalala* "dalada", *qalala* "shaharda", *bizza* "bizda"; chuv. *lajara* "otda", *xulara* "shaharda", *vermanda* "o'rmonda", *šurda* "botqoqda", *ulaxra* "to'qayda", *pirda* "bizda", *unra* "unda"; yoq. *manna* "shu yerda", *sumanna* "mana shu yerda", *itinne* "ana u yerda", *sonno* "aynan o'sha yerda". Bu affiks tarkibidagi undoshning jarangli yoki jarangsiz holda kelishi odatda shu affiksni qabul qiluvchi so'zning qanday tovush bilan tugashiga bog'liq bo'ladi, ya'ni unli va jarangli undosh bilan tugagan so'zlarga jarangli *-da/-dä* shakllari qo'shiladi: *qalada, uyqıda, közgüdä, taşqarıda, içkäridä, suvda, bağda, yolda, bazarda, yerdä* kabi. Jarangsiz undosh bilan tugagan so'zlarga esa jarangsiz *-ta// -ta* shakllari qo'shiladi: *yurtta, ešiktä, qıšlaqta* kabi.

O'rin-payt kelishigi affiksi III shaxs egalik shaklidagi so'zlarga qo'shilganda, egalik affiksi bilan kelishik affiksi o'rtasida ***n*** undoshi orttiriladi. Bu xususiyat qadimgi turkiy bitiglar tili uchun ham xos bo'lgan.

Butunning qismi, to'da yoki guruhning ma'lum bo'lagi ajratib ko'rsatiladigan hollarda ham chiqish kelishigi o'rnida o'rin-payt kelishigi shakli qo'llanishi mumkin. O'rin-payt kelishigining bunday xususiyati XIII–XIV asarlarga oid yozuv yodgorliklari tiliga xos bo'lib, keyingi davrlarda ayrim turkiy tillarda uchraydi.

Bu kelishik qo'shimchalarining *-za, -la* shakllari boshqird tilida, *-ra, -ča* shakllari chuvash, *-za, -na* shakllari turkman tili dialektlarida saqlangan.

Chiqish kelishigi. Chiqish kelishigining, asosan, *-dın// -din, –tın//-tin* shakllari qo'llanadi, ayrim turkiy tillarda *-dan// -dän// -tan// -tän* va *-dun //- dün, -tun//-tün* shakllari ham kuzatiladi. Bular bir affiksning turli fonetik shakllari bo'lib, tarkibidagi unli yoki undosh tovush xususiyatiga ko'ra o'zaro farqlanadi.

–dın// -din, –tın//-tin shakli chiqish kelishigining asosiy ko'rsatkichi sifatida barcha turkiy tillarda uchraydi.

Chiqish kelishigining yuqorida ko'rsatilgan shakllari, yozuv yodgorliklaridan ma'lum bo'lishicha, turkiy tillarning shakllanish davrida ham faol bo'lgan. Jumladan, *-dın/-din //-tın/-tin* affiksi qadimgi turkiy til bitiglarida chiqish kelishigining asosiy shakli sifatida keng

iste'molda bo'lgan. "Qutadg'u bilig" va "Devonu lug'otit turk"da ham chiqish kelishigi uchun, asosan, shu shakl qo'llangan. Eski o'zbek adabiy tili manbalari tilida ushbu shakl faol ishlatilgan.

-dan/-dän //-tan/-tän shakli qadimgi turkiy tilning ***n*** dialektiga xos bo'lgan. III shaxs egalik shaklidagi so'zlarga qo'shilganda jo'nalish va o'rin-payt kelishiklaridagi kabi chiqish kelishigi affiksi oldidan ***n*** undoshi orttirilgan.

O'rin-payt va chiqish kelishiklarida tegishlilik affiksi va kelishik qo'shimchalaridan oldin ***n*** tovushi qo'shiladi - *valunta, xerunte, xerenče, xaninče* kabilar. Otlar ***a, e*** bilan tugaydigan affikslar bilan qo'llanganda barcha kelishiklarda ***a*** dan oldin turgan undosh tovushlar ikkilanadi. Masalan, *tirram, sellem, tirru, sellu, selli.*

Chiqish kelishigi qo'shimchasi variantlarini quyidagicha guruhlash mumkin:

1) qipchoq va o'g'uz guruhi tillari, tuva va o'zbek tillarida *-dan//-don //-dəŋ//-tan//-ton//-nan//-non//-lan//-lon//-zon//-san//-son* shakllari: ozarb. *dagdan, menden*; olt. *attaŋ, maldaŋ, kəldəŋ*; gag. *yuvadan* "uyadan", *dereden* "daryodan", *baadan* "bog'dan", *sudan* "suvdan", *sokaktan* "ko'chadan", *inekten* "sigirdan"; tuv. *taygadan, aydan, čiveden* "archadan", *daštan* "toshdan", *iyaštan* "yog'ochdan";

2) oltoy, xakas, shor tillarida *-daŋ//-doŋ//-taŋ//-toŋ//-naŋ//-noŋ* shakllari: *attaŋ, sostaŋ* "so'zdan", *maldaŋ* "moldan", *taŋŋaŋ,* shor. *meneŋ* "mendan", *seneŋ* "sendan", *anaŋ* "undan";

3) yoq. *-tan //-ttan//-ton* shakllari: *tastan* "toshdan", *oyurtan* "o'rmondan", *tabattan* "bug'udan", *borotton* "bo'ridan";

4) chuv. *-tan //-ran: lajaran* "otdan", *xularan* "shahardan", *varmandan* "o'rmondan", *uramran* "ko'chadan", *manran* "mendan" shakllari ishlatiladi.

Turkiy tillarda chiqish kelishigi shakli nisbatan keyingi davrlarda reallashgan bo'lib, ma'lum davrlargacha, masalan, O'rxun-enasoy bitiklarida, bu kelishik o'rnida ham o'rin-payt kelishigi shakli qo'llangan. Qadimgi turkiy til yodgorliklarida chiqish kelishigi cheklangan o'rinlarda kuzatiladi.

Vosita kelishigi. Vosita kelishigi shakli ***-n,*** undoshdan keyin: *-ın/-in// -un//ün* affikslari bilan ifodalanadi. Vosita kelishigi turkiy tillar taraqqiyotining qadimgi davrlariga xos bo'lgan. Bu kelishik qadimgi turkiy til yodgorliklari, "Qutadg'u bilig" va "Devonu lug'otit turk" asarlarida keng qo'llangan.

Vosita kelishigi qurol, vositani bildirgan, ya'ni ish-harakatning amalga oshuvi vosita kelishigidagi so'z ifodalagan narsa orqali sodir bo'lganini anglatgan: *Ol bıčaqın sančdı* - "U pichoq bilan sanchdi" (DLT);

Vosita kelishigi birgalikni bildirgan, ya'ni ish-harakatning birgalikda bajarilishini anglatgan: *Turub barsa avğa xılın, qoldašın* – "Ovga o'z tengi va do'sti bilan borsa..." (QB).

Ish-harakatning bajarilish usuli, holatini bildirgan: *Ezgülikin kel, esizlikin kelma* - "Yaxshilik bilan kel, yomonlik bilan kelma" (DLT).

Vosita kelishigi hozirgi turkiy tillarda o'rin-payt ravishlari tarkibida saqlanib qolgan: olt. *dazin* "bahorda", *kuzun* "kuzda", *tunun* "tunda", boshq. *qišin* "qishda", *yazin* "yozda"; qoz. *jazin* "yozda", *qısın* "qishda", xak. *časxizin* "bahorda"; yoq. *kihin* "qish", *sayin* "yoz", *kuhun* "kuz".

Ta'kidlash joizki, qadimgi turkiy tilda makon ma'nosini ifoda etuvchi shakllar keng tarqalgan, makon tushunchasini bildiruvchi kelishik shakllari ham yetarlicha bo'lgan. Keyinchalik bu shakllar miqdor jihatidan kamaygan.

Ayrim turkiy tillarda kelishik qo'shimchalari so'zning unli yoki undosh bilan tugashiga ko'ra farqli ko'rinish (fonetik variant)ga ega bo'ladi. Chunonchi, qirg'iz tilida tushum kelishigi unlidan so'ng *-ni,* undoshdan so'ng *-di* shaklida, jo'nalish kelishigi esa unlidan so'ng *-ga, -ğa, -ğo,* undoshdan keyin *-ka, -ko, -ke, -kı* variantlarida qo'shiladi.

Boshqird tilida so'z o'zagi *r, v, y, z* tovushlari bilan tugasa, kelishik qo'shimchasi *z* tovushi bilan boshlanadi: *-zin, -za (- ga).*

Turk tilida tushum kelishigining qo'llanishi o'ziga xos. U, asosan, ikki shaklga ega: *-i* va *-ni.* Agar *-i* shakli unli bilan tugagan so'zga qo'shilsa, *y* tovushi orttiriladi: *odayi* (xonani). *Bu, shu* olmoshlariga esa singarmonizm talabi bilan *-nu* shaklida qo'shiladi: *bunu, šunu* kabi. Shuningdek, unli bilan tugagan so'zlarda bir *-y* tovushining qo'shilishi boshqa ayrim kelishik qo'shimchalariga ham xos: *su-y-a* (suvga), *ne-y-in* (nimaning) kabi.

Kelishik qo'shimchalarining funksional-semantik xususiyatlari turlicha, bu holat turkiy tillarda o'ziga xosliklarga ega. Yoqut tili kelishiklarga boy til hisoblanadi.

Turkiy tillarda egalik tushunchasi. Turkiy tillarda o'zakning unli yoki undosh bilan tugashiga ko'ra egalik qo'shimchalari turli variantlarda qo'shiladi. Egalik qo'shimchalarining variantlari singarmonizm nisbatan

ko'proq saqlangan tillarda o'zaklarning qattiq-yumshoqligiga ko'ra ham farqlanadi. Egalik shaklini olgan so'z oldidan qaratqich kelishigi shaklidagi so'z qo'llanadi. Shunga ko'ra, ba'zi olimlar bu hodisalarni bir-biriga bog'laydilar. Qadimgi bobo til davrida qaratqich kelishigi va old qo'shimchalarning bo'lmaganligi turkiy tillarda egalik qo'shimchalarini vujudga keltirgan, degan fikrlar ham mavjud.

Turkiy tillarda qarashlilikni ifodalash usullari, asosan, ikki yo'l: egalik qo'shimchalari va morfologik-sintetik usul orqali reallashadi.

Turkiy tillarda egalik qo'shimchalari va sonning ko'plik shakli quyidagi umumiy xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. Birlik sondagi I shaxsda turkiy tillarga xos egalik qo'shimchalari mushtarakdir. Shu bilan birga, *-ım/-im* shaklidagi unli *u* tovushiga aylanishi mumkin. Bu shaxsning ko'plikdagi *-mız* shakli ko'pgina turkiy tillarda *-biz;* yoqut tilida *-bıt/-bit (agabıt "mening otam"),* tuva tilida *-vıs/-vis* shakllarida qo'llanadi.

2. II shaxs birlik qo'shimchalari turk, gagauz, ozarbayjon tillarida *-n,-in* shaklida qo'llanadi. Ammo chuvash tilida bu shakl qadimgi holatini saqlagan: *oğılığ-vil-u (sening* o'g'ling). Ko'plikda asosan *-ğig // -niz* shakli, turk, gagauz, ozarbayjon tilida *-nız/-niz,* tatar, boshqird, qumiq tillarida *-gız // -giz* shakli mavjud. Sibir tillarida ancha farqli: chuvash tilida *-'r, -r,* yoqut tilida *-gt,-xt,* oltoy tilida *-ğır, -xir* shaklida uchraydi. Bu affikslar qadimiy shakllarning o'zgarishi natijasida shakllangan.

3. III shaxsning qadimgi variantlari saqlanib qolgan. Tuva, xakas, shor tillarida *-si>zi* ga o'tgan: *kimezi (*kemasi*);* boshqird tilida *-hı: otahı (otasi).* Olimlar *-si* shaklining ajratish ma'nosi borligini ta'kidlab, grammatik shaklning kelib chiqishini shu ma'no bilan izohlaydilar.

Egalik kategoriyasining evolyutsiyasi to'g'risidagi fikrlarda munozarali o'rinlar bor. Shulardan biri egalik shakllarining kishilik olmoshlari bilan genetik aloqasidir. Ayrim turkologlar fikricha, egalik affikslarining ayni vaqtda shaxs va son ma'nolarini ifodalashi ularning kishilik olmoshlari asosida paydo bo'lganligini ko'rsatadi. Egalik kategoriyasi keng ma'noda qarashlilik ma'nosining ifodalanishidir, bu hodisaning turkiy tillarda aniqlik va mavhumlik ma'nolari bilan bog'liqligi ham bor. Bu kategoriya ko'pgina agglyutinativ tillarda, masalan, mo'g'ul, ural, tungus-manchjur, shuningdek, eron tillarida ham uchraydi.

V.M.Nasilov, B.A.Serebrennikov tadqiqotlarida egalik affikslari kelishik qo'shimchalari va so'z yasovchilar bilan bog'liqlikda tahlil etilgan.

Qadimgi turkiy tilda o'zakning unli yoki undosh bilan tugashi, qattiq -yumshoqligiga nisbatan egalik qo'shimchalari turli variantlarda bo'lgan:

Birlik	Ko'plik
I - *m,- 'm/im*	I - *bz/biz, - 'b'z/ - ibiz*
II *-h, -hig*	II - *'igiz, - siz.*
III *-i, - s'/ -si*	III *-i*

Bulg'or, chuvash, yoqut, uyg'ur tillari turkiy tillarning umumiy xususiyatlarini nisbatan to'liq saqlab qolgan tillar hisoblanadi. Mazkur tillarda egalik affikslarining qadimgi tizimi saqlanib qolgan:

Birlik	Ko'plik
I - *m,- ım, im*	I- *bız,-biz,- ıbız, -ibiz*
II *-ŋ,-ıŋ, iŋ, -ğ, -ığ,- iğ*	II - *ŋız, -ŋiz, ıŋız, iŋiz, -ğız, - ğiz,-ığız, -iğiz*
III *-ı, -i, -sı,- si*	III *-ı, -i, -sı, -si*[2]

Chuvash tilida otlar rus tilidan farqli o'laroq I, II, III shaxs birlik va ko'plikdagi tegishlilik qo'shimchalarini qabul qiladi. Bu affikslar kishilik olmoshlaridan kelib chiqqan bo'lib, narsa-buyumning kimga yoki nimaga tegishliligini bildiradi: *menga, senga, unga, bizga, sizga, ularga.* I shaxs tegishlilik affikslari undoshlardan keyin *-yem,* unlilardan keyin esa *-m* shakllarini qabul qiladi.

Turkiy tillarda egalik tushunchasi haqida quyidagilarni umumlashtirish mumkin:

1.Turkiy, qadimgi german, mo'g'ul tillarida egalik shakllari sifatida kishilik olmoshlari keladi. Kishilik olmoshlaridan ayrim egalik affikslari shakllangan. Bunda fonetik o'zgarishlar kuzatiladi: *mănin* olmoshi **-*m*** shakliga qadar, *sănin* **–*ŋ*** shakliga qadar qisqargan. Bu fonetik o'zgarishda nafaqat tovush, balki bo'g'inlar tushishi ham kuzatiladi.

2. Egalik affikslarining eng qadimiy ko'plik shakli **-z:** *m+z=myz, ŋ+z=ŋyz.*

3. C.Y.Malov tasnifida eng qadimgi turkiy tillar sifatida qayd etilgan bulg'or, uyg'ur, chuvash, yoqut tillarida egalik qo'shimchalari asosga to'g'ridan to'g'ri, kelishik qo'shimchalaridan oldin qo'shiladi va bu tartib barcha turkiy tillar uchun umumiy hisoblanadi.

Savol va topshiriqlar

Quyidagi mavzularni klaster usulida yoriting.

1. Turkiy tillarda grammatik ko'plik shakllari.
2. Otga xos lug'aviy shakl yasovchilar.
3. Turkiy tillarda kelishiklar tizimi.
4. Turkiy tillarda egalik shakllari va qarashlilik.
5. Otlarning sintaktik imkoniyatlari.

Ot yasalishi

Turkiy tillarda so'z yasalishi, asosan, morfologik usulda amalga oshadi. So'z yasalishi hodisasini yaqin qarindosh yoki alohida tillar misolida o'rganish muayyan til taraqqiyoti xususiyatlarini yoritishda muhimdir.

Turkiy tillarda ot yasovchi qo'shimchalarning ko'pligi va umumiy arxetiplarni yoritishning qiyinligi ko'pgina elementlarning bobo til davridan keyingi bosqichda paydo bo'lganligini ko'rsatadi. Ot yasovchi qo'shimchalar turli asoslarga qo'shilishi mumkin.

1. Ot, ba'zan sifatdan ot yasovchilar: *-či// -či (dilči), taš// -daš, (joldas), - lıq//-lik (ağalıq).*

2. Otlarning fe'llardan yasalishi turkiy tillarda keng tarqalgan. Turkm. *degišgän* "hazilkash", olt. *bu:lam* "bog'lam", turk. *kisač* "qisqich", qoz. *šığım* "chiqim", qirg'. *yart* "yarim" so'zlari fe'l asosdan yasalgan.

Hozirgi turkiy tillarda faol ot yasovchi qo'shimchalar:

-či//-či //-ču//-šu//-ši//-su//-si/; -ča//-če; -zu//-zi: *oqči, bitikči.* Bu affiks shaxs kasbini, faoliyatini bildiruvchi ot yasaydi: ozarb. *oğuču* "yig'lovchi", *bičinči* "o'ruvchi", *qazmači* "shaxtyor, qazuvchi"; olt. *dülküčü* "otboqar", *qomusči* "musiqachi, qo'bizchi", *tegunči* "yolg'onchi"; boshq. *baliksu* "baliqchi", *timerse* "temirchi", *hunarsu* "ovchi", *qoshso* "qushchi", *yazuusu* "yozuvchi"; gagauz. *duušču* "hazilchi", *yolču* "yo'lchi", *čifiči* "yer haydovchi", *hayvanju* "chorvador"; karaim. *burğuči* "burg'uchi", *baltaču* "usta", *anaču* "doya", *töräči* "boshliq", "hakam"; q-qalp. *temirši*

"temirchi", *baluqšu* "baliqchi", *tuzšu* "dehqon", *etikči* "etikdo'z", *qoyšu* "cho'pon", *suvšu* "suvchi", *bazaršu* "bozorchi"; q.-balq. *kumušsu* "misgar", *tirmenči* "tegirmonchi", *qayuqčı* "qayiqchi"; no'g'. *qoyšu* "cho'pon", *anju* "ovchi", *yazuvšu* "yozuvchi"; uyg'. *ətukči* "etikdo'z"; turk. *avči* "ovchi", *demirči* "temirchi", *balıqči* "baliqchi".

Bu qo'shimcha tuva, qorachoy-balqar tillarida shaxsning muayyan hududga xosligini bildiruvchi shaxs otlarini ham hosil qiladi: *kondelenči* "Gundelenda yashovchi", *bulumči* "Billimda yashovchi", *basxančи* "Baskanda yashovchi".

-daš//-doš//-deš//-taš//-teš//-das//-des//-laš//-les: *yoldaš, kökältäš, qarıntaš*. Bu affiks yaqinlik, birgalik, hamkorlik ma'nosidagi otlarni hosil qiladi: boshqird. *yaqtaš* "tarafchi", *yuldas* "yo'ldosh", *iptäs* "o'rtoq", *ildäš* "yurtdosh"; olt. *qarundaš, d`oldas* "yo'ldosh", *ayuldaš* "ovuldosh"; ozarb. *qardaš, čuğurdaš* "yo'ldosh"; q.balq. *qarındaš-qarnaš* "uka", *kündeš* "kundosh"; qoz. *joldas* "yo'ldosh", *jerles* "yurtdosh", *qızmettes* "xizmatdosh"; qirg'. *avuldaš* "ovuldosh", *zamandaš* "zamondosh"; qaraim. *qarundaš* "qarindosh", tat. *isemdäš* "ismdosh", *tiŋdäš* "tengdosh"; turk. *qoldaš* "qo'ldosh, qo'llab-quvvatlovchi"; turkm. *boydaš* "bo'ydosh", *ildeš* "eldosh"; shor. *čoldaš* "yo'ldosh", *xurantaš* "qarindosh".

-lıq//-lik//-luğ //-luq//-lük//-lak//-duk //-dik//-tik//-tuk;-nik: *ačlıq, tüzlük, qayğuluq*. Bu affikslar qorachoy-balqar, qoraqalpoq, qaraim tillarida o'zak ifodalagan ma`no bilan bog'liq o'lcham, o'rin, holat, munosabat, kasb-hunar, mavhumlik, vaqt o'lchovi, taqlid ma`nolarini ifodalovchi so'zlarni hosil qiladi. Jamlik, ko'plik, umumiylik, o'rin-joy ma`nosidagi otlarni yuzaga keltiradi: ozarb. *ağačlıq* "daraxtzor", *bulutlıq* "bulutlar jami": qar. *tašlıq* "toshloq", *qozlux* "yong'oqzor"; tat. *qayenluk* "qayinzor", *tašluq* "toshloq"; boshq. *urmanlıq* "o'rmonzor", *qomloq* "qumloq"; no'g'. *ağašlıq* "daraxtzor", *tašlıq* "toshloq"; qum. *ağačlıq* "daraxtzor", *budayluq* "bug'doyzor"; chuv. *čulłax* "toshloq", yoq. *yumanlıx* "to'nkazor", *qistiq* "qishloq".

Mavhum tushuncha bildiruvchi otlarni yasaydi: ozarb. *başğalığ* "o'zgachalik", *yüksəklık* "balandlik"; olt. *baylıq* "boylik", *aylıq* "oylik"; boshq. *yašlek* "yoshlik", *yegetlik* "yigitlik"; qar. *tarlıx* "torlik", *ačlıq* "ochlik"; q.-balq. *biyiklik* "buyuklik", *azatlıq* "ozodlik", *aqluq*; tat. *sukirluk* "ojizlik", *batırlık* "botirlik"; no'g'. *yamanlıq* "yomonliq"; gag. *čoklık* "ko'plik", *ušaklik* "bolalik"; qoz. *balalıq*, *jililiq* "iliqlik"; qum. *sarilik, goglik*; qirg'. *jašlık*; *jaxshiliq*.

-laq//-daq//-lak//-lag: *qišlaq, tuzlaq, yaylaq, avlaq.* tuv., xak. *čaylag* "yaylov", uyg'. *yaylak,* turk. *yaylaq,* qirg'. *qumdaq* "qumloq", shor. *kištag* "qishloq", qoz. *qıstaq* "qishloq", *jaylau* "yaylov".

-q//-k// -ğ//-g; -ik//iq//-uk-//-uq: *aldağ, bilik//bilig, tilük//dileg, purnak* "hayot" (*puran-*"yashamoq"); qum. *kurek "kurak",* tat. *uraq* "o'roq", *yataq* "to'shak", turkm. *gapaq* "qopqoq", qirg'. *čurek "yurak",* shor. *qarbaq* "qarmoq", tuv. *buduk<budu-buya+q;* olt. *buduk,* uyg'. *boyak,* qirg'. *boyoq,* ozarb. *boyag,* qoz. *boyu,* turk. *otak,* xak. *otax,* qoz. *otau* "o'tov".

-ki//-qı//-ğı//-gi//-ki//-gu*: jılıtqı* "issiqxona", *xirgi* "qirg'ich", *ajıtqı* "achitqi"; shor. *qapqı* "qopqon", *yeški* "eshkak", turk. *burğu,* no'g'.*šalğı* "chalg'i", *sıbırğı* "supurgi", olt.*susku* "suzgich".

-qaq//-kak //-kek//-gek: tat. *iškek* "eshkak", qirg'. *sayğaq* "sayg'oq", boshq. *qayraq* "qayroq". o'zb. *ilgak.*

-qıč//-ğıč//-kič//-gič: olt. *asqıš* "ochqich", *tat. sizğič* "chizg'ich", shor. *susquš* "suzgich", xak. *pasxıs* "bosqich", qirg'. *keskič* "kesgich", qaraim. *ačqıč* "kalit", turkm. *yanğıč* "yonilg'i", *gısač* "qisqich",

-duruq// -duruk// -turuq: *boyunduruq, moyunduruk, oqunduruq.*

-ndı//-ındı//-(i)ndu*:qırındı, čuundu* "yuvindi".

-ik//-ıq//-ığ//-ig: qumiq. *yırtıq,* qoz. *oyıq* "o'yiq", tuv. *satığ* "savdo-sotiq", xak. *čadığ* "to'shak". Ba'zi so'zlarda affiks tarkibidagi undosh tushib qoladi: tat. *satu* "savdo-sotiq", qirg'. *bašqaru:* "boshqaruv", chuv. *pelu* "bilim", yoq. *barı* "borish", *kulu* "kulgu".

-qın //-kin, -ğın//-gin: tat. *yanğın* "yong'in", gag. *kačkın* "qochqin", qirg'. *tutqın* "tutqin", shor. *tašqın,* turkm. *surgun,* o'zb. *učqun.*

-qan //-kan: olt. *qapqan* "qopqon", turk. *kurgan* "qo'rg'on, qal'a", turkm. *degišgen* "masxaraboz", qirg'. *tu:ğan* "qarindosh", tuv. *tırtqan* "qiyma".

-ma//-me: ozarb. *yarma,* xak. *čarba* "yorma", tat., boshq. *bəlma* "xona", qoz. *toqıma* "to'qilgan ashyo", qirg'. *kesme* "ugra", *tat. niğitma* "istehkom", turk. *qızarma* "qovurma". Ba'zi turkiy tillarda bu qo'shimchaning dastlabki variantlari saqlanib qolgan: *pa, -pe//-ba,-be;* shor. *purba* "uzuk", olt. *səzurbe* "to'r".

-m//-ım//-im//-um: ozarb. *kiyim,* olt.*olum* "o'lim", qum. *alım* "pora, hadya", xak. *turım* "o'ram", tuv. *ozum* "o'simlik", qirg'. *jutum* "yutum", tat. *belem* "bilim", qoz. *bəlim* "bo'lim", *šiğim* "chiqim", gag. *atım* "otim", *sağım* "sog'im"(o'lchov birligi), uyg'. *taliym* "o'lja", boshq. *siğim* "chiqim", tuv.*bazım "qadam",* turk.*sağım, bičim.*

-miš//-muš//-bıš,-biš: tat. *t`rm`š* "hayot, turmush", qirg'. *jazmıš* "taqdir", chuv. *simes* "yemish", turk. *yemiš* "meva", qoz. *qılmis* "qilmish", o'zb. *o'tmish.*

-maq//-mek: tat. *suqmaq* "so'qmoq", turk. *yekmek* "non", gag. *yašamak* "hayot", qad. turk. *aqmaq* "oqim", *bitmek* "o'simlik", qoz. *toqpaq* "to'qmoq", *ilmek* "ilmoq", yoq. *xalpax* "qopqoq", olt. *baspaq* "bosqon".

-tıq//-tik//-dix//-dik: tat. *qaldıq* "qoldiq", ozarb. *tapdıx* "topilma", turk. *bildik* "tanish", boshq. *yiyintiq* "to'plam".

-(ı)t,-(i)t: olt. *bazıt* "yurish", tuv. *čazıt* "sir", turk. *gečit* "kechuv", qad. turk. *yoğurt* "qatiq", xak. *xurut* "qurut", qoz. *sarqıt* "sarqit".

-č,- ıč,-ič: turkm. *dayanč* "tayanch", *inanč* "ishonch", qum. *suyunč* "sevinch", qirg'. *otunuč* "o'tinch", qoz. *qorqınıš* "qo'rqinch", ozarb. *gazanč* "maosh, ish haqi", turk. *ekunč* "o'kinch".

-in//-ın: uyg'. *tutun,* ozarb. *ekin,* shor. *tuun* "tugun", tuv. *jıdın* "yotoq", qirg'. *jiyım* "yig'in", turk. *akın* "oqin", o'zb. *tiqin.*

-ntı//-nti: boshq. *kisente* "kesik", olt *qazıntı* "quduq", *qırğındı* "yungi qirqilgan qo'y", tat. *ağinti* "oqim", xak. *tastandı* "tashlandi", gag. *bašlantı* "boshlanish", o'zb. *yuvindi.*

Tuva tilida murakkab *-ndek //-ndaq (ntı+aq)* qo'shimchasi mavjud: *kezindek* "qiyqim", *oyundaq* "o'yiq".

Bulardan tashqari ayrim so'zlar tarkibidagina uchraydigan affikslar ham bor: ***-am, -yem:*** olt *bulam* "bog'lam", *tudam* "tutqich"; ***-tı,-ti,-dı,-de:*** qirg'. *jartı* "yarim", turk. *belirti* "belgi", ozarb. *gabırtı* "ko'tarma"; tuv. *kørulde* "sharh", *ozulde* "bo'y"; turkm.*vagırdı* "shovqin", turk. *gürültü* "shovqin"; ***-vul:*** *qaravul, yasavul, čapavul;* ***-l:*** *soyurğal, yasal;* ***-ğu/gü:*** *yarğu, alğu, bergü;* ***-ğun / -ğun:*** *qavğun, čabğun.*

Chuvash tilida otlar quyidagi so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida yasaladi - *-sa, -se, -lax, -lek, -ak, -yem, -as, -yes, -čak, -čeĕ,-kač, -keč; -u, -a, -ye, -kan va –ken,* "sa" va "se" affikslari shaxsning qaysi kasb egasi ekanligini bildiradi: *pulasa* "baliqchi". *-lax,- lex* affikslari esa narsa-buyum nomini hosil qiladi: *kuslax* "ko'zoynak", *kepe* "kiyim" va h.k.

So'zlarni qo'shish orqali qo'shma va juft otlar hosil qilinadi. Qoshma otlar: *seršiv* "davlat", *surser* "yarim tun"; *ankarti* "poliz", *ulmussi* "olmazor".

Juft otlar ba'zida lug'aviy ma'no ifodalaydi: *ača-pača* "bolalar", *inkek-sinkek* "baxtsizlik".

Turkiy tillardagi so‘z yasalish jarayonini tahlil qilish orqali so‘z yasovchi affikslarning qadimgi taraqqiyot bosqichida hozirgiga nisbatan ko‘p bo‘lgani kuzatiladi. Bu affikslardan ma’lum qismi sanoqli so‘zlar tarkibidagina saqlanib qolgan bo‘lib, sinxron so‘z yasalishida ishtirok etmaydi.

Turkiy tillarda faol qo‘llanadigan ayrim yasama otlar:

Narsa-buyum otlari: *ıllık* “so‘qmoq”, *utuluk* “qo‘lqop”, *ulluk* “qoplama”, *sırdık* “nur”, *kustuk* “kamalak”, *munnuk* “ko‘mir”, *tunnuk* “tuynuk”, *sıttık* “yostiq”, *xabalık* “yumshoq o‘yinchoq”, *kıstık* “qishki yerto‘la”, *ahılık* “ozuqa”, *ettik* “tana”, *ummatık* “yonilg‘i”.

Mavhum otlar: *dallık* “nuqson”, *arılıq* “tozalik”, *ayılıq* “saxiylik, bag‘ri kenglik”, *äminlik* “sadoqat” , *bayırsaqlıq* “mehribonlik”, *bavlıq* “boylik”, *dostluq* “do‘stlik”, *büdüklük* “buyuklik”, *ädgülük* “ezgulik”, *kičiglik* “kichiklik”, *issilik* “issiqlik”, *ačıylıq* “achchiqlik”, *ärlik* “mardlik”, *aruqluk* “charchash”, *äsänlik* “sog‘lik”, *anuqluq* “hozirlik”, *sajmazlıq* “beparvolik”, *dinčilik* “tinchlik”, *yüksäklik* “yuksaklik”, *azluu* “ozlik”, *sarılı* “sariqlik”, *aqlıq* “oqlik”, *baylıq* “boylik”, *aylıq* “oylik”, *qartlıq* “qarilik”, *yäšlek* “yoshlik, *batırlıq* “botirlik, qahramonlik”, *yegetlik* “yigitlik”, *šatırlıq* “quvonch”, *aruvlux/aruvluq* “go‘zallik”, *uslulux|usluluq* “donishmandlik”, *ačlıx/ačlıq* “ochlik”, *tanıšlıx/tanušluq* “tanishlik”, *suvuxlux/suvuqluq* “sovuqlik”, *jamanlıx/jamanlyq* “yovuzlik”, *bijiklik* “balandlik”, *aqlıq* “oqlik”, *uzaqlıq* “uzoqlik”, *žarlılıq* “kambag‘allik”, *terenlik* “chuqurlik”, *sabırlıq* “bardoshlilik”, *azadlik* “ozodlik”, *dušmanlıq* “dushmanlik”, *biylik* “beklik”, *kišilik* “odamgarchilik”.

O‘rin-joy otlari: *ayačlıq* “o‘rmon”, *almalıq* “olmazor”, *bitiklik* “kutubxona”, *tašlıq* “tosh yo‘l”, *qozlux* “yong‘oqzor”, *narlık* “anorzor”, *tozluq* “changli joy”, *üzümlük* “uzumzor”, *almalıx* “olmazor”, *naratlık* “qarag‘ayzor”, *kojenlık* “qayinzor”, *tašlık / taštıq* “toshloq”, *bozloq* “muzloq”, *hazlıq* “botqoqlik”, *soqorloq* “notekis yer”, *qomloq* “qumloq”, *ayašlıq* “o‘rmon”, *budaylıq* “bug‘doyzor”, čullăx “toshloq”, *astuu* “don xirmoni”, *ašlıx* “don, non”, *daštlik* “cho‘l, dasht”.

Turkiy tillarda otlarning ma’no turlari. Nomlar. Flektiv tillarda otlar jonli va jonsiz tarzida farqlansa, turkiy tillarda kishi nomlari (antroponimlar), hayvon nomlari (zoonimlar), joy nomlari (toponimlar), o‘rin-joy otlari, shaxs otlari va narsa-buyum nomlariga ajratiladi. Oltoy tillarida jins va jonli narsalarni leksik hamda grammatik usulda ifodalash o‘ziga xosdir.

Turkiy tillarga oid manbalarda uchraydigan otlar turkiy tillarga xos nomlash tizimi haqida ma`lumot beradi.

Bulg‘or tiliga oid so‘zlar:

1. Unvon, mansab, tabaqa nomlari: *qağan, xan, bağatur, erän, malamır, tanri, kavaxan, tarxan, tudun.*

2. Urug‘ nomlari: *čaqar, kuyvar, yupan, oxsun, kurigiz, bulğor.*

3. Shaxs ismlari (xonlar nomi): *Yabğuxon, Isbul, Ičirgü böylä, Kubrat, Isperix// Asperux. Krum// Kurum, Omurtag, Tektem, Sever, Svinex, Teles, Tervel, Umor, Bayan.*

4. Muchal nomlari: *dvanš (<tavišqan)* “sichqon yili”, *dilom (<d... ılan,* chuv. *çûlen (çĕlen)* “ilon yili”, *mor (<*mœђ. *morin)* “ot yili”, *tox (<toox) “tovuq yili”, quči (*qo‘y yili*), daxs (<toŋuz) “*to‘ng‘iz yili”.

5. Oy nomlari: *alem (<ilki em*), “birinchi oy”; *šegor alem*, “ikkinchi oy”; *večem* (qiyos. chuv. *viççû //viççĕ)* “uchinchi oy”; *tutom* (qiyos. chuv. *tŷvatım//tăvatăm)* “to‘rtinchi oy”; *bexti (<besh)* “beshinchi oy”; *altom* (qiyos. chuv. *ulttı)* “oltinchi oy”; *šextem* (qiyos. chuv. *sakkır)* “sakkizinchi oy»”, *tvirem* (qiyos. chuv. *tŷxxŷr (tăxxăr)* “to‘qqizinchi oy”; *eni alem* (qiyos. chuv. *vunı (vună)* “o‘ninchi oy”; *ver eni alem* (qiyos. *vunpûr (vunpĕr)* “o‘n birinchi oy”.[58]

Ovchilik, chorvachilik turkiy tillarda eng qadimiy soha hisoblanadi. Ayni paytda ular uchun dehqonchilik, hunarmandchilik kabi sohalar ham begona bo‘lmagan. Turkiy tillarning umumtaraqqiyot davridagi leksik xususiyatlar, ayniqsa, zoonimlar tarkibida saqlanib qolgan. Hayvon nomlari turkiy tillarning leksik taraqqiyoti, so‘zlarning funksional-semantik xususiyatlari, tushuncha ifodalovchi nom sifatida shakllanishi haqida muhim ma’lumot beradi.

Zoonimlar tadqiqi Mahmud Koshg‘ariydan boshlangan. Devonda zoonimlar, jumladan 100dan ortiq qush nomi qayd etilgan.[59] Turkiy tillardagi zoonimlarning leksik-grammatik xususiyatlari tadqiq qilingan.[60]

---

[58] *Ашмарин Н.И. Болгари и чувашский язык. Казань, 1902.*

[59] *Базарова Д.Х. История формирования и развития зоологической терминологии узбекского языка.-Т.: Фан, 1978.С.3.*

[60] *Ибрагимов К. Древнетюркские названия животных в лексике современных тюркских языков. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук.-М.,1975; Абдушукуров Б. XI-XIV аср туркий ёзма манбалар тилидаги зоонимлар. Филол. фан. ном. дисс. -Т.,1998*

Xonaki hayvonlar leksikasini aks ettiruvchi chorvachilik[61], ovchilik[62] terminlari o'rganilgan. Turkiy tillar leksikasi tadqiqi zoonimlar tahlili misolida olib borilgan.[63] O'zbek tilidagi "hayvon" arxisemali so'zlar semantik maydon asosida tasniflangan.[64]

Zoonimlarning turkiy tillar taraqqiyoti davomidagi, jumladan, eski o'zbek tili davridagi qo'llanishida quyidagi holatlar kuzatiladi:

1. XI-XIV asr yozma manbalaridagi zoonimlar eski o'zbek adabiy tilida aynan (o'zgarishlarsiz) qo'llangan: *käklik, bağrıqara, sıčqan.* Qadimgi turkiy tilga oid zoonimlarning tarixiy shakllari hozirgi o'zbek tilining ayrim shevalarida qo'llanadi[65].

2. Bir qator zoonimlar fonetik o'zgarishlar bilan qo'llangan: *sonqur* "shunqor"; *tavišğan* "tovushqon" (quyon); *qaz* "g'oz"; *ud / üy* "hokiz"; *sığıčıq /sığıčuq/ širšıq* "chug'urchuq"; *köčyäkyärgä* "chigirtka"; *toŋuz* "tong'iz"; *qočınar* "qo'chqor"; *yabaqulaq* "yapaloq"; *oğlaq* "uloq"; *sağızğan* "zag'izg'on".

3. XI-XIV asr yodnomalarida qayd etilgan ayrim zoonimlar eski o'zbek adabiy tili davriga kelib iste'moldan chiqqan: *tägin* "suvsar"; *čätük* "mushuk"; *burslan* "qoplon"; *yunt* "ot"; *qısraq* "yosh baytal".

Iste'moldan chiqqan zoonimlar o'rnini yangi terminlar egallagan: *yarasa/ yarqanat* "ko'rshapalak"; *as* "karkas" (qush nomi); *ayaquš* "turna"; *sanduvač* "bulbul"; *ayaq* "qarqara". Eski o'zbek tili davriga kelib yangi zoonimlar shakllana boshladi: *topčoq//tupričaq* "chopqir ot"; *kökävyan* "so'na". *Topčaq* zoonimi ma'nosida qadimgi manbalarda *arğamaq* (ЭСТЯ, I, 171) so'zi qayd etilgan. Bu so'z hozirgi qirg'iz va

[61] *Урунов Т. Узбекская овцеводческая терминология (на материалах Кашкадарьинской области УзССР). Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. -Самарканд, 1964; Ходжамбердыев Г. Животноводческая лексика узбекского языка (преимущественно на материалах Ферганской долины). Автореф. дисс. ...канд. филол. наук.-Т., 1972; Усманов С. Гиппологическая терминология современного узбекского языка. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук.-Ташкент, 1988.*

[62] *Биялиев А. Киргизские народные термины промысловой охоты. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук.-Фрунзе, 1972.*

[63] *Мусаев К.М. Лексика тюркских языков в сравнительном освещении.-М., 1975; Щербак А.М. Названия домашних и диких животных. В книге: Историческое развитие лексики тюркских языков.-М.: Изд.-во Акад. наук, 1961.-С.162-172.*

[64] *Нишонова Н. Ўзбек тилида "ҳайвон" архисемали лексемалар майдонининг мазмуний таҳлили. Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. -Т., 2000. -Б.25.*

[65] *Буранов М. Термины животноводства в узбекских говорах Каракалпакии. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук.-Ташкент,1972.*

tuva tillarida keng qo'llanadigan "katta tezlikda yugurmoq" ma'nosidagi *arği= // arğu=* fe'l asosidan shakllangan. Hozirgi qozoq tili dialektlarida *tobışaq* "arg'umoq zotiga mansub uchqur ot"; qirg'iz tilida *toburčak* "yaxshi, katta tulpor, jangovar ot" ma'nolarida qo'llanadi. Manbalarda *tobıčağ* "g'arbiy mamlakatlarga xos ot"; *topčaq at* "arabi ot" ma'nolarida ham ishlatilgan.[66] Quyida birgina *ot* uyadoshligiga mansub so'zlarning turkiy tillardagi shakllari va ma'nolari borasida fikr yuritiladi.

At (ât) "ot", mo'g'. *mori(n);* manchj. *morin;* tung. *morin, murin, murgan, murgon, xelge;* hozirgi turkiy tillarda ***at***, *merina* - ayg'ir, yoq. *emak* (ot); turkm. *čöl ati* (cho'l oti), *ala-bula at* "ola ot".

At *(at)* turkiy tillarda unli harflari bilan farqlanadi. Ozarbayjon, oltoy, balqar, boshqird, gagauz, qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, qumiq, no'g'ay, tatar, turk, turkman, uyg'ur, xakas, yoqut tillarida - *at*, tuva tilida *a't*; o'zbek tilida *ot*; chuvash tilida *ut*.

At so'zidan tashqari turkiy tillarda "ot" (hayvon) ma'nosida *beygir* "ayg'ir", *laša, jïlkï* "yïlkï" va *yont* "yond" so'zlari ham qo'llanadi. O'g'uz tilidagi *baytal* va *biya* so'zlari "urg'ochi ot" ma'nosini bildiradi.

Fin-ugor tillaridagi *alaša* so'zining o'zgargan shakli *laša* turkiy tillarga mansub. Qadimgi turkiy tilda **l** tovushi mavjud bo'lmagan; *laša* fonetik o'zgarishga uchragan shakldir.

Qısraq zoonimi o'zbek tili shevalari, ozarbayjon tili va bir qator turkiy tillar shevalarida kuzatiladi. *Qısraq* so'zining tuzilishi ikkita qismdan iborat: *qsr / qısır* va *aq*. Bu so'z nafaqat ot, balki boshqa hayvonlarni ham bildiradi. Masalan, ozarb., turkm. *ğï s ï r;* boshq., qoz., tat., o'zb. tillarida *qïsïr*; xak. *x ï z ï r;* chuv. *xĕsĕr*, gag. *kïsïr*; no'g'. *kïsïr; qısır//qisraq* "qisir" (ДЛТ).

Qulun, тан "toychoq" - mo'g'. *unaga(n),* manchj.–*unaxan*; tung. *marikan, čāder, muron , хитеn, muran, enkečenni. Qulun, tay* so'zlari turkiy tillarda, umuman, har xil yoshdagi otlar guruhini anglatadi, hozirgi turk tilida umumiy holda "toychoq" ma'nosini bildiradi. Bu so'z turkiy tillarda har xil fonetik ko'rinishhlarda uchraydi. Masalan, ozarb. *gay, gayča, ğulun*; boshq., gag., q.-qalp., qum., turk, turkm. *tay, tayčik, kolin*; o'zb. *qulun, toy*; uyg'. *tay tayčak,* chuv. *tıxa, xulun*.

Qulun (*qulunak, qulunčak, qulunağaš*) "bir yillik toychoq"; ozarb.

---

[66] *Базарова Д. Х. Названия лощадей // Базарова Д.Х., Шарипова К.А. Развитие лексики тюркских языков Средней Азии и Казахстана.-Ташкент: Фан, 1990.-С.61 .*

ğulun; olt., q.-qalp., tuv., o‘zb., yoq., xak. *qulun*; boshq. *kolon*; gag., qum., no‘g‘. *kulin* tarzida qo‘llanadi. *Tay tayča, tayčak, tayčanak, taylak, tayzak* shakllarida qo‘llanadi. *Tay* – bir yoshni to‘ldirib, ikki yoshga o‘tgan toychoq. Ozarbayjon tili (shevasi)da *tay* “toychoq” ikki yoshli ot bolasi, *taycha* yangi tug‘ilgan toychoq; ayrim shevalarda “toychoq” oltisakkiz oydan bir yoshgacha bo‘lgan, bir yillik ot bolasi; oltoy, qozoq tatar tillarida – bir yillik toychoq, boshqird tilida *tay*, o‘zbek tilida *toy*, yoqut tilida *tïy* “ikki yoshli toychoq”; shevalarda *tayčak, tayčäk* “bir yillik toychoq; xakas tilida *tay* “ikki yoshdan uch yoshgacha bo‘lgan toy”.

Tatar tilining alohida shevalarida *tay, imčagas* so‘zlari *qulun* so‘zi o‘rnida ishlatiladi.

Qadimgi turkiy til yozma yodgorliklarida ham hozirgidagi kabi: يلاڭ - *tay* so‘zi kuzatiladi (ДЛТ,II,158). Bu so‘z chuvash tilida *tïxa*, mo‘g‘ul tilida *taxa* shaklida uchraydi.

Qadimgi turkiy tilda yosh otlar *tayčaq* va *qulun* zoonimi bilan nomlangan. Ko‘pincha *toy* so‘zi bilan yoshi katta ot guruhlari atalgan. Hozirgi o‘zbek tilida *toy* uch yoshgacha bo‘lgan barcha otlarga, *toychoq* bir yoshgacha bo‘lgan otlarga nisbatan ishlatiladi.

Turkiy tillardagi ayrim zoonimlar taraqqiyotida funksional-semantik o‘zgarishlar kuzatiladi. M., *yılqı* Mahmud Koshg‘ariy “Devon”ida “hayvonlar to‘dasi” ma’nosida izohlangan (DLT,I,21;III,34). “Boburnoma”da “otlar to‘dasi” ma’nosini bildirgan. *Yılkı* terminining etimologiyasi (“yig‘moq”, “birlashtirmoq” so‘zidan – G.Vamberi) ham so‘z semantikasidagi umumlashtiruvchi semaga asoslanadi. *Yılqı* “bir joyga to‘pla” ma’nosidagi *yıl-* fe’lidan *-qı* affiksini qo‘shish orqali yasalgan (ЭСТЯ,IV,282): *yıl-+qı=yılqı> yılqı*. Bu ot aslida “keng o‘tloqda erkin harakatlanib yuruvchi hayvonlar to‘dasi”ni anglatgan (O‘TEL,156). Eng qadimgi manbalarda, asosan, “qoramol” tushunchasini ifodalagan.[67] Hozirda so‘z semantik strukturasida ma’no torayishi yuz bergan, faqat “otlar to‘dasi” ma’nosi anglashiladi. So‘zlashuv uslubida metonimiya asosidagi ma’no ko‘chishi natijasida “ot” (O‘TIL,I,348) tushunchasini ham bildiradi. Hozirgi turkiy tillarda ozarb. *ılğı;* tuva, xak. *čılğı*; yoq. *sılğı*; olt. *jılkı* “hali yugurtirilmagan ot”[68] so‘zlari uchraydi.

---

[67] *Базарова Д. Х. Названия лошадей // Базарова Д.Х., Шарипова К.А. Развитие лексики тюркских языков Средней Азии и Казахстана.-Т.: Фан, 1990.-С.12.*

[68] *Щербак А.М. Названия домашних и диких животных. Историческое развитие*

A.M.Sherbak turkiy tillarda qo'llanadigan 1554ta hayvon nomini keltirgan.[69]

Hayvonlar nomini bildiruvchi terminlar yuzasidan olib borilgan ishlar, jumladan, A.M.Sherbak tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, zoonimlar hayvonlar yoshi, jinsi va zotiga qarab xilma-xil bo'ladi. Bunday farqlanish faqat xo'jalik ishlarida foydalaniladigan hayvonlarda kuzatilishi, boshqa hayvonlarda bunday toifalanish uchramasligi ta'kidlangan.[70]

Qadimgi turkiy tilga xos zoonimlarning hozirgi turkiy tillarga munosabatini quyidagicha izohlash mumkin:

1. Zoonimlarning ayrimlari hozirgi turkiy tillarda ayni shaklda qo'llanadi: *as, kiš, mušuk, maral, nar, oğlağ.*

2. Zoonimlarning ma'lum qismi fonetik o'zgargan shaklda ishlatiladi: *toŋuz –doŋuz, üy –üd, arxar –arğar, süvsär– sösär, tüyür –tüwür, öküz – hökü z , sičqan– čičqan.*

Turkiy tillardagi bir qator zoonimlarning qadimgi turkiy varianti keyingi davrlarda ham saqlanib qolgan. Masalan, qadimgi turkiy tilga xos "dumi qildek ingichka qush" ma'nosidagi *qılquyruq* XIV asr manbalarida ham uchraydi. Keyinchalik, ijtimoiy aloqalar tufayli turkiy hayvon nomlari bilan bir qatorda o'zlashma zoonimlar ham ishlatila boshladi. Eski o'zbek adabiy tilida qo'llana boshlagan zoonimlarning ko'pi forscha-tojikcha so'zlardan shakllangan: *kəptər –käftər; murğobi, ğarmpoy, šahmurğ* "o'rdak". Qadimgi va eski turkiy tilda *övrək*, XIV asr manbalarida *ördək* qo'llangan[71]; eski turkiy tildagi *alavan* "timsoh" o'rnida eski o'zbek adabiy tili davriga kelib *šer=i ōbiy* izofasi ishlatila boshlagan.

Savol va topshiriqlar

1. Turkiy tillardagi kelishiklar tizimi haqida ma'lumot bering.
2. O'zbek tilidagi kelishiklarni qozoq, turk tillaridagi kelishiklar tizimi bilan solishtiring.
3. Turkiy tillardagi egalik shakllarini misollar asosida izohlang.
4. Turkiy tillardagi ot turkumining o'ziga xos xususiyatlarini yoriting.
5. Ot vasalishini misollar asosida tushuntiring.

лексики тюркских языков.-М.: Акад. наук, 1961.-С.84

[69] *Щербак А.М. Названия домашных и диких животных. Историческое развитие лексики тюркских языков.-М.: Изд. Академия наук, 1961.-С.162-172.*

[70] *Историческое развитие лексики тюркских языков. Введение.-М.,1961.-С.5*

[71] *Қаранг: Таржумон– XIV аср ёзма обидаси.-Т.:Фан,1980.-Б.37.*

Test sinovi

1. Qadimgi turkiy *tilda ishlatilgan*, hozirda "bilan" ko'makchisi orqali ifodalanadigan kelishik nomi ko'rsatilgan qatorni toping.

A) -in (vosita kelishigi) C) -na (jo'nalish kelishigi)

B) -nin (qaratqich kelishigi) D) -un (chegara kelishigi)

2. Miqdor sonlarga *-lar* affiksi qo'shilganda gapda qanday ma'no ifodalanadi?

A) otlashadi C) ko'plik ifodalanadi

B) chama, taxmin ma'nosi ifodalanadi D) grammatik ko'plik ifodalanadi

3. *ičrä, üzrä, ičkäri, tašqarı* so'zlarida qaysi kelishik shakllari yaxlitlanib qolgan?

A) vosita kelishigi C) o'rin-payt kelishigi

B) jo'nalish kelishigi D) chiqish kelishigi

4. Egalik qo'shimchalari affikslarning qaysi guruhiga kiradi?

A) qarashlilik shakllari C) lug'aviy shakl hosil qiluvchi

B) sintaktik shakl hosil qiluvchi D) shakl yasovchilar

5.Eng qadimgi turkiy tillarni belgilang.

A) tofa, chuvash, yoqut, uyg'ur C) qozoq, gagauz, yoqut, uyg'ur

B) bulg'or, chuvash, yoqut, uyg'ur D) bulg'or, chuvash, xakas, uyg'ur

6. *oruqluk, äsänlik* so'zlarining ma'nolari to'g'ri qayd etilgan javobni ko'rsating.

A) "charchash","shodlik" C) "charchash","osonlik"

B) "oriqlik", "sog'lik" D) "charchash","sog'lik"

7.Qaysi tilda *-lar* grammatik ko'plik shakli, deyarli, uchramaydi?

A) chuvash tilida C) shor tilida

B) gagauz tilida D) bulg'or tilida

8-§.TURKIY TILLARDA SIFAT

Asosiy tushunchalar: *belgi, darajalanish, fonetik usul, morfologik usul, leksik (sintaktik) usul, intensiv shakl, sifat yasalishi, otlashish.*

Hind-yevropa tillari bilan turkiy tillar o'rtasidagi muhim farqlardan biri belgi-xususiyatni aniqlash yo'llarining turlichaligidir. Masalan, flektiv tillarda aniqlovchi vazifasida sifatlar qo'llanadi: *железная дверь, деревьянный мост* kabi. Turkiy tillarda sifatlar bilan bir qatorda, ot turkumiga oid so'zlar ham aniqlovchi vazifasida keladi: *demir qapı* "*temir eshik*".

Turkiy tilarda sifat quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Predmet, narsa-buyumning belgisini bildiradi, *qanday?, qanaqa?* so'roqlariga javob bo'ladi.

2. Sifat bog'lanib kelgan ot turli so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarni qabul qiladi, lekin sifat o'zgarmaydi, ya'ni sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalarni olmaydi: *ulug'vor tabiatni.*

3. Sifatlar darajalanadi. Sifat darajalari uch xil: oddiy, qiyosiy, orttirma daraja.

Sifat darajalari uch usul (vosita) yordamida hosil qilinadi:

a) fonetik usul (vosita): *yap-yapalaq, qıp-qızıl.* Urg'u yordamida ham daraja ifodalanadi: *baland, aččıq, nārdān. Qıp-qızıl, sap-sarıq, yum-yumalaq* so'zlarida urg'u birinchi bo'g'inga tushadi, orttirma daraja ifodalanadi;

b) morfologik usul: *-raq, -iš, -(i)mtir: kökraq, aqımtır.*

d) leksik usul: *sal, xiyal, bir az, juda, ğayatda, nihayatda, behad, eŋ* so'zlari orqali daraja hosil qilinadi: *juda yaxši, nihayatda qızıq.*

Chuvash tilida qiyosiy darajadagi sifatlar *-rax//-rex* affiksi bilan hosil bo'ladi. *l, n, r* bilan tugagan so'zlarga esa *-tarax* yoki *-terex* affikslari qo'shiladi. Masalan, *soxal-saxaltarax, giner-ginerterex* kabilar.

Orttirma darajadagi sifatlar ikki yo'l bilan hosil qilinadi:

1) *ši, pite, mukkar, maysar, savteri, pisek* so'zlari yordamida: *pisek rayon* "eng katta tuman";

2) birinchi bo'g'inda ***p, m, s*** undoshlarini keltirirish bilan hosil qilinadi: *sap-sara* "eng sara", *yap-yaka* "tanho", *xup-xura* "qop-qora"; ozarb. *ğıpğırmızı* "qip-qirmizi", *gom-goy* "ko'm-ko'k"; olt. *bop-boro* "oppoq", *čop-čoqur* "nihoyatda chuqur"; gag. *kapkati* "juda qattiq", *dupu-duz* "tep-tekis"; qoz. *sap-sari* "sap-sariq", *qıp-qızıl* "qip-qizil"; qum. *ap-aq* "oppoq"; nog'. *yap-yašil* "yam-yashil"; tat. *ap-ači* "juda achchiq", *kom-kok* "ko'm-kok"; tuv. *sap-sarığ, čap-čaa* "yap-yangi"; turk. *bom-boš* "bo'm-bo'sh", *dos-dolu* "to'kis-to'liq", *sapa-sağlam* "juda sog'lom"; uyg'. *up-uzun* "juda uzun"; *xak. qıp-qızıl, sap-sariq;* yoq. *anahu* "juda achchiq", *up-uhun* "juda uzun"; q.-balq. *toppa-tolu* "to'kis-to'liq" va boshqalar.

Chuvash tilida sifatning **i** affiksi qo'shilishidan hosil bo'lgan daraja shakli ham mavjud. Bunda so'z oxirida unli tushadi: *sarlaka* "keng", *sarlaki* "o'ta keng", *keske* "qisqa", *keski* "o'ta qisqa".

Chuvash tilidagi sifat rus tilidagi sifat kategoriyasidan morfologik xususiyati hamda sintaktik vazifasi bilan farq qiladi. Chuvash tilida nutq qismlarining qat'iy differensiatsiyasi yo'q. Buning natijasida chuvash tilida ko'pgina sifatlar bir vaqtning o'zida ham ot, ham ravish vazifasida keladi - *sem pulma tarašatnar* "biz yaxshi ilg'orlar bo'lishga harakat qilamiz", *etem layaxa yuratat* "inson barcha yaxshiliklarni sevadi".

Turkiy tillardagi sifat darajasi atributiv vazifani bajadi: *tata pisakra'x sitenusem tuma šuxašlatpar* "yanada kattaroq yutuqlarga erishishimizni tahlil qilyapmiz".

Chuvash tilida sifat turkumidagi so'zlar kelishik va sonda o'zgarmaydi, ya'ni turlanmaydi, ot bilan moslashmaydi.

Sifatlarning lug'aviy shakllari. Sifatning daraja shakllari (s, (g), l, m, r, s, t, a, i) lug'aviy shakllar hisoblanadi: qoz. *sarqač* "sarg'ish", no'g'. *a'rg'lt* "sarg'ish", olt. *kzltm* "qizg'ish", qoz. *qaram* "qoramtir", turk. *sarlirak* "sariqroq", tat. *alsu* "qizg'ish", turkm. *aqsa* "oqish", turk. *ak'l* "oqish", ozarb. *garaš* "qoramtir".

-qay //-kay: *sirqay* "sariqroq", *tirbiqay* "pastroq";

-il//-ul, ilt//-ult,-iltim//-ultum,-iltiy//-ultuy, -iltir//-ultur: olt. *qısqıltim* "qizg'ish", *sarğıltım* "sarg'ish", *qaraltım* "qoraroq"; *boshq. harğılt* "sarg'imtir", *yaškilt* "yashilroq", *söskölt//sösköltem* "shirinroq", *eskilt //eskiltim* "achqimtil"; *qoz. bozğıl//bozğıltım* "oqish", *qızğıltım// qizğilt* "qizg'ish"; q.-balq. *morğuldum* "yashilroq", *qızğıl//qızğıldım* "qizg'ish", *sarğıl//sarğıldım* "sarg'imtir"; qirg'. *ağaltım//ağıltır* "oqish", *qızğılt// qızğıltım,* "qizg'ish"; q.-qalp.*sarğılt;* qum. *qızğılt* "qizg'ish", *sarğılt* "sarg'ish", *yašğılt* "yashilroq"; nog'. *sarğıl//sarğıldım//sarğıldıy* "sarg'ish", *ağılzım//ağıldı* "oqish"; tat. *eskilt//eskiltim* "achqimtil"; *sarğılt* "sarg'ish"; *tuv. sarğıl// sarğıldır;* turkm. *gızğılt* "qizg'ish", *zarğılt* "sarg'ish"; shor. *koguldurum* "ko'kimtir":

-imtir//-imtil//-umtul//--mtil: ozarb. *bozumtul* "oqish", *sarımtıl* "sarg'imtir", *qaramtıl* "qoramtir"; qoz. *sarğımtıl* "sarg'imtir", *kokimtil* "ko'kimtir"; turk. *yešilimtirak* "yashilroq", *sarimtirak* "sarg'imtirroq", *kirmizimtirak* "qirmiziroq"; turkm. *ağimtil* "oqimtir", *qaramtıl, kogumtil* "kokimtir";

-daw: qoz.*jasıldaw* "yashilroq";

-msı: turk.*mavimsi* "ko'kish";

-su//-siğ//-suğ: tat.*alsu//alsusuğ* "qizg'ish", *köksü* "ko'kish";

-ča//-ja: ozarb., gag. *ajtja* "achqimtil", *sarıja* "sarg'imtir" ;

-iš//-uš: qirg'. *koguš* "ko'kish", o'zb. *oqish, kokish;*

-čil//- šil: qoz.*saršil* "sarg'ish", *aqšıl* "oqchil", *kökšil//kökšiltim* "ko'kimtir"; nog'. *aqšıl//aqšıltım* "oqchil, oqimtir"; turk. *aqčıl, kökčil;* qum.*akšilt, gogšilt;* o'zb. *ko'kchil, oqchil;*

-saw//-sow//-suw//-siw: ozarb., qum. *uzunsoww* "uzunroq", *dalisaw* "telbaroq", *nazisuw* "nozikroq", *ullusuw* "kattaroq".

O'zbek tilidagi narsa-buyumning shakily belgisini bildiradigan sifat yasovchi ***-simon*** qoshimchasi ayrim turkiy tillarda ozaytirma daraja hosil qiladi:

-siman//-suman//-ziban,-simak//-simar: olt. *qizilzimak* "qizg'ish", *karazimak* "qoramtir", *aksimak* "oqimtir"; qum. *qizilšumal* "qizg'ish", *aqšumal* "oqish"; q.-balq. *qizilsimon* "qizg'ish", *sarisimon* "sarg'ish", *aksiman* "oqish"; qirg'. *qizilsimak* "qizg'ish"; nog'. *biyiksimal* "kattaroq"; tuv.*qizilzimar* "qizg'ish"; shor. *qizilziban* "qizg'ish", *karaziban* "qoramtir".

Turkiy tillarda sifatning intensiv shakli

Turkiy tillarda intensiv shakl, asosan, rang-tus bildiruvchi sifatlar oldidan kelib, belgining me'yordan ortiqligini bildirish uchun xizmat qiladi. Bunda lugaviy ma'no bilan birga, emotsional munosabat ham ifoda etiladi. Ayrim turkologlar intensiv shaklni orttirma darajaga kiritsalar[72], boshqalar uni maxsus *intensiv shakl yoki kuchaytirma daraja* deb ko'rsatadilar[73]. Intensiv shaklning yasalishi to'g'risida ham har xil fikrlar mavjud. V.N. Nasilov mazkur shaklni sifatning birinchi

---

[72] *Малов С.Е. Язык желтых уйгуров.- Алма-Ата. 1957; Содиқова С. Ўзбек тилида ранг-тус билдирувчи сўзлар. Номзодлик диссертацияси.-Т..1963; Абдуллаев Ф. Об интенсивной форме прилагательных в тюркских языках. Научные труды ТашГУ. -Т..1964.- С.131; Усманов С. Аналитическая форма слова и проблема слова. Автореф. дисс. док.филол.наук-Т., 1965.-С.101; Шамырадов К., Ибрагимов А. Туркмен дилинде сыпатлар.- Ашхабад. 1956.-С.24-26; Хэзирки заман туркмен дили.-Ашхабад. 1960. –С.277-279; Шамиева А. Уйгур тили (дэрслик).- Алма-Ата. 1957.*

[73] *Дмитриев. Н.К. Грамматика башкирского языка.- М.-Л.. 1948.-С.795; Исхаков Ф. Имя прилагательное. Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. II. Морфология.- М.. 1956.-С.165; Кононов А.Н. Грамматика современно литературного узбекского языка.- М.-Л., 1960..-С. 161-164; Ҳозирги замон ўзбек тили.-Т.. 1957.-Б. 348-349; Маъруфов З. Степени сравнения прилагательных в узбекском языке.-Л.. 1948.-С 82-83; Современный казахский язык. -Алма-Ата, 1962.-С. 207-211; Мусабаев Г. Қазіргі қазақ тіліндегі сын есм категориясы.- Алма-Ата. 1961.-С.25; Исхаков А. Қазақ тілі морфологиясы.- Алма-Ата, 1964.-С.279; Боровков А. Учебник уйгурского языка. –М.,1935; Наджип Э. Грамматика современного уйгурского языка.-М.. 1960.*

bo'g'ini qisqarishidan kelib chiqqan prefiks tarzida e'tirof etadi. Bu fikr 1962- yilda Olmaotada nashr etilgan qozoq tili grammatikasida[74] o'z aksini topgan. N.K.Dmitriyev, A.N.Kononov, Z.M. Ma'rufovlar esa bu shaklni qisqartirilgan reduplikatsiya, deb baholaydilar. A.G'.G'ulomov bu shaklning qisqartirilgan reduplikatsiyadan kelib chiqqanligi haqidagi fikrga shubha bilan qaraydi va uni boshqacha nuqtayi nazardan o'rganish lozimligini ta'kidlaydi. F.A. Abdullayev intensiv shaklni **n** sonor tovushi bilan aloqadorlikda ko'radi, *eŋ// tuŋ // tim // choŋ* so'zlari bilan bog'laydi va *aš - paš, non-pon, iš -piš, gošt-mošt, yiği-siği* singari so'zlarning ikkinchi komponentidagi **m, p, s** tovushlarining kelishini shaklan intensiv formaga o'xshatadi.

Turkiy tillarda intensiv shaklning birinchi komponenti mustaqil ma'no bildirmaydi va sifatdan oldin kelishiga ko'ra prefiksga o'xshab ketadi. Lekin birinchi komponent oxirgi tovushining turkiy tillarda, hatto, bir til dialektlarida o'zgarishi (o'zb. *ko'm-ko'k*; uyg'.*kep-kek*, qoz. *kekpenbek*), shuningdek, rang-tus bildiruvchi sifatlardan boshqa so'zlarda ham o'sha xil shakl yasalishidagi ma'lum erkinlik (*tep-tekis, yap-yaxšı* kabi) bu formani *prefiks* deb qarashga shubha tug'diradi. Intensiv forma qisqartirilgan reduplikatsiyadan kelib chiqqan, degan fikr esa haqiqatga yaqinroq. Ma'lumki, turkiy tillarda *yap-yapaloq, but-butun* (o'zb.) singari so'zlarning birinchi komponenti belgisi kuchaytirilayotgan sifatning birinchi bo'g'iniga mos keladi; *kekpenbek (kek-pen)* bilan *(kek) kekpenkek/ kekpenbek* (qozoq), *kekpigek* (sariq uyg'.) so'zlari bir xil sifatlarning takrorlanishidir.

Intensiv forma shakllanishi uzoq Oltoy davriga borib taqaladi. Mazkur forma mo'g'ul tillari uchun ham xarakterli bo'lib, qadimgi turkiy yozuv yodgorliklarida hozirgi shaklda uchraydi.

Intensiv forma boshqa turkiy tillarda ham mavjud: ozarb. *gıp-gırmızı, bus-butun*; olt. *jap-jajıl;* boshq. *köp-kök;* qaraim. *ap-ak, yem-yešil*; qum. *k'ıp-k'ızıl*; turk. *up-uzun, bom-boš, bus-butun, šil-šilpaq,* nog'. *köp-köpbek;* tat. *tup-tugerek// tem-tugerek*; tuv. *sap-sarıg*; xak. *koppeges;* shor. *kıp-kızıl;* chuv. *xop-xura;* yoq. *xap-xara.* L.N.Xaritonovning ko'rsatishicha, yoqut tilida birinchi bo'g'in oxiriga ba'zan *-is-is // -us* qo'shiladi: *ubus-uzup (ub-uzun).* Sariq uyg'urlar tilida *yau-yasıl, qap-qara // qau-qara, kekpiček, ak pıgax, qıl- ğara.*[75] Ko'pgina turkiy tillarda

[74] *Современный казахский язык. -Алма-Ата, 1962. -С. 202-203.*

[75] *Малов С.Е. Язык желтых уйгуров, Алма-Ата. 1957-С. 173.*

p, m tovushlarining, o'g'uz guruhiga mansub tillarda *s* tovushining fonetik vosita sifatida kelishi kuzatiladi. Sariq uyg'urlar tilidagi *p* o'rnida *u* tovushi keladi: *sau-sarı.*

O'zbek, uyg'ur, qozoq, turkman tillarida intensiv shaklda tovush va vazifa jihatdan o'xshashlik asosiy o'rinni egallaydi. To'rtta tilda ham *p, m* tovushlari xarakterli bo'lib, *s* tovushi o'g'uz guruhidagi turkman tili va ba'zi o'zbek so'zlarida ko'rinadi. Turkiy tildagi rang-tus bildiruvchi so'zlarda *s* tovushi orqali intensiv forma hosil qilish, deyarli, kuzatilmaydi. Faqat turk tilida *mas-maviy* so'zi uchraydi. Bu o'rinda *p, m* tovushlari o'rnida s ning qo'llanishi *maviy* so'zi boshida lab-lab undoshi kelganligi bilan izohlanadi. Rang-tus bildiruvchi so'zlar:

a) hozirgi zamon o'zbek tilidagi *oppoq, qop-qora, qip-qizil, sap-sariq, ko'm-ko'k, yam-yashil* so'zlari *p, m* tovushlari bilan shakllangan:

b) hozirgi zamon uyg'ur tilida rang-tus bildiruvchi *appaq, qap-qara, qıp-qızıl, sep-seriq, yap-yešil, kep-kek* kabi so'zlar *p* tovushi orqali shakllanadi.

Dolqundiki beliqtek beldiki čač,
Qız pesnini zenetligen qap-qara qaš. (S. Muqanov, "Iparxon")
Čellerge kek maysidin yapqan gilem
Ejayin etrepi ken kek-kek čimen. (S. Muqanov, "Iparxon")
Sap-seriq čeči aptante altundek paqiran turğan kičikkine bir qız, su yelip čıqtı. Bağıčini qoyuq, yap-yešil yepinče yapqan mezgilde seyle qılıštı (Z.Semediy, "Mayimxan"). *Ikki meŋzi qıp-qızıl almidek, burnı puchuğraq, zadi teč turmaydığan bala...*

d) hozirgi qozoq tilida *appaq, qap-qara, qıp-qızıl, sap-sarı, jap-jasıl* so'zlari *p* tovushi bilan, *kikpeŋbek k* tovushi bilan shakllangan: **jap-jašıl**: *jap-jasıl jaynağan šop, ayaq basuğada ayağanday bolasıŋ;* kikpeŋbek: *Almatıdagılar biek terezeli; ulken balkondı, aynalası kikpeŋbek ösimdik, gul yegilgen uylerde unatadı;* **sap-sarı:** *Šašına sap-sarı altın tağığanı;* **qıp-qızıl:** *Qıp-qızıl yeki betiŋ boyıŋ šıbıq;* **appaq:** *Qız otqa jalt qarağanda appaq beti, külim közi jarq yetti.*[76]

Qarluq guruhidagi uyg'ur tili, o'zbek tilidan farqli o'laroq, faqat *p* yoki *m* tovushiga moyilligi jihatidan o'xshashdir. O'zbek tilining *m, p,*

[76] *Intensiv forma haqidagi ma'lumotlar va misollar quyidagi manbadan olindi: Хамитова А. Туркий тилларда сифатнинг интенсив формасига доир (ўзбек, уйғур, қозоқ тиллари материаллари асосида) // Ўзбек тили ва адабиёти. -Т., 1966.-№5.-Б.41-44.*

s tovushlariga moyilligi o'g'uz guruhidagi turkman tiliga mos keladi. Bu hodisalarni mazkur tillarning spetsifik xususiyatiga kiritish mumkin. Bundan tashqari, rang-tus bildiruvchi so'zlarning intensivlashuvi jihatidan qipchoq lahjasi qozoq tiliga, xorazm shevasi turkman tiliga mos keladi.

Rang-tus bildiruvchi sifatlardan boshqa so'zlarning intensivlashuvi rang-tus bildiruvchi so'zlardan analogik yo'l bilan o'tgan. ***s*** tovushi rang-yus sifatlaridan boshqa so'zlarda ko'proq uchraydi. Masalan, o'zb. *bo'm-bo'sh, tap-taqir, bus-butun, to's-to'polon.* Uyg'ur tilida **p, m** tovushlari orqali intensiv shakl hosil qilinadi, lekin *s* tovushi uchramaydi: *top-toğra, jim-jitliq, pak-pakiza, kip-kičik, čop-čoŋ.* Qozoq tilida shu xil so'zlarda faqat **p** tovushi saqlanib qolgan, ***m, s*** tovushlari uchramaydi: *jap-jaman, jap-jasil, jap-jarıq, tip-tik, tap-taza, döp-döŋgelek, jap-jaqsı, šup-šınaq.* Turkman tilida: *sup-suyji, tap-taqır, jup-jumır, tıp-turšı, apači, xep-xezil, čap-čal, dim-dik// dip-dik, dos-dogrı, ges-geni.*

Intensiv shaklning ba'zan belgini susaytirish, kamaytirish kuchsizlantirish, kichraytirish xususiyatlari ham bor. Ushbu masala F.G.Ishoqov, F.A. Abdullayevlarning ishlaridagina tilga olingan. *Ap-aqllı adam, tüppä-tüzük iš, ıp- ıssı su, up-ulken bala* singari misollarda xuddi *-raq* shaklidagidek, ikki xil ma'no bo'yoqdorligi mavjud. Chunonchi, *aqllı, tüzük, ıssı, ulken* so'zlariga nisbatan sustlik, o'sha so'zlarning bo'lishsiz formasi (*aqlsız* - tüzük emäs, *salqın* - ıssıq emäs)ga nisbatan kuchlilik ifodalanadi. Ya'ni juda aqlli ham emas, aqlsizga nisbatan aqli bor, "aqlligina". Intensiv shaklning asosiy vazifasi rang-tus bildiruvchi so'zlar ma'nosini kuchaytirib berishdan iborat bo'lgani uchun *[a] č, [i] č, iš, -ğıš, -mtir, -mtil; -lau/ -lsu // -tay-tey, -ša-aq-ğılmım, -qıltım, - ımtıq, -ja, -j ımaq, -sovult* singari belgini susaytiruvchi qo'shimchalarni qabul qilmaydi.

Faqat erkalatish, subyektiv bahoni ifodalovchi *-ginä* qo'shimchasini qabul qiladi.[77] Misollardan ko'rinadiki, intensiv shakllarning kuchsiz belgi ifodalashi *-ginä* qo'shimchasi orqali reallashadi.

---

[77] *Хамитова А. Туркий тилларда сифатнинг интенсив формасига доир (ўзбек, уйғур, қозоқ тиллари материаллари асосида)// Ўзбек тили ва адабиёти.-Т., 1966.-№5.-Б.41-44.*

Savol va topshiriqlar

Quyidagi mavzularni klaster usulida yoriting.

1. Sifatlarning ma'no turlari.
2. Sifatning morfologik xususiyatlari.
3. Sifat darajalarini hosil qilish usullari.
4. Sifatlarning intensiv shakllari.
5. Sifatning sintaktik xususiyatlari.

Tub va yasama sifatlar

Turkiy tillardagi sifatlar tuzilish jihatidan *tub* yoki *yasama* bo'ladi.

Tub sifatlar: *aq, katta, uzun, qara, yaš, keŋ, ağır.* Bunday sifatlar u qadar ko'p emas: ***qara*:** turk. *kara*, qum. *qara*, no'g. *qara*, qoz. *qara*, qirg'. *qara*, ozarb. *gara*, tat.*qara*, chuv. *xura;*

aq - oq: turk. *ak*, qum. *aq*, no'g'. *ak*, qoz. *aq*, qirg'. *aq*, q-qalp. *aq*. tat. *aq*, boshq. *aq;*

yani //yäŋi: no'g'. *uap*, qum. *šao*, q.-qalp. *jana*, qoz. *jana*, uyg'. *šei.*

-la, -le, -sar,- ser,- i, -xi affikslari nisbiy sifatlarni yasaydi: *virasla* "ruscha", *šavašla* "chuvashcha" va h.k. Hosil qilingan barcha sifatlar ravish o'rnida ham qo'llanishi mumkin.

Sifat yasalishi. Turkiy tillarda sifat yasalishi affiksatsiya, so'z qo'shilishi va adyektivatsiya orqali amalga oshiriladi.

Turkiy tillarda sifatlarning qo'llanishi, ma'lum ma'noda, cheklangan. Bunga sabab otning sifat vazifasida kelishidir: tat. *q'sh, ^as* "qush uyasi (ini)", *telki mex* "tulki mo'ynasi", *kümüš saʒat* "kumush soat" kabi.

Yasama sifatlar so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida hosil qilinadi. Masalan, tatar tilida *kyoš* so'ziga *-li* qo'shimchasini qo'shish orqali *kyošli* "kuchli" sifati yasaladi. "Janjal, urush" ma'nolarini anglatuvchi *suğš* so'ziga *-šan* qo'shimchasini qo'shish orqali *suğšan* "urishqoq", "janjalkash" sifati hosil qilinadi.

Turkiy tillarda sifat yasovchi qo'shimchalar quyidagicha:

-lı, -li: qum. *tuzlu* "tuzli", no'g'. *qımli* "qumli", *tarlı* "astarli", qaraim. *qajğılı* "qayg'uli", turkm. *baqılı* "boqimli". Qozoq tilida *-tı* varianti qo'llanadi: *tasti* "toshli".

-q/-ğ, -ığ / -iğ,-g/-k. Bu affiks qadimgi turkiy til davrida keng tarqalgan: *ajığ* "yovuz", *jılığ* "iliq"; qoz.*suyıq* "sovuq", *beiik* "buyuk". Bu qo'shimcha tuva, xakas, shor tillarida saqlanib qolgan: tuv. *arığ* "toza", *čılığ* "iliq", *ızıg* "issiq", *sook* "sovuq", xak. *xatığ* "qattiq", *ajığ* "achchiq", *čılığ* "iliq", shor. *kadığ* "qattiq".

Uyg'ur va o'zbek tillarida so'z oxiridagi **ğ** tovushi **q** ga almashgan: *qattıq* "qattiq". Bu fonetik o'zgarish boshqa turkiy tillarda ham kuzatiladi: qirg'. *ısıq<ısığ* "issiq", ozarb. *jılıq < jılığ* "iliq".

-ğ fonemasining **q** ga o'tishi qadimgi sifat shakllarida ham kuzatiladi: *- l, - lığ, - lık, -k, -dan;* xak. *xatğ* "qatiq"; tuv. *izğ* "issiq"; qirg'. *isq,* chuv. *časq* "issiq". Bu qadimgi shakllar Sibir tillarida ko'proq saqlangan.

Bir qator turkiy tillarda yasama sifatlar oxiridagi undosh tushib qoladi: no'g'. *qatıq* "qattiq", turk. *katı* "qattiq", *sarı* "sariq" olt. *qatu,* tat. *esse* "issiq", *jılı* "issiq", qum. *ıssı* "issiq", *jılı* "iliq"; q.-qalp. *ıssı* "issiq"; qoz. *sarı* "sariq". Qaraim tilida oxiridagi **ğ** lab-lab **w** holatida saqlangan: *aruw* "toza" (*arığ* so'zidan).

-lığ //-lig affiksi ham qadimgi turkiy tilda keng qo'llangan: *adalığ* "xavfli", *azığlığ* "oziqli", *buzluğ* "muzli". Tuva, xakas, shor va tofalar (karagas) tillarida uchraydi: tuv. *dağlığ* "tog'li", *xarlığ* "qorli", xak. *čilliğ* "shamolli", tofa. *mallığ* "molli", *quštug* "kuchli", *mistig* "shoxli". Uyg'ur tilida mazkur qo'shimcha tarkibidagi **ğ** tovushi **q** va **k** tovushlariga o'tgan: qarliq "qorli", *tašliq* "toshli", *tağliq* "tog'li".

-lığ //-lig qo'shimchasi qirg'iz tilida *-lu, -li; -tu, -ti* ko'rinishiga o'tgan: *taštu* "toshli", *toqoylu* "o'rmonli". Oltoy tilida ***u*** tovushining cho'ziqligi saqlangan: *qarlu* "qorli", *tu:lu* "tog'li".

-čı //-či: shor. *urušču* "urushqoq", olt., shor. *qatqıčı* "kulgili".

-čan//- čaŋ//-šeŋ //-šan//- šaŋ//-jeŋ: olt. *soğuščaŋ* "urushqoq", boshq. *buysan* "bo'ychan", qoz. *boyšaŋ* "bo'ychan", qirg'. *atčan* "nomdor", q.qalp. *iššeŋ*, turkm. *išjeŋ,* chuv.*šarččan* "uyatchan".

-lıq// -liq//-lix//-diq: ozarb. *gıšlıx* "qishlik", tuv. *čıldıq* "yillik".

-k//-ki//-kı//-qı//-qi//-ği: qirg'. *čazğı* "yozgi", yoq. *sa:skı* "bahorgi", tuv. *časqı* "bahorgi", turk. *sabahkı* "ertalabki", chuv. *surki* "bahorgi", no'g'. *tisqi* "tashqi".

-čaq //-čax//-zaq//-šaq//-ziq//-ček: olt. *araqızaq* "ichuvchan", tuv. *oyunzıq* "o'yinqaroq", tat. *uyınšaq* "hazilkash", olt. *ačınčaq* "g'azabli", shor. *uruščaq* "urushqoq", xak. *tarınčax* "kuyunchak", *undutčax* "unutuvchan".

-čıl //-čil//-čul//-šil: ozarb. *Iščil* "ishchan", qirg'. *oyčul* "o'ychan", turkm. *gayğıčıl* "qayg'uli", tat. *qunaqšil* "mehmondo'st" .

-qay//-kay: olt. *ıylaqay* "yig'loqi", qirg'. *sınarqay* "sinuvchan".

-ıq//-ik//-iq: qirg'. *jabıq*, xak. *izirik* "mast".

-qan //-kan//-xan: tuv. *irxan* "oriq", chuv. *xıtkan* "oriq".

-gan//-agan//-ağan//-egen: turkm. *duragan* "turag'on", yoq. *umnugan* "unutuvchan", ozarb. *yatağan "dangasa".*

-la:x (variantlari:*-lox, -ta:x, -da:x, də:x -na:x*). Bu qo'shimcha faqat yoqut tilida kuzatiladi. Boshqa tillardagi *-lığ, -liğ, -lı, -li* qo'shimchalariga teng keladi: *ağala:x* "otali", *opo:lox* "bolali", *əjdə:x* "aqlli".

-da:qı//-da:ki//-dağı//-takı//-tağı//-degi affiksi muayyan o'rin-joy, makon bilan bog'liq sifatlarni hosil qiladi: no'g'. *aradağı* "oradagi", turk. *dolaptakı kitaplar* "shkafdagi kitoblar", yoq. *tıyatağı* "taygadagi", olt. *ayildağı* "ovuldagi", xak. *čirdegi* "yerdagi".

-siğ//-suğ: *tuv.dussuğ* "tuzsiz".

Savol va topshiriqlar

1. Turkiy tillardagi sifatning morfologik xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
2. Sifat yasalishining affiksatsiya usulini misollar asosida tushuntiring.
3. Sifat darajalari haqida tushunchangizni bayon eting.
4. Daraja hosil qilish usullarini misollar asosida yoriting.
5. Sifatlarning intensiv shakli, o'zbek va boshqa turkiy tillardagi intensiv shakl hamda ularning o'xshash jihatlari borasida ma'lumot bering.

Test sinovi

1. *kümüš sağat* birikuvi qaysi usulda?

A) moslashuv C) boshqaruv

B) bitishuv D) teng bog'lanish

2. Qaysi tilda qiyosiy daraja *-rax//-rex* affiksi orqali hosil qilinadi?

A) chuvash tilida C) boshqird tilida

B) yoqut tilida D) tuva tilida

3. Chuvash tilidagi qiyosiy daraja qaysi hollarda *-tarax* yoki *-terex* shaklini oladi?

A) *l, n, r* shakllari bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda

B) jaranhli undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda

C) jarangsiz undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda

D) *m, n, ŋ* shakllari bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda

4. Tatar tilidagi *suğššan so*'zining lug' aviy ma'nosini aniqlang.

A) sifat C) "urushqoq" B) "sig'uvchan" D) "ko'ruvchan"

5. Tuva tilidagi *čılığ* so'zining lug'aviy ma'nosi?

A) sifat C) "iliq" B) "chillik" D) "issiq"

6. Faqat yoqut tilida kuzatiladigan sifat yasovchi qo'shimchani belgilang.

A) *-lığ, -liğ* C) *-čan//- čaŋ* B) *-čıl //-čil* D) *-la:x , -da:x*

7. Yoqut tilidagi *umnugan* so'zining lug' aviy ma'nosini ko'rsating.

A) sifat C) "uquvli" B) "unutuvchan" D) "umidli"

9-§.TURKIY TILLARDA SON SO'Z TURKUMI

Asosiy tushunchalar: *miqdor, sodda son, qo'shma son, sanoq son, dona son, chama son, kasr son, aralash son, tartib son, tub son, hisob so'zlari, rim raqami, arab raqami.*

Otga bog'lanib, uning miqdorini, sanog'ini, tartibini; otga bog'lanmagan holda mavhum miqdor tushunchasining nomini bildirgan so'zlar turkumi *son*dir.

Sonlar harf bilan yoziladi (besh, yetti) yoki arab raqami (2, 7, 8) yoxud rim raqami (V, VII, XXI) bilan ko'rsatiladi. Son quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Son boshqa so'z turkumidan yasalmaydi. Son yasovchi qo'shimchalar ham mavjud emas. Sonda so'z yasalish hodisasi yo'q.

2. Sonning ma'no turlari va modal shakllari maxsus affikslar qo'shish bilan hosil qilinadi: *üčtä, altav.*

3.Son turlovchi affikslarni qabul qilmaydi, sifatlovchi olmaydi, o'zi otning sifatlovchisi bo'lib keladi.

4. Son miqdor tushunchasining nomini anglatganda va otlashganda kelishik, egalik affikslarini qabul qiladi, ot bajargan vazifada keladi: *Sakkiz ikkiga teng bo'linadi.*

5. Son hisob so'zlari – numerativlar bilan ham qo'llanadi.

Sonlar ma'no va grammatik xususiyatlariga ko'ra, dastlab, ikki guruhga bo'linadi: 1) miqdor son; 2) tartib son.

Miqdor sonlar narsa-buyumni sanash, donalash, taqsimlash yoki taxminlab ko'rsatish uchun qo'llanadi. Miqdor sonlar quyidagi xususiyatlari bilan tartib sonlardan farqlanadi:

– miqdor sonlar o'ziga xos morfologik ko'rsatkichlarga ega; tartib sonlar *-(i)nči /-(ı)nčı* qo'shimchasi orqali yasaladi;

– miqdor sonlar hisob so'zlari (numerativlar) bilan birga qo'llanadi; tartib sonlar numerativlar bilan qo'llanmaydi;

– miqdor sonlar juftlashib keladi, tartib sonlar juft holda kelmaydi;

– miqdor sonlar birikma holda *(üčdän bir)* ishlatiladi; tartib sonlar birikma holda qo'llanmaydi;

– miqdor sonlar *-lar* affiksini olib, taxminiy miqdorni bildiradi, tartib sonlar, *-lar* affiksini olib otlashadi: *Birinčilärgä mukāfāt berilädi.*

Sonlar tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: *sodda son* va *qošma son.*

Sodda sonlar bir o'zakdan iborat bo'ladi: *bir, beš, sakkiz.* Qo'shma son ikki va undan ortiq sonlardan iborat bo'ladi: *on tört, on beš.* Aslida ikki o'zakdan tuzilgan *altmıš* (altı-mıš), *sakson* (sakkiz on), *toqson* (toqqız on) sonlari hozirgi kunda bir o'zak sifatida qaraladi.

Son so'z turkumiga doir so'zlar turkiy tillarda fin-ugor tillariga nisbatan ancha qadimiydir. Sonlarni hosil qilishda chuvash tilida undoshlar geminatsiyasi kuzatiladi: *ike yan* "ikki kishi", *ikke* "ikki".

Turkiy tillarda tartib sonlarning asosiy modellari oldindan orqaga qarab hosil qilinadi. Qadimgi turkiy til va uyg'ur tilida orqadan oldinga (13 - *üč yigirmi*), qirg'iz tili shevasida (39 - *bir kam qırq*) o'ziga xos ko'rinishlarda uchraydi.

Chuvash tilidagi sonlar ham boshqa turkiy tillardan farq qiladi.

Chuvash tilida sonlar to'rt guruhga ajratiladi: miqdor son, jamlovchi son, taqsim son hamda kasr son. Ba'zi miqdor sonlar ikki shaklga ega bo'ladi - to'la va qisqa. To'la shakl qisqa shakldan oxirgi bo'g'indagi undoshning cho'zilishi bilan farq qiladi, yozuvda esa ikkilamchi harf bilan belgilanadi. Agar miqdor sonlar sanalayotgan narsa-predmetning nomi bilan birga kelsa, qisqa shaklda qo'llanadi.

Jamlovchi sonlar miqdor sonlarning to'liq shakli, ya'ni III shaxsga tegishli bo'lgan qo'shimchalarni qo'shish bilan yasaladi. Ular berilgan miqdordagi narsa-predmet guruhini ajratib ko'rsatishda ishlatiladi. Masalan, *ikkete* "ulardan ikkitasi", *vissete* "ulardan uchtasi" va shu kabilar. Jamlovchi sonlarga qo'shiladigan *-te* qo'shimchasi berilgan sondagi barcha narsa-predmetlar guruhini bildiradi, masalan, *ikketete* "ikkala", *vissetete* "uchala" va h.k.

Taqsim yoki ajratish sonlari narsa-predmetning miqdorini ifodalab, har bir taqsimot qatnashchisining ulushini bildiradi. U miqdor sonlarning qisqa shakliga *-šer* va *-šar* affikslarini qo'shish orqali yuzaga keladi:- *ikter, višer.*

Chuvash tilida tartib sonlar miqdor sonlarning to'liq shakliga *-meš (-leš)*- affiksini qo'shish bilan hosil bo'ladi, masalan, *perremeš* "birinchi", *ikkeleš* "ikkinchi" va h.k.

Kasr sonlar chuvash tilida rivojlanmagan, ular miqdor sonlar yoki tartib sonlar orqali yoziladi, masalan, *sura* "yarim", *čerek* "chorak".

Hisob so'zlari (numerativlar). Hisob so'zlari narsa-buyumning aniq miqdorini ko'rsatmay, shu narsani hisoblashda uning qaysi guruhga oidligini aniqlash uchun ishlatiladi.

Hisob so'zlari, asosan, ot turkumidagi so'zlardan iborat bo'ladi: *dana, nusxa, tup, nafar, qism.*

Qadimgi turkiy tilda faol ishlatilgan hisob so'zlari: *qadaq, jan, tanab, gaz, sarjin, batman, paysa, taxta, enlik, taš, pud, mahal (vaqt), yumalaq, yarmaq* va h.k. Bu numerativlardan ayrimlari hozirgi turkiy tillarda, bir qator o'zbek shevalarida ishlatiladi.

Turkiy tillarda keyingi davrlarda boshqa tillardan kirib kelgan hisob so'zlari qo'llanmoqda: *mehnat kuni, gektar, kubometr, kilovatt-soat, sotix, pachka, metr, kilo, minut, gradus, sentner, ekzemplyar* va h.k.

Savol va topshiriqlar

1. Turkiy tillarda sonning ifodalanishini tushuntiring.
2. Sonning tuzilishiga ko'ra turlari va ularning hosil bo'lish usullarini ayting.
3. Hisob so'zlarining shakllanish jarayoni, otlarning hisob so'zlariga aylanishi haqida ma'lumot bering.
4. Hisob so'zlarining tarixiy ko'rinishlari haqida bilganlaringizni gapiring.
5. Son turkumidagi fonetik o'zgarishlar haqida ma'lumot bering.

Test sinovi

1. Chuvash tilidagi tartib sonni belgilang.

A) perremeš C) vissetete
B) perrem D) vissete

2. Turkiy tillardagi sanoq sonlarning asosiy modelini belgilang.

A) bir kam qirq C) uch yigirmi B) to‘rt qirq D) ikki yigirmi

3. Qadimgi turkiy tildagi tartib sonlarning asosiy modelini belgilang.

A) bir kam qirq C) uch yigirmi B) qirq ikki D) ikki yigirmi

4. Uyg‘ur tilidagi tartib sonlarning asosiy modelini belgilang.

A) üč yigirmi C) yigirmi beš B) yigirmi üč D) yigirmi ikki

5. Qirg‘iz tilidagi tartib sonlarning asosiy modelini belgilang.

A) üč yigirmi C) yigirmi beš B) yigirmi üč D) bir kam əttüz

6. Og‘irlik o‘lchovini bildiradigan hisob so‘zlarini belgilang.

A) batman, paysa C) pud, mahal

B) taxta, enlik D) gaz, sarjin

7. Uzunlik o‘lchovini bildiradigan hisob so‘zlarini belgilang.

A) batman, paysa C) pud, mahal

B) taxta, enlik D)gaz, sarjin

10-§.TURKIY TILLARDA OLMOSH

Asosiy tushunchalar: *kishilik olmoshi, ko‘rsatish olmoshi, o‘zlik olmoshi, so‘roq olmoshi, belgilash-jamlash olmoshi, bo‘lishsizlik olmoshi, gumon olmoshi.*

Ot, sifat, son, ravish o‘rnida qo‘llanib, ularga ishora qiluvchi va ularning vazifasini bajaruvchi so‘z turkumi **olmosh**dir. Olmoshlar narsani, uning belgisi va miqdorini anglatmaydi, balki ularni ko‘rsatish, ularga ishora qilish uchun xizmat qiladi. Olmosh quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Olmoshda yasalish yo‘q, ya’ni olmosh yasalmaydi. Ammo olmoshlardan sanoqli affikslar orqali ot, ravish, fe’l yasalishi mumkin: *kamlik, manmanlik, sensiramaq, mensimaq (mensimaslik), šunday.*

2. Olmoshlar otlarga xos so‘z o‘zgartiruvchilar bilan o‘zgaradi, ya’ni olmoshlar turlanadi. Olmoshlar kelishik affikslarini oladi va ular belgili qo‘llanadi.

3. Kilishik olmoshlari egalik affiksi(qo‘shimchasi)ni olmaydi.

Unisi, šunisi, qaysisi olmoshlari tarkibida ikkitadan egalik qo‘shimchasi mavjud. Bu hodisa affiksal pleonazm deyiladi.

4. Olmoshlar gapda bajargan vazifasiga ko‘ra to‘rt guruhga bo‘linadi:

a) ot xarakteridagi olmoshlar (ot o‘rnida qo‘llanuvchi olmoshlar): *men, sen, biz, siz, ular, kim, nima, heč kim, heč nima, allakim, kimdir;*

b) sifat xarakteridagi olmoshlar: *qanday, qaysi, bu, šu, šunday, bäzi, butun, qanča, heč qanday, heč qaysi, allaqaysi, allaqanday;*

d) son xarakteridagi olmoshlar: *nečä, nečänči, qanča, šunča, ošanča;*

e) ravish xarakteridagi olmoshlar: *nega, qalay, qanı, heč qačan, qačan.*

Olmosh gapda ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi vazifasida keladi. Kishilik olmoshlari hamda o'zlik olmoshlari kelishik qo'shimchalarini oladi. Kishilik va ko'rsatish olmoshlari juft holda ham keladi. Ko'rsatish, so'roq, o'zlik va belgilash olmoshlari takror holda ham qo'llanadi.

Ayrim turkiy tillardagi olmoshlar oltoy tillaridagi olmoshlarga mos keladi. Qadimgi turkiy tilda olmosh turlari, deyarli, farqlanmagan, ularning vazifasini ayrim fe'l shakllari, ko'makchilar, yuklamalar bajargan.

Olmoshlarda maxsus so'z yasovchi qo'shimchalar yo'q. Qadimgi turkiy til materiallari olmoshlar egalik qo'shimchalari va fe'lning shaxs-son qo'shimchalari bilan genetik bog'liqligini tasdiqlaydi. Barcha turkiy tillarda olmoshlar yagona turlanish tizimiga ega. Ammo ayrim kishilik olmoshlari va turlangan ko'rsatish olmoshlari bilan tub o'zak ko'rinishida jiddiy farqlar kuzatiladi: chuv. *eps* "men", *mana* "menga", *val* "u", *ana* "unga" kabi. Chuvash tilidagi olmoshlar tizimi boshqa turkiy tillardan ancha farq qiladi.

Ma'lumki, olmoshlar kelib chiqishi, tarixiylik darajasi va ma'nosiga ko'ra turkiy tillarda ikki katta guruhga ajratiladi: olmoshlar (kishilik, ko'rsatish va so'roq olmoshlari), olmosh so'zlar (belgilash, bo'lishsizlik, gumon va jamlash olmoshlari). Bunday guruhlash kelishik qo'shimchalari bilan turlanishdagi o'ziga xoslikka asoslanadi.

Turkiy tillarda olmoshlarning yettita ma'no turi mavjud.

№	Olmosh turlari	Olmoshlar
1.	Kishilik olmoshlari:	ozarb. *man, san, onlar;* olt. *bes (bester), sler, olor;* boshq. *bis, his;* qoz. *bizder, sizder;* tuv. *bis (bister// bistarlar);* chuv.*ebe* (shev. *ep//yep, eze* (shev.es*//yes), wal* (shev. *wu, u, ul, wo, o, ol), ebir, ezir,wezem (shev. uzem//ozem// ezem);* shor. *is, sler;* yoq. *min, en, kihi, bihigi //bihi, ehigi //ihi, kihiler;*
2.	Ko'rsatish olmoshlari:	qoz., q.-qalp., no'g'. *bu (l), ol;* boshq. *eše, šul;* yoq. *subu (ushbu), siti (ana shu), sol (shu);* no'g'. *šu, šo (l), šošu// šušu// šiši;* tat. *šuši// šul;* karaim. *ušpu// ušbu// uspu;* qoz. *osi, sol;*

3.	O'zlik olmoshi:	tuv. *bodum, boduŋ, boduwus, bottarıwıs, boduŋar, bottarıŋar, bottarı;* yoq. *beye, beyem, beyen;* shor. *boy;* turk., gag. *kendi;*
4.	So'roq olmoshlari:	ozarb. *kim, ne, hansi;* boshq. *ney, nerze, neyerde, nemerze, neyetta, nimkay, nerdekay, nintay;* xak. *kem, xaydağ, xayzı:* chuv. *kam, xaje;* shor. *kem, kay// kayı, kayzı;* yoq. *kim, xannik, xaydax;*
5.	Belgilash olmoshlari:	ozarb. *var, vari, hamu;* olt. *barčans, baršin, parčan*; q.-balq. *bari, bitav;* xak. *pudun;* shor. *parcha, parčin, toza;* yoq. *barita.*
6.	Bo'lishsizlik olmoshlari:	ozarb. *heč kes, heč ne, heč hansi;* olt. *eš neme;* boshq. *his kim, his ne;* gag. *hič bišay;* qoz. *ešbir, eškim, ešbirov, ešteme;* qirg'. *eč kim, eč bir;* q.-balq. *bir zamda.*
7.	Gumon olmoshlari:	gag. *bišey*, q.-balq. *bir kiši, bir zot, bir yuk;* xak. *pir kizi;* turkm. *bir nerse, bir xayz.*

Turkiy tillarda ko'rsatish olmoshlari kelishiklar bilan turlanganda turlicha fonetik o'zgarishlar kuzatiladi. Ko'pchilik turkologlar (A.N.Kononov, V.Bang, B. Serebrennikov va boshqalar) dastlabki qadimiy variantdagi ko'rsatish olmoshlarida **n** tovushi bo'lmaganligini ta'kidlaydilar. Ko'rsatish olmoshlarining fonologik tuzilishidagi o'zgarishlarning mohiyati til faktlarining areal tadqiqi orqaligina oydinlashtirilishi mumkin.

Bu olmoshi ayrim turkiy tillarda **m** shakli bilan almashadi. Bu holat vositali kelishiklar bilan turlangan olmoshlarda yuz beradi. O'zbek, turk, tatar, turkman, oltoy tillarida ko'rsatish olmoshlarining bosh kelishik shakli *b* tovushi ishtirokida shakllansa, no'g'ay, shor, turkman, tatar tillarida vositali kelishik shakllari *m* fonemasi bilan almashadi: no'g'. *mun' "buni"*, shor. *möndä* "bunda", turkm. *muna* "bunga", tat. *moni* "buni" singari.

Barcha turkiy tillarda *bu, šu, u* olmoshlari vositali kelishiklar bilan qo'llanganda o'zakda bir **n** tovushi orttiriladi. Masalan, turk. *šunan* "šuning", turkm. *oya* "ona", *u – unga;*, tat. *ul- an* "u-uni"; *annan* "undan" kabi. Bu xususiyat ham turkiy tillarda so'z o'zagidagi unlining qat'iy ekanligini ko'rsatadi.

Ayrim turkiy tillarda *te(e), tu* o'zagi asosida ko'rsatish olmoshlari yuzaga kelgan. *Ana u* olmoshi o'rniga qirg'. *te:*, turk. *de shu*, olt. *tu ol*, gag. *te* so'zlari qo'llanadi.

Turkiy tillarda so'roq olmoshlari fonetik variantlariga ko'ra bir-biriga yaqin bo'lsa-da, morfemik tuzilishi va ma'nolari jihatidan farq qiladi. Tarixiy taraqqiyot davomida boshqa so'zlar kabi so'roq olmoshlarida ham, asosan, unli tovush o'zgaradi.

Kim so'roq olmoshi O'rxun-Enasoy yodgorliklarida *kem*, qadimgi turkiy tilda *kim* ko'rinishida uchraydi. *Kem* shakli oltoy tilida saqlanib qolgan. Boshqa turkiy tillarda *kim* olmoshi unlining uzun-qisqa va qattiq -yumshoqligi bilan farqlanadi. Masalan, qirg'., turkm., qum., turk, ozarb., yoq. *kim*, tat., qoz., no'g'., uyg'., boshq. *gam* shaklida ishlatiladi. Chuvash tilida esa *kem* so'roq olmoshi qo'llanadi. Ushbu dalillar bobo tili davrida *kim* va *kem* shakllari mavjud bo'lganligini ko'rsatadi.

Nima so'roq olmoshi ko'pgina turkiy tillarda *ne // ni* ko'rinishida ishlatiladi. Masalan, ozarb. *ne*, qoz., qum., no'g'., turk. *ne*. Ayrim turkiy tillarda esa ikki bo'g'inli shaklda mavjud: turkm. *neme*, o'zb. *nima*, uyg'. *nime*, xak. *nime*. Bu olmosh o'zagidagi qaysi unli ilk davrga xosligini aniqlash qiyin. Ko'pchilik olimlar *e* unlisi dastlab mavjud bo'lib, keyinchalik *ye* ga aylanganligini ta'kidlaydilar. F.Is'hoqov ko'pgina turkiy tillarda *ne* olmoshi takrorlanib qo'llanishini ko'rsatadi: olt. *ne-me*, boshq. *ne~me*, uyg'. *ni~me* kabi. Uning fikricha, ayrim tillarda ikki olmosh negizning qo'shilganligini ham ko'rish mumkin. Masalan, qirg'. *emne - e(ne-m-me-ne//ememmene*; qoz. *nemene* va tat. *nerse - ne-ersa* so'zlari olmoshlar birikuvidan hosil bo'lgan.

Narsa-hodisaning noma'lum belgisini ifodalovchi *qanday* so'roq olmoshi ham ikki so'zning, ya'ni *qan* va *tağ* asoslari birikuvidan hosil bo'lganligi aytiladi. Bu olmosh qipchoq shevalarida *qanday*, oltoy tilida *qandoy*, yoqut tilida esa *xannok*, *qandoğ* shaklida qo'llanadi. ***Qalay*** olmoshining tarkibi ham *qan* asosiga *-lay* qo'shimchasini, *qaysi?* so'rog'i esa *-sı* affiksining *qay* o'zagiga qo'shilishidan hosil bo'lganligi ta'kidlanadi. Masalan, tat. *qoys'*, boshq. *qays'*, qirg'., qum., uyg'. *qagsı*, xak. *xtzı* kabi.

Ayrim turkiy tillarda shunday ma'noni ifodalashda *ne, ni* olmoshlari qatnashadi: qum. *nečik*, ozarb. *neče, nejun*, turkm. *ničik, ninen*, boshq. *nisek*. Turk tilida bu olmoshlar o'rnida *hanı?* so'rog'i ishlatiladi.

Qayd etish joizki, turkiy tillarning so'nggi davrdagi taraqqiyot bosqichlarida tarixiy shakllarning yangi shakllar bilan uyg'unlashganligi olmoshlarning hosil bo'lishida ham ko'zga tashlanadi. Bu holat turkiy

tillarda analitik birikmalar faolligini ko'rsatadi. Qiyoslang: ozarb. *na, na-ra-ya*, turk. *ne-re-ye*, turkm. *ni-re, ni-rek* , xak. *xag-a-ar*, qoz. *qag jaqka*?, uyg'. *qag erge* kabi.

Ko'rinib turibdiki, so'roq olmoshlarining asosiy qismi turkiy tillarda *qay// qai* so'zlari asosiga turli qo'shimchalar yoki qadimgi tilda ot ma'nosini ifodalagan so'zlar qo'shiluvidan hosil bo'lgan. Buni *qanča, qačan* olmoshlari misolida ham ko'rish mumkin. O'g'uz shevalarida bunday olmoshlar *ne, ni* ko'rinishlariga ega. Masalan, qum, ozarb. no'g'. *nege, neše*, tat.*niše*, boshq. *nise* va h.k.

Turk va turkman tillarida vositali kelishik qo'shimchalari orqali hosil bo'ladigan so'roq olmoshlarida *ne* so'zidan so'ng *-re* orttiriladi: turk. *ne-re-den*, turkm. *ni-re-den* kabi.

Qrim (tavriya) tatarlari tilida I va II shaxs kishilik olmoshidan keyin keladigan qaratqich kelishigi qo'shimchasi *-im* shaklida qo'llanadi, masalan: *menim, bizim* (*meniŋ, biznıŋ* o'rnida).

Olmoshlar turkiy tillarda fonetik o'zgarishlar bilan kuzatiladi. Masalan, bo'lishsizlik olmoshlarining tuva tilidagi ko'rinishlari quyidagicha:

Turkiy tillarda	Tuva tilida
heč kim	kïm daa
heč nima	čuu daa
heč qaysı	kandïg daa
heč qačan	kayan daa
heč qayerda	kayda daa
heč qayerdan	kaynïn daa
heč qayerga	kay naar daa

Olmoshlar fikrni ixcham shaklda ifodalashda, o'rinsiz takrorni bartaraf etishda ahamiyatli.

Savol va topshiriqlar

1. Olmosh turkumining o'ziga xos xususiyatlarini bayon eting.
2. Olmoshning turlari va ularning nutqdagi o'rnini yoriting.
3. Olmoshlardagi fonetik o'zgarishlarni ayting.
4. Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlari haqida mulohaza yuriting. Qo'shma olmoshlarga misollar keltiring.
5. Olmosh o'rnida qo'llanadigan so'zlar haqida ma'lumot bering.

Test sinovi

***1.Unisi, šunisi, qaysisi* olmoshlarida egalik affikslarining ketmaket qo'llanishi qanday nomlanadi?**

A) affiksal pleonazm C) affiksal omonimiya
B) arxaizm D) affiksal sinonimiya

2. Sifat xarakteridagi olmoshlarni ko'rsating.

A) qanday, qaysi C) nega, qalay
B) nečä, nečänči D) allakim, kimdir

3. Ot xarakteridagi olmoshlarni ko'rsating.

A) allakim, kimdir C) qanday, qalay
B) nečä, nečänči D) allaqanday, kimdir

4. Miqdorni bildiruvchi olmoshlarni ko'rsating.

A) allakim, kimdir C) qanday, qalay
B) neča, qanča D) allaqanday, kimdir

5. Oltoy tilidagi *tu ol* qaysi so'z turkumiga mansub?

A) kishilik olmoshiga C) so'roq olmoshiga
B) ko'rsatish olmoshiga D) belgilash olmoshiga

6. Turk tilidagi *šunın* olmoshning qaysi turiga mansub?

A) kishilik olmoshiga C) so'roq olmoshiga
B) ko'rsatish olmoshiga D) belgilash olmoshiga

7. Tuva tilidagi *kandïg daa* olmoshi qanday ma'noni bildiradi?

A) heč kim C) heč qayerda
B heč qaysi D) heč nima

11-§.TURKIY TILLARDA FE'L SO'Z TURKUMI

Asosiy tushunchalar: *zamon kategoriyasi, shaxs-son kategoriyasi, mayl kategoriyasi, tuslanish, bo'lishli-bo'lishsizlik, nisbat kategoriyasi, fe'lning vazifaviy shakllari, harakat tarzi shakllari, ko'makchi fe'llar, fe'l yasalishi, sodda fe'llar, qo'shma fe'llar.*

Ish-harakatni bildirgan so'zlar turkumi *fe'l* deyiladi. Fe'l bir qator xususiyatlarga ega.

Fe'l tuslanadi. Fe'l turkumidagi so'zlarning shaxs-son, mayl, zamon qo'shimchalarini olib o'zgarishi *tuslanish* deyiladi.

Shaxs-son kategoriyasi. Shaxs-son tushunchasi fe'l anglatgan harakat-holatning bajaruvchiga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. I shaxs – so'zlovchi, II shaxs – tinglovchi, III shaxs – nutq jarayonida ishtirok etmayotgan shaxs.

Birlik	Ko'plik
I bardim	bardik, baryapmiz
II bardiŋ, baryapsan	bardiŋiz, baryapsiz
III bardi. baryapti	bardilar, baryapti(lar)

Zamon tushunchasi. Zamon tushunchasi harakat-holatning nutq vaziyatiga munosabatini ifodalaydi. Fe'lning uch zamoni farqlanadi: o'tgan zamon (nutq jarayonigacha bo'lgan harakat-holat); hozirgi zamon (nutq jarayonida sodir bo'layotgan harakat-holat), kelasi zamon (nutq jarayonidan keyin sodir bo'ladigan harakat-holat).

1. O'tgan zamon fe'llari quyidagicha voqelanadi:

a) aniq o'tgan zamon shakli -di: *yozdik, ko'rdik*;

b) uzoq o'tgan zamon shakli –gan: *yozgandingiz, ko'rgandingiz;*

d) o'tgan zamon hikoya shakli -(i) b: *yozibsiz, ko'ribmiz; yozib edik, ko'rib edik;*

e) o'tgan zamon davom fe'li -a(r)-edi, (-mas-edi): *ko'rinar edi, ko'rinmas edi.*

2. Hozirgi zamon fe'llari quyidagicha ifodalanadi:

a) aniq hozirgi zamon shakli ***-yap; -yotir,-yotib:*** *boryapman, borayotirman, borayotibman;* ***-moqda****: bormoqda.*

b) hozirgi- kelasi zamon shakli: ***a, -y:*** *yozadi; išlaymiz.*

3.Kelasi zamon shakllari quyidagicha voqelanadi:

a) aniq kelasi zamon shakli ***–ajak//-yajak:*** *borajakmiz, o'qiyajakmiz;* ***-gu //-ğu//-ku//-qu***: *kelgum(dir), kelgumiz, kelgusi;*

b) kelasi zamon maqsad shakli ***-moqchi***: *kelmoqchiman, aytmoqchisan;*

d) kelasi zamon gumon shakli***:-r,-ar***: *o'qirman, borarman.*

Ba'zi turkiy tillar dialektikasi hamda so'zlash uslubida kelajak zamon tushunchasini affikssiz ifodalash mavjud: *barım* "men boraman", *birem* "men beraman", "alım "men olaman" va h.k. Qorachoy-balqar tilida *-r* dan shakllangan kelajak zamon shakllari uchraydi. Masalan: *kelibsiz / kelirbiz* - "Biz kelamiz".

Turkman tilida hozirgi zamon shaklidagi fe'lning quyidagi ko'rinishi faol ishlatiladi:

a... lemen (Kasar ovulida)

a...lamen (Manish ovulida)

a...lam an (Noxur ovulida)

Chuvash tili turkiy tillar ichida fe'lning *-ar, -ır* ko'rsatkichli kelajak zamon shakli mavjud bo'lmagan yagona til hisoblanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, chuvash tilida *-ar, -ır* ko'rsatkichlari qachonlardir mavjud bo'lgan, lekin keyingi bosqichlarda iste'moldan chiqqan. Chuvash tilida hozirgi-kelajak zamon shakllari *alım* "men olaman", *alısın* "sen olasan", *alı* "u oladi" ko'rinishida bo'ladi. Agar *-ı* ning chuvash tilida *ı'* ga hamda, *-i* ning *-e* ga o'tishi hisobga olinsa, u holda chuvash tilidagi kelajak zamon shakllari tushunarli bo'ladi.

Birlik	Ko'plik
I. s..rıp "yozaman"	I. s..ır'b'r "yozamiz"
II. s..rı'n "yozasan"	II. s..ır'r "yozasiz"
III. s..rıe "yozadi"	III. s..ıres 'yozadilar"

O'zbek tilidagi *asos + ačak, (eček) ko'rsatkichi + birinchi kategoriyali shaxs qo'shimchalari* qolipidagi fe'llar turkiy tillarda quyidagi shakllarda qo'llanadi.

Chuvash tilida:

Birlik	Ko'plik
I. alakašmın "olaman"	I. alakašmız "olamiz"
II. alakašsın "olasan"	II. alakašsız "olasiz"
III. alašak "oladi"	III. alašaklar "olajaklar"

Qumuq tilida:

Birlik	Ko'plik
I. baračakman	I. baračakbız
II. baračaksan	II. baračaksız
III. baračak	III. baračaklar

Ozarbayjon tilida:

Birlik	Ko'plik
I. oxujačam	I. oxujačagıx
II. oxujačan	II. oxujačsınız
III. oxujačak	III. oxujagdırlar

Turk tilida

Birlik	Ko'plik
I. jazačaım	I. jazačaız

II. jazačaksın	II. jazačaksınız
III. jazačak	III. jazačaklar

Turkman tilida kelajak zamonning bu turi **-čak** ko'rsatkichiga ega hamda shaxs qo'shimchalarisiz qo'llanadi: *jazčak* "men yozaman", jazčak "u yozadi" va h.k.

-ačak, -eček affiksli fe'llar ayrim turkiy tillarda otga o'tgan: *janačak* "yoqilg'i". Ba'zi turkiy tillarda sifat xususiyatiga ega bo'ladi: ozarb. *utančak kız* "uyatchan qiz", qoz. *maqtanšak* "maqtanchoq" , *erinšek* "erinchoq", tat. *irenšek* "erinchoq" turk. *ılıča(k)* "issiq". Bu qo'shimcha otlardagi kichraytirish, erkalash qo'shimchasi bilan shakldoshdir: olt. *balačak* "bolacha", turk. *kuzučak* "qozichoq".

Bu tipdagi kelajak zamon shakllari tarqalish doirasi jihatidan cheklangan. Janubiy areal – o'zbek, uygur, no'g'ay, qumiq, qoraqalpoq, ozarbayjon, turk, gagauz va turkman, qipchoq, tatar tillarida badiiy uslubda qo'llanadi. Qozoq tilida g'arbiy dialektlarda uchraydi. Tuva, shor, xakas, oltoy, yoqut tillarida *-ačak, -eček* kelajak zamon shakli mavjud emas.

*Fe'l asos + **-ajak** ko'rsatkichi + I kategoriyadagi shaxs qo'shimchalari* tipidagi kelasi zamon modeli nog'ay tilida uchraydi:

Birlik	Ko'plik
I. barajapan	I. barajakpız
II. barajaksan	II. barajaksız
III. barajak	III. barajak

-ajaq ko'rsatkichi *-ačak*ning fonetik variantidir. Odatda **č** intervokal o'rinda **j** ga aylanmaydi. Shu bois *ajaq* shaklini alohida affiks sifatida qarash mumkin.

Yoqut tilida *-iax /-ıax/uax* kelasi zamon sifatdoshi qo'llanadi: *oxtuox mas* "yiqiladigan daraxt".

*Fe'l asosi +**-ası** ko'rsatkichi +I kategoriyali shaxs qo'shimchalari* qolipi eski turkiy, ozarbayjon tilida uchraydi, XIII–XV asr yozma yodgorliklarida hamda eski usmon tilida qo'llangan.

Birlik	Ko'plik
I. alasımın	I. alasıbız
II. alasısın	II. alasısız
III. alası	III. alasılar

Fe'l asosi + liq ko'rsatkichi + I kategoriyali shaxs-son qo'shimchasi ko'rinishidagi tarkib qorachoy-balqar va chulim turklari tillarida uchraydi:

Birlik	Ko'plik
I. barlıqma	I. barlıqbız
II. barlıqsa	II. barlıqsız
III. barlıqdı kerak	III. barlıqdıla kerāk

- ***ğusı*** eski o'zbek tilida ishlatilgan.

Birlik	Ko'plik
I. alğ um	I. alğumız
II. alğun	II. alğunız
III. alğusı	III. alğuları

Bu shakllar hozirgi turkiy tillarda u yoki bu darajada qo'llanadi.

Fe'llar ma'no va leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1) mustaqil fe'llar; 2) yordamchi fe'llar.

1. Mustaqil fe'llar lug'aviy ma'no bildiradi, gapning biror bo'lagi vazifasida keladi: *keldi, aytdi, o'qidi.*

2. Yordamchi fe'llar harakat-holat bildirmaydi (mustaqil ma'noga ega emas). Ular turli grammatik ma'no ifodalash uchun xizmat qiladi. Yordamchi fe'llar uch turga bo'linadi:

a) bog'lama vazifasida keluvchi, so'z yasalishida ham ishtirok etuvchi yordamchi fe'llar: *bo'l, qil, ayla, et*;

b) fe'llarga birikib, turli qo'shimcha ma'no ifodalovchi fe'llar yoki ko'makchi fe'llar: *o'qib chiqmoq, aytib bermoq.*

d) to'liqsiz fe'llar: *edi, ekan, emish.*

Fe'l alohida grammatik qiymatga ega kategoriya bo'lib, unda turkiy tillarning o'ziga xos xususiyatlari ifodasini topgan. Fe'l kategoriyasi turkologiyada batafsil o'rganilgan. Fe'l zamonlari, mayllari, nisbat shakllarining turli aspektlarda tadqiq qilinishi natijasida turkologiyaning muhim nazariy masalalari yechimiga zamin yaratildi. Jumladan, fe'llardagi zamon kategoriyasi bilan modallik kategoriyasi o'rtasidagi farqlar masalasi hal etildi.

Hozirgi turkiy tillarda qadimgi turkiy tilga xos ma'nolarda qo'llangan so'zlarning asosiy qismi harakat-holat, faoliyatni bildiruvchi so'zlardan

iborat: *yağıq-* "yov bo'lmoq"; *jayiq-* "dushman bo'lmoq" (DTS,224); *emgän-* "zahmat chekmoq", "qiynalmoq" (NAL,708); *yavutqa-* "yaqinlashtirmoq", "yaqin keltirmoq" (NAL,208); *tuqun-* "tutashmoq"; *buq-* "yashirinmoq".

Tuslangan fe'llar turkiy tillarda kishilik olmoshlari bilan birga qo'llanish xususiyatiga ega. Fe'l zamonlarida semantik-funksional xususiyatlarning turlicha bo'lishi, modellari bilan farqlanishi qadimgi tilda bu elementlarning ko'p bo'lganligidan dalolat beradi. Bu shakllarning aksariyati chuvash tilida saqlanib qolgan. Masalan, chuvash tilida kelasi zamonning *-ačak//-lık* shakli mavjud (*-ar* shakli yo'q). Fe'lning noaniq shakli turkiy tillarda *–maq, -as, -rğa,-ğal* elementlari orqali, chuvash tilida esa *-maškan* qo'shimchasi orqali hosil qilinadi.

Mayl kategoriyasi. Turkiy tillarning aksariyatida, jumladan, o'zbek, uyg'ur, qozoq, turkman tillarida buyruq va istak ma'nolarini ifodalovchi shakllar munosabati masalasi bir qator tadqiqotlarda yoritilgan. Jumladan, M.A'lamova turkiy tillardagi buyruq-istak mayli xususiyatlari, shakllarini o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman tillari misolida tahlil qilgan.[78]

O'zbek tilida buyruq va istak mayllari, dastlab, birgalikda, yaxlit butunlikda qaralgan.[79] Keyingi davrlarga kelib, o'zbek tilshunosligida buyruq va istak mayllari mustaqil, bir-biridan ajratilgan holda qarala boshladi. Hozirgi buyruq-istak shakllari buyruq mayli[80] yoki istak-buyruq mayli[81] deb keltirilgan. Buyruq mayliga II va III shaxs, istak mayliga esa I shaxs shakllari kiritilgan[82]. Ba'zi manbalarda istak mayllariga birinchi shaxs shakllaridan tashqari *-ğay* affiksi bilan yasalgan shakllar ham qo'shilgan[83].

---

[78] *Аъламова М. Туркий тилларда буйруқ-истак майли // Ўзбек тили ва адабиёти.- Т.,1966.-№4.-Б.30-34.*

[79] *Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Хозирги ўзбек адабий тили. Морфология ва лексикология.-Т., 1965. -Б.81.*

[80] *Гуломов А.Г. Феъл.- Т., 1954.-Б.44 –49.*

[81] *Боровков А.К. Краткий очерк грамматики узбекского языка. Узбекско - русский словарь.- М. 1953. -С. 708.*

[82] *ТурсуновУ., Мухторов Ж. Хозирги замон ўзбек тили. Морфология. -Самарқанд. 1960.-Б. 120 – 177; Хўжаев Т. Хозирги замон ўзбек тилида буйруқ майли.- Филол. фан. ном.дисс.-Самарқанд. 1963; Турсунов Р. Хозирги замон ўзбек тилида феъл майллари системаси // Тилшуносликка ва адабиётшуносликка оид тадқиқотлар.- Т., 1965. -Б.133; Батырова М.А.Повелительное наклонение глагола в русском языке. Дисс. .докт. филол. наук. -Т., 1966.*

[83] *Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка.- М.-Л., 1960. -С. 205 –208; 234 – 236.*

Uyg'ur tilshunosligida ham uchala shaxs shakllari *"buyruq peil išligučiliri"* deb nomlangan. Keyingi paytlarda esa uyg'ur tilida ham buyruq va istak (*xalaš*) fe'llari ajratildi[84]. E.Najip buyruq va istak fe'llarini birgalikda *buyruq-istak mayli*, deb qarashni ma'qul topadi[85].

Qozoq tilida buyruq va istak mayllari alohida, mustaqil holda olib qaraladi: buyruq mayliga uchala shaxs shakllari, istak mayliga esa *-ğay* affiksi bilan yasalgan shakllar. shuningdek, *"alğısı keledi"*, *"alsa yedi"*, *"alsaigi yedi"* kabi analitik shakllar kiritiladi [86].

Turkman tilida ham, dastavval, buyruq va istak shakllari bir buyruq mayli deb qaralgan[87]. Keyinchalik, buyruq va istak mayllari ajratilgan.[88]

Turkman tilida buyruq va istak mayllarining qaysi shakllarni qamrab olishi masalasida bildirilgan fikrlar xilma-xil. Rus va turkman tillari qiyosiy grammatikasida buyruq maylining II va III, istak maylining esa I shaxs shakllaridan iborat ekanligi ko'rsatilgan[89]. M.A'lamova E.Najip va boshqa tadqiqotchilarning turkiy tillarga oid materiallari asosida buyruq-istak shakllarini (uchta shaxs shakli nazarda tutilgan) bir buyruq-istak mayliga biriktirishini ma'qullagan hamda fikrini quyidagicha asoslagan:

1. Buyruq va istak ifodalovchi uchta shaxs shakllari ma'no jihatdan o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, "sof buyruq ifodalovchi" deb ataladigan II shaxs shakllari o'rni bilan istak, iltimos ma'nosini ifodalay oladi, buni III shaxs shakllari to'g'risida ham aytish mumkin. Shuningdek, I shaxs shakllarining ham, ba'zan, istak o'rnida talab, qaror qilish, ishni bajarishga undash kabi ma'nolarni ifodalay olishi ma'lum bo'ladi. Bu xususiyat faqat o'zbek tilidagina emas, boshqa turkiy tillarda ham kuzatiladi.

Uyg'. *Oyγmiŋ nuri, kečisi očmәs čiriği, kundizi čәmsisi bolğin (Q.Toxtәmov).* Qoz. *Al, bayırım, qoš aytısıp, qoliŋ qıstım, jauladıŋ keltire*

---

[84] *Шамиева А., Садвақасов Ғ. Уйғур тили грамматикиси. -I қисм.- Алмута. 1963.-Б. 165 – 173; Кайдаров А.. Краткий грамматический очерк уйгурского языка. Уйгурско - русский словарь. -Алма-Ата, 1961. -С.3 –314.*

[85] *Наджип Э.Н.Современный уйгурский язык. -М, 1960 .-С. 92.*

[86] *Қазіргі қазақ тілі. Алматы, 1954. -С. 304–318; Современный казахский язык. Фонетика и морфология. -Алма-Ата, 1962. -С.332 – 348; Сауранбаев Н.Т. О категории лица повелительного наклонения //Известия АН КазССР, 1954. -С. 36 – 37*

[87] *Байлыев Х., Сопыев Г. Грамматика. -Ашгабат, 1946.-С.126.*

[88] *Ҳәзирки заман туркмен дили.- Ашгабат, 1960. -С.390-391.*

[89] *Сравнительная грамматика русского и туркменского языков. Фонетика и морфология.- Ашхабад, 1964. -С. 154 – 159.*

ber astına-ustin (G'.Ormanov). Bu misollarda buyruq shakllari istak, tilak ma'nolarini ifodalash uchun qo'llangan. Quyida esa buning aksi, ya'ni istak formalarining buyruq formalari ma'nolarini ham anglata olishini ko'ramiz: *uyg'. kočyp kitəyluq. Bizma əl qatarisida oz tirikčiligimizni qilsaq bolmamdu (Q.Toxtəmov).* Qoz. *Javğa qatal bolayıq, xalıq qa arın solayıq (Jambыl).* Turkm. *yeri bu gyrruŋi bes edeli (B.Purliyev).*

Keltirilgan misollar buyruq va istak formalarini bir-biridan ajratmay, birgalikda olib o'rganish ma'qulligini asoslaydi.

2. Agar buyruq shakllarini (II va III shaxc) alohida grammatik kategoriya sifatida *buyruq mayli* deb ajratsak, istak mayli deb nomlangan kategoriya faqat I shaxs shakllaridan iborat bo'lib qoladi. ***–ay*** affiksi bilan yasalib, faqat I shaxsgagina ega bo'lgan shakllarni alohida grammatik kategoriya sifatida ajratish to'g'ri bo'lmaydi.

A.N.Kononov istak mayli hozirgi o'zbek adabiy tilida *-gay* affiksi bilan ham yasalishini ta'kidlagan. Ayni chog'da *-gay* affiksi bilan yasalgan shaklning bugungi kunda uslub talabi bilan qo'llanishini qayd qilgan.[90] Haqiqatdan ham *-gäy (-ğay, -qay, -käy)* bilan yasalgan shakllardan hozir o'zbek, qozoq, turkman tillarida ham badiiy uslub talabi bilan foydalaniladi. Shu bois *-gäy* affiksini istak mayli shakli sifatida qarash to'g'ri emas.

O'zbek va turkman tillarida buyruq va istak ma'nolari quyidagi usullarda ifodalanadi:

1. Sintetik usul. Bunga har uch shaxs shakllari kiradi. Bu shakllar birgalikda "buyruq-istak mayli" nomi bilan yuritiladi.

2. Analitik usul. Bunga bir necha analitik shakllar kiradi:

a) *-ğu kel-* (masalan o'zb. *olgim keladi,* uyg'. *alğum kelidu,* qoz. *alığım keledi*; turkman tilida: *alasım gelyər*);

b) *-sa ekan, -sa edi;*

d) *-ğay edi;*

e) *-sa idi //yedi* (bu shakl faqat qozoq tilida uchraydi).

O'zbek, uyg'ur va qozoq tillarida buyruq-istak mayli paradigmalari quyidagicha:

Birlik	Ko'plik
I. negiz + - *(a) y, -(a) y-in*	I. negiz + *-(a) y-lik*

[90] *Кононов А.Н. Кўрсатилган асар. -Б.263.*

II. negiz+intonatsiya; negiz + *-gin, ğın,-qın,-kin*	II. negiz + *-(i) ŋlar*; negiz + - *(i) ŋiz*
III. negiz + *-sin*	III. negiz+ *sinlar*; negiz+*-(i) ššin*[3]

Uyg'ur tilida buyruq-istak shakllari quyidagicha hosil qilinadi:

Birlik	Ko'plik
I. negiz + *ay/-əy*	I. negiz+ *-aylı // -əyli*
II. negiz+ intonatsiya; negiz +*-ğın* negiz + - *(ı)ŋ*, negiz + *-sila*	II. negiz+*(i) ŋlar*
III. negiz + *-sun*	III.negiz + *-sun*

Qozoq tilida:

Birlik	Ko'plik
I. negiz + *ayın / -yeyin*	I. negiz+*-ayıq/- yeyik*
II. negiz /+intonatsiya/ negiz + *ğın/ - gin* negiz + *-ıŋız/ -iŋiz*	II. negiz + *ıŋdar/-iŋder* negiz+*-ıŋızdar/-iŋizder*
III. negiz +*sın/-sin*	III. negiz + *sın/-sin*

Turkman tili buyruq-istak mayli borasida ayrim o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu quyidagilarda ko'rinadi: a) buyruq-istak mayli birinchi shaxsda ikkilik son shakllariga ega, bu jihatdan turkman tili qirg'iz va tuva tillariga o'xshaydi; b) o'ziga xos *-sana/-sene, -saŋız-la/ seŋiz-le* kabi ko'rsatkichlarga ega:

Birlik	Ikkilik	Ko'plik
I. negiz + *ayın / -yeyin*	negiz+*-alı/-yeli*	I. negiz+*-ayıq/- yeyik*
II. negiz /+intonatsiya		II. negiz+*-(ı)ŋ*
III. negiz+*ğın/-gin* negiz +*-sana/-sene*		III. negiz +*-saŋız-la/- seŋiz-le, saŋız laŋ/-seŋizleŋ*

Turkman tilida buyruq-istak maylidan tashqari *mustaqil istak* mayli ham mavjud:

Istak mayli ikki yo'l bilan yasaladi: fe'l negiziga *-ayadı- əyedi* affiksini qo'shish bilan (bu affiks aslida *-ay/ -əy* analitik shaklidan kelib chiqqan):

Birlik	Ko'plik
I. *barayadım, geləyedim*	I. *barayadık, geləyedik*
II. *barayadıŋ, geləyediŋ*	II. *barayadanıız, gelədiŋiz*
III. *barayadı, geləyedi*	III. *barayadıar, geləyediler*

Fe'l negiziga *-a/-ə* affiksining qo'shilishi bilan (bu affiks I shaxsda buyruq-istsk maylini hosil qilmaydi):

Birlik	Ko'plik
II. *barasıŋ, gelesiŋ*	II.*barasıŋız, gelesiŋiz*
III. *bara, gelə*	III. *bara, gelə*

Buyruq-istak maylining birinchi shaxs shakllari ba'zan istak ifodalash uchun keltiriladi.

Turkiy tillardagi mayl kategoriyasi yuzasidan quyidagilarni umumlashtirish mumkin:

1. Qozoq va turkman tillarida singarmonizm saqlangan. Bu hol buyruq-istak shakllarida ham o'z ifodasini topgan.

2. O'zbek, uyg'ur, qozoq va turkman tillari hudud jihatdan bir-biriga tutashdir. Shunga ko'ra, bu tillarning o'zaro ta'siri tabiiy. Bu ta'sir buyruq-istak shakllarida ham aks etadi.

3. O'zbek tilining uyg'ur tiliga o'xshashligi I va II shaxs buyruq-istak mayli shakllarida ham ko'rinadi. Uchinchi shaxsda o'zbek tili qozoq tili bilan bir xillik kasb etadi, ya'ni uchinchi shaxsda ikkala tilda ham yagona umumiy (*-sin* bilan yasalgan) shakl qo'llanadi.

4. O'zbek, uyg'ur, qozoq, turkman tillarida buyruq-istak maylining *-giŋ /-gıŋ* bilan yasalgan shakli mavjud. Bu shakl qozoq tilida nisbatan kam uchraydi.

O'zbek, uyg'ur va qozoq tillari buyruq-istak mayli shakllarining hosil bo'lishi jihatidan umumiy xususiyatlarga ega. Farq ayrim shakllarda ko'rinadi, masalan, uyg'ur tilida *-sila* affiksining borligi, qozoq tilidagi *–ıŋız/- iŋiz* bilan yasalgan shaklning o'zbek tilidan farqli ravishda birlik uchun qo'llanishi, qozoq tilida *-(i)ŋ* bilan yasalgan shaklning, uyg'ur tilida esa, aksincha, *-(i)ŋiz* bilan yasalgan shaklning yo'qligida ko'rinadi.[91]

Tuva tilida shart mayli qo'shimchalarining o'ziga xosligi kuzatiladi: *barzımza* "borsam"; chuvash tilida buyruq-istak maylining bo'lishsiz shakli *-an* yordamida hosil bo'ladi (boshqa turkiy tillarda *-ma//me*).

Chuvash tilida sifatdosh va ravishdosh shakllari ko'p. Bu tilda sifatdoshning quyidagi turlari qo'llanadi: hozirgi zamon sifatdoshi - *kan,*

[91] *Аъламова М. Туркий тилларда буйруқ-истак майли // Ўзбек тили ва адабиёти.-Т., 1966. -№4.-Б.30-34.*

-ken affikslari yordamida hosil bo'ladi. O'tgan zamon sifatdoshining tasdiq shakli *-na, -ne* affikslari yordamida voqelanadi. Inkor shakli esa *-man, -men* affikslari yordamida yasaladi. Kelasi zamon sifatdoshi *-as, -yes, -mas, -mes* (inkor shakli), shartlilik sifatdoshi *-malla, -melle*, yetarlilik sifatdoshi esa *-malax, -melex* affikslari orqali hosil bo'ladi. Imkon sifatdoshi tasdiq-inkor yoki faqat inkor shaklida qo'llanadi. *-ansi, -yensi, -yeš* affikslari bahona sifatdoshi hosil bo'lishida qatnashadi.

Qozoq tilida sifatdoshning *-at'ın/-et'in/-ït'ın-/-üt'in;* no'g'ay tilida *-atagan/-etegen;* qoraqalpoq tilida *-at'ugun/-et'ugun* shakli qo'llanadi; *-ajaq/-ejek yoki -ayaq* shakli uchramaydi.

Shuningdek, shevalarda qadimgi shakllar ishlatiladi: *bardım erza* "borsam".

O'g'uz-turkman guruhi tillarida o'tgan zamon sifatdoshi qo'shimchasi *-an//en (-ɦan//-gan)*, o'g'uz-saljuq guruhi tillarida *-dış//-diš, -mış / miš;* sifatdoshning bo'lishsiz shakli (kelasi zamon) *mar//mer, -maz// mez* tarzida qo'llanadi. O'g'uz-saljuq kichik guruhi tillarida *-mar//mer* shakllari qo'llanmaydi.

Hozirgi zamon shakli o'g'uz-turkman guruhi tillarida *-yar*, o'g'uz-saljuq guruhi tillarida *-yor* shaklida ishlatiladi.

Kelasi zamon sifatdoshi o'g'uz-turkman guruhi tillarida *a* orttirilib qo'llanadi (*-ajaš/-ejek*), o'g'uz-saljuq kichik guruhi tillarida esa *a* tushib qoladi (*-jaš//jek*);

Qrim (tavriya) tatarlari tilida sifatdoshning birinchi shaxs birlikdagi bo'lishsiz shakli *-maz/-mez* tarzida qo'llanadi, masalan: *men yazmam (men yazmazım)* "men yozmayman", *men kelmen (men kelmezim)* "men kelmayman".

Ravishdosh shakllari oxirida keladigan *y* o'g'uz-turkman guruhi tillarida tushib qoladi; ammo o'g'uz-saljuq kichik guruhi tillarida saqlanadi: *oquyup, vermeyip.*

Savol va topshiriqlar

Quyidagi mavzularni klaster usulida yoriting:

1. Fe'lning semantik guruhlari.
2. Fe'lning munosabat shakllari.
3. Fe'llarda zamon kategoriyasi.
4. Fe'llarda shaxs-son kategoriyasi.
5. Fe'llarda mayl kategoriyasi.

Fe'l yasalishi

-la//-le sermahsul fe'l yasovchi affiks bo'lib, ot, sifat, son, olmosh, ravish, undov, taqlid so'zlardan turli ma'nodagi fe'l yasaydi: ozarb. *ayağla-* "oxirlamoq", qaraim. *tisla-* "chekinmoq", q.-balq. *aqla-* "oqlamoq", tuv. *šayla-* "shaylamoq", turkm. *nağšla-* "naqshlamoq", xak. *tayğala-* "taygaga bormoq", *čayla-* "yozlamoq", qoz.*tında-* "tinglamoq", tuv. *dınŋna-* "tinglamoq", xak. *palixta* "bilqillamoq", q.-balq. *borkulda-* "selkillamoq", no'g'. *uvilda-* "uvullamoq", turk. *čaŋırda-* "jiringlamoq", turkm. *lağırda-* "shaldiramoq".

-la nisbat shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha bilan birikib, *-lan, -lash* murakkab affikslari yuzaga kelgan. *-la* yasovchisining fonetik varianti bo'lgan *-da* taqlidiy so'zlardan fe'llar yasashda faol qatnashadi: gag. *čxsrda-* "chisirlamoq-", no'g'. *dbarda-* "qimirlamoq".

-a: ot, sifat, ravish, taqlidiy so'zlardan fe'l yasaydi: boshq. *yira-* "kuylamoq", qar.*boša-* "bo'shamoq", tat. *buša-* "bo'shamoq", xak. *ada-* "atamoq", turkm. *oyna-* "o'ynamoq", turk. *qapa-* "yopmoq", yoq. *lara-* "o'g'irlamoq", *kihaa-* "qishlamoq".

-ir//- ur: ozarb. *asğir-* "aksirmoq", *tupur-*"tupurmoq", boshq. *ukir-* "o'kirmoq", *fišğir-*"pishqirmoq", gag. *ansir-*"fahmlamoq", *xinčkir-*, qoz. *hiskir-*, qar. *qičxir-* "qichqirmoq", *šaqir-* "chaqirmoq", *pičxir-* "pishqirmoq", xak. *xatxir-* "xaxolamoq", shor. *qiyğir-*"qiyqirmoq".

-ı//-i: o'zb. *boyi-*, ozarb. *berkı-*"yashirmoq", *avru-* "og'rimoq".

-al//-yel: gag. *kısal* "tartibga solinmoq", turkm. *azal-* "ozaymoq", *garal-* "qoraymoq", ozarb. *daral-* "tiqilmoq", *sağal-* "sog'aymoq", chuv. *xural-*"qoraymoq".

-ıl//-il: ozarb. *kartil* "kemtilmoq", qoz. *sul-*"qurimoq", *kečil-* "kechmoq".

-ar//-yertır//-ir: ozarb. *yašar,* no'g'. *köger-*"ko'karmoq", qoz. *qısqar-* "qisqarmoq". ***-ar//-er//-r*** qo'shimchasi qadimgi turkiy tilda davomli harakatni otga, keyinchalik biror belgi-holatga bog'lagan: no'g'. *köčer-* "ko'chirmoq", qoz. *jaŋar-* "yangilanmoq", tat. *suxar-* "chaqirmoq".

-sa//-se: tat., qoz. *susa-* "suvsamoq", tuv. *suqsa-*"suqlanmoq", *bijikse-* "yozmoq".

Chuvash tilida *-ak, -yek, -yem* affikslari esa so'zdagi harakat va natija ma'nolarini bildiradi: *tatak-* "qirqmoq", *tat-* "yirtmoq".

Turkiy tillarda fe'l yasalishining affiksatsiya usulidan tashqari kompozitsiya, shuningdek, analitik usullari ham mavjud. Tub fe'llar omonimlik xususiyatiga ega yoki ega emasligi bilan farqlanadi.

Fe'llarning analitik shaklini hosil qiluvchi umumturkiy yordamchi fe'llar asosiy o'rin tutadi: *et-, qil-, bol-, ayla-*. Ayrim turkiy tillarning o'ziga xos ko'makchi fe'llari ham mavjud: tat. *yasa-* "qilmoq", turk. *buyur-* "buyurmoq" , chuv. *tu-* "qilmoq", yoq. *ĉin* - "qilmoq" va h.k.

Turkiy tillarda qo'shma fe'llar ot va yordamchi fe'llar birikuvidan hosil bo'ladi. Bu tipdagi qo'shma fe'llar ko'p miqdorni tashkil etadi. Bunday tipdagi yasalish qadimdan shakllangan qolip hisoblanadi.

Qo'shma fe'llarning birinchi komponenti ot kategoriyasi (asosan, ot va sifat)ga, boshqa tildan olingan fe'lning infinitiv formasiga, shuningdek, so'z birikmasiga aloqador birliklardan tashkil topadi. Turkiy tillarda *qilmaq* (*yetmek, yasamaq, isteu, uyarmak, aylamaq*) va *bolmaq (olmak)* kabi yordamchi fe'llar qo'shma fe'lning ikkinchi komponenti bo'lib keladi.

Ism-fe'l tipidagi qo'shma fe'llarning komponentlari sintaktik munosabat tizimida tarixan to'ldiruvchi+fe'l kesim qolipida bo'lgan. Tarixiy taraqqiyot natijasidagi ko'p takrorlanish tufayli fe'l komponentlarining leksik ma'nosi mavhumlashish qonuniyatiga muvofiq zaiflashgan. Natijada mazkur fe'llar kesimligini yo'qotib, harakatning oddiy belgisiga, so'z yasashning bir vositasiga, fe'llik morfemasiga aylangan. Yordamchi fe'llar o'z grammatik ma'nosiga ko'ra fe'l yasovchi affikslarga teng bo'lib qolgan va grammatikalizatsiya natijasida qo'shma fe'lni tashkil qilgan ikki komponent ham bir butun leksik ma'noni ifodalay boshlagan. Boshqacha qilib aytganda, qo'shma fe'llar, dastlab, ixcham fe'l birikmalari sifatida shakllanib, rivojlana borgan, ko'rinishida asl shakl saqlangan bo'lsa-da, asta-sekin fe'lning alohida murakkab shaklini ifodalovchi so'zga aylangan. Qo'shma fe'llarda yordamchi fe'llargina grammatik jihatdan o'zgaradi. Qo'shma fe'lning yasalish xususiyati bilan affikslar yordamidagi yasalish prinsipi bir xil. Farq shundaki, birinchi holatda so'z yasash sintetik yo'l bilan, ikkinchisida – analitik yo'l bilan sodir bo'ladi: *tasdiqlamoq -tasdiq qilmoq.*

A.N. Kononov o'zbek tilidagi tarkibli fe'llar haqida quyidagilarni yozadi: *qilmoq// etmoq* so'zlari vositasi bilan yasalgan qo'shma fe'llar «-la» affiksi yordamida yasalgan dubletlarga egadir: *tasdiq qilmoq* –

tasdiqlamoq, tamom qilmoq – tamomlamoq; soz qilmoq – sozlamoq.[92] A.I. Iskakovning qozoq tiliga nisbatan bayon etgan mulohazasi ham diqqatga sazovor. Uning fikricha, yordamchi fe'llar, asosan, otlar bilan birikadi, shuning bilan bir qatorda aynan shu otlarga ayrim affikslar qo'shilib fe'l yasalishi mumkin: *kurmet qıl* "hurmat qil" – *kurmette* "hurmetla", *yen sal - yenbet* "qo'shiq aytmoq"[93]. Bu holat barcha turkiy tillarga taalluqlidir.

Ot+qıl- tipidagi qo'shma fe'llarga umumiy tavsif berish va ularning leksik-grammatik xususiyatlarini aniqlashda:

komponentlar orasidagi ichki bog'lanish va o'zaro ta'siriy munosabatning xarakteri (ya'ni butun bir semantik strukturaning shakllanish prinsipi)ga;

qo'shma fe'l komponentlarining struktur-grammatik xususiyatlariga e'tibor berish lozim.

Qo'shma fe'llarning ot komponenti o'z leksik ma'nosini saqlaydi, yordamchi fe'l (masalan, *qıl-*) ot komponenti bilan birgalikda fe'lga aylanadi. Shunga ko'ra *ot+fe'l* tipidagi tarkibli fe'l yasalganda komponentlar ma'nosida keskin o'zgarishlar yuz bermaydi. Balki o'ziga xos yo'l bilan analitik fe'l shakli yasaladi. Bu jihatdan ular bir butun so'zga teng bo'lib, bir butun semantik mazmunga egadir. Shu bilan birga, ***ot+qıl-*** tipidagi qo'shma fe'llar komponentlari ma'lum mustaqillikka ega bo'lgan turg'un birikmalardan farqlanadi.[94]

Savol va topshiriqlar

1. Fe'lning turkiy tillarda keng qo'llanadigan so'z turkumi sifatidagi o'rnini yoriting.

2. Fe'lga xos tushunchalar haqida ma'lumot bering.

3. Fe'llarda zamon, shaxs-son, mayl tushunchalarining tuslanish tizimidagi o'rnini ko'rsating.

[92] *Кононов А.Н.Грамматика современного узбекского литературного языка.- М. –Л., 1960. -С 260.*

[93] *Искаков А.И. Морфологическая структура слова и именные части речи в современном казахском языке.- Автореф.дисс.докт.филол.наук.-Алма-Ата, 1964. -С. 88.*

[94] *Есенгалиева В.А. Туркий тилларда "қилмоқ", "бўлмоқ" типидаги сўзлар шиширокида ясалган феъллар. Ўзбек тили ва адабиёти. -Т., 1966. -№4.-Б.24-27. Mazmun-mohiyatiga ko'ra, maqoladagi tarkibli fe'llar o'rnida qo'shma fe'llar, ko'makchi fe'llar o'rnida yordamchi fe'llar termini qo'llandi.*

4. Fe'l nisbatlarini ayting. O'zlik va majhul nisbat farqini misollar asosida tushuntiring. O'zbek tilida ayrim so'zlarda yaxlitlanib qolgan nisbat qo'shimchalari haqida fikr bildiring.

5. Fe'l yasalishi. Sodda yasama fe'llar, qo'shma fe'llarning hosil bo'lish usullarini ayting.

Test sinovi

1. ***-ačak, -eček* kelajak zamon shakli qaysi tillarga xos?**

A) qozoq, shor, xakas C) oltoy,yoqut, uyg'ur

B) tuva, shor, xakas D) xakas, qirg'iz, tuva

2. Chuvash tilida *-maškan* qo'shimchasi...

A) fe'lning noaniq shakli C) fe'lning ravishdosh shakli

B) fe'lning sifatdosh shakli D) zamon shakli

3. Xakas tilidagi *čayla* sozining ma'nosi

A) "yozlamoq" C) "qishlamoq"

B) "chaylamoq" D) "ishlamoq"

4. Chuvash tilidagi *xural-* sozining ma'nosi...

A) "qoraymoq" C) "uxlamoq" B) "qaramoq" D) "sinamoq"

5. Fe'lning turli gap bo'lagi vazifasida kelish uchun xoslangan shakllari...

A) tuslanish deyiladi C) zamon shakli deyiladi

B) fe'lning vazifa shakllaridir D) fe'lning munosabat shakllaridir

6. Fe'llarning munosabat shakllarini ko'rsating.

A) zamon, mayl, nisbat qo'shimchalari

B) mayl, nisbat, shaxs-son qo'shimchalari

C) zamon, mayl, ko'plik qo'shimchasi

D) zamon, mayl, shaxs-son qo'shimchasi

7. Fe'lning zamon, mayl, shaxs-son shakllariga ega bo'lmagan so'zlarni belgilang.

A) o'tdim, kelgan, ichmoq C) olmoq, qarmoq, surmoq

B) turmoq, bormoq, olmoq D) tugmoq, yurmoq, irmoq

12-§.TURKIY TILLARDA RAVISH

Asosiy tushunchalar: *harakat belgisi, holat belgisi, tarz ravishlari, holat ravishlari, payt ravishlari, o'rin ravishlari, sabab ravishlari, maqsad ravishlari, daraja-miqdor ravishlari.*

Ravish harakatning. belgining belgisini bildirib keladigan mustaqil so'z turkumidir. Ravishlar, odatda, fe'lga yoki predikativlik vazifasida kelgan sifat va ravishlarga bog'lanib keladi. Fe'lga bog'langanda fe'ldan anglashilgan harakatning qay tarzda bajarilish jarayoni, bajarilish payti, o'rni, sababi, maqsadini, sifat yoki ravishlarga bog'langanda esa ulardagi belgining darajasini ko'rsatadi.

Ravish maxsus so'z o'zgartiruvchi shakllariga ega bo'lmagan so'z turkumidir. Ravish morfologik xususiyatlariga ko'ra maxsus so'z yasovchi affikslar va daraja ko'rsatkichlariga ega. Ravishlar tarkibidagi sintaktik shakl yasovchilar yaxlitlanib qolgan.

Ravishlarning ma'no turlari olti xil: *holat, miqdor-daraja, o'rin, maqsad, payt, sabab ravishlari.*

1.Holat ravishi: ish-harakatning qay tarzda, qay holatda bajarilishini bildiradi; *qanday? qay holda?, qay tarzda?* so'roqlariga javob bo'ladi. Holat (tarz) ravishlari: ozarb., tat, qum. *tez,* tat. *bik,* boshq. *yayav,* no'g'. *butunlay,* turk. *etraflija,* qoz, no'g'. *šalqamnan, šalqannan, šalqasinnan* "to'satdan, daf'atan", *közimše, közinše, közinizše,* o'zb. *tiriklay, odatdagicha, tez, sekin, yayov, piyoda, bekorga, to'satdan, qo'qqisdan, astoydil, do'stona, qahramonlarcha, yuzma-yuz, ochiqdan-ochiq, zo'rg'a.*

2. Miqdor-daraja ravishi: harakat-holatning miqdoriy belgisini yoki belgining ortiqligini bildiradi; *qancha? qay darajada?* so'roqlariga javob bo'ladi: qum., no'g'. *munja,* uyg'. *anče,* no'g'. *yalğiz-yalğizdan,* turk. *yarı-yarıja,* turkm. *az-azdan,* o'zb. *oz-ozdan,* uyg'. *az-azdın,* qoz. *bir-birden, top-tobimen,* o'zb. *ko'p, mo'l, ancha, kam, biroz, picha, xiyla, sal, juda, eng, g'oyat, nihoyat, o'ta.*

3. O'rin ravishi: harakat va holatning bajarilish o'rnini, harakat yo'nalgan tomonni bildiradi; *qayerga? qayerdan? qayerda?* so'roqlariga javob bo'ladi: qirg'. *uzaqqa,* shor. *minda,* chuv., qoz., no'g'. *onda, onda-munda,* xak. *čoğartın,* ozarb. *yakından,* no'g'. *tısqa, solga,* tat. *artqa,* q.-balq. *artxa,* o'zb. *unda-bunda, uzoqda, pastda, tubanda, oldinda, yuqoridan, quyidan, yaqindan, orqadan, to'g'riga, to'g'ridan, yuqoriga, ilgari, olg'a.*

4. Payt ravishi harakat va holatning bajarilish paytini bildiradi; *qachon? qanchadan beri?* so'roqlariga javob bo'ladi: turkm., chuv., *ir,* gag. *saba,* ozarb. *duni,* uyg'. *burun,* xak. *purun,* turkm. *ileri,* qirg'. *ilgeri,* olt., kar., xak., shor. *tanda,* turk. *zamanında,* q.-balq. *ertenlikde,*

tat. *birvaqit*; olt. *emdigi, ozogi*; ozarb. *dunumuz, bugunumuz, yarinimiz* "kechamiz, bugunimiz, ertamiz"; *yarini bekle* "ertani kut"; uyg'. *ertidin kečgača* "ertadan kechgacha"; chuv. *kazallaba* "kechda", o'zb. *kunduzi, kecha, kechalari, hozir, boya, bugun, avval, oldin, endi, erta, indin, saharlab, ertalab, doim, hali-beri.*

5. Maqsad ravishi ish-harakatning bajarilish maqsadini bildiradi. Bu ravish o'zbek tilidan boshqa hozirgi turkiy tillarda deyarli uchramaydi: *atayin, qasddan, jo'rttaga, ataylab, azza-bazza.*

6. O'zbek tilida *sabab ravishi* ham mavjud: *noiloj, noilojlikdan.*

Ayrim adabiyotlarda ravishlarning maxsus morfologik belgisi yo'qligi, ravishlardagi yasalish, daraja anglatish xususiyatlari ham boshqa turkumlarda mavjud bo'lgan universal holat ekanligi ta'kidlanadi. Hozirgi turkiy tillardagi ravish sifatida beriladigan so'zlarning yasalishi va morfologik tarkibi, ma'lum darajada, bu fikrni tasdiqlaydi. Masalan, ozarb. *indija* "hozir", *daha ašağı* "pastda", *tez-tez, doğrudan, doğruya;* boshq. *bayarak, bigirak, ip-irta, kepe-kendez*; gag. *šindijik* "shu payt", *čabujak* "birdan", *azar-azar* "oz-oz"; qoz., no'g'., uyg'. *qayta-qayta, yeren-yeren, burunraq;* q.-balq. *alxarak, bilayirak- bulay* "bundayroq", *berirek, artkarak*; qirg'. *arirak, kiyinrek*; tat. *borin-borin* "ilgari, burun", *baštarak*; turk. *deminjek* "hozir", *arayikta* "u yerda", *čap-čabuk* "tezda"; o'zb. *nariroqda, eng oldin*, gag., turk. *burası* "bu yerda", *orası* "u yerda", *neresi* "qayerda"; ozarb. *sehyer, axšam* - sutkaning qismi sifatida ot. payt bildirishi jihatidan ravish; gag. *yirak*; qaraim. *keč*; no'g'. *keš*; tat.*son*; boshq. *koroley*; tat. *korilay* "quruqlay"; xak. *xuruğa, tirige* "quruqlay, tiriklay"; no'g'. *onğa*; xak. *ayni yedir kilčeler* "ular har kuni hayvonlarni ovlaydilar" kabi.

Qadimgi turkiy tilda harakatning belgilarini ko'rsatadigan ravishlar ham bo'lgan. Hozirgi turkiy tillardagi ravishlarning, deyarli, ko'p qismi turlovchi, tuslovchi qo'shimchalar, turli fe'l shakllari, daraja ko'rsatkichlarini olgan shaklida ot, sifat va fe'llardan ravishlar tomon siljiy boshlagan. Ana shu xususiyatlariga ko'ra ravishlarni, bir tomondan, tarkibi (morfologik tuzilishi, yasalishi)ga ko'ra, ikkinchi tomondan, mazmuni (semantik farqlanishi, turlari)ga ko'ra qiyoslash lozim bo'ladi.

Savol va topshiriqlar

Quyidagi mavzularni klaster usulida yoriting:

1. Ravishlarning morfologik xususiyatlari.
2. Ravishning ma'no turlari.
3. Turkiy tillarda payt ravishlari.
4. Turkiy tillarda daraja-miqdor ravishlari.
5. Turkiy tillarda maqsad ravishlari

Ravishlarning yasalishi

Ravishlar tarkibiga ko'ra sodda, qo'shma, juft va murakkab bo'ladi. Qadimgi turkiy tillarda sof ravishlar, deyarli, mavjud bo'lmagan, shuning uchun hozirgi turkiy tillardagi hamma ravishlarni so'z yasashning turli usullari orqali ismlar va fe'llardan kelib chiqqan, deyish mumkin. Shuning uchun turkiy tillar qiyosiga bag'ishlangan ayrim adabiyotlarda yasama ravishlar, dastlab, ot ravishlar va fe'l ravishlarga ajratiladi hamda ravishlarning yasalishi shunga ko'ra tahlil qilinadi.

I. **Otdan shakllangan ravishlar.** Ot asosli ravishlar payt, daraja-miqdor, me'yor, joy ma'nolarini bildiradi. Ot xususiyatiga ega bo'lgan ravishlar ot (keng ma'noda) negizlarga so'z yasovchi, sintaktik shakl yasovchi, shakl yasovchi qo'shimchalarni qo'shish orqali hosil bo'lgan.

Ot asosli ravishlar tarkibida *-ın, -in* vosita kelishigi kuzatiladi. Bu qo'shimchalar o'rxun-enasoy yozuv yodgorliklarida, manixey, uyg'ur manbalarida vosita kelishigi sifatida uchraydi. Sharqiy Turkiston tilida bu shakl davrlar osha yo'qola borgan va qurol, vosita ma'nosini bildiruvchi otlar tarkibidagina saqlanib qolgan. Bu qo'shimchaning grammatik ma'nosi *bilä / birlä* ko'makchilari orqali ifodalana boshlagan. Hozirgi kunda ayrim ravishlar tarkibidagi vosita kelishigi qo'shimchalari yaxlitlanib qolgan, qo'shimcha sifatida ajratilmaydi: *nëčü kin* "qanday", *ëdgülükün* "yaxshi, zo'r", *tavrakın, tërkin* "tez", *ol ödün* "o'sha vaqtda", *tašarun* "tashqari", *künün-tünün* "tuni-kuni bilan", *yarïn* "ertaga", *yaqïn* "yaqin".

Ravishlar tarkibida jo'nalish kelishigi shakli ham yaxlitlanib qolgan: *-qaru, -kärü, -ğaru,- gärü, -qar, -kär*: *joqaru, qayqaru; -(a)ru, -(ä)ru*: *naru* "bu yerga", *oŋaru* "o'ngga", *inärü* "yuzaga".

Ravishlar, asosan, leksik-semantik (adverbial) usul bilan hosil bo'lgan, ular tarixan ham ot, ham ravish ma'nosini anglatgan: turkm. *ir*,

chuv. *ir* "erta"; olt., qar. qirg'., tat, no'g'. *keš*, uyg'. *keč*, ozarb., tat., qum. *tez*; tat. *bik*, qum., no'g'. *bek*, uyg'. *bek* "juda"; boshq., qum. *tan* "aniq"; boshq. *yeyev*, o'zb. *yayov*; qirg'. *tim* "jim"; qum. *soŋ*, o'zb. *kech*.

- *lik* affiksi orqali yasalgan ravishlar kam uchraydi: qoz. *sonšalıq*; tat. *köskelek* (ko'zchalik); turkm. *agšamlik;* uyg'. *hozirğačilik,* o'zb. *shunchalik, unchalik, keyinchalik* kabi.

Ozarbayjon, turk, o'zbek, uyg'ur, qisman, boshqird tilida ravishlarning ma'lum qismini arab va fors-tojik tillaridan olingan so'zlar tashkil qiladi: o'zb. *mazmunan, majburan, aynan, tamoman, darhol, darrov, hanuz;* ozarb. *avval;* o'zb. *avval;* boshq. *ğayat, xezir, hazir;* uyg'. *xazir*; q.-balq., qirg'., turkm., uyg'. *dayim; daim, dastavval, darhal, bazar*; ozarb. *duni, yazı, ertasi, danlasi, bildirreri* "bulturlari"; qirg'. *ertesi;* boshq. *kisteri* "kechlari". *tendari* "tunlari"; qoz. *avalı*; qirg'. *tundesu* "tuni", *jayindasi* "yozi"; q.-qalp. *ertenleri*; turk, turkm. *akšamlari*; tat., turk. *sabahları*; o'zb., *kunduzi, kechasi, avvallari.*

Qaratqich kelishigidagi so'zlarning ravishga o'tishi hozirgi turkiy tillarda kam kuzatiladi, faqat tuva va xakas tillaridagina uchraydi: *xunnun annar* "har kun"; *pis kunnin radio istodirbis* "biz har kuni radio eshitamiz".

Tushum kelishigidagi so'zlarning ravishga o'tishi ham uchraydi: boshq. *bir zamandi* "bir vaqt", *kečxurunnu* "kechqurun", *bu vaxtni* "bu vaqt"; tat. *bir vaqitni* "bir vaqt" kabi.

Jo'nalish kelishigi shaklidagi ravishlar qadimgi turkiy tildagi shu kelishik ma'nosini hosil qiluvchi qo'shimchalarni ham hisobga olganda, ravish hosil qilishning barcha turkiy tillarda eng keng tarqalgan ko'rinishidir: xak., *alninzar* "olg'a", chuv. *tevalla* "tog'ga", *kazalla* "kechga", *kayalla* "orqaga". Ravishlar tarkibida jo'nalish kelishigining quyidagi variantlari uchraydi:

1) *-qarı //-qaru//-ğarı//-ğaru//-arı //-aru:* turkm., qar. *ileri,* boshq. *ilgeri,* gag. *ileri,* qoz. *ilgeri,* qirg'. *ilgori*: ozarb. *ilgeri,* q.-balq. *ičkeri,* qoz. *iškeri,* turk. *ičkeri*, uyg'. *ičkiri;* q.-balq. *tišxari,* tuv. *daškarı*, turk. *dišarı,* shor. *taškarı*, qar. *tišxarı,* olt., qirg'.*teskeri*, shor *teskere*; qar.*artxarı* (orqaga); olt. *enirgeri* "kechga"; qoz. *sırtqarı* "tashqari"; tuv., shor *mınarı* "bu yoqqa"; tuv. *ınaarı* "u yoqqa"; ozarb. *anarı* "u yoqqa", o'zb. *tashqari* kabi;

2) *-qar//- ğar// -xar// yer:* olt. *mınaar* "bu yoqqa", *anaar* "u yoqqa": tuv., *rungaar* "olg'a", *dbaškaar* "tashqariga", *soŋğaar* "orqaga", *ınaar* "u

yoqqa"; xak. *čoğar* "yuqoriga", *tasxar* "tashqariga", *iskar* "ichkariga".

3) *-qa //-ğa// -xa:* olt., q.-balq., qar. *birge,* qoz., tat., no'g'., *birge*; xak. *pirge*, shor *pirge,* yoq. *birge*; olt. *tiruge*, tuv. *tirige*, xak. *tirige* "tirikka"; olt., qirg'. *uzoqqa,* q.-qalp., no'g'. *uzaaka, tisqa;* tat. *ozaqqa;* boshq. *keska* "kechga", boshq., tat. *buška,* qoz. *bosqa*, qar. *bošxa* "bo'shga, bekorga"; qoz., q.-balq., qirg'., qum., uyg'. *alğa;* qoz., qar., no'g'., tat. *artqa*, q.-balq. *artxa*; q.-balq, no'g'. *tısqa* "tashqariga", *onğa, solğa, temenge*; o'zb. *ertaga, orqaga, zo'rg'a, jo'rttaga* , *birga* va h.k.;

4) *-a:* ozarb. *sağa* "o'ngga", *sola* "chapga"; gag. *yiraa* "uzoqqa", turk. *sola;* chuv. *vismine* "indiniga" va boshqalar.

5) negiz + III shaxs egalik aff. *+ a, -ga// -ka// -qa:* ozarb., q.-balq., turk, qar. *bošina*, no'g'. *bosina* "boshiga, bekorga"; turkm. *ağšamına, ağšamlarına, gijesina*; uyg'. *kuniga, yašlarčasığa, yeniğisiga;* o'zb. *ko'tarasiga, tikkasiga, yoppasiga, uzunasiga, birdaniga, ertasiga* singari.

6) negiz+*ča+sina//-siga*: ozarb. *insanjasina, mexribanjasina, gaxra-monjasina;* turk. *yigitčesine, delijesine* "telbalarcha"; o'zb. *erkakchasiga, ochiqchasiga* va boshqalar.

O'rin-payt kelishigidagi so'zlarning ravishga o'tishi:

1) o'rin-payt bildiruvchi so'z *+-da // -ta// -na // -ra:* olt., qar., xak., shor *tanda*; olt. *enirde,* qoz. *inirde,* q.-balq., qirg'. *inirde*, xak., shor. *irde* "g'ira-shirada"; olt., xak. *tunde*, boshq. *tende // tundo*, olt. *tušte*, qirg'. *tušte*: qar. *burunda, ustte* xak. *purunda;* tuv. *šağda* "ertaga"; qoz., qar., no'g'. *artda*; qum. *tišda*, qirg'. *iraakta*, gag., tat. *yirakta*, tuv., shor *irakta*; olt., q.-balq., qirg'., xak., shor. *minda*, boshq. *binda*, qoz., no'g'. *munda*, yoq. *manna;* olt., qar., qirg'., tat., xak., *anda*, boshq., chuv. *unda*, qum., no'g'. *onda*, tuv. *inda,* yoq. *onno*; chuv. *ayakra* "uzoqda", *kadara* "uzoqda", *malda* "oldinda", *kunda* "shu yerda", o'zb. *kunda; bunda*;

2) o'rin-payt bildiruvchi so'z + *qi // -gi // xi +da*: ozarb., qar. *ašağıda* "pastda"; olt. *dayğıda* "yozda", *daskida* "bahorda"; qoz. *bayağıda*; tat. *yasqita* "yozda"; xak. *čayğıda* "yozda"; shor *kuskuda* "kuzda";

3) o'rin-payt bildiruvchi so'z + III shaxs+ *da:* olt. *ertenizinde*, qoz. *ertenine,* shor *erteninde*; qar. *tandasında;* tuv. *imirtinde* "g'ira-shirada"; ozarb., kar. *vaxtında*; no'g'. *zamanında*; no'g'. *birerede,* xak., shor *pirede* "birda" va h.k.

Chiqish kelishigidagi so'zlarning ravishga o'tishi:

1) o'rin-payt bildiruvchi so'zlar *+dan // -tän, -nan // -nän*: no'g'.

erteden, xak. *irtennen*; chuv. *irden;* ozarb.. *boyağdan*, olt. *bayadan*, qirg'. *bayatan*; boshq. *berendan*, qirg'. *muruntan,* tat. *borınnan*, xak. *purunnan*; ozarb., qar. *avaldan*, uyg'. *avaldin*; boshq., tat. *baštan*, uyg'. *baškidin*, boshq. *yanınan,* gag. *yeniden*, no'g'.,chuv. *seneren* "yangidan"; ozarb., gag. *birden*, qoz., no'g'. *birden,* tat., olt. *mınan;* qar. *bundan*; no'g'., tat. *annan*, yoq. *onto,* o'zb. *boshdan, yangidin*, *birdan va h.k.*

2) *-tin //-din //-pin*: boshq. *yašırtın* "yashirin", tat. *yakıntın*. olt. *ičkertin, tüškartın*. olt., shor. *kedertin,* xak. *kidertin* "garbdan"; qar. *yašırtın,* no'g'. *yasırtın*; xak. *tigdertin, onartın* kabi.

Hozirgi turkiy tillarda ravishlar quyidagi yasovchi affikslar yordamida hosil qilinadi:

3) *-in// -un:* olt., no'g'., tuv. *erten,* boshq., tat.. *irten;* boshq. *kisin,* tat., *kičin*; olt., qar., tuv. *kuzun*, boshq. *kezen*, yoqut *kuhun* "kuzin"; tat. *yazın,* xak. *čazın,* qoz. *jazın*; qum. *tegin* "bekorga. tekin", chuv. *vudan* "o'tdan", *ayan* "pastlab", turkm. *aylayın, yıllayın*, o'zb. *ertan* kabi;

4) *-ča// -ja:* turk. *dostča*, ozarb. *dostja*; gag. *adetča,* turkm. *adatča,* qoz. *balaša*; o'zb. *harbiycha*; va boshqalar;

5) *-larča//-larča:* boshq. *duztarsa,* q.-balq., *duslarča*, uyg'. *dostlarča,* qoz. *adamlarša*; o'zb. *otalarcha*, *do'stlarcha*;

6) *-lay/-ley/-dey // -layu// -layin:* boshq. *betenley*, qirg'. *butunday*, tat. *botinley*, qar. *tiriley*, turkm. *dirileyin, tiriklayin*; qirg'., *kurulay,* no'g'. *qurılay, bayağılay, yartılay,* o'zb. *butunlay, tiriklay.*

II. Fe'ldan shakllangan ravishlar. Fe'l asosli ravishlar harakat holatini bildiradi. Fe'l xususiyatiga ega bo'lgan ravishlar, asosan, fe'lning ***-a, -y*** ravishdosh shakli orqali hosil bo'ladi. Bu shakldan yuzaga kelgan ravishlar asosiy fe'ldan anglashilgan harakatning qay tarzda bajarilishini bildiradi: olt., tuv. *baza,* xak. *paza, bos+ a* "birdan"; olt. *ozo -oz// yes* "oldin", *kede-ket*; boshq. *ute*, qirg'. *yete*, xak. *xada, xostı* "xoslab", uyg'. *qayta,* o'zb. *o'ta.*

Boshqird, no'g'ay tatar va yoqut tillarida *-a, -y* li ravishdosh shakllaridan keyin -t affiksini qo'shish orqali hosil bo'ladigan alohida shakli bor: boshq. *tirilata*, q.-qalp. *jazlata*, tat. *qorılata* "quruqlay" .

O'g'uz tillarida yasama ravishlar daraja shakli *-raq* affiksining o'zgarishidan hosil bo'ladi: ozarb. *gačarağ.*

Fe'l xususiyatiga ega bo'lgan ravishlar ko'proq *-b, -ib* shaklli ravishdoshning adverbiallashuvidan kelib chiqadi: olt. *baštap,* qum. *bašlap,*

no'g'. *baslap*, shor *paštan*: boshq. *yayavlap*, no'g'. *asigip, birgelesip;* tat. *akrınlap* "asta"; turkm. *deslap, gunlep*; o'zb. *ertalab.*

Qo'shma ravishlar. Analitik usul bilan so'z yasash ravish hosil qilishning eng faol usullaridan biridir. Bu usulda ravish yasashning quyidagi ko'rinishlari bor:

1) izofali birikmadan hosil bo'lgan qo'shma ravishlar: ozarb. *axsham vaxtı*, xak. *pirsi kun,* turk. *ertesi gun*;

2) aniqlovchi-aniqlanmish munosabatidan hosil bo'lgan qo'shma ravishlar: xak. *kun orte*, boshq. *yalanayak* "yalangoyoq", q.-balq. *alğın zamonda*, gag. *burnagi kun*, turk. *evvelki gün*; barcha turkiy tillarda: *bügün, tünägün;*

3) son, olmosh + ot tipidagi qo'shma ravishlar: boshq. *bir yolı,* qoz. *bir jolı*, qaraim. *ğar künü*, qirg'. *bir kunu.*

Ko'makchili va affiksli murakkab ravishlar: olt., *tan atkanča;* tuv. *uč dun ortuzunda*, qoz. *künderde bir kün*, uyg'. *xa degede, qarga qarq demeste*; qirg'. *kündordün bir kün,* turk. *goz ačıp kapayınjaya deyin.*

Takror va juft ravishlar:

a) aynan takror: ozarb., gag., turkm.: *parča-parča*, uyg'. *para-para*, ozarb. *yavaš-yavaš*, turk. *zaman-zaman*, no'g'. *basqa-basqa*, boshq. *kat-kat*, qoz. *endi-endi*;

b) birinchi komponenti bosh, ikkinchi komponenti boshqa kelishikdagi so'zlar takroridan: kar. *baš-bašına*, boshq. *aval-avaldan,* qoz. *bir-birden*, no'g'. *yemir-yemirga*;

d) har ikkala komponenti kelishikli so'zlar takroridan: boshq. *bundan-bunga*, qar. *vandan-yanga*, q.-balq. *kündän-künge*, olt. *dildän- dilgä*, qoz. *jildan-jilğa*;

e) *-ba//ma* bog'lovchi vositasi orqali takrorlangan ravishlar: qoz. *juzbe-juz, betpe-bet*, tat. *bağma-bağ,* boshq. *birma-bir*, turkm. *günbe-gün,* no'g'. *yanma-yan*;

f) ikkinchi komponenti birinchi komponentning fonetik o'zgarishlar bilan takrorlanishidan tuzilgan juft ravishlar: qirg'., no'g'. *az-maz*, olt. *as-mas*, boshq. *qıyıq-mıyıq*, o'zb. *sal-pal* kabi;

g) turli ravishdoshlar juftlashuvidan hosil bo'lgan ravishlar: no'g'. *qašıp-pisip,* boshq., uyg'. *harmay-talmay*, uyg'. *aldırap-saldırap*, o'zb. *shosha-pisha*;

h) bo'lishli-bo'lishsiz sifatdosh shakllaridan tuzilgan ravishlar: ozarb. *ister-istemez,* boshq. *tilar-tilamaz*, no'g'. *toyar-toymas*, o'zb. *aytar-aytmas*;

i) antonim so'zlardan ho'sil bolgan ravishlar: turkm. *özdän-köpdän*, uyg'. *ilgäri-keyin*, o'zb. *ochin-to'qin*;

j) payt ravishlari juftlashuvidan ho'sil bolgan ravishlar: turk. *geçə-gündüz*, qum. *erten-axšam*, olt. *bugun-erten*, turkm. *ir-giç*.[95]

Savol va topshiriqlar

1. Turkiy tillarda ravish turkumi va uning yuzaga kelish yo'llarini ayting.
2. Ravishlarning ma'no turlari, nutqdagi o'rnini misollar asosida tushuntiring.
3. Boshqa turkumdagi so'zlarning ravishga ko'chishini o'zbek tili misolida izohlang.
4. Sifat va ravishning o'xshash hamda farqli jihatlarini qiyoslang.
5. Ravishlarning yasalishini misollar asosida yoriting.

Test sinovi

1.Tuva tilidagi *imirtinde* ravishining ma'nosi...

A) "qorong'uda" C) "kechada"
B) "ertalabda" D) "kunduzida"

2.Payt ravishlarini toping.

A) tubanda, oldinda, yuqoridan C) saharlab, ertalab, hali-beri
B) jo'rttaga, ataylab, azza-bazza D) šalqamnan, šalqannan, šalqasinnan

3. Holat ravishlarini toping.

A) tubanda, oldinda, yuqoridan C) saharlab, ertalab, hali-beri
B) jo'rtaga, ataylab, azza-bazza D) šalqamnan, šalqannan, šalqasinnan

4. Qirg'iz tilidagi *muruntan* ravishning qaysi turiga kiradi?

A) payt ravishiga C) maqsad ravishiga
B) o'rin ravishiga D) holat ravishiga

5.Ozarbayjon tilidagi *sağa* ravishining ma'nosi...

A) "o'ngga" C) "yuqoriga"
B) "chapga" D) "pastga"

6. Chuvash tilidagi *kadara* ravishining ma'nosi...

A) "uzoqda" C) "yuqorida"
B) "chapda" D) "pastda"

[95] *Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси.-Т.: Фан, 2009.*

7. **Boshqird tilidagi *koroley* ravishining ma'nosi...**

A) "butunlay" C) "yoppasiga"

B) "quruqlay" D) "umuman"

13-§. YORDAMCHI SO'ZLAR

Asosiy tushunchalar: *grammatik ma'no, grammatik vazifa, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.*

Yordamchi sozlar turkumiga *ko'makchi, bog'lovchi, yuklama* kiradi. Yordamchi so'zlar mustaqil (leksik) ma'no bildirmaydi, faqat grammatik ma'no ifodalash uchun xizmat qiladi.

Ko'makchi. Gapda vosita, maqsad, sabab, vaqt, makon kabi sintaktik munosabatlarni ifodalash uchun qo'llanadigan so'zlar *ko'makchilar* deb ataladi. Ko'makchi o'zi bog'anib kelgan so'zdan keyin kelib, so'zlar orasidagi birgalik, payt, sabab, maqsad kabi munosabatni ifodalashga xizmat qiladi. Ko'makchi ikki xil bo'ladi: 1.Sof komakchi 2.Ko'makchi vazifasidagi so'z (vazifadosh ko'makchi).

1. *Sof komakchi* mustaqil mano anglatmaydi, kelishik affikslariga yaqin turadi: *bilan, üčün, qadar, sarı, sayın.*

Vazifadosh ko'makchilar shakllanishiga ko'ra ot ko'makchilar va fe'l ko'makchilarga ajratiladi: a) ot ko'makchilar: *ald, örta, yan, arqa, taman, iç, üst, tepä, ast, täg, äro, baš, orın, yaqa, qaš, burun, ilgäri, keyin, başqa, tašqarı;* b) fe'l ko'makchilar: *qarab, körä, qaraganda, yaraša, bašlab.* Ba'zi manbalarda ko'makchilar ot ko'makchilar, holat ko'makchilari va sof ko'makchilarga ajratilgan.

Ko'makchilar vosita-qurol, maqsad, sabab, payt, o'rin kabi ma'nolarni bildiradi. Ko'makchilar mustaqil leksik ma'no anglatmaydi, mustaqil holda gap bo'lagi vazifasini bajarmaydi. Ular grammatik jihatdan so'zlar o'rtasidagi munosabat, aloqani ta'minlaydi, biror tobe so'zning hokim so'zga bog'lanishiga vositachilik qiladi. Ko'makchilar bu jihatdan kelishiklarga o'xshaydi, hokim va tobe so'zlar o'rtasidagi munosabatni, sintaktik aloqani shakllantiradi, ko'p hollarda kelishik va ko'makchi ma'nolari ham bir-biriga yaqinlashadi: ozarb. *dağa - dağteref*; olt. *dolğadol ortozinä*; qum. *köpürnü tübünnän – köpürnü tubu bilän*; tat. *tavğa –tav yağına*; uyg'. *mektepke – mektep terepke.*

Turkiy tillarni qiyosiy o'rgangan A.Sherbak hozirgi turkiy tillar grammatikasidagi an'ananaga ko'ra ko'makchilarni, dastlab, ot ko'makchilar va fe'l ko'makchilar sifatida ajratgan.

1. Ot ko'makchilar:

a) bosh va qaratqich kelishigidagi otlar bilan birikadigan ot ko'makchilar:

al (ın) // ald // old ko'makchisi: qadimgi turk. *alın*, xak. *ald*, olt. *bistiŋ äldibistä*, qum. *biziŋ äldibizdä*, uyg'. *biznіŋ äldimizdä*; boshq., tat. *öy aldına*, q.-balq. *üynü ällınä*, qoz, q.-qalp, no'g'. *uy(diŋ) äldindä*, qum. *üyni äldindä*, o'zb. *uyning oldida*, xak. *ib älnindä*; tat. *küz äldindä*; uyg'. *išik äldidä*, shor. *ejik älindä*; boshq. *bäyräm äldinän*; tat. *kitär äldinän*; uyg'. *avkat aldida*; xak. *on čil miniŋ älnindä, naŋmir čaar älnindä* "yomg'ir yog'ar oldida"; tat. *kiyinliklär äldindä*, xak. *poziniŋ älninjä* "o'z oldida", o'zb. *ko'z oldida* va h.k.

Irintä, bašıda, arasında, üstündä, tapuklarıda, altın, öŋüntä ko'makchilari ot sifatida ham qo'llanadi.

ara ko'makchisi: qad. turk. *kišilär ara*, ozarb, turk. *adamlar arasında*, olt. *čädirlar arazına*, boshq. *iki oy arahında*, qum. *iki üynü arasına*, gag. *onnarin arasında*, xak. *olarniŋ arazında* qar. no'g., *öz ara, yigitlerdiŋ arasınnan*, tuv. *iyaš arazından*, shor. *agaš arazınan*, turkm. *adamlardiŋ arasından*, olt. *tun arazındä, uyqu arazında*, xak. *iki čil arazında*, o'zb. *do'stlar orasida* kabi;

arqa// arqali ko'makchilari: ozarb. *stolun arxasında*, qum. *üynü arqasına*, tat. *өyniŋ arkasınnan*, o'zb. *uyning orqasidan*, shor. *ustoldıŋ arkazınan*, no'g'. *oniŋ arqasında*. tat. *anıŋ arqasında, siniŋ arqanda*, turkm. *zeniŋ arqaŋdan*; qoz. *keše arxılı*, q.-qalp. *köpir orqalı*, tat. *urman arkılı;* qoz., q.-qalp. *bir joldas arkılı*, qirg'. *bir joldoš arkalu*, turkm. *bir yoldaš arkalı*, qoz. *radia arkılı*; tat. *xat arqılı*; o'zb. *badiiy asar orqali* singari;

Turkiy tillarda *–lı(ğ), -lu (ğ)* affikslari orqali bir qancha ko'makchilar hosil qilingan. boshq. *sakli*, qoz. *šaqtı*, q.-balq. *čaqlı*, tat. *čaklı, šikilli*, q.-balq. *čaklı*, qirg'. *šekildu*, no'g'. *sekinli*; boshq. *sababli*, turkm. *zebepli* , uyg'. *seveplik*, q.-qalp. *tüvrälі*, qoz. *siyakti, tarizdi*, o'zb. *tufayli* va boshqalar.

üza ko'makchisi keyinchalik *üstingä* ko'makchisi shakliga kelgan;

otru: *jüz otru turur* "yuzma-yuz";

uδu: *men anıŋ uδu keldim* "men uning izidan keldim".

qatın(da), qatıŋ(ğa): *bəglär qatın* "beklarga yaqin";

üčün: *bizni üčün;*

tegi: *bu ödkä tegi* bu vaqtgacha".

b) jo'nalish kelishigidagi so'zlar bilan birikadigan ot ko'makchilar:

qaršı/qaršu (*otru* ko'makchisiga sinonim): *Oğuz qağanğa qaršu* "O'g'uzxonga qarshi".

Qaršı ko'makchisining yuzaga kelishi ikki xil izohlanadi: 1) "qorishmoq" ma'nosidagi yoki *qormoq* fe'lining o'zlik nisbatidan shakllangan; 2) "qo'l" ma'nosidagi *qar* so'zidan yuzaga kelgan. Bu ko'makchining shakllanishiga oid birinchi taxmin haqiqatga yaqinroq;

köra, körü: *ögüdügä körä* "nasihatiga ko'ra".

d) chiqish kelishigidagi otlar bilan birikadigan ot ko'makchilar:

soŋ, soŋra: *yukudun soŋ* "uyqudan so'ng"; *sen meniŋ soŋ kel* "sen mendan keyin kel";

kin~këjin ~këdin ko'makchisi *soŋ* ko'makchisiga sinonim: *kë(d)-këdin >këjin>kin.* O'rxun-enasoy yodgorliklarida: *anta kesrä* "shundan so'ng";

bas, basa: *anıŋdı basa* "undan keyin". *Men anda basa keldim* "men bundan keyin keldim";

ašnu /ašnuda: *ayıtmasta ašnu* "gapirtirishdan avval";

berü: *tümän yılda berü* "anchadan beri".

Payt, holat bildiruvchi ko'makchilar: *birlä, ötrü, ötürü*: *anta ötürü – shundan so'ng. Üzä, üzälä: bu tört neŋ üzä sözlädim mën sözüg* "bu to'rt narsa haqida so'zladim men so'zimni".

2. Fe'l ko'makchilar harakat nomlari bilan bog'liq dastlabki grammatik tabiati, xususiyatlarini saqlab qolganligi uchun ot ko'makchilar va fe'l ko'makchilar orasida, ba'zan, qat'iy chegara qo'yish qiyin: boshq. *kalağa turä* "shaharga to'g'ri", *qala turahında* "shahar haqida", *unğa qaršı*; uyg'. *kitab toğrısıda;* turkm. *onuŋ qaršızına*; tat. *öy qaršısında*; turkm. *onuŋ garšızından*; *yolnıŋ qaršısıdan;* eski o'zb. *aŋa otru* "unga qarshi", *mirzänıŋ otrusığa* "mirzaning ro'parasiga"; *Termiz toğrısığa, Yarınıŋ toğrısıdın* kabi.

Ko'makchilar, asosan, otga bog'lanadi, fe'lning harakat nomi, sifatdosh shakllariga ham birikishi mumkin: *kelägi beri* (bu hozirgi o'zbek shevalarida ham uchraydi: *sen kelgäli beri* kabi); boshq. *otır ösön* "otish uchun"; qum. *učğunča aldin* "uchishdan avval"; eski o'zb. *taxtnı egälläsin üčün* kabi.

Dastlabki leksik ma'nolarini yo'qotish darajasi va grammatikalizatsiyalashish jarayoni hamma ko'makchilarda bir xil emas. Buni hozirgi

o‘zbek tilidagi ot ko‘makchilar misolida ko‘rish mumkin: *tagidä, ustida, tepasida, yonida, bŏyida, yuqorisida* kabi so‘zlarning qaysisi ot ko‘makchi, qaysisi o‘z mustaqil ma’nosidagi ot yoki sifat ekanligini anglash murakkab. Negaki, ularning aksariyati hozirgi tilda dastlabki ma’nosida ham, ko‘makchi vazifada ham qo‘llanishi mumkin. Masalan, *daraxtnıŋ tepasida, daraxtniŋ shaxıda, daraxtnıŋ bargida* kabi birikmalar qiyoslansa, *tepasida, bargida, shaxıda* kabi so‘zlarning barchasi yoki ot ko‘makchilar, yoki o‘rin-payt kelishigidagi otlar ham bo‘lishi mumkin: eski o‘zb. *quyaš ŏyüŋ ağzına* “uyning og‘ziga”, *tonnıŋ üči*, olt. *qaptıŋ oozı* “qopning og‘zi”, *tayga edegi* “tog‘ning etagi”, turkm. *Mari ayağı* “Mari atrofi”, shor. *tag qoynı* va boshqalar.

Fe’l ko‘makchilarda ham shunday xususiyatni ko‘rish mumkin. Shunga ko‘ra hozirgi turkiy tillardagi ko‘makchilar ma’nosi va grammatikalizatsiyalashish darajasiga ko‘ra “oraliq” holatidagi ko‘makchilarga, qoz. *ušin*, turk. *ičin*, qirg‘. *näri*, qum. *äri*, o‘zb. *nari, učun*; turkm. *bile, bilen*, uyg‘. *bilen*, xak. *minaŋ* singari qadimgi ma’nosini yo‘qotgan, grammatikalizatsiyalashgan ko‘makchilarni ikkinchi guruhga, *bila <ila> -la* kabi affikslashgan ko‘makchilarni esa uchinchi guruhga kiritilgan.

Umuman, ko‘makchilarning shakllanishi juda uzoq davrlardan boshlangan bo‘lib, u yoki bu ko‘makchilarni hozirgi barcha turkiy tillarda uchratish mumkin.

Bog‘lovchilar. Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar va gap bo‘laklarini bog‘lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so‘zlar *bog‘lovchi*dir. Bog‘lovchilar qo‘llanishiga qarab yakka bog‘lovchilar va takroriy bog‘lovchilarga ajratiladi. Yakka bog‘lovchilar: *va, hamda, lekin, amma, biraq, -ki (-kim), čunki, agar, taki, balki, goya, bašarti, halbuki, vahalanki, yaki, yaxud, ya, gar.*

Takroriy bog‘lovchilar: *dam.., dam..., ba’zan,..., ba’zan, ham.., ham, bir.., bir, yaki..., yaki, ya.., ya, gah.., gah, xah.., xah.*

Qadimgi turkiy tilda bog‘lovchilar alohida turkum sifatida mavjud bo‘lmagan. Agglyutinativ tillar, jumladan, turkiy tillarda bog‘lovchi vazifasini boshqa turkumlardagi so‘zlar bajargan.

Til taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida jonli so‘zlashuv tili faol qo‘llangan bo‘lib, aloqa vositasi sifatidagi bog‘lovchi vositalar talab qilinmagan. Til taraqqiyotining yozma shakli shakllana boshlagan davrlarda ham gap qurilishi nisbatan sodda bo‘lgan.

Adabiy til shakllanishi, yozma nutqning yuzaga kelishi bilan sintaktik munosabatni ta'minlovchi bog'lovchilar shakllandi va hozirda alohida turkum sifatida qaraladi.

Hozirgi turkiy tillarda mavjud bog'lovchilar ikki yo'l bilan hosil bo'lgan:

1. Turkiy tillarda bog'lovchi vositalar sifatida o'z qatlamga oid ayrim ta'kid yuklamalari, ba'zi fe'l shakllari, olmoshlar xizmat qilgan: qadimgi qipchoq. *qačan yoldan barırlar idi otru bir kiši yoluqtu*; gag. *čoyuk annamiš oni padišah ana iš vermiyor*; turkm. *Xačan iči Gorlandan zoŋ öylerina gaydip gelyardi*; eski o'zb. *sešanba edi kim Xojandqa yettim;* o'zb. *na xotin bor, na bola-chaqa*;

2. Hozirgi turkiy tillarda arab, fors-tojik, qisman, rus tilidan olingan bog'lovchilar ishlatiladi:

a) arab: ozarb. *amma, lekin, faqat*; tat. *emme, lekin, faqat; yeni*; turkm. *amma, veli, velik*; o'zb. *ammo, lekin, lek, va lekin*;

b) fors-tojik: ozarb., boshq., tat, uyg'. *ham*; gag., turk., turkm. *hem*; ozarb. *ya, yaxud, herčend*; uyg'. *eger*; turk. *eger*; ozarb. boshq. *gerče*; ozarb., turkm. *gah*, ozarb, gag., turk. *ne*, ozarb., turk, gag. *ister;* ozarb., gag., turk, turkm, o'zb.-*ki, xoh, ham, ya, yaxud, garchand, goh, agar, na*;

d) arab, fors-tojik: ozarb. *madamki, madamiki*; ozarb., uyg'. *ve xem, va yaxud, va yeki*;

e) rus, boshq. *e, etu, xayata*; gag. *da, a*: qaraim. *to, a, i, no, xatya, xot;* xak. *a, a to, zato, xot* kabi.

Hozirgi turkiy tillarda bog'lovchilar an'anaviy ravishda teng bog'lovchilar va ergashtiruvchi bog'lovchilarga bo'linadi.

I. Teng bog'lovchilar. Teng bog'lovchilar gap bo'laklari va ayrim sodda gaplar orasidagi teng munosabatlarni ifodalaydi. *Teng bog'lovchilar* grammatik jihatdan teng bo'lgan gap bo'laklarini, teng munosabatli sodda gaplarni bog'laydi. Teng bog'lovchilar a) uyushiq bo'laklarni b) qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lash uchun xizmat qiladi. Teng bog'lovchilar quyidagicha:

1.Biriktiruv bog'lovchilari: *ve, hem-hem,hem, de ki, ve hem de, ne... ne, ne de ki, da // de, hemčinin, hetta, habele.* Biriktiruv bog'lovchilari murakkab tarkibli gaplarning oddiy bo'laklari va qismlarini bog'laydi, gaplar. gap bo'laklari o'rtasidagi mantiqiy-grammatik munosabatni ifodalashga xizmat qiladi.

2. Zidlov bog'lovchilari: *ammo, lekin, biraq, balki, halbuki (-u,-yu), valekin.*

3. Ayiruv bog'lovchilari: *ya, yaxud, yaki, yainki, gah..., gah, ba'zan...,ba'zan, xoh...,xoh, dam..., dam, bir..., bir:* azu */aju* "yoki": *uzum yegil azu qağun yegil* "uzum yoki qovun yegin".

va (*-u//-vu//-yu*) bog'lovchisi: eski o'zb. *Dard va ğamun ol biru bir;* ozarb. *sanin xalgin hisabsiz Rum va Rus va Afğanistan va Hindiston va Turkistan va Arabistan va Faraŋistan mamlakatlarini...;*

ham, hamda bog'lovchisi: boshq. *min uqızım, ham yazam;* ozarb. *uzun ham enli*; eski o'zb. *könül berdi söz ham yürüttı tiliŋ;*

taki/ ta// da bog'lovchisi: qadimgi turk. *üč yüz taqı sekiz altmıš; kün toğuš ından da kün batusıgača;* turk. *bunu alsın da oqusun, beni gördü de salam verdi*; o'zb. *kitobni oldi-da ketdi;*

basa//baza bog'lovchisi: olt. *bistiŋ derde meš qarağay čibi baza tit ozup d'at;* tuv. *xat xadan baza čas čağğan* "shamol turdi va yomg'ir yog'di"; xak. *aniŋ pu sarinda kider tirekter sotter paza tittar tulğapčatxannar* "uning bu tomonida qator teraklar o'sgan va tutlar tebranadi".

bilan//ilä//minen//meŋ//-lä// bog'lovchisi: ozarb. *šakl ila mana arasında;* qoz. *qalam men däpter*; qirg'. *uy menen qoy* "sigir bilan qoy", *Aziz menen Abdilda*; qum. *al bulän yašıl, kök bilän yerni arasında*; tuv. *öškü bil xoy, kidiraaš bilä qarandaš* "daftar bilan qalam";

Zidlov bog'lovchilari uyushiq bo'laklar, sodda gaplar va bog'lovchili qo'shma gaplar tarkibida qo'llanib, ular o'rtasidagi zidlik munosabatini ifodalaydi. Bular quyidagilar:

Yemi//de//ye bog'lovchisi hamma turkiy tillarga xos emas, ayrim turkiy tillardagina uchraydi: olt. *qıš qarlu d'e sök emes* "qish qorli, lekin sovuq emas", *bistiŋ taadabis qargan de qadiiq* "bobomiz keksa, lekin baquvvat"; xak. *Chulım sug ulug nimes če tireŋ* "Chulim daryosi katta emas, lekin chuqur" kabi.

Tize(ŋ) // deze bog'lovchisi: olt. *olor biske ayttılar bis deze ukpadibis* "ular bizga aytdilar, lekin biz anglamadik"; shor. *men seni qıyğırğam sen teze un perbediŋ* "men seni chaqirdim, lekin sen javob bermading", *alar anda qaldılar men teze pere nan keldim* "ular qoldi, men esa keldim", xak. *xaxpas xiri irgilenin čarimi-la turča čarimin tizeŋ kemniŋ-de xoli čardinaŋ naačilap saltır* "ochiq qoldi, lekin yarmi yana kimningdir qo'li bilan yopildi".

Vale, va, lekin, lek, amma bog'lovchilari: ozarb. *bir gedeyem men veli gor niyyati sultanlığım* "bir gadoman, lekin sultonlikka niyatimni ko'r",

göz yašı tökerdi leyk ne sud " ko'zdan yosh to'kildi, lekin ne foyda"; eski o'zb. *magar uyquda yüzün körgäy erdim, vale hajrindä közdän učdı uyqu; xub aytıp edi, amma men razi bolmadım;* o'zb. *gapingiz to'g'ri ekan, lekin masalaning boshqa tomoni ham bor.*

O'zbek tilida *biroq* va *balki* zidlov bog'lovchilari ham bo'lib, bu boshqa turkiy tillarda, deyarli, uchramaydi: *O'ktam mevalarni saralaydi, biroq, yegisi kelmaydi* (Oybek). *...yolg'iz o'zi emas, balki butun kosib ahlining ahvoli pachava ekanini ochib tashladi* (Oybek).

Ayiruv bog'lovchilari harakat, voqea-hodisaning takrorini anglatadi: *ja* "yoki"; ne *...ne, ara, ham, jenä "yana".*

Ara: qadimgi turk. *Ara ač, ara toq; ara bar bolur men, ara yoq bolur; arala avıtur, ara yığlatur* va h.k.

Bir-bir: qorachoy-balq. *bir ol keledi bir börü;* tuv. *birde bajı, birde xoldarı* "goh qo'li, goh boshi" kabi.

Gah: ozarb. *gah biza gelir, gah onlara;* eski o'zb. *Körsätür gah tiğ va gah oq; gah sarv üzä gahi gul üzä;* o'zb. *u qizga birdan chaqnovchi goh ko'kish, goh ko'k ko'zlari bilan boqar va h.k.*

Xah: *seni, seni sevärän xah ınan, xah ınanma; xah bügün xah ertägä va* boshqalar.

Ya, yaki, yaxud: ozarb. *ya man, ya san ya da ki dostumuz orayga getmayik*; boshq. *ya unga ya sulga;* turk. *ya ben aldanıyorum, ya sen*; eski o'zb. *ya nišan aylar bağırnı, ya yüräkni ya meni; yaxud armani, yaxud arab* va h.k.

Inkor bog'lovchisi ***na***: eski o'zb. *na kiši aŋa oxšar, na ol kišigä;* turk. *na bunin na gunduzin aram etmek*; ozarb. *na ozu, na da dostu bunu bilmadilar*; boshq. *ni Azat yoq ni Nail;* o'zb. *na suv bor, na ozuqa, na daraxt*; chuv. *ni mase ni šarje* "na jun, na momiq" va boshqalar.

II.Ergashtiruvchi bog'lovchilar ergashgan qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni bog'laydi, tobelik munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Ergashtiruvchi bog'lovchilar quyidagicha:

1. Aniqlov bog'lovchilari: *ya'ni,-ki,-kim;*

2. Sabab bog'lovchilari: *čünki, šuniŋ üčün, negäki, zerāki, nainki;*

3. Shart bog'lovchilari: *agar, agarda, bašarti, agarči (garči), garčand, mādāmiki;*

4. Chog'ishtiruv bog'lovchilari: *goya, goyaki.*

Ozarbayjon tilidagi bog'lovchilar:

sodda bog'lovchilar: *ve* "va", *hem* "yana", *ham, ya, yaki, gah, bazan, yer* "agar", *ančag, amma, biraq, dexi* "va", *meselen, ne-ne* "na-na", *zira, goyaki, čünki-čünki, neinki* "nainki", *hemčinin* "yana", *kerăk* "agar", *jaxud* "yoxud", *habele* "shunday", *herčend* "garči";

murakkab bog'lovchilar nisbatan ko'proq, ular ikki va undan ortiq bog'lovchilardan yoki ko'rsatish olmoshining ko'makchi, ba'zan bog'lovchi bilan birikuvidan hosil bo'ladi: *ve hem, va yana. ve ne* "na u na bunisi", *ve ja* "yaki", *ve yaxud* "va yaxud", *ve hešćinin* "va šuningdek", *ve herčend* " va garčand", *madamki* "madamiki", *herčend ki* "garčandki", *kah da* "va ba'zida", *hem de* "va hamda", *va yainki* "va yainki", *yainki de* "va yainki", *ve ya ki* "va yaki", *ve neinki,* "va šuningdek", *ve ya da* "unisi ham, bunisi", *ve yaxud da* "nafaqat", *ve kah da* " va yaki".

Chuvash tilida bog'lovchilar son jihatdan juda kam. Eng ko'p qo'llanadigan bog'lovchilar *ta, te, tata* "hamda", *ye-ye* "yoki", *per-per* "o'sha-o'sha", *aŋax-saŋax* "ammo", *menšen tesen* "shuning uchun", *yengen* "agar".

Yuklama. Ayrim so'z yoki gapga qo'shimcha ma'no yuklash uchun qo'llanadigan yordamchi so'z *yuklama*dir: *čü, oq, ök, kinä, ginä, kïya, mă*. Yuklama tuzilishi jihatidan ikki xil: a) affiks holidagi yuklamalar:-*mi,-či,-a (-ya),-da,-u (-yu),-oq (-yoq)-ginä (-kinä,-qına);* b) so'z holidagi yuklamalar: *axir, faqat, xuddi, nähätki, hattä, hattäki.*

Affiks holidagi yuklamalar chiziqcha bilan yoziladi, faqat *-mi,-oq (yoq),-ginä,-av, -yav* yuklamalari so'zga qo'shib yoziladi: o'zb.*borasanmi?*

Barcha turkiy tillarda yuklamalar alohida yordamchi so'z turkumi sifatida ajratiladi. Yuklamalar leksik ma'no ifodalamaydi, gapda biror sintaktik vazifani bajarmaydi. Shunga ko'ra yordamchi so'zlarning bir turi sifatida qaraladi. Yuklamalar yordamchi so'zlardan ham o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Masalan, yuklamalar bog'lovchi va ko'makchilar kabi so'zlar o'rtasidagi munosabatni, sintaktik aloqani yuzaga keltirmaydi.

Yuklamalarni alohida so'z turkumi sifatida ajratish borasida bir qator olimlar o'z munosabatlarini bildirishgan. Jumladan, Y. Abdurasulov qo'shimcha yuklamalarni so'z turkumi sifatida ajratishni ma'qul topmaydi: "Yuklamani turkumga ajratishning yana bir mushkul tomoni bor. Chunki yuklamalarning asosiy qismini turli modal ma'nolarni

anglatadigan affiks-yuklamalar tashkil etadi. Shubhasiz, affikslar qanday ma'no ifodalashidan qat'iy nazar so'z emas. Shuning uchun ularga so'z turkumi deb qarash ham u qadar to'g'ri emas, balki ularni affikslarning o'ziga xos guruhi deb qarash maqsadga muvofiqdir. Buni qanday hal qilish ham butun turkiyshunoslik oldidagi asosiy muammolardan biridir"[96]. Grammatik munosabat ifodalamaydigan qo'shimchalar lug'aviy shakl hosil qiluvchilarga kiradi. Yuklamalarga shunchaki lug'aviy shakl hosil qiluvchi sifatida qarash to'g'ri emas. Yuklamalar gapga so'roq, ayiruv-chegaralov, gumon mazmunini beradi. Shu bois, yuklamalarning alohida turkum sifatida ajratilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, lug'aviy shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar muayyan turkum doirasiga xoslangan bo'ladi. Yuklamalar, deyarli, barcha turkum so'zlariga qo'shiladi. So'zga ham, gapga ham qo'shimcha ma'no beradi.

Turkiy tillarda yuklamalar quyidagi turlarga ajratiladi:

1. So'roq va taajjub yuklamalari: – *ma//-mi,-či,-a,-ya.*

Umumturkiy *-ma//-mi* so'roq yuklamasi hozirgi hamma turkiy tillarda mavjud bo'lib, har bir turkiy tilda kamida ikkitadan sakkiztagacha fonetik shakllariga ega: olt. *ba // be, pa//pe, bo//be;* xak., shor, qoz., q.qalp., no'g'. *ma//ba//pa;* o'zb., uyg'., tat. *-mi//-ma* va boshqalar. Misollar: tat. *aqša bar*me? o'zb. *sog'mi*sa*n*; qoz. *üyde*misi*n*? turk. *geldi*mi? shor. *tayğıda aŋ koppe*?; q.-qalp. *kzba, ul* ma? kabi.

Ayrim adabiyotlarda *-ma//-mi* so'roq yuklamasining dastlab kuchaytiruv, taajjub yuklamasi sifatida qayd etilganligi, ba'zi tillarda bu yuklamadan keyin ma'noni kuchaytirish uchun *ni//na* so'roq olmoshi ham qo'shilishi aytiladi: qoz. *yekevin-be? Üyde-me!?, birpas-pa?!;* olt. *kelde-be?* gag. *bulut-mu?*, qirg'. *seneiŋ -bi?* tuv. *inda kim par-il, olarin-be, azi bistarni-be,* xak. *irah-pa, chagin-ma?,* boshq. *ol qilgen –me-ni?* "u keldimi a?!", xak. *ol kilgen-me-ni, noğala min pargam-ni?* "nega faqat men bordim-a?!" kabi.

So'roq yuklamalaridan *-a', -ya* shakli faqat o'zbek tilida mavjud bo'lib, boshqa turkiy tillarda uchramaydi. So'roq va taajjub yuklamasi *-či* ham faqat O'rta Osiyo turkiy tillariga xosdir: qoz. *sen-še? kelse-še,* q.-qalp. *ciz-še*, o'zb. *gapirsang-chi, bolam, dardingni aytsang-chi?! (A.Muxtor), yaxshisi, kitob oqisam-chi, biznikiga bir kelsang- chi* kabi.

Ayrim turkiy tillarda *-či* yuklamasi ifodalaydigan ma'no o'zbek tilida

[96] *Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси.-Т.,2009.*

mavjud bo'lmagan boshqa yuklamalar vositasida ifodalanadi. Masalan, ozarbayjon tilida *bas*: *bas siz* "siz-chi?!", *sanin deyil, bas kimnidir;* yoq. *duu, daa*: *istegin-duu* "eshiting-chi".

2. Kuchaytiruv va ta'kid yuklamalari: *–da// -ta, –ku, ham, -u, -yu,- oq, -yoq, -ki.* Hozirgi turkiy tillarda kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari kuchaytiruv, ta'kid bilan birga emotsional-ekspressiv, istak-xohish, iltimos kabi ma'nolarni bildiradi.

Umumturkiy *-da//-ta* yuklamasi hamda uning variantlari o'zi birikib kelgan so'z (yo gap)ning ma'nosiga kuchaytiruv, ta'kid, ajratish kabi ekspressiv-emotsional ma'nolar beradi. Masalan, shor. *men-da kerdim*; olt. *oy-da, qoy-da doq*; xak. *sin-de urgenerzin,* q.-balq. *bir zot-da aytalmadım*; tat. *Bašqalar bilan Jixanša babay-da kilgen idi*; turkm. *tizrak oqıda* "tezroq o'qi-da"; chuv. *vutra-da sunmaris, šıvra-da butmaris* "o'tda ham kuymadilar, suvga ham cho'kmadilar"; qirg'. *jerda, suu da bizdeylerdiki; ne de guzel šey* "qanday ajoyib narsa"; olt. *bu derde qayında, aspak-ta, tit-ta ozup dat* "bu yerda archa ham, tut ham, qayin ham o'sib yotibti"; boshq. *qıldı-da kitti;* tat. *korjik-ta yoklamağan, kurasiŋ*; turkm. *garrılar-da, yaašlar-da*; xak. *azıraan-daa adazı čoğıl emiskende ijezi čoğıl* "ularni ovqatlantiradigan otasi ham, sut beradigan onasi ham yo'q"; chuv. *seğet-te irtmere* "soat o'tmay"; tuv. *indig bolza-daa* "shunday bo'lsa ham", o'zb. *o'zing bilasan-da* va b.

-ku, ham, -u,-yu-oq,-yoq,-ki(-kim), asosan, kuchaytirish, ta'kid ma'nolarini bildiradi.

-ki yuklamasi: ozarb. *bu-ki, sen-ki bilirsan, o getdi-ki, čališ-ki, bikar gazma-ki* "ishlagin, bekor kezmagin", *aaval istädi-ki, ha hağığatı gızdan gizlatsin* "u qizdan haqiqatni yashirishni istadi"; turk. *išittim-ki kardeši gitmiš*; *öyle kiziyorum-ki* "shunday qiziyapmanki": *o gadar xarjadiki* "u shuncha ko'p pul xarjladiki"; o'zb. *Bildimki, siz kelgan ekansiz; U shunday kattaki, tasavvur qila olmaysiz.*

Ham yuklamasi o'zi kuchaytirib yoki ta'kidlab kelgan so'zdan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin. Bu yuklama, aksariyat hollarda, ta'kid ma'nosini ifodalaydi: turk. *men-em* "men ham", o'zb. *Uni ham o'qitaman, o'zim ham o'qiyman* (Shuhrat); *Haqqim ham bor, imkonim ham bor* (A.Muxtor).

/-oq//-yoq yuklamalari, asosan, qipchoq guruh tillari va qisman o'zbek, uyg'ur tillarida mavjud bo'lib, qadimgi turkiy tillarda ham, hozirgi turkiy tillarda ham voqea-hodisaning real yuz berganini ta'kidlab ko'rsatadi:

qadimgi turk. *emdi-oq aydım* "darrov, tezda aytdim", *bir-oq oğlı erdi* " yagona o'g'il edi"; olt. *bu-oq kün* "shu kuniyoq", xak. *pastux, xaydag, xoylar andag-ox* "cho'pon qanday bo'lsa, qo'ylari ham shundaydir", *sol kün-oq* "o'sha kuniyoq"; qoz. *piili mağl-aq;* chuv. *činagax* "shundayoq", o'zb. *birinchi yildayoq* kabi. Bu yuklama faqat otlardan keyin emas, balki olmosh, ravishdosh, ravish va kelishik shakllarini olgan so'zlardan keyin ham qo'shilib, yuqoridagi ma'nolarni anglatadi: eski o'zb. *Samarqandinoq Mašhaddaoq, burungidäk-oq, tünlä-oq;* olt. *ol-oq* "o'sha", *anda-oq,* "o'sha yerdayoq"; tat. *kuptan-uk, bašta-uk;* turkm. *dašarık* "tashqaridayoq", *yuqarıq* "yuqorigayoq"; xak. *tigden-oq* "u yoqdanoq", *pun-ok* "bugunoq"; chuv. *kezerex* "kechayoq"; shor. *iraktan-oq* 'yiroqdanoq" kabi. Bu yuklamaning tarixiy shakli "Boburnoma"da aks etgan.

O'zbek tilida *-ki*, uyg'ur tilida *-qu//-gü,* gagauz tilida *-kı,* boshqa tillarda *-qoy// -ğoy* shaklida qo'llanadigan yuklamalar ta'kid, istak, iltimos ma'nolarini ifodalaydi: qoz. *Asqardın tuğan jeri Šortaŋ qalası dep edik-qoy; sen-ğoy Kereymin dediŋ* "sen Kerey urug'idanman deding-ku"; qirg'. *adamsin-ğo* "odamsan-ku"; q.-qalp. *belgili-ğoy* "belgili-ku"; tat. *min-av siŋa aytanquy* "men senga aytdim-ku", *bazarğa bordımqoy* "bozorga bordim-ku"; uyg'. *Axmat-ku xeligiča yetip bordı*; o'zb. *u ketdi-ku, o'ziku qandaydir ayb sezdi, bunda hech qanday yozuv yo'q-ku* va h.k.

Eŋ, juda, hattā, hattāki, liq, ğarq, jiqqa, tap kabi so'zlar, asosan, kuchaytiruv ma'nosini anglatadi: q.-balq. *tap sen okuma kel* "sen ham kel"; o'zb. *hatto men ham eshitmay keldim, zal talabalar bilan liq to'la, usti jiqqa ho'l va* h.k.

3. Ayiruv va chegaralov yuklamalari: *-gina//-kina//-qına, faqat* turli so'z turkumlari bilan kelib, ularni chegaralab, ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Eski o'zb. *buginä, birginä, bir sariqqinä*; boshq. *bil kišigina;* qoz. *oni-ğana*; *Aqbutağana*; tat. *kečäginä, barančıginä* "kartoshkagina", *tik šunnan soŋğinä*; qoz. *tek bul balanığana*; o'zb. *faqat u kelgandagina, faqat bu kishigina, faqatgina; ona o'z o'g'lini sevadi faqat, faqat sevadi-yu ertak aytadi* (H.Olimjon).

4. Aniqlov yuklamasi: *xuddi, naq* o'zi mansub bo'lgan so'zning ma'nosini aniqlab ko'rsatish maqsadida qo'llanadi: *ötgän kün kečäsi xuddi šu yerdä katta majlis qılındı: har bašı naq bir savat bolardı* kabi.

Bu yuklamaning *ište, tam* ko'rinishi faqat turk tilida uchraydi: *ište bu sirada* "ana shu vaqtda", *tam bu sirada* "aynan shu paytda" singari.

5. Gumon yuklamasi: *-dir* barcha so'z turkumlariga qo'shilib kela oladi va o'zi aloqador so'zga gumon, noaniqlik ma'nosini beradi: boshq. *bil kiši kimdir*; *kim oldugumuzu aqlamıšsındır*; chuv. *sin albatta uzindin qalašındı yaratahındır* "sen, albatta, o'z kelinchagingni sevarsan", *ozak yoklagansindir* "uzoq uxlagandirsan"; o'zb. *Bola uqdim, deganday boshini qimirlatib, qayergadir o'qday uchdi.* (Oybek).

Turkiy tillarda gumon ma'nosi to'liqsiz fe'lning *ekän, emiš* shakllari orqali ham hosil qilinadi: turk. *bu iši jiddiye almıyor muš-uz;* qirg'. *ökmet qarızga aqča ber erteken*; turkm. *onuŋ neme xiyali baar-ka?* o'zb. *yo'q emiš, u ketgan emiš* kabi.

6. Inkor yuklamasi: *na, tügül* gapdan anglashilgan voqea-hodisaning amalga oshmasligini bildiradi. Masalan, ozarb. *bu indi mumkun degil*; no'g'. *bu ayvon tüvil* (bu hayvon emas); tat. *ištan kočli narsa tabu momkin tügil*; turk. *yazajak degil* "u yozmaydi"; *ben, degil günde, haftada elli lira kazanamiyordum* "men kunda emas, haftada 50 lira topa olmas edim"; o'zb. *bu yerda na tom, na deraza bor*; *uning esiga na sevgi, na istirohat keldi* va boshqalar.

7. *Gumon yuklamasi.* *Erinč erki, la, mat, kergäk. Erinč ol bardı* "U bordi, shekilli" yoki "U borgandir".

Chuvash tilida ham boshqa agglyutinativ tillardagi kabi predloglar o'rnida yuklamalar ishlatiladi. Bunda ular qaysi so'zga tegishli bo'lsa, o'sha so'zdan keyin keladi. *šan, šek, sar, ser, šar, valli* yuklamalari doimo boshqaruvchi so'z bilan birga keladi: *manšan* "men uchun", *uksasar* "pulsiz", *yultašvalli* "o'rtoq uchun" va shu kabilar.

Savol va topshiriqlar

Quyidagi mavzularni keys-stadi asosida yoriting:

1. Yordamchi so'zlarning grammatik ma'no ifodalashdagi o'rni.
2. Ko'makchilarning grammatik vazifalari.
3. Bog'lovchilarning grammatik vazifalari.
4. Yuklamalarning grammatik xususiyatlari.
5. Yordamchi so'zlarda sinonimiya.

14-§.TAQLID SO'Z (MIMEMA)LAR

Asosiy tashunchalar: *mimologiya, mimema, sonomimema, videomimema.*

Turkiy tillarda taqlid so'zlar o'ziga xos xususiyatlarga ega. Taqlid so'zlar lug'aviy ma'no anglatmasligi, maxsus sintaktik shakllarga ega

emasligiga ko'ra mustaqil so'z turkumlaridan. so'zlar o'rtasidagi munosabatni bildirmasligiga ko'ra yordamchi so'zlardan, emotsional-ekspressiv xususiyatlarga ega emasligiga ko'ra undovlardan farq qiladi.

Taqlid so'zlarni o'rganuvchi soha *mimologiya* deb ataladi. Turkologiyadagi taqlid so'zlarni o'rganish N.I.Ashmarin faoliyati bilan bog'liq. Olim 1918- yilda Qozonda "Основы чувашской мимологии" asarini e'lon qildi. Bu asarda taqlid so'z ma'nosidagi "mimema" terminining mohiyati birinchilardan bo'lib izohlab berilgan. N.K.Dmitriyev turkiy tillardagi taqlid so'zlarni o'rganar ekan, N.I.Ashmarin klassifikatsiyasi va terminologiyasidan foydalandi. N.K.Dmitriyev taqlid so'zlar ma'nosida "mimema" terminini ishlatdi va uning mohiyatini yoritib berdi.

N.K.Dmitriyev taqlid so'zlarni to'rt guruhga ajratgan: 1) tovushga taqlidni bildiruvchi so'zlar: *pıt-pıt* – qadam tovushi, *tıraq* – zarb tovushi, *lüp-lüp* – yengil jismning tushishidagi tovush, *tıngır* – quruq va tartibsiz tovush, *jıngır* - qo'ng'iroq tovushi, *tıqır* – sanalayotgan tangalar tovushi; 2) yorug'lik holati va harakatini bildiruvchi taqlid so'zlar: *aput-aput* – tebranib bormoq, *pır-pır* – uchish holati, *efil-efil* – yengil tebranish, *pır-pır* – yonishga nisbatan, *parıt-parıt* – yorug'lik holatiga nisbatan; 3) tirik organizm holati bilan bog'liq taqlid so'zlar: *hıšıt* – shamollashda, tomoq bo'g'ilishida eshitiladigan tovush, *ıpıt-ıpıt* – quvonchdan qiyqirish, *tırıt-tırıt* – sovuqdan qaltirash, *zaŋırdamaq* – tishlarning takillashi; 4) bolalar nutqiga taqlidni bildiruvchi so'zlar yoki bolalar nutqi shakllari: *buwa* – suv, *nine* – ona, *ninni* – alla.

Turkiy tillardagi taqlid so'zlar, taqlid so'zlarning shakllanishi va taraqqiyoti, janubiy turkiy tillar mimologiyasi, gagauz, qrim-tatar, ozarbayjon, turkman tillaridagi taqlid so'zlarning xususiyatlari misollar asosida yoritilgan. Taqlid so'zlarning izohli lug'ati keltirilgan.[97]

Hozirgi turkiy tillarda taqlid so'zlar ikki turga ajratiladi: 1. Holat (obraz)ga taqlidni bildiruvchi so'zlar (videomimemalar): *yalt, yarq, milt-milt, bılq, dir-dir.*

2. Tovushga taqlidni bildiruvchi so'zlar (sonomimemalar): *tars, turs, čars.*

Turkiy tillardagi taqlid so'zlarning xususiyatlarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Barcha turkiy tillardagi taqlid so'zlarning fonetik tuzilishi, tarkibi

[97] *Дмитриев Н.К. К изучению турецкой мимологии. В книге. -Строй тюркских языков.-М.,1962.-С.59-109.*

bir xil: **cvc**: qad. turk. *šap*, qirg'. *čip*; **cvcc**: boshq. *šarq*, qoz. *šiyk*; **cvcvc**: boshq. *šatir*, tat.*dobir*, turk. *gurul*, o'zb. *lapaŋ*; **cvccvc**: tat. *šaldır*, *šuldır*, turk. *šaqqir*, *gümbür*, *yıldır*.

2. Taqlid so'zlar yakka (tat.*gop*, o'zb. *ğiŋ*), juft (tat. *dobir-šatir*), takror (turk. *išıl-ışıl*, ozarb. *šarq-šarq*) ko'rinishlarda bo'ladi.

3. Taqlid so'zlar nomlash xususiyatiga ega emas.

Taqlid so'zlar yasalmaydi, ammo yasalish asosi bo'la oladi. Turkiy tillarda taqlid so'zlardan fe'l, ot, ba'zi hollarda sifat yasaladi: tuv. *qoŋqay-*, q.qalp. *suppay*, ozarb. *qıčğırıq*, turk. *oksuruk* "yo'tal", *yıldırak* "yashin", *yıldırım* "chaqmoq", boshq. *bitibildik*, o'zb. *lovullamoq*, *xurrak*, *qarsak*, *sharshara*, *so'lqildoq*, *yaltiroq*. *shaqildoq*, *hiqildoq*, *yiltiroq*.

5. Taqlid so'zlar barcha turkiy tillarda yordamchi fe'llar bilan birikib, qo'shma fe'l hosil qilishda ishtirok etadi: ozarb. *ğonağele*, turk. *zannet*, olt. *qult et*, *qalt et*, qoz. *selq et*, o'zb. *milt-milt qilmoq*, *taq etmoq*.

6. Taqlid so'zlar gapda asosan, aniqlovchi, hol vazifasida keladi. Otlashganda esa quyidagi vazifalarni bajaradi: a) ega: *Qo'yning "ba-a"si, musichaning g'uv-g'uvi eshitildi;* b) to'ldiruvchi: *O'z g'uv-g'uviga o'zi shaydo bo'lgan guzarga yaqin qoldi.*

Savol va topshiriqlar

1. Yordamchi so'zlarning grammatik vazifalarini tushuntiring.

2. Ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalarning grammatik ma'nolarini izohlang.

3. Taqlid so'zlardan yasalgan ot va fe'llarga misol keltiring.

4. Taqlid so'zlarning eng qadimgi birliklar sifatidagi ahamiyatini misollar asosida izohlang.

5. Turkiy tillardagi so'z turkumlariga tavsif bering.

Test sinovi

1. Xakas tilidagi *naŋmir čaar ălnindă* birikmasining ma'nosini belgilang.

A) "yomg'irdan so'ng" C) "yomg'ir paytida"
B) "yomg'irdan keyin" D) "yomg'ir yog'ar oldida"

2. Sharqiy Turkiston hududi tilida ko'p uchraydigan ko'makchini belgilang.

A) üzä C) qaršu B) körü D) ašnu

3. Holat bildiruvchi ko'makchilarni belgilang.

A) soŋ, soŋra, keyin C) qatın(da), qatıŋ(ğa), ötrü
B) köra, körü, birlä D) birlä, ötrü, ötürü

4.Bog'lovchilarni belgilang.

A) hečrend, gerče, eger C) birlä, qatıŋ(ğa), ötrü
B) köra, gerče, birlä D) birlä, ötrü, ötürü

5.Qaysi tilda bog'lovchilar nisbatan kam?

A) chuvash tilida C) turk tilida B) tuva tilida D) yoqut tilida

6.Yuklamalarni belgilang.

A) hečrend, gerče, eger C) birlä, qatıŋ(ğa), ötrü
B) köra, gerče, birlä D) nähätki, hattä, hattäki

7. *ište, tam* yuklamalari qaysi tilda uchraydi?

A) chuvash tilida C) turk tilida B) tuva tilida D) yoqut tilida

O'quv loyihasi

Mavzu:	**Turkiy tillarning morfologik xususiyatlari**
Ishtirokchilar:	3 talabadan iborat guruh
Ta'limning maqsadi:	"Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi" fanining asosiy masalalarini belgilash.
Rejalashtirilayotgan o'quv natijalari:	turkiy tillarning umumiy morfologik xususiyatlarini o'zlashtirish, agglyutinatsiyani misollar asosida yoritish; fleksiya ko'rinishlari sababini izohlash.
Loyihalashtirish faoliyati bo'yicha talaba quyidagi amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladi:	– turkiy tillar qiyosiy-tarixiy grammatikasining asosiy masalalarini umumlashtirish; – turkiy tillarning morfologik xususiyatlarini ajratish; – agglyutinatsiya xususiyatlarini misollar asosida yoritish; – turkiy tillar grammatik xususiyatlarini loyiha taqdimoti asosida yoritish.

Talabalar loyihani muvaffaqiyatli bajarishlari uchun lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar quyidagilardan iborat:	turkiy tillarning agglyutinativ tabiatini; qadimgi morfologik xususiyatlarning hozirgi turkiy tillarda saqlanib qolish darajasini, grammatik ma'no hosil qilish usullarini, elementar va komleks morfologik birliklarni tahlil qilish.
Talaba avval o'zlashtirilgan quyidagi bilimlarni mustahkamlaydi:	morfologiya, grammatik ma'no, grammatik ko'rsatkich, agglyutinatsiya, morfologik qayta bo'linish hodisalarini izohlash.

15-§.TURKIY TILLAR SINTAKSISI

Asosiy tushunchalar: *predikatsiya, bosh bo'laklar, kesim, ega, ikkinchi darajali bo'laklar, to'ldiruvchi, hol, aniqlovchi.*

Sintaksis yunoncha *syntaxis* so'zidan olingan bo'lib, "biriktirish", "bog'lash" degan ma'noni bildiradi. *Sintaksis* so'zlarning va gaplarning o'zaro bog'lanish tizimini, tartibini, ularning turlarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limidir. Mahmud Koshg'ariyning "Kitobi javohir unnahv fi-l-lug'at it-turk" nomli asarida turkiy tillar sintaksisi haqida bahs yuritiladi.

So'zning muayyan til qonuniyatlari asosida o'zaro birikuvidan so'z birikmasi va gaplar hosil bo'ladi. So'z birikmalari va gaplar shakliy xususiyatlari va mazmuniga ko'ra farqlanadi.

So'zlarning o'zaro grammatik birikishi teng va tobelik asosida yuz beradi.

1. Teng bog'lanish – ikki so'zning o'zaro teng munosabatlar asosida birikishi: boshq. *dalala ve qalala* "dalada va shaharda", chuv. *verman ve šur* "o'rmon va botqoq". Teng bog'lanish o'zaro teng bog'lovchilar yoki sanash ohangi yordamida yuzaga keladi.

2. Tobe bog'lanish – bir so'zning boshqa so'zga tobelik asosida bog'lanishi: no'g'. *kelgen adam* "kelgan odam", tat. *kyočle keše* " kuchli odam". Tobe bog'lanish ikki qismdan iborat bo'ladi: tobe qism va hokim qism. So'roq bog'lanib kelgan qism hokim, so'roqqa javob bo'lib keluvchi qism tobe qismdir: qoz. *kök* (qanday?) *orman,* xak. *naŋmırlığ* (qanday?) *kün;* turkm. *otluq* (qanday?) *meydan.*

So‘zlarning tobelanish asosida bog‘lanishi so‘z birikmalarini hosil qiladi. So‘z birikmasi ikki va undan ortiq so‘zdan iborat bo‘ladi, ammo kengaygan bir tushunchani ifodalaydi.

So‘z birikmasi. Tobe qismning hokim qismga kelishik, egalik qo‘shimchalari, ko‘makchilar va tobelantiruvchi ohang yordamida bog‘lanishi so‘z birikmasini tashkil qiladi.

Tobe bo‘lak hokim bo‘lakka ko‘makchilar yordamida bog‘langanda, ko‘p hollarda kelishik bilan birgalikda yoki kelishik bilan almashib qo‘llanishi mumkin. Tobe bo‘lak hokim bo‘lakka bog‘lanib, hokim bo‘lak talab etgan sintaktik vazifada keladi. Ana shu vazifa gap bo‘lagi nomi bilan yuritiladi.

So‘z birikmasi hokim so‘zning qaysi turkumga oid so‘z bilan ifodalanishiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi: otli so‘z birikmasi, fe’lli so‘z birikmasi.

Otli so‘z birikmasida hokim so‘z ot va otlashgan so‘zlar (sifat, son, ravish, taqlid so‘z) bilan ifodalanadi: shor. *kanatlıg kuš* “qanotli qush”, olt. *suuluu qar* “suvli qor”, ozarb. *sınmış ağaš* “singan daraxt”, *učan guš* “uchgan qush”, *boğuču bir isti* “bo‘g‘uvchi issiq”, *ikinji yer* “ikkinchi yer”, yoq. *oxtubut mas* “yiqilgan daraxt”, *tordos at* “to‘rtinchi ot” tuv. *karaktıg karazı* “ko‘zning qorasi”, *birge teve* “birinchi tuya”, chuv. *kaškarsen purneče* “qashqirlar hayoti”, chuv. *čaplı šıv* “buyuk daryo”, *kaymala čın* “ketuvchi kishi”, *ikkinxi uyix* “ikkinchi oy”, tat. *bez barası yullar* “biz boradigan yo‘llar”.

Fe’lli so‘z birikmasida hokim so‘z fe’l, uning sifatdosh, ravishdosh shakllari bilan ifodalanadi: boshq. *canların maylay* “chanalarini moylamoqda”, xak. *tas turada čurtapčı* “tosh uyda yashaydi”, *ubden sigari xondi* “uydan yugurib chiqdi”, tat. *baylarča yašau* “boylarcha yashamoq”, *xat belen jitaru* “xat orqali yetkazmoq”, *yaxšılıgı očen xormatleu* “yaxshiligi uchun hurmatlamoq”, *balta belen kisü* “bolta bilan kesmoq”, *kön saen qaytu* “kun sayin qaytish”, turk. *ruyadan uyanurmuš* “uyqudan uyg‘onarmish”.

Turkiy tillarda so‘z birikmalarining tobe so‘zi, asosan, hokim so‘zdan oldin keladi.

So‘z birikmasida so‘zlarning o‘zaro birikish usullari. Kelishik va ko‘makchilar so‘zlarni bir-biriga tobelab bog‘lashga xizmat qiladi.

So‘z birikmalari tarkibidagi tobe va hokim so‘zning grammatik vositalarsiz, faqat ohang va tartib asosida bog‘lanishi ***bitishuv*** deyiladi: ozarb. *teravetli yapraqlar* “tarovatli yaproqlar”, turk. *getmiš kiši* “ketgan kishi”, yoq. *biler kuhu* “bilimli kishi”, boshq. *kilehe* yil “kelasi yil”, tat. *zeŋger kük* “zangori osmon”.

Tobe so‘zning hokim so‘zga *tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishigi* qo‘shimchalari yoki ko‘makchilar yordamida bog‘lanishi ***boshqaruv***dir: ozarb. *burada tikirler* “bu yerda tikarlar”, tat. *alga kitmedem* “yurtga ketmadim”, gag. *bakırı buldum* “chelakni topdim”, tuv. *ajıgdan desken* “mehnatdan qochgan”, *ıttan korgar* “itdan qo‘rqar”.

Tobe so‘zning hokim so‘zga qaratqich kelishigi qo‘shimchasi yordamida, hokim so‘zning esa tobe so‘zga egalik qoshimchalari yordamida bog‘lanishi ***moslashuv***dir: chuv. *piren anne* “bizning onamiz”, tat. *beneŋ el* “mening elim”, xak. *tağ pazı* “tog‘ boshi”, turkm. *oniŋ derdi* “uning dardi”. Tobe bo‘lak hokim bo‘lakka qaratqich kelishigi va egalik qo‘shimchasi yordamida bog‘langanda ikki tomonlama bog‘lanish ro‘y beradi. Tobe bo‘lak qaratqich kelishigi qo‘shimchasini, hokim bo‘lak esa egalik qo‘shimchasini oladi. Bunday bog‘lanishda tobe qism **qaratqich,** hokim qism **qaralmish** deb nomlanadi: *uzumning* (qaratqich) *sharbati* (qaralmish).

Agar hokim bo‘lak sof fe’l bilan ifodalansa va fe’l *kimni? nimani? qayerni?* so‘roqlariga javob bo‘hivchi so‘zni talab qilsa, tobe bo‘lak tushum kelishigida qo‘llanadi, hokim bo‘lak egalik qo‘shimchasini olgan ot, ba’zan harakat nomi va sifatdosh bilan ifodalansa, tobe bo‘lak qaratqich kelishigida qo‘llanadi.

Bitishuv, moslashuv, boshqaruv usullarini tobe so‘zga qo‘shilgan kelishik shakllariga asoslanib ajratish mumkin:

1. Bosh kelishik: **-** (bitishuv)
2. Qaratqich kelishigi: ***-ning*** (moslashuv)
3. Tushum kelishigi: ***-ni*** (boshqaruv)
4. Jo‘nalish kelishigi: ***-ga*** (boshqaruv)
5. O‘rin-payt kelishigi: ***-da*** (boshqaruv)
6. Chiqish kelishigi: ***-dan*** (boshqaruv).

So‘z birikmalari ham so‘zlar kabi narsa, belgi, harakatni atashga xizmat qiladi. So‘z – leksik hodisa, so‘z birikmasi – sintaktik hodisadir. So‘z birikmasi narsa, belgi yoki harakatni yakka holda emas, balki ikki va undan ortiq so‘zlarning o‘zaro aloqaga kirishuvi orqali ifodalaydi.

Izofa. Turkiy tillarda sifatlovchi sifatlanmishiga bitishuv usuli bilan tobelanadi. Aniqlovchning yana bir turi borki, u tilshunoslikda *turkiy izofa* deb yuritiladi. Turkiy tillarda gap bo'laklari, boshqa tillar, masalan, hind-yevropa tillari oilasidagiga nisbatan o'zining muntazam joylashish tartibiga ega.

Izofa ikki otning aniqlovchilik munosabatiga kirishuvidir. Bunday munosabatda biror shaxs, predmet yoki tushunchaning boshqa bir shaxs, predmet yoki tushunchaga qarashliligi ko'rsatiladi. Ikki ot orasidagi bunday munosabat maxsus affikslar orqali ifodalanadi: tobe so'zda qaratqich kelishigi qo'shimchasi *(-niŋ),* hokim so'zda egalik affikslari *-(i) m, -(iŋ), -i (si); -(i) miz, -(i) ŋiz,-(lar)i* bo'ladi.

Izofada hokim so'z qaysi shaxsni ko'rsatsa, tobe so'z ham leksik ma'nosiga ko'ra o'sha shaxsga ishora qiladi. Shuning uchun ham izofa birikmasi moslashuv aloqasining bir ko'rinishi hisoblanadi.

Izofa birikmasi qismlarning shakllanishiga ko'ra uch xil bo'ladi:

I. Izofa birikmasining har ikki qismi belgisiz bo'ladi: *türk bodun,* ozarb. *yer may* "kerosin", qum. *tuz kiap* "tuzning qopi", qirg'. *suu kir* "kirning suvi". Bunday birikuvlar turkiy tillardadagi izofalarning eng qadimgi ko'rinishidir. Bu tipdagi izofali birikmalar qumiq tilida ko'p kuzatiladi.

II. Izofa birikmasining biror qismi belgisiz bo'ladi: *türk bodunı,* xak. *čon čargizi* "xalq so'zi", qirg' *avgust ortusu* "avgust o'rtasi", chuv. *arame pisatel* "yozuvchi rafiqasi", tat. *kayın urmanı* "qayin o'rmoni". Bu tipdagi izofali birikmalar chuvash tilida ko'p kuzatiladi.

III. Izofa birikmasining har ikki qismida qo'shimchalar mavjud bo'ladi: *külteginiŋ altunı,* qumiq. *ulkeni yüregi* "o'lkaning yuragi", q.-balq. *suunı ayağı* "suvning oxiri", olt. *ulustın ortozı* "xalqning o'rtasi" chuv. *kaškarsen purneče* "bo'rilar hayoti", *xalaxsen tuslaxe* "xalqarning do'stligi", tuv.*karaktıŋ karazı* "ko'zning qorasi", qoz. *tört jigitiŋ bireui* "to'rt yigitning biri", xak. *pistiŋ gorodtıŋ kizileri* "shahrimiz qizlari".

III tipdagi izofalar nisbatan keyingi davrlarda yuzaga kelgan bo'lib, II tip izofalardagi ma'noning aniqlashuvi natijasida shakllangan.[98]

Qadimgi turkiy tilda va undan keyingi davrga oid yodgorliklarda ham izofa birikmasi uch ko'rinishga ega bo'lib, bu shakllar birgalikda

[98] *Серебренников Б.А., Гаджиева Н.З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков.-Баку,1979. -Б.268-269.*

qo'llangan. Shuning uchun ham izofa birikmasining belgisiz shakllaridan belgili shakllari kelib chiqadi, deb hukm chiqarish qiyin (at baš> at baši> atniŋ bašı). Ayrim belgisiz birikmalar belgiliga aylangan bo'lsa, ba'zi belgili izofa birikmalar belgisiz birikmalarga o'tgan.[99]

Hozirgi turkiy tillarda izofa birikmalarning ayrimlari qo'shma so'zga aylangan: uyg'. *adabiyat darsi*, qum. *giava flotu* "havo floti", qirg'. *ömür bayan* "avtobiografiya", olt. *örus poet* "rus shoiri".[100]

Savol va topshiriqlar

Quyidagi mavzularni keys-stadi asosida yoriting:

1. So'z birikmasi tarkibi.
2. So'z birikmasi turlari.
3. So'z birikmasi va qo'shma so'z.
4. So'z birikmasi va frazema.
5. Turkiy va forsiy izofalar. Arab izofasi.

Turkiy tillarda gap qurilishi

Turkiy tillarning grammatik tizimi ayrim sohalarda hind-yevropa va boshqa til oilalari bilan parallel ravishda taraqqiy qilgani faktik materiallarda namoyon bo'ladi. Parallellik gap qurilishidagina emas, balki mazkur tillardagi so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi shakllar taraqqiyotida ham kuzatiladi.

Turkiy tillardagi gapning asosini, yadrosini predikativ munosabat tashkil etadi. Predikatsiya ega va kesim o'rtasidagi munosabat bo'lib, ega ifodani namoyon etuvchi, kesim esa ifodaning o'zi hisoblanadi. Leksik jihatdan kesim harakat-holatni yoki turg'un belgini ifodalaydi. Ega harakat yoki holat bajaruvchi shaxs yoki narsa-buyumni bildiradi.

Turkiy tillarda predikatsiyaning ikki usuli farqlanadi:

1) predikativ munosabatni ifodalashning har ikki asosi - ega va kesim ishtirok etadi: *Men – talaba.* Bu o'rinda *talaba* so'zi predikativ vazifani ko'rsatuvchi yoki ega sifatida ajratishga asos bo'luvchi shakl ko'rsatkichiga ega emas. Ega vazifasida keluvchi *men* so'zi ishtirokisiz predikativ munosabat reallashmaydi va gap tuzilmaydi. Xuddi shuningdek, *talaba* so'zisiz ham predikativ munosabat reallashmaydi. Gapning bu tartibdagi

[99] *Abdurahmonov G'., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi.-T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.-T., 2008.-B. 333-334.*

[100] *Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси.-Т.,2009.-Б.228-229.*

tipida predikativ munosabatning reallashuvida ega va kesim teng qiymatga egadir;

2) predikativ munosabatning ikkinchi tipida predikatsiyaning ikki uzvi talab qilinmaydi. Bunda kesim tarkibida bir vaqtning o'zida ikki grammatik kategoriya – predikatsiyani va ega shaxsini ifoda etuvchi ko'rsatkich mavjud bo'ladi. Birinchi tipdagi *Men talaba* gapi ikkinchi tipda *Talabaman* ko'rinishiga ega bo'ladi. *Talabaman* tipidagi ko'rinishda alohida ega yo'q, faqat bajaruvchi *men// man* shaxs ko'rsatkichi orqali ifodalanadi. Bunda - *men// man* ko'rsatkichida ikki grammatik kategoriya: shaxs (bajaruvchi) va predikat ma'nosi ifodalanadi. *Talabaman* tipidagi ifodada gapning asosiy mazmuni, yadrosi ifodalanadi. Bu tipdagi gap turkiy tillarda minimal so'z tarkibidagi predikativ ifoda hisoblanadi.

Men talaba va *Talabaman* shakllari hozirgi turkiy tillarda faol qo'llanadi. *Men talaba* ko'rinishidagi gap tipi aksariyat shevalarda, ayrim turkiy tillarda va qadimgi turkiy tilda ko'proq uchraydi.

Gap hosil qilishda predikativ munosabatning o'rni muhim. Masalan, *aqlli* va *sabrli* so'zlaridan shunchaki gap hosil qilib bo'lmaydi. Bu sifatlar o'rtasida munosabatni shakllantirish uchun ulardan ikkinchisi kesimga aylanadi: *aqlli adam sabrli.*

Gapda I va II shaxs faoliyati haqida so'z borganda kesimlik ko'rsatkichi ishtirok etadi. III shaxsda grammatik ko'rsatkich ishtirok etmaydi. III shaxsdagi fe'l shakli ko'pgina turkiy tillarda zamon qo'shimchasi bilan ifodalanadi: *Usmon keldi*[101]. Bu o'rinda III shaxs ko'rsatkichsiz ifodalangan, deyish to'g'riroq bo'ladi: *keldim, kelding, keldi.* Bunda *-di* zamon ko'rsatkichi, shaxs-son shakli esa ifodalanmagan - nol ko'rsatkichli. *Kelaman, kelasan, keladi* tuslanishida *-di* ko'rsatkichini shaxs-son qo'shimchasi sifatida baholash mumkin. Bu holatda zamon tushunchasi *-a* shakli orqali ifodalangan.

Turkiy tillarda III shaxsdagi predikativlikni ifodalashning ikki usuli ajratilgan:

1) nisbatan qadimiy bo'lgan, turkiy tillarda olmoshning turlanishidan shakllangan *-ol//-ul* ko'rsatkichi. Bu shakl qadimgi turkiy tilda kuzatiladi, hozirgi turkiy tillarda ham uchraydi: *ul ešče ul.*

2) *-tir//-dir, -di//-t.* Bu ko'rsatkich hozirgi-kelasi zamonni ifodalovchi

---

[101] *Севортян Э.В. О некоторых вопросах структуры предложения в тюркских языках. Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. III. Синтаксис.-М., 1961. -С. 5-18*

turur//durur sifatdoshidan shakllangan. *-ol//-ul* ko'rsatkichi ayrim turkiy tillardagina saqlanib qolgan bo'lsa, *-tur//-dur* shakli umumturkiy ko'rsatkich hisoblanadi. Bu grammatik shakllar predikativlik bilan bir qatorda modal munosabatni ham ifoda etadi. *tur//-dur* ko'rsatkichining predikativlikni ifodalash xususiyati ozarbayjon, turk, turkman tillarida to'liq namoyon bo'ladi.

Tatar va boshqa bir qator turkiy tillarda modallikni bildiradigan, kesimlik shakli bilan omonim hisoblanuvchi *-tır//-dır* ko'rsatkichi ham mavjud. Bu ko'rsatkich ozarbayjon, turk tillarida kuzatiladi. Masalan, turk tilida: *baban geli yordur* "otang kelayotgan bo'lsa kerak".

Turur sifatdoshi taraqqiyotini qirg'iz tilidagi so'z shakllari orqali kuzatish mumkin: *ala turur/ aladur/ aladı (oladı)/alat.*

Turkiy tillarda birgina kesimning o'zi ham bir tartibli gap hosil qilishi mumkin. Ammo turkiy tillardagi asosiy gap tipi: "ega-kesim" ko'rinishidir.

Gap bo'laklari muayyan tartibga ega. Masalan, tatar tilidagi *Teguče kiem tege* (Tikuvchi kiyim tikmoqda) gapida *teguče* va *kiem* so'zlari bir xil ko'rinishga ega. *Teguče* so'zining ega ekanligini gap boshidagi, *kiem* so'zining esa to'ldiruvchiligini o'rtadagi tartib belgilamoqda. *Kiem* gap boshida kelsa, ega vazifasini bajaradi.

Eganing oldin, kesimning keyin kelishi turkiy tillar gap qurilishidagi asosiy tartib hisoblanadi: tat, boshq. *men kildem* "men keldim"; *koyaš batı* "quyosh botdi", *hin belahen* "sen bilasan"; qirg'. *al kelgen* "u kelgan"; qoz. *sen jazasın* "sen yozasan", *atıŋ barma?* "oting bormi?"; boshq. *atayım Ofoge kitken* "otam Ufaga ketgan"; tat. *ul yeš tugel* "u yosh emas"; *bez - yazısı* "biz-yozuvchilar" va h.k.

Turkiy tillarda gap tartibi o'zgarishi, grammatik shakllar qo'shilishi bilan birliklarning grammatik vazifasi ham o'zgaradi: *bu adamların oturduqları ev/ bu adamlar oturduqları ev; men alğanım yoq /meniŋ alğanım yoq.*

Gapning bo'laklarga ajratilishi. Gapda so'zlar o'zaro grammatik munosabatga kirishib, gap bo'laklarini hosil qiladi. Gap bo'laklari vazifasida mustaqil so'zlar keladi. Har bir gap bo'lagi boshqa gap bo'laklari bilan bo'lgan grammatik munosabatiga ko'ra belgilanadi, ya'ni har bir gap bo'lagi o'zi munosabatga kirishgan so'z bilan ma'lum sintaktik aloqada bo'ladi. Gap tarkibida tobe bog'lanib ma'lum so'roqqa

javob bo'luvchi so'z yoki so'zlar birikmasiga *gap bo'lagi* deyiladi. So'zning qaysi bo'lak vazifasida kelayotganligi hokim bo'lakka nisbatan aniqlanadi. Gapda kesimgina boshqa bo'laklarga nisbatlanmagan holda aniqlanadi, chunki uning kesim ekanligini kesimlik shakllari ko'rsatib turadi. Qolgan bo'laklar kesimga nisbatan aniqlanadi.

Gap bo'laklari: *kesim, ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol.* Kesim gapning asosini tashkil qiluvchi markazdir. Ega kesimga ergashib, kesimda ifodalangan ish-harakatning bajaruvchisini ko'rsatadi. *To'ldiruvchi, aniqlovchi, hol* bo'laklari ega va kesimga ergashib kelib, ularni to'ldiradi, aniqlaydi yoki izohlaydi. Shuning uchun ular *gapning ikkinchi darajali bo'laklari* deyiladi.

Turkiy tillarning sintaktik tizimi ham eng qadimgi oltoy bobo til xususiyatlarini namoyon qiladi. Buni o'zbek va koreys tili gap qurilishidagi bo'laklarning o'rni va munosabatini qiyoslash asosida ham kuzatish mumkin.

Koreys tili ham oltoy tillari oilasiga mansub bo'lib, o'zbek va koreys tili grammatikasidagi o'xshashliklar turkiy tillar va koreys tili o'rtasidagi eng qadimgi yaqinlik ildizlarini ko'rsatib turadi. Chunki asosiy xabar kesimda mujassamlangan bo'ladi. Gapdagi boshqa barcha bo'lak olib tashlansa ham, mazkur xabar saqlanadi. Lekin kesim olib tashlanib, boshqa bo'lak saqlansa, xabar yo'qoladi. Gap bo'lagi uning kesimini aniqlashdan boshlanadi. Gap bo'lagining turi odatda bir-biriga nisbatan olinadi: hol va ega kesimga nisbatan, aniqlovchi aniqlanmishga nisbatan, to'ldiruvchi to'ldirilmishga nisbatan. Umuman, qolgan barcha bo'laklar kesimga bevosita yoki bilvosita bog'lanadi. Shuning uchun kesim gapning grammatik markazi deyiladi. Koreys tilida ham kesim gap bo'laklarini belgilaydigan qism bo'lgani uchun gap markazi hisoblanadi. Gap bo'lagini ajratishda asosiy belgi – ular orasidagi sintaktik aloqa. O'zbek tilida gap bo'laklari beshta: ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol. Koreys tilida gap bo'laklari soni yettita: *[juo], [sosulo], [mo'kjogo], [bo'o], [kuanhyungo], [busao], [donglibo].*

Koreys tilida gap bo'laklari:

1. Kesim *[sosulo]* deyiladi. Kesim tasdiq-inkor, mayl, zamon, shaxs-son ma'nosi va shakliga ega, gapning egasi haqidagi xabarni ifodalovchi bo'lakdir. O'zbek tilida ham, koreys tilida ham kesim fe'l, sifat, ot, son, olmosh bilan ifodalanadi. Ammo farqli jihati shuki, o'zbek tilida bu so'zlar mustaqil holda kesim bo'lib keladi. Koreys tilida esa '[ida]'

kesimlik yuklamasi qo'shiladi. Nutqda kesimsiz gap bo'lishi mumkin emas. Gapda kesim bo'lmasa, u to'liqsiz gap hisoblanadi. Kesim qaysi turkum so'zi bilan ifodalansa, shu turkum so'rog'iga javob bo'ladi.

2. *[juo]* – gapda subyekt bo'lib, ot, olmosh, songa yuklama' [i]' yoki ' [ga]' qo'shib qo'llanadi. Ba'zan kattalarga nisbatan hurmatni ifodalashda ham yuklama ' [kkeso] ishlatiladi.

Koreys tilidagi ega o'zbek tilidagi ega bilan tengdir. Ega gapdagi xabarning kim yoki nima haqida ekanligini bildirib, kesimga tobe bog'-lanadi. Koreys tilida ega *kim? nima? qayer?* so'rog'iga javob bo'ladi, yuklama bilan ishlatiladi, ammo o'zbek tilida ega bosh kelishikda keladi. Har ikki tilda ham ega ifodalangan yoki yashirin bo'lishi mumkin.

3. [mo'kjogo] – gapda izohlanadigan narsa-predmet. Gapning kesimi o'timli fe'l bilan ifodalangan bo'lsa [mo'kjogo] mavjud bo'ladi. Ot, olmosh, sifatga qo'shilgan [il] yoki [ril] yuklamalari o'zbek tilidagi tushum kelishigi ***-ni***ga xos ma'noni ifodalaydi. Shu bois bu bo'lak to'ldiruvchiga teng keladi.

4. [bo'o] – gapda ba'zi kesimlarni to'ldiradigan so'z [bo'o] "bo'lmoq" ma'nosini anglatadigan [dueda] fe'li yoki "emas" ma'nosini bildiradigan [anida] fe'li keladi. Bu tartib gapda doimo quyidagicha ifodalanadi:

ega + [bo'o] + kesim [i], [ga] yuklamalari qo'shib qo'llanadi.

Sanab o'tilgan to'rtta gap bo'lagi koreys tilida bosh bo'lak hisoblanadi.

Koreys tilida ikkinchi darajali bo'lakka *[kuanhyungo], [busao], [donglibo]* kiradi.

Koreys tilidagi [kuanhyungo] o'zbek tilida aniqlovchi bilan o'xashash. [kuanhyungo] - ot, olmosh, sondan paydo bo'lgan [juo] ega yoki [mo'kjoko] –kesim oldida kelib, ularni aniqlaydigan gap bo'lagi. O'zbek tilidagi sifatdosh shaklidagi sifatlovchi-aniqlovchiga teng keladi. Bu bo'lak [iy] yuklamasi bilan qo'shilib, qaratqich-aniqlovchi bo'lib kelishi ham mumkin.

[busao] – butun gapni ifodalash uchun kesimning belgisini bildiruvchi bo'lakdir. [busao] umuman gapda zarur gap bo'lak emas, faqat gapning mazmunini to'ldirishga xizmat qiladi.

[donglibo] – gapda boshqa bo'laklar bilan aloqaga kirishmagani uchun *mustaqil bo'lak* deyiladi. O'zbek tilidagi undov va modal so'zlarga o'xshaydi[102].

Ko'rinib turibdiki, har ikki tilning gap bo'laklari ma'lum jihatdan

[102] *Li Ci Ren. O'zbek va koreys tillaridagi sifatning intensiv formasi.-Magistrlik dissertasiyasi.-T.,2011.*

bir-biriga o'xshash. Bu o'xshashlik mazkur tillarning uzoq o'tmishda bir bobo til – asos til negizida shakllanganidan dalolat beradi. Har ikki tilning gap bo'laklari o'rtasidagi farqli jihatlar bu tillarning davrlar mobaynidagi mustaqil taraqqiyoti natijasidir.

Savol va topshiriqlar

Quyidagi mavzularni klaster usulida yoriting:

1. Gap bo'laklari.
2. Gapning grammatik asosi.
3. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari.
4. Ega ishtirokiga ko'ra sodda gap turlari.
5. Gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydigan birliklar.

Gap turlari

So'zlar vositasida anglatilgan fikr *gap* deyiladi. Gap nisbiy tugallangan fikrni bildiradi. Gap quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Muomala vositasining eng kichik, asosiy birligidir.
2. Nisbiy tugallangan fikrni ifodalaydi.
3. Grammatik shakllangan (bosh va ikkinchi darajali bo'laklardan iborat) bo'ladi.
4. Tugallangan ohang bilan aytiladi.

Gap quyidagicha tasniflanadi:

I. **Ifoda maqsadiga ko'ra** darak gap, so'roq gap, buyruq gaplar mavjud.

So'roq gaplarda so'roq bildiruvchi affiks-so'roq yuklamasi javob talab qilingan bo'lak tarkibida keladi. Ko'p hollarda so'roq yuklamasi kesim tarkibida bo'ladi: tat. *sin bu kitapnı aldınmı?;* boshq. *hin bıl kitaptı aldınmı?*; *sen bıl kitaptı aldınmı?* "Sen bu kitobni oldingmi?", tat. *sin bu kitapnımı aldın?;* boshq. *hin bıl kitaptımı aldın?* "Sen bu kitobni oldingmi?"; tat. *sinme bu kitapnı aldın?;* boshq. *hinme bıl kitaptı aldın?* "bu kitobni sen oldingmi?" [103]

II. Gap **emotsionallikka (his-tuyg'u ifodalanishiga) ko'ra** his-hayajon (undov) gap va his-hayajonsiz gaplarga ajratiladi. His-hayajonsiz gaplar darak, so'roq, buyruq ohangi bilan aytiladi. His-hayajon gaplar

[103] *Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. Синтаксис.- М. Из-во АН СССР, 1961.-С.9*

oxirida undov belgisi qo'yiladi. His-hayajon gaplar *eh, oh, e, uh, o, uf, obbo, ey* kabi undov so'zlari orqali hosil qilinadi. *Eh, tabiat qanday go'zal!*

III. Gap **modallikka yoki voqelikka munosabatiga ko'ra** tasdiq va inkor mazmunida bo'ladi. Tasdiq va inkor tilda turli (leksik, morfologik, sintaktik, intonatsion) vositalar yordamida ifodalanadi. Gapning barcha turlari tasdiq yoki inkor xarakteriga ega bo'ladi: *Bodom gulladi. – Yomg'ir yog'madi. Qo'shiq aytasizmi? – She'r aytmaysizmi?*

IV. Gaplar **tuzilishiga ko'ra** sodda gaplar va qo'shma gaplarga ajratiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Turkiy tillarning grammatik qurilishini klaster usulida yoriting.
2. Turkiy tillarda predikativ munosabat va uning ifodalanishini izohlang.
3. Sodda gap va uning ko'rinishlari haqida fikr bildiring.
4. Turkiy tillarda gap bo'laklari va ularning gapdagi o'rnini misollar asosida tushuntiring.
5. Turk tilidagi quyidagi ilmiy matnni tarjima qiling. O'zbek tiliga o'xshash va farqli jihatlarni ajrating.

-suk-sük işlevi belli değildir: ***bağır>bağırsuk*** işlek olmayan bir ektir.

Sıfat yapan bir ek olup fiilden dıil yapma eki olarak da karşımıza çıkar. İşlek değildir: **yaş>yaşıl**

-çıl/-çil tekrarlama ve alışkanlık bildiren sıfatlar yapar: ***ig*** "hastalık"> ***igčil*** "hastalıklı", ***yağmur>yağmurçıl*** "yağmurlu"; yüzyıl ve sonrasında yaygın olan bu ek günümüzde işlekliğini yitirmiştir.

-ğıl/-gil renkle ilgili isimler yapan bir ektir: ***baş>başğıl*** "kir saçlı", ***yal*** "yele" >***yalğıl*** "beyaz yeleli". İşlek değildir. Aynı zamanda sayılara getirilen bir ektir.

-sıl/-sil işlevi belli değildir: ***ar>arsıl***. Her iki kelime de kumral anlamına gelmektedir. İşlek olmayan bu ekin *–çıl* ekiyle alakalı olduğu düşünülebilir.

-vm İşlevi belli değildir: ***eder*** "semer"> ***edrim*** *"küçük yastık"*, Fiilden isim yapma eki ve iyelik eki olarak hâlâ sık kullanılan bir ektir.

-dam/-dem '*Benzer*' anlamında sıfatlar türeten bir ektir: ***teŋri>teŋridem*** "tanrı gibi". Bununla birlikte isim türeten bir ek olarak da işlev görür: ***er>erdem***. Nadir olarak görülen bir ektir.

-vn Eski bir çoğluk ekidir. Şu örneklerde karşımıza çıkar: ***er>eren, oğul>oğlan, bod>bodun, öz>özen. Oy*** "oyuk"***>oyun*** örneğinde de bu ekin varlığı düşünülebilir; yüzyılda bu ek çoğul yapma işlevini yitirmiştir.

-çın/-çin – *çıl. - çil* ekinen sonraki şekli olduğu söylenebilir: ***balık>balıkçın*** *"balıkçıl kuşu"*. İşlek olmayan bir ektir.

-dun/-dün (-tun/-tün) –dın çıkma hâlinden farklı, eski bir isim çekim eki olması muhtemeldir: ***öŋ>öŋdün*** *önünde,ön tarafta"*.

-man/-men işlevi belli değildir: ***kö:z*** *"kor"*>***közmen*** "közde pişmiş ekmek". İşlek olmayan bu ek sonraki dönemlerde Farsçadan gelen ve "benzer" anlamı veren ***–mand*** ekinin ikkinci şekli olarak karşımıza çıkar: ***türk>türkmen*** örneğinde bu sonradan ortaya çıkan ek görülür[104].

16-§. SODDA GAP SINTAKSISI

Asosiy tushunchalar: *sodda gap, qo'shma gap, uyushiq bo'lak, gap bo'laklari, gap turlari, grammatik asos.*

Grammatik asoslarning miqdoriga ko'ra gaplar sodda (bir grammatik asosli) va qo'shma (ikki va undan ortiq grammatik asosli) gaplarga bo'linadi. Sodda gap tarkibida bitta kesim bo'ladi. Sodda gap tarkibidagi barcha bo'laklar shu kesim atrofida birlashadi. Qo'shma gap tarkibida esa ikki va undan ortiq (uyushmagan) kesim bo'ladi.

Sodda gaplar eganing ishtirok etish yoki etmasligiga ko'ra ikki xil bo'ladi: egasi mavjud gaplar (*Biz yangi filmni tomosha qildik*) va egasiz gaplar (*Yangi filmni tomosha qildik*). Sodda gaplar ikkinchi darajali bo'laklar ishtirokiga ko'ra: sodda yig'iq gaplar (*Shamol esdi*), sodda yoyiq gaplar (*Erta tongdan mayin shamol esa boshladi*)ga bo'linadi.

Turkiy tillarning ilk taraqqiyot davrida sodda gaplar faol qo'llangan. Sodda gapning asosini kesim tashkil qiladi. Gapning asosiy mazmuni kesimda ifodalanadi. Sodda gaplarning eng qisqa ko'rinishi: ega+kesim modelida bo'ladi: yoq. *Kini saxa* "U - yoqut", *Og'o kıra* "Bola yosh".

Kesim qaysi turkum bilan ifodalanishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: ot-kesim va fe'l-kesim.

Fe'l-kesim fe'l, uning sifatdosh, ravishdosh shakllari orqali ifodalanib, zamon, shaxs-son, mayl shakllariga ega bo'ladi. Fe'l-kesim bilan ifodalangan sodda gaplarda predikativ asos –a,-y+ti//-di (o'zb., no'g'.,

[104] *Isim yapim ekleri / Türkçede Sekizinchi Yüzildan Önce Kullanilan Ekler /Dil araştirmalari . Uluslararasi hakemli dergi.-Ankara, 2007.-S.190.*

qoz., qirg‘., qar., olt. tillarida: *keledi); -ar//-ır (*kelasi zamon shakli: *-alır); -ar//-ır +to‘liqsiz fe’l+shaxs-son* qo‘shimchalari *(kelir edim); -di//-ti* fe’lining qadimgi shakli- t (*keladi-kelet*) bilan ifodalanadi.

Ot-kesimli sodda gaplar qadimgi turkiy tillarda keng tarqalgan. Hozirgi turkiy tillarda murakkab ot-kesim tarkibida bog‘lamalar ishtirok etadi. Bog‘lamalarning qo‘llanishi turkiy tillarda har xil. Ayrim turkiy tillarda bog‘lamalarning turli ko‘rinishlari ishtirok etadi. Ba’zi turkiy tillarda bog‘lama vazifasidagi vositalar uchramaydi. Turkiy tillarning ayrimlarida ot-kesimlar tarkibida shaxsni ko‘rsatuvchi shakllar mavjud bo‘lmaydi: olt. *sler altay ulus* “siz oltoy xalqi”: boshq. *min yaziusi*; “men yozuvchi”; qar. *soŋ aytirlarki, biz karaxčılar* “so‘ng ayturlarki, biz qaroqchilar”; turkm. *Har kimiŋ öz dardi özüne aji* “Har kimning o‘z dardi o‘ziga achchiq”; uyg‘. *Atlari uraq, yolları uzaq* “Otlari ko‘rimsiz, yo‘llari uzoq”; chuv. *Čelxepe epir pıl ta ču, kamal pa par ta čul* “So‘zimiz - asal va yog‘, ichimiz – muz va tosh”.[105]

Chuvash tilida kesimlik shakli va egalik affiksi farqlanmaydi: *Bihigi oğolar but kelliler* “Bizning bolalarimiz keldilar”. Bu jumladagi *-but* – shaxs qo‘shimchasi; *Bihigi qırı oğolorbut.* “Biz kichik bolalarmiz”. Bu o‘rindagi *but* – kesimlik shakli hisoblanadi.

Ba’zi turkiy tillarda ot-kesimdagi bog‘lamalar sifatida kishilik olmoshlari qo‘llanadi. Bu xususiyat qadimgi turkiy tilga xos bo‘lib, hozirgi ayrim turkiy tillarda saqlanib qolgan. Ko‘p hollarda III shaxs kesimlik shakli o‘rnida *ul* kishilik olmoshi qo‘llangan: boshq. *Turğun yaziusı ul* “Turg‘un yozuvchidir”; tat. *Xalık zur ul* “xalq zo‘rdir”; *dertle ul* “dardlidir”.

Tuva tilida *kiji* oti ham kesimlik ko‘rsatkichi sifatida ishlatiladi: olt. *Men altay kiji* “men oltoy kishi”, *ajildaar kiji* “Men ishlayapman”; *čerle indig šıŋını kiji* “U doim shunday qat’iy odam”.

Aksariyat turkiy tillarda III shaxs kesimlik affiksi sifatida *-dir* ishlatiladi.

Turkiy tillarda sodda gap tarkibida gap bo‘laklarining uyushib kelishi ham ko‘p kuzatiladi. Gap tarkibidagi uyushiq bo‘laklar bir xil so‘roqqa javob bo‘ladi, o‘zaro teng bog‘lanadi, bu bo‘laklar birgalikda muayyyan hokim bo‘lakka tobelanadi: turkm. *Jamal, Meret va Durdı tomus praktikasına gitdilar* (Jamol, Marat va Turdi yozgi amaliyotga ketdilar). *Ol auditoriya gelip, seredip, gitdi* (U auditoriyaga kelib, qarab, ketdi).

Uyushiq bo‘laklar o‘zaro sanash ohangi yoki teng bog‘lovchi vositalar

[105] *Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси.-Т.,2009.-Б.235.*

yordamida birikadi: *Oraz va Durdı turkmenče xem rusča bilyerler* (O'roz va Turdi turkmancha va ruschani biladilar). *Xem, bilen* biriktiruv bog'lovchilari, *emma* zidlov bog'lovchisi uyushiq bo'laklarni bog'lashda faol qo'llanadi: turkm. *Ay yalkım salyar, emma gızdırmayar* (Oy yoritadi, ammo istimaydi); *Daga čıkmak kındıb, emma gızıklıdı* (Toqqa chiqish qiyin, ammo qiziqarli edi).

Turkman tilida "emas" ma'nosidagi *del* bog'lovchi vositasi uyushiq bo'laklarni biriktirishda ishtirok etadi: *Bu özbekča del, turkmenče* (Bu o'zbekcha emas, turkmancha). *Ol dilleri del, tarıxı ovranyerdi* (U tillarni emas, tarixni o'rgandi). Bu vosita *deldi* ko'rinishida ham keladi: *Onuŋ ovranyanı diller deldi, tarıxdı* (Uning o'rgangani tillar emas, tarix edi).

Ne-de vositasi ham shu vazifani bajaradi: *Ol ne yazıjıdı, ne-de šaxırdı* (U na yozuvchi, na shoir edi); *Ne Axmet, ne-de Esen doktor bolmadılar* (Na Ahmad, na Eson doktor bo'lmadilar).

Savol va topshiriqlar

Quyidagi mavzularni keys-stadi asosida yoriting:

1. Sodda gapda predikativ munosabat.
2. Yig'iq va yoyiq gaplar.
3. To'liqsiz gaplar. Turkiy maqollarda toliqsizlik holati (ellipsiya)ning uslubiy ahamiyati.
4. Turkiy tillarda so'z gaplar.
5. Turkiy tillarda gap bo'laklari tartibi.

17-§. QO'SHMA GAP SINTAKSISI

Asosiy tushunchalar: *qo'shma gap, bog'langan qo'shma gap, ergashgan qo'shma gap, tobe gap, hokim gap, bog'lovchi vositalar.*

Ikki va undan ortiq sodda gaplarning birikuvidan hosil bo'lgan gap qo'shma gap hisoblanadi. Qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar o'zaro teng yoki tobe munosabatda bo'ladi.

Turkiy tillarda ergash gaplar hokim va tobe qismning grammatik vositalar hamda tobelik munosabatidagi birikuvidan iborat. Ergash gaplar sifatdosh va ravishdosh ishtirokidagi murakkab qurilmalarga shaklan o'xshaydi.

Turkiy tillar tarixiy taraqqiyotining ilk davrlarida kommunikativ vazifani, asosan, sodda gaplar bajargan. Murakkab fikrlarni ifodalashda sintaktik aloqaning eng qadimgi turi bo'lgan bitishuv yo'li bilan

bog'langan konstruksiyalardan foydalanilgan. Turkiy tillarning keyingi taraqqiyot davrlarida sodda gap qo'shilmalarining ikki tipi shakllandi:

1. Turkiy tillar agglyutinativ qurilishiga xos bo'lgan sodda gaplardan birining shaxssiz fe'l shakllari bilan ifodalangan kesimi orqali: tat. *Zaytuna oyine qaytqanda, qartlar kiške ašap utıralar idi* (Zaytuna uyiga qaytganida, qariyalar kechki ovqatga o'tirishgandi).

2. Bog'lovchi va bog'lovchi vazifasidagi so'zlar orqali: q.qalp. *Adasıp ketpesin dep, ot jağıp edik* (Adashib ketmasin deb, o't yoqqan edik).

Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning grammatik munosabati deganda, shu sodda gaplarning bir-biri bilan ma'lum grammatik vositalar (bog'lovchilar, yuklamalar, olmoshlar, ohang) yordamida bog'lanishi tushuniladi. Mazmuniy munosabati deganda esa, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning mazmuniy muvofiqligi nazarda tutiladi.

Qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar qo'shma gap qismlari sanaladi. Bu qismlarni bog'lash uchun xizmat qiladigan vositalar esa bog'lovchi vositalardir. Qo'shma gap qismlari bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi vositalar, ohang yordamida bog'lanadi.

Qismlarining qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanishiga ko'ra qo'shma gaplar ma'lum guruhlarga bo'linadi. O'zbek tilida: 1. *Bog'langan qo'shma gaplar.* 2. *Ergashgan qo'shma gaplar.* 3. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar.

Bulg'or tilida qo'shma gaplar ikkiga ajratiladi: 1) bog'langan – k'ralg'an jıyımdık'; 2) ergashgan qo'shma gaplar – boysung'an jıyımdık'.

Barcha qo'shma gaplar tarkibida ikki yoki undan ortiq sodda gaplarni mujassamlantirishi bilan xarakterlanadi. Bu sodda gaplar o'zaro teng munosabatda bo'lishi yoki qo'shma gapning bir qismi ikkinchisini izohlab kelishi mumkin.

Bog'langan qo'shma gaplar grammatik manbalarda parataksis usulidagi birikuv ham deyiladi: *byoryu uludu, itda anga jawab etdi* (Bo'ri ulidi, it ham unga javob berdi). Bu qo'shma gap tarkibidagi har ikki sodda gapning o'z ega-kesimi bor. Ammo bu gaplar ham shaklan, ham mazmunan o'zaro bog'liq: tashqi jihatdan *-da* bog'lovchi vazifasidagi yuklama yordamida birikkan bo'lsa, mantiqan voqea-hodisaning bir vaqtda, ketma-ket bajarilgani bilan aloqadordir.

Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning hokim-tobelik asosida birikuvi gipotaksis usuli bilan izohlanadi: *Hasan yigıldı, ne yučyun desaŋ*

at čočudu (Hasan yiqildi, nega desang, ot hurkdi). Mazkur qo'shma gapda ikkinchi sodda gap birinchi sodda gapga ham shaklan, ham mazmunan tobelangan.

Ergash gapli qo'shma gaplarda bog'lovchi vositalar. Turkiy tillarda ergash gapli qo'shma gaplar ma'lum miqdordagi bog'lovchi vositalariga ega.

Anısı//anıları// andak kim, antağınnın üčün. Bu affikslar, asosan, eski o'zbek tili davrida ishlatilgan, hozirgi gagauz tilida uchraydi, aniqlovchi, sabab va natija ergash gaplarni bosh gapga bog'laydi: *čečäk yapraqları yergä tüšüptür aniŋdag kim, aqıqlar qan içindä.*

Ani bog'lovchisi faqat gagauz tilida mavjud bo'lib, aniqlovchi, to'ldiruvchi, kesim va sabab ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gapni bosh gapga bog'laydi: *Qız öla gözalmiš, anı onun gibi hič butun dunneda yokmuš* (Qiz shunday go'zal ediki, uning kabi butun dunyoda yoq emish).

Hozirgi turkiy tillarda *anın üčün, küyä (guyo), yeger/eger//eker//ker// agär//gär,ki// kim, ne, neki, čunki, to, toki, ne geder* bog'lovchilari, *qayda, qanda, qanday, qanča, qačan, qaydan, qayda kim, qaysi, šundıy, šül, šol jer* nisbiy so'zlari, bog'lovchi vazifasidagi ***deye//diye//teyu, dep//deyib//teb*** vositalari ergash gapli qo'shma gaplarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Čunkı bog'lovchisi tuva tilida *čuge* shaklida ishlatiladi: *Kelbes men, čuge deerge čayim čok* (Kelmasman, chunki vaqtim yo'q).

Yoqut tilida *erzere* yordamchisi bog'lovchi vazifasida keladi: *Oččo oğolor doxx erzeregin saappaktın dagaŋı!* (Sen shuncha bolalaring bo'la turib, hatto uyalmaysan ham!)

Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni biriktirishda ayrim fe'l shakllari ham faol ishtirok etadi. Bulardan eng ko'p uchraydigani *-sa* shart maylidagi fe'l shakli bo'lib, ergashgan qo'shma gaplarning, deyarli, barcha turlarini bog'lab keladi: q.-qalp. *Egerde sen aqıllı bolsaŋ, mene seniŋ tilegeniŋdi orınlayman* (Agar sen aqlli bo'lsang, men sening fikringni ma'qullayman); turkm. *Eger atlı vagtında gelen bolsadı, men išimä gije galmazdım* (Agar poyezd vaqtida kelganida edi, men ishga kech qolmagan bo'lar edim). *Eger xorjuniŋ tapılmadık bolsa, sen neme ederdiŋ*? (Agar xurjuning topilmaganda, nima qilar eding?).

-gač ravishdosh shakli ham qo'shma gap qismlarini bog'laydi: tat. *Enise ulgeš botanley yetim qalğan Sultan kuz kurmegen yaqlarğa kitep, bexet ezlep yorde* (Onasi o'lgach, butunlay yetim qolgan Sulton ko'z ko'rmagan yerlarga baxt izlab ketdi).

Kelishik qo'shimchasini olgan sifatdosh shakllari shart va payt mazmunini ifodalashga xizmat qiladi: *Sesler kesilende ise hamı fikre ketmišde* (Gap tugaganda, hamma xayolga cho'mgan edi).

Turkiy tillardagi bog'lovchi vositalar o'z va o'zlashgan qatlamga oid. Fors-tojik tilidan o'zlashgan bog'lovchilar, ayniqsa, faol qo'llanadi. Ayrim turkiy tillarda rus tilidan o'zlashgan bog'lovchilar ham ishlatiladi:

Так что: tat. *Alarnıŋ har qaysı unaltını uzgan inde, tak čto ustav buyenča, kızlardan minimum tieš.*

Ergash gapli qo'shma gap turkiy tillarning ayrimlarida hozirga qadar muammoli jihatlarini namoyon etib keladi. Ergash gapli qo'shma gap masalasi turkologiyada birinchilardan bo'lib A.Kazembek tomonidan o'rtaga tashlandi. Keyinchalik, V.Gordlevskiy, A.K. Borovkov, J.Validi ishlarida davom ettirildi.

Ergashgan qo'shma gaplar quyidagi mazmunni ifodalaydi:

1. Obyekt munosabatini bildiradi: tat. *Uzuŋ beleseŋ, at kebek ešledem min* (O'zing bilasan, ot kabi ishladim men).

2. Aniqlovchi munosabatli ergashgan qo'shma gap. ozarb. *Arvad var, yev tikər, arvad var, yev yıxar* (Ayol bor, uy qurar, ayol bor, uy buzar).

3. Payt munosabati ifodalanadi: tat. *Kuyaš urman artna yešerenda, min avlğa kildem* (Quyosh o'rmon ortiga yashiringanda, men qishloqqa keldim).

4. Sabab-natija munosabati: qoz. *Qonanbay bul jerene daulasqan joq, tüsendi* (Qo'nanboy bu masala bo'yicha bahslashmadi, tushundi).

5. Shart munosabati: no'g'. *Aytarman – mennen keter* (Aytsam, mendan ketadi).

Uch va undan ortiq sodda gaplardan tuzilgan qo'shma gaplar murakkab qo'shma gaplarni tashkil qiladi.

Turkiy tillarda bog'lovchisiz qo'shma gaplar ham kuzatiladi: turkm. *Az ašım –gavgasiz bašım* (Oz oshim – g'avg'osiz boshim). *Suv akar, daš galar* (Suv oqar, tosh qolar). *Gar yagdımı, tovšan čıkyar* (Qor yog'dimi, quyon chiqar). *Dašda yagıš yagyardı, yıldırım čakyardı, gok gurlemesi ešidilyerdi* (Dashtda yomg'ir yog'ardi, chaqmoq chaqardi, momaqaldiroqning gurillashi eshitilardi).

Turkiy tillarning boshqa tillardan farq qiladigan tomoni shundaki, bu tillarda qo'shma gapning ergashgan qo'shma gap tipidan tashqari funksional va struktur jihatdan boshqa til oilalaridagi ergash gapga teng keluvchi ravishdosh, sifatdosh qurilmalari keng tarqalgan.

Tukriy tillarda shunday gaplar borki, ular shaklan qo'shma gaplarga o'xshaydi. Bular uyushiq bo'lakli va sifatdosh, ravishdosh qurilmali gaplardir.

Sifatdosh va ravishdosh qurilmali gaplarni transforma termini bilan ifodalash hollari ham mavjud. Bu transformalar tarkibidagi birikmalar zanjiri turg'un holda bo'lgani uchun ham bog'li transformalar deb yuritiladi.

Turkiy tillardagi bog'li transformalarning quyidagi ko'rinishlari bor.

-ğan sifatdosh shakli orqali shakllangan konstruksiyalar:

1. Aniqlovchi xarakteridagi qurilmalar: *Ališer yešegen yıda tantanalı ruh hukm surardı* (Alisher yashagan uyda tantanali ruh hukm surardi); tat. *bez soylešken keše* "biz gaplashgan kishi".

2. To'ldiruvchi ko'rinishidagi birikmalar: olt. *Budaqta koruk oturğanın kördim* (Butoqda burunduq o'tirganini ko'rdim).

-dık sifatdoshi orqali shakllangan konstruksiyalar. O'g'uz guruhi tillarida *-dıq* shaklli sifatdosh qurilmalari keng tarqalgan: *Oğuz ili kočin čekib yurumezdik yol barmu oyın tutub olturmadıq yurt barmu?* (O'g'uz eli ko'chin orqalab yurmagan yo'l bormi, chodir tikib o'tirmagan yurt bormi?)

-dık shaklli sifatdosh qurilmasi payt mazmunini ham ifodalaydi: turk. *Tren geldikte biz onu gördük* (Poezd kelganida biz uni ko'rdik).

-mıš sifatdoshi orqali shakllangan konstruksiyalar. O'g'uz guruhi tillarida *-ğan,- dıq* shakllari bilan bir xil grammatik ma'no ifodalovchi *-mıš* shaklli sifatdosh qurilmalari ham uchraydi: ozarb. *Bayram ilan vurmuş adamlar kimi yerinden sıčradı* (Bayram ilon chaqqan odam kabi joyidan sakradi). Bu shakl yoqut tilida o'ziga xos tarzda ifodalanadi: *Soduoččuyus olbuttorin kepse:te* (Soduochchuyus hayvon ularniki ekanligini aytdi).

-mıš affiksi orqali hosil qilingan sifatdoshlar qadimgi turkiy tillarda ham mavjud bo'lgan: tatar va o'zbek tillaridagi *turmış*, boshqird tilidagi *yazmış* so'zlari *mış* affiksi yordamida hosil qilingan.

-ačaq sifatdoshi orqali shakllangan konstruksiyalar. ***-ačaq*** murakkab affiksi turkiy tillarda keyingi davrlarda shakllangan. Turkiy tillarning dastlabki taraqqiyoti davrida uchramaydi. *-ačaq* shaklli sifatdosh qurilmalari ham aniqlovchi vazifasida keladi: tat. *beznең kaharmannar barašaq šehyer yıraq tügel ide inde* (Bizning qahramonlar borajak shahar uzoq emas); turkm. *Onsoŋ ol öz yetčegini özi biler* (So'ng u o'zi nima qilajagini

biladi). Ozarbayjon tilida bu shaklga sinonim tarzda *-ma* qo'shimchasi ishlatiladi: *Onlar Solmazın yox olmasını teleb yedirler* (Ular Solmazning yo'q bo'lishini talab etmoqdalar).

Savol va topshiriqlar

1. Quyidagi matnlarni o`qing. Turkiy tillar morfologiyasiga doir xususiyatlarni tahlil qiling.

2. Quyida keltirilgan matnlarda aks etgan turkiy tillar morfologiyasiga doir xususiyatlarni tahlil qiling.

3. Turkiy tillardan namuna sifatida keltirilgan matnlardagi grammatik shakllarni tasniflang.

4. Quyida berilgan matnlarni leksik-semantik jihatdan tahlil qiling.

5. Quyida keltirilgan matnlar asosida turkiy tillarga xos umumiy va farqli jihatlarni iuzohlang.

Turkman tilida

Yamana sabır eyle,
Yahşıya şükür eyle,
Yüreğinde olmayan şeyi dile getirme,
Yahşı söz bulamazsan susara kotur.
****

Nuh Peygamber, nazar eyle bir nefes.
Ömrünü beyhude geçirdim-abes,
Zekeriya Peygamber. ya Hızır, İlyas.
Kovus,Kıyas, Musa, İmran, şifaber!
*****

Evvel Ademindi dünya,
Bu dünyayıe kipgeçti...
Öz devrinde Nuh peygamber,
Neccarişin tutup geçti.
*****

...Cennet içre dirigiren.
İdris köynek dikip geçti.
...Yunus balığın karnında,
"Ente subhan" okup geıti. (Mahtumkulu)

Yoqut tilida

Ұшұр тауларының орманды алқаптары мен сай-салаларыда аң аулап,бұғы өсіріп өмір сүретін Эвенкі елінде Седюк деген атақты аңши болды .Ол көз жазбайтың ізшіл. құралайды көзінен ататын мерген, аюмен алысудан тайынбайтын жаужүрек адам еді.

Амур мен жақұттың көптеген көпестері мен алыпсатарлары Седюк қартты жақсы білетіп. Өйткені одан қыруар ақтиын терілерін сутеген алып, оған өздерінің темекі, шай, щыт, бөз сияқты бұйимдарын қымбатқа сататын.

Седюк ақсақал соңғи үш жылдан бері аңды жеке ауламай,жанына көңілдес бір адамының Уйбанча деген баласын серік қып алғанды. Бала жігіт күткен үмітін ақтап,елгезек, сенімді серігі боп алды. Суыққа шыдамды, тайга ішіндегі ұзақ сапарға төзімді, әрі мерген болған соң қарт оны туған баласындай жақсы көріп, аялайтын еді. **(Н. Якутский "Алтын жылға")**

Gagauz tilida

Bir adamin kumisi çingenäymiş. Komuşu yaşarmişlar. Bir uvşam kumi duyêr, ani sadizlarda kurmalari firindan zikarmişlar. Deer karısına:

- Bän seni şindi koolaycam. Sän da dooru saadıçların sobasının aardına kaçasin. Bir gırgıltı bir patırdı: çingenä ardina. Çingenäyka yollanêr dooru saadıclarin içerinä

-Tutarsam öldıırecdm! –baararmış çingenä.

- Dur ba, yapma! Olmaz!- durgudêr saadıcı. - Te buyur sofraya,otur, uslan!

Sofranin ortasında bir trpsi kırma varmış .Çingenä oturêr sofraya, karşısina da saadıcı oturêr. Çingenä hızlı iyer kendi tarafından kırmaları da, karısına bakarak deer: - Seni tutaydım kafanı te bölä kıvradacêydım! –bu laflarlan tepsinin dolu tarafını kendisinä çevirer.

- Brak kıvratma! –deer saadıcı, tepsii geeri çevireräk.

Qirg'iz tilida

Шұбырып барады ...Шұбырып барады...Бәрі де қалаға қарай кетіп барады...Жаяуы да... Көліктісі де... Топ-топ бодып жол үстінде отырған аш қарғалар қарқылдап, дүркіреп ұшып кетеді... Олардың ұшқан жерінен көтерілген, күл секілді сұрғылт шаң баяу ғана қалықтап келіп қайта қонады. Айнала төңірек құлаққа ұрған

танадай тағы да жым-жырт бола қалды. Шаңытып мұнарланған кең ,ыстық аспаннан жалын лебі теуіп тұр. Қапшық аркалаған шаруалар жаңа сары жөке тиеген арбамен ақатарласа жүріп келе жатты. Жөкенің устіндесында басында ақ киіз қалпағы бір арбакеш отыр. Оның көйлегінің омырауы ағытулы, тамыры білеуленген мойнынан тер солғалап ағып келеді.

-Қай ауылдікісіңдер?- деп, жөн сұрады ол жаяулардан.

-Жоғарғы Ашты аулынікіміз,- деп жауап берді жаяуларидың бірі.- Ал өзіңіз қай ауылдікісіз?

-Ушелінікіміз... Әңгіме сонымен тоқтап қалды. Арбакештің арт жағында төрт-бес жасар бір бала отыр. Ол ыстықтан әбден қалжыраған. Маужыратып қалғыта бастаған ұйқыдан сергігісі келгендей, ол көзін бақырайтып аша туседі, бірақ ауырлаған кабағы ырыққа көнбей, көзі жаймен ғана жұмылып, еріні ашылып, кішкентай ак тістері көрінеді.(**Әхмет Фәйзи. „Toqay" romanidan)**

Ozarbayjon *tilida*

Мән кәләнда сәнәдлари кәтирәрәм, сен кәләнда сәнәдлари кәтирмишдин, о кәләндә сәнәдләри кетирәчәкдир.

**** ****

Фаридун шананы һәлә дөйулмәмиш тахыл дәрзләринә сөйкәйиб, суфрәйә яхын кәлди. Кулназ да кәлиб, анасынын янында әйләшди. Онлар чөрәйи тикә-тикә кәсәрәк, мис касадакы пендирдән онун арасына гоюр ва ишtаһа илә ейирдиләр.

**** ****

Намынын үрәйи дәрддән, гәзәбдән партламаг дәрәчәсинә кәлирди. МүбаширМәммәдмәһсулун бөлунмәси һаггында әрбабын ени шәртини кәндә кәтирдийи саатдан көзләриндәки үмид сөнмуш, үзләриндәки шадлығы бир гүссә вә әзеблы бир фикир әвәз эмишди... Бүтүн күнү һәр тәрәфә од әләйән күнәш тәзәчә батмышды... Ики ай бундан габаг кәндә еничә кәлдийи заман о гәдәр дә аһәмиййәт вермәдийи, лакин һарада исе дахилиндә кизләниб галан бир һадисә хеялында чанланды... Бойүйүб екә киши олуб... Бу сөзлари эшидән ушаг даһа чиддиййәтлә ишләйир вә атасынын ону бөйүк еринә гоймасындан севинирди... Муса киши һейрәтлә чамаата бахды...Фиридуну тәәччүблә бахдығыны корәрәк, о анлатмаға башлады...Йочсуллуг, эһтияч вә зулм онун нәсиби

олмушдур. Шəһərдə биринчи козунə дəйəн эһтияч вə касыблыг ла зəнкинлик вə зинət сəһнəларинин һəр аддымда гарщылашмасы, үзүзə дурмасы иди...Лакин бу үрəйə чүрүк тəсəввурлəр, əгидəлəр ве янлыш тəрбийə элə дамга басмышдыыр ки, онлары силмək үчүн бир əср лазымдыр...Сəһв этмирəмсə, мəн сизинлə бу барəдə бир дə сөһбəт этмишдим...Азəрбайчана кəлəн вə чоллардан, чохлу кəндлəрдən кечəн даш йолун гырағындакы чайханада гейри-ади бир чанлылыг вардыр. (М.Ибраһимов)

Turk tilida

Bay Pürenün oğlu Bamsı Beyrek hikəyesinde yeralan bir diğer tutsaklık ise Beyrekhen üztutsak dışmeden önce yaşanır. Bu tutsaklıkkı sas ürelidir; burada tutsak alınan kışı bezirgənlardan birinin kardeşidir. On altı yıldır dışar daolan bezirgânlar, Oğuz yurduna dönerken kâfirlerin saldırısına uğramış, izlerinden biri tutsak dışmıştir. Bıtın mallarını kaybeden bezirgânlar, yardım istey ecekleri birini ararken Beyrekle karşılaşmış ve ondan yardım istemişlerdir. Beyrek, kəfirlerle savaşmış ve bezirgânların malını kurtarmıştır. Metinde tutsak olan kişinin kurtarıldığına dair bir bilgi olmasa da olaylarına kışından tutsağın Beyr ek tarafından kurtarılmış olduğunu dışınmemiz mümkündür.Gerзi bura daki tutsaklık, hikâyenin ana örgüsünü oluşturmaz; ancak burada Beyrek'in kahramanlığının çoğaltıldığı bir durum söz konusu olduğu izindikka tedeğerdir. Yukarı daei aldığımız metinlerde "tutsaklıktan kurtarmamotifi" bey oğullarının kahramanlıklarının anlatımıiçin birara zolarak kullanılmıştır. Anlatılarda oğulun babasını, kardeşiniya da kendisini tutsaklıktan kurtarmasının metinlerinan açatısını oluşturması, bukana atimizi destekler.

Salur Kazan'ın Evinin yağmalandığı ve Kazan Beyoğlu Uruzbeyin tutsak olduğu boylardai sebabanın oğul ututsaklıktan kurtardığı görülür. Ancak, bu hikəyeler dedik katizek enönemli bir husus, oğulların tutsaklık hallerinde bile yiğitlik göstermeleridir. (**"Dede Korkut" hikəyeleri)**

Qozoq tilida

Ха, менің әміршілерім, сонымен әңгімемді ақырындап бастай берейін. Бұл өмірде байлардың палаудан жүрегі айнығанда, кедей сорлылардың сусын да тауып іше алмайтын кездері болады ғой. Сіздерге не туралы айтсам екен?

Бірде, өлген адамдардың бата оқырында болып, тегін ішіп-жемекші болған молла, Жарраннан шығып Тюрханға келе жатады. Сол сапарында оның мінген есегі сазға батып қалғанда, мен жарға жасырынып тұрған едім.

Әзірге ол сол жерде қала тұрсын, мен сіздерге басқа бір әңгіме айтайын.

Өткен заманда Махмуд деген бір саудагер болыпты.

Өзінің ұлы болмапты деседі. Бірақ көзінің жанарындай, жаңы сүйген жалғыз қызы бар екен.

Әр сұлудың өзінің бір кемшілігі болмай ма? Бірақ Махмудтың Нигар-ханым деген қызының сұлулығы сондай, бір көрген адам есінен танатын болса керек. (Асқар Лекеров. Местан)

*** ***

Осы жұрт Ескендірді біле ме екен?
Македония шаһары оған мекен.
Филипп патша баласы, ер көңілді,
Мақтан сүйгіш, қызғаншақ адам екен.
Филипп өлді. Ескендір патша болды,
Жасы әрең жиырма бірге толды.
Өз жұрты аз көрініп, көршілерге
Көз алартып қарады оңды-солды.
Сұмдықпен әскер жиып қаруланды,
Жақын жерге жау алып тура аттанды.
Көп елді күтінбеген қырды, жойды,
Ханды өлтіріп, қаласын тартып алды.
Жазасыз жақын елдің бәрін шапты,
Дарияның суындай қандар ақты.
Шапқан жердің бәрін де бодан қылып,
Өкіметпен қолына тартып апты.
Ескендір елде алмаған хан қоймады,
Алған сайын көңілі бір тоймады.
Араны барған сайын қатты ашылып,
Жердің жүзін алуға ой ойлады. (**Абай. "Ескендір"**)

Qrim-tatar tilida

«...Гаделлек. Гүзәл холыкларның ин гүзәле – гаделлектер. Дөньяви вә ахирәткә бәйле эшләрдә гаделлек белән булу – һәркем өчен тиеш булса да, тәрбия белән мәшгуль булганлыктан, гакылларны вә рухларны тәрбияләүдә олы бер катнашы булганлыктан, мөгаллимнәр өчен тагын да артыграк тиеш булса кирәк! Гаделлек ияләре һәр максатның юлынча барырлар вә һичкемгә таш атмаган хәлдә теләкләренә дә иркен вә тугры барып ирешерләр...»

Мәшһүр мәгърифәтчебез бала тәрбияләүне бишектән башларга кирәк дип саный һәм шуна күрә ана булган хатын-кызны тәрбияләү мәсьәләләренә бик күп игътибар бирә. Ул «бала тәрбияләү – ананың гаиләдәге генә түгел, ә бөтен җәмгыять алдындагы изге һәм җаваплы бурычы булып тора», дип саный. Мәктәпкәчә яшьтәге һәм мәктәп яшендәге балаларны тәрбияләү буенча биргән киңәшләрендә ул балаларга фәкать дөресен сөйләргә, аларны һәртөрле женнәр, пәриләр, өрәкләр һәм башка шундый нәрсәләр турындагы уйдырмалар белән куркытмаска кирәк дип әйтә. Аныңча, ана кеше үзенең балалары белән тыныч, тигез тавыш белән сөйләшергә, аларны кызыксындырган сорауларга сабыр гына жавап бирергә тиеш. Тән җәзалары һәм башка төрле җәзалар кулланылырга тиеш түгелләр. Ана кеше үзенең балаларын кечкенә чактан ук үзләренең кылган гамәлләре өчен жавап бирергә өйрәтергә тиеш. (***Ризаэддин бине Фәхреддин әсәрләре)***.

Boshqird tilida

Борон-борон заманда, Урал тауы ла, Ағизел дә әле юк сакта, шыр урман эсендә йәшәгән, ти, бер бабай менән бер әбей. Оҙак ғүмер иткәс, әбей үлеп киткән, ә бабай береһе Шүлгән, икенсеһе Урал исемле ике үҫмер улы менән тороп ҡалған, ти. Бабай һунарға йөрөгән, ә Шүлгән менән Урал өйҙә ҡалыр булған. Айыу тиһәң – айыуҙы, бүре тиһәң – бүрене, арыҫлан тиһәң – арыҫланды тере көйө тотон алып ҡайтыуҙы бабай уйынға ла күрмәгән, ти, – ул шулай көслө булған. Ни өсөн тиһәң, бабай һунарға гел генә бер ҡалаҡ йыртҡыс йәнлек ҡаны эсеп китә икән. Шул ҡанды эсеп алдымы – уға ана шул йыртҡыстың көсө өҫтәлер булған. Йола буйынса, йыртҡыс кейекте үҙҡулы менән үлтергән кешегә генә уның ҡанын татып ҡарарға

яраған, Шуның өсөн бабай уҙенең улдарына: «Бәләкәйһегеҙ әле, кейек ауларға йәшегеҙ етмәгән, минән күрмәксе тирһыктағы ҡанға ауыҙығыҙҙы тейҙерәһе булмағыҙ тағы – һәләк булырһығыҙ»,– тип гел генә киҫәтә торған булған. ("Урал батыр")

Qoraqalpoq tilida

Qi's ku'nlerinin' biri yedi. Jerdi qali'n' qar qaplag'an. Gu'ljamal menen Aysa'nem qardi' g'ashi'rlati'p, woqi'wdan qayti'p kiyati'r. Wolar jol boyi' mektepte bolg'an qi'zi'qli' waqi'yalardi' ayti'si'p kiyati'r. Birwaqi'tta wolardi'n' aldi'nan qon'si'si' Murat ag'a shi'qti'. Iyninde u'lken mi'lti'g'i', qoli'nda kishkeneg'ana go'jek bar.Yeki qi'z woni'n' menen sa'lemlesti. Aysa'nemnin' go'jekke ko'zi tu'sti de:

-Murat ag'a, an' awlap kiyati'rsi'zba? Bu'gin bizler ta'biyat pa'ninen tiri jani'zatlarg'a zi'yan bermew kerekligi haqqi'nda wo'ttik. Sizler balawaqti'n'i'zda bunday tema wo'tpedin'iz be? Bizlerge mug'allim haywanat larg'a jamanli'q yetken adamni'n' wo'zine qayti'p baradi' dep aytti',-dedi.

-Siz go'jekti qalay atti'n'i'z? Wog'an jani'n'i'z ashi'madi'ma?,-dep Gu'ljamalda so'zge qosi'ldi'. Wolardi'n' ga'plerine Murat ag'a ku'lip:

-Yey qi'zlari'm-ay, sada si'zlar-aw. Yele balasi'z-da'.Tu'sin bey siz hesh na'rseni,-dedi de joli'n dawam yetti.

Gu'ljamal menen Aysa'nem qon'si'si'ni'n' izinen uzaq waqi't qarap turdi'.Go'jekke rehimi keldi.

Yerten'ine Murat ag'a woljasi'nan wonshakewli toli'n'qi'ramay u'yine keldi.

Hayali'da woni' qapali' pishin deku' tipaldi. Kishkene qi'zi'ni'n' mazasi' joq yekenligin aytti'.("Da'murat ag'a ka'rin nege tasladi'?" . Gu'rrin')

O'quv loyihasi

Mavzu:	**Turkiy tillar sintaksisi**
Ishtirokchilar:	3 talabadan iborat guruh
Ta'limning maqsadi:	turkiy tillar sintaksisi, birikma va gap turlari, turkiy izofa, predikatsiya, sodda gap, qo'shma gap, gaplarni tasniflash mezonlari mohiyatini o'zlashtirish.

Rejalashtirilayotgan o‘quv natijalari:	hozirgi turkiy tillarning sintaktik xususiyatlarini umumlashtirish, so‘z birikmasi, gap tasnifidagi muhim jihatlarni belgilash, predikativlikning gapni tuzilishiga ko‘ra tasniflashdagi o‘rnini yoritish.
Loyihalashtirish faoliyati bo‘yicha talaba quyidagi amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladi	– turkiy tillar sintaksisining asosiy masalalarini umumlashtirish; – turkiy tillarning o‘ziga xos sintaktik xususiyatlarini ajratish; – *bosh bo‘laklar, ikkinchi darajasi bo‘laklar, gapning markazi* tushunchalarini misollar asosida yoritish; – turkiy tillar sintaktik tizimini loyiha taqdimoti asosida yoritish.
Talabalar loyihani muvaffaqiyatli bajarishlari uchun lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar quyidagilardan iborat:	turkiy tillarning sintaktik tizimi; so‘z birikmasi, gap, gap bo‘laklari, uyushiq, ajratilgan bo‘laklar, qadimgi turkiy tilga xos sintaktik munosabat shakllarining hozirgi turkiy tillarda saqlanib qolish darajasini tahlil qilish.
Talaba avval o‘zlashtirilgan quyidagi bilimlarni mustahkamlashi kerak:	teng bog‘lanish, tobe bog‘lanish, so‘z birikmasi, boshqaruv, moslashuv, bitishuv usullari, izofa, gap, sodda gap, qo‘shma gapni izohlash.

Turkiy xalqlar yozuvi tarixi

Piktografik, ideografik, ieroglifik yozuvlardan keyin yozuvning yangi bosqichi *–fonografik* (yun. «phane» – *tovush,* «graphe» – *yozaman)* yozuvga – avvalo, ayrim bo‘g‘inlarni, keyinroq ayrim tovushlarni biror belgi bilan ifodalash usuliga o‘tildi. Fonetik yozuvning kelib chiqishi qadimgi Finikiya yozuvi bilan bog‘liq.

Xalqlar fonetik yozuvning turli – lotin, arman, gruzin, slavyan, arab yozuvlarini yaratganlar. Qadimgi yozuvlar tosh, suyak, yog‘och, qamish kabi qattiq jismlarga, keyinchalik pergament va qog‘ozga yozilgan. Yozuvlar o‘ngdan chapga, chapdan o‘ngga yoki yuqoridan pastga qarab o‘qilishi mumkin bo‘lgan.

O‘rta Osiyoda eng qadimgi davrlarda yashagan qabilalar, ularning madaniy hayoti, tili, yozuvi haqidagi ma’lumotlar grek, eron, xitoy tarixchilari asarlari, toshlarda bitilgan matnlar orqali yetib kelgan.

Turk xoqonligining Buyuk ipak yo'li ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari markazida joylashgani bir tomondan, turkiy xalqlarni ilg'or madaniy an'analar bilan tanishtirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, turli xalqlarning madaniy jihatdan yaqinlashuvida asosiy vosita sifatida xizmat qildi. Ana shu madaniyat an'analarining muhim qirrasi Markaziy Osiyo xalqlarining yozuv madaniyatidir. Markaziy Osiyo hududlari qadimdan jahon yozuv madaniyati tarixida o'ziga xos ma'rifiy markaz sifatida o'rin tutib kelgan. Markaziy Osiyo xalqlari Uzoq Sharqning ieroglif yozuvlari izidan bormay, yozuvning yuksak bosqichiga xos alifboli, ya'ni har bir shartli harf belgisi inson nutqining ayrim olingan tovush birligini ifoda etadigan fonetik yozuv usulini tanladilar. Fonetik yozuv har qanday yozuvning ibtidoiy turlaridan taraqqiyot mahsuli sifatida ajralib turadi. Fonetik yozuv yo'lini tanlash ajdodlarimizning inson nutqini ilmiy va amaliy jihatdan chuqur tushunganliklaridan, yuksak darajadagi filologik bilimlaridan dalolat beradi.

Klinopis, misr va semmit yozuvlari qadimgi Yaqin Sharqning dastlabki, asosiy yozuvlari sifatida qaralgan. Eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda O'rta Osiyoning Eronga yaqin hududlarida rasmiy yozuv sifatida klinopis, ya'ni mix yozuvi ishlatilgan.

Semmit yozuvi nafaqat hind yozuviga, Markaziy Osiyoda keng yoyilgan oromiy yozuviga ham asos bo'ldi. Oromiy yozuvidan, asosan, forslarning idora hujjatlarini yozishda foydalanilgan. Ayrim joylarda xalqaro diplomatik munosabatlarda oromiy yozuvi qo'llangan. Oromiy yozuvi klinopisdan sodda va qulayroq edi.

Turli yodgorliklarda qayd etilishicha, eramizdan oldingi III-I asrlarda oromiy yozuvi bilan bir qatorda yunon va karoshta yozuvlari ham ishlatilgan.

XVII asr oxirlari va XVIII asr boshlarida Sharqiy Turkiston qazilmalari orqali bir qator turli (diniy-mistik) yo'nalishdagi yozuv namunalari topilgan. Ayrim ro'zg'or buyumlarida toxar yozuvi, bu yozuv asosida shakllangan pahlaviy yozuviga oid namunalar ma'lum bo'ldi.

1956-yilda mo'g'ul arxeologi Dorj Suren Mo'g'ulistondagi Arxangay aymog'iga qarashli Bug'ut qishlog'i yaqinida katta toshlavhaga bitilgan qabr bitigini topdi. Mo'g'ul olimi B.Rinchen bu lavhadagi yozuvni uyg'urcha, deb taxmin qildi. Lekin Dorj Suren yuborgan fotonusxalar, keyinchalik S.Klyashtorniy tomonidan ko'chirilgan nusxalar asosida V.A.Livshis bug'ut yozuvining sug'dcha ekanligini asosladi.

Sug'dlar va turklar o'rtasidagi aloqalar VI asrdan boshlangan, deyiladi. Lekin Bug'ut bitigtoshi turk-sug'd munosabatlari yanada qadimdan boshlanganidan dalolatdir. Sug'd yozuvi namunalari, asosan, hujjatlar matnida saqlanib qolgan.

Eramizning II asridan boshlab sug'd yozuvi qo'llangan. Bu yozuv taxminan VI asrgacha davom etdi.

II asr oxiri III asr boshlarida Xorazm shohi xorazm yozuvida pullar chiqargan. Xorazm shohi tamg'asida xorazm yozuvidagi bitiglar aks etgan. Xorazm yozuvi O'rta Osiyoda ancha keng tarqalgan bo'lib, oromiy yozuviga yaqin edi.

Hozirgi fan qadimgi turkiy dunyoda yozuv tarixini Issiq qo'rg'onidan topilgan kumush idish sirtiga o'yib tushirilgan bitigdan boshlamoqda. Bu noyob buyum 1974- yilda Almati yaqinida qazib olingan qadimgi sak zodagoni qabridan topilgan edi. "Issiq yozuv" nomini olgan bu xat turining sopol parchalarida qolgan namunalari O'zbekiston janubi (Surxondaryo viloyati)dagi bir qator arxeologik yodgorliklardan ham topildi. 1950- yillarda Afg'onistonda ish olib borgan fransuz-afg'on arxeologik ekspeditsiyasi ham qoyalar sirtidagi grafik shakllari "issiq yozuv" bilan bir xil belgilarga duch kelgan. Bu shuni ko'rsatadiki, "issiq yozuv" nomli qadimgi turkiy alifbo miloddan avvalgi IV - III asrlardan boshlab milodiy II - III asrlarga qadar ulkan hududlarda tarqalgan. "Issiq yozuv" milodiy VI - VII asarlarda yuzaga kelgan qadimgi turkiy (o'rxun-enasoy) alifbosiga asos bo'lgan, deyish mumkin.

"Issiq yozuv" va unga o'xshash O'zbekistonning janubidan va Afg'onistonning Dashti Novur degan joyidan topilgan yozuvlar ilmiy jihatdan yetarlicha talqin qilingan emas.

V - VIII asrlar davomida turkiy xalqlar o'rxun-enasoy yozuvidan keng foydalanganlar.

Eng qadimgi yozuvlarni, shu yozuvlarda bitilgan eski obidalarni o'rganish, asosan, 1982- yilda O'zFA Qo'lyozmalar instituti xodimlari tomonidan boshlangan edi. Birinchi navbatda o'tmishda keng yoyilgan sug'd. ko'k turk (o'rxun-enasoy- run), eski uyg'ur yozuvlari va ularda bitilgan yodgorliklar manbashunoslik va filologik aspektda o'rganila boshladi.

Yozuv o'zgarishi turkiy tillar taraqqiyoti davomida ham kuzatilgan jarayon hisoblanadi. Turkiy tillar tarixida yozuvning o'zgarishi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan belgilanadi.

Har bir tilning bir necha asrlar davomida shakllangan fonetik tizimi qator til xususiyatlarini o'zida namoyon etadi. Alfavit, grafik belgilar tizimi, yozuv an'anasi esa ekstralingvistik faktorlar ta'sirida sezilarli darajada o'zgaradi. Turkiy tillar alfaviti keyingi 75–80 yilning o'zidayoq uch marta o'zgarishga uchradi.

XX yillar boshlarida turkiy tillarda yozuv masalasiga alohida e'tibor qaratildi. 1926-yilda Bokuda chaqirilgan turkologlarning 1-qurultoyida turkiy xalqlar yozuvini arab grafikasidan yangi alifboga o'tkazish masalasi ko'rildi. Yangi yozuvdagi imlo qoidalari ishlab chiqildi.

Turkiy tillarda yozuv o'zgarishi, ta'kidlanganidek, ijtimoiy-siyosiy jarayon bilan bog'liq holda amalga oshirildi. Bir qator turkiy tillarda qadimgi yozuv ko'rinishidan arab yozuviga o'tildi. Jumladan, o'zbeklar kabi tatarlar ham arab alifbosidan foydalanganlar.

XX asrning 20-yillarida arab alifbosi isloh qilinib, tatar tili uchun xos bo'lmagan harflar chiqarib tashlandi, kerakli harflar qo'shildi; unlilar uchun maxsus harflardan foydalanildi. 20-yillar oxirida lotin alifbosiga o'tildi, 1938- yilda rus (kirill) alifbosi asosidagi tatar yozuvi joriy etildi. Hozirgi tatar tili alifbosida 39 ta harf mavjud. Qrim-tatar yozuvi bir necha bor isloh qilindi: dastlab, yozuv arab alifbosida bo'ldi, so'ng lotin, rus (kirill) grafikasiga o'tkazildi.

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi qadimda turli yozuv tizimidan foydalanib kelgan. O'zbek yozuvlari tarixida amalda ishlatib kelingan asosiy yozuv tizimini fonografik, ya'ni tovush yozuvi, harfiy yozuv yoki alfavit tashkil etgan. O'zbek xalqi O'rta Osiyoning boshqa xalqlari singari oromiy, yunon, karoshta, sug'd, xorazm, kushan, eftalit, pahlaviy, suriya, hind, o'rxun (runik), uyg'ur, arab yozuvlaridan foydalangan.

O'rta Osiyodagi eng qadimgi yodgorliklar runik, uyg'ur, sug'd, moniy va braxma yozuvlarida bitilgan. Ular toshlarga (masalan, o'rxun-enasoy bitiglari), teriga yoki maxsus qog'ozga (Turfonda topilgan yodgorliklar) yozib qoldirilgan. Barcha yodgorliklar turk va Uyg'ur xoqonligi davrida yaratilgan.

Eski Turkiston xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi, qadimdan yuksak madaniyatli xalq sifatida dunyoga tanilgan. Movarounnahrda *run, uyg'ur, sug'd, moniy, braxma (braxman)* yozuvlari qo'llangan. Diniy mazmundagi asarlar braxma yoki moniy yozuvida, rasmiy hujjatlar uyg'ur yoki sug'd yozuvida bitilgan.

Qadimgi turkiy tillarda yaratilgan yodgorliklardan o'rxun-enasoy va uyg'ur yozuvidagi yodgorliklar saqlanib qolgan.

Runiy yozuvida – o'rxun-enasoy tosh bitiklari, *uyg'ur yozuvida* (uni Mahmud Koshg'ariy «turkcha yozuv» deb nomlaydi) – qadimgi turkiy yodnomalar (VIII–X asrlar); "Oltin yorug'", "Maytri simit", budda va xristian diniga oid yodnomalar, yuridik hujjatlar esa *sug'd yozuvida* bitilgan. *Moniy* yozuvida «Xuastuanift» yodgorligi yozilgan.

Uyg'ur yozuvi. arab yozuvi bilan barobar, XV asrgacha qo'llangan. «Qutadg'u bilig»ning Vena (Hirot) nusxasi (XI asr), «Hibatul haqoyiq» (XII asr) nusxasi, «O'g'uznoma»ning qadimiy nusxasi (XIII asr oxiri), Xorazmiy qalamiga mansub «Muhabbatnoma» (1353- yil) asarining qadimgi nusxasi, «Latofatnoma», «Dahnoma», «Mahzan ul-asror» (XIV–XV asrlar) kabi asarlarning ayrim nusxasi yoki parchalari uyg'ur yozuvida bitilgan. Uyg'ur yozuvi sug'd yozuvi asosida kelib chiqqan. *Runiy yozuvi* qadimgi oromiy yozuvi asosida kelib chiqqan, deb qaraladi.[106]

Turk run yozuvi o'ngdan chapga qarab yozilgan. Bu yozuvning kelib chiqishi borasida turli fikrlar uchraydi. Ayrim olimlar turk run yozuvi sug'd yozuvidan kelib chiqqan desalar. ayrimlar uning pahlaviy yozuvi asosida shakllanganligini qayd etadilar.

O'rxun-enasoy alifbosi (qadimgi davr)

Qo'llanishi	Belgi-lar	Transliteratsiya va transkripsiya	
Unlilar	𐰀	A	/a/. /e/
	𐰃	I	/ɯ/. /i/. /j/
	𐰆	O	/u/. /o/. /w/
	𐰇	U	/ɯ/. /y/. /w/

[106] *Nurmonov A. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-Toshkent, 2011.*

undoshlar	birikishi			B[1]	/b/	B[2]	/b/
				D[1]	/d/	D[2]	/d/
				G[1]	/g/	G[2]	/g/
		(1) — orqa qator (2) — old qator unlilari bilan		L[1]	/l/	L[2]	/l/
				N[1]	/n/	N[2]	/n/
				R[1]	/r/	R[2]	/r/
				S[1]	/s/	S[2]	/s/
				T[1]	/t/	T[2]	/t/
				Y[1]	/j/	Y[2]	/j/
		faqat (1) bilan-Q faqat (2) bilan - K		Q	/q/	K	/k/
				-Ç		/tʃ/	
				-M		/m/	
		Istalgan unli bilan		-P		/p/	
				-Ş		/ʃ/	
				-Z		/z/	
				-NG		/ŋ/	
				IÇ, ÇI, Ç		/iʧ/, /ʧi/, /ʧ/	
	birikishi	+ unli		IQ, QI, Q		/ɯɑ/, /ɑɯ/, /ɑ/	
				OQ, UQ, QO, QU, Q	/ɑɑ/, /uɑ/, /ɑo/, /ɑu/, /ɑ/	ÖK, ÜK, KÖ, KÜ, K	/ɯk/, /vk/, /kɯ/, /kv/, /k/
		+ undosh		-NÇ		/ntʃ/	
				-NY		/n/	
				-LT		/lt/, /ld/	
				-NT		/nt/, /nd/	
so'zlarni ajratuvchi belgi			:	yo'q			

(-) faqat so'z oxirida uchraydi

Masalan, 𐰃𐰇𐰉𐰋 - (yozuv yo'nalisi: o'ngdan chapga)– transliteratsiya: **T²NGR²I** Turk run grafikasida 8 ta unli fonema bo'lib, 4ta belgi bilan ifodalanadi. Turk run grafikasidagi 29ta harfning qattiq va yumshoq variantlari bor. Turk run grafikasida ***v, j, x, h, f*** tovushlari bo'lmagan.

O'rxun-enasoy matnlarida so'z va so'z birikmalarini ajratib ko'rsatish uchun ikki nuqta (:) ishlatilgan. (Enasoy yodnomalarida esa 𐰋 belgisi ham ishlatilgan). Undosh tovushlarning ko'p variantliligi yozuvning takomillashgani va singarmonizm qonuniyatining kuchliligidan dalolat beradi.

Uyg'ur yozuvi. O'rxun-enasoy yozuvidan keyinroq vujudga kelgan uyg'ur yozuvida turli hujjatlar bilan birga manixeylik (moniylik) dini kitoblari saqlanib qolgan.

VI–VII asrlardan boshlab turkiy xalqlar va mo'g'ullar uyg'ur alifbosidan foydalana boshlaganlar. Chingizxon hukmronligi davrida davlat boshqaruvi idoralarida uyg'ur tili va yozuvida ish yuritilgan.

XIV–XV asrlarda yaratilgan "Baxtiyornoma", "Me'rojnoma", "Tazkirayi avliyo" kabi asarlar uyg'ur yozuvida ko'chirilgan. 1469- yilda tuzilgan Umarshayx yorlig'i ham uyg'ur yozuvida bitilgan.

Qadimgi uyg'ur yozuvining amalda bo'lishi ayrim yozma adabiy tilllarga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Masalan, qadimgi uyg'ur tiliga xos bo'lgan bir qator morfologik, leksik, fonetik xususiyatlar Navoiy davrigacha bo'lgan, deyarli, barcha yodgorliklarda kuzatiladi.

Uyg'ur yozuvi XVI asrgacha arab yozuvi bilan parallel ravishda qo'llangan.

Uyg'ur grafikasida 19ta belgi bo'lib, bular unli va undosh fonemani ifodalagan. Ba'zilari ham unli, ham undosh tovushni bildirgan. Uyg'ur yozuvi o'rxun-enasoy yozuvi kabi o'ngdan chapga qarab o'qilgan.[107]

Uyg'ur yozuvi turkiy tillarning fonetik xususiyatini to'liq aks ettira olmagan. Jumladan, ***i, u*** va ***γ*** unli fonemalarini ifodalovchi harflar bo'lmagan. Shuningdek, til oldi, lablanmagan o'rta keng ***(e)*** unlisi uchun ham maxsus belgi olinmagan. Bu fonemalar ifodasida ***a, e, ы, o,*** va ***ө*** unlilari uchun olingan harflar ishlatilgan.

---

[107] *Рахмонов Н. Кадимги туркий тил.-Т.: Ўқитувчи, 1989.*

Arab grafikasi asosidagi eski o'zbek yozuvi (VIII asrdan – 1929-yilgacha).

VIII asr boshlarida O'rta Osiyo moddiy va madaniy hayotida o'zgarishlar yuz berdi. Istilochilar mahalliy aholining asrlar davomida erishgan ma'naviy boyliklariga rahna soldilar. Mahalliy yozuvlarni yo'q qilishga harakat qildilar. Davlat ishlarida arab tili va yozuvini qo'llay boshladilar. Aburayhon Beruniy arab lashkarboshisi Qutayba haqida: "Qutayba xorazm yozuvini bilgan. Xorazm afsonalarini saqlagan kishilarni, ularning orasida bo'lgan olimlarning hammasini turli yo'llar bilan ta'qib ostiga oldi va yo'q qilib yubordi", deb yozgan edi.[108]

Xalifalikka qaram bo'lgan mamlakatlarda arab tili birmuncha vaqt davlat tili bo'lib, madaniy hayotda muhim o'rin tutdi. Mahalliy ziyolilar arab tilini mukammal egallab, boshqa tilda yozilgan asarlarni shu tilga tarjima qila boshlashdi. Bularning barchasi turli mamalakat olimlarining o'zaro aloqasi va hamkorligi uchun arab tilining xalqaro til darajasiga ko'tarilishini ta'minladi. Bir vaqtlar Yevropa mamlakatlarida lotin tili ilm-fan sohasida xalqaro til bo'lgani kabi, arab tili ham Sharq mamlakatlarida ilm-fan sohasidagi xalqaro tilga aylandi. Arab yozuvining keng yoyilishiga zamin yaratildi.

Arab yozuvi keng tarqalishiga, qadimgi yozuvlar ta'qib qilinishiga qaramay, temuriylar davrida qadimgi yozuvlarda bitilgan matnlarni o'qiy oladigan mutaxassislar tarbiyalashga ham e'tibor berilgan. Tarixiy manbalarda temuriylar va zamondoshlarining qadimiy bitiglarni o'qib, sharhlab berishganiga doir ma'lumotilar shundan dalolat beradi. Bu davr hujjatlarida uyg'ur yozuvida bitilgan manbalar ham uchraydi.

Arab yozuvi VIII asrlarda kirib kelib, ommalashdi. Arab yozuvi bilan birga "alifbo" so'zi ham ommalashdi.

Lotin alifbosiga o'tishdan avval butun musulmon xalqlari va elatlari arab yozuvini qo'llaganlar.

Arab yozuvi turkiy xalqlar tarixiy taraqqiyoti va madaniy hayotida muhim o'rin tutadi. Turkiy tillar olamiga kirib kelgan arab yozuvi 1000 yildan ortiqroq vaqt mobaynida ijtimoiy hayotning sotsial-madaniy ehtiyoji uchun xizmat qildi.

Unlilar tizimiga ega bo'lmagan arab grafikasidagi matnni har bir

[108] *Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи.-Т.: Ўқитувчи, 1976.*

turkiy til (o'zbek, turk, tatar tillari va h.k.)ning xususiyatiga xos ravishda o'qish mumkin bo'lgan. Negaki, turkiy tillar fonetika sohasida, ayniqsa, unlilar tizimi borasida o'zaro farqlanadi.

Arab yozuvi asosidagi alifbo bir necha asrlar davomida turkiy xalqlar birligini ta'minlashga xizmat qildi hamda bu yozuvda bitilgan ulkan hajmdagi adabiyot turk madaniy dunyosining istalgan hududida xuddi o'zinikidek qabul qilindi. Turkiy – o'zbek yozma yodgorliklarining butun bir kompleksi, ma'naviy madaniyatning nodir namunalari aynan arab yozuvi ko'rinishida hozirga qadar yetib keldi.

Arab xatlarining bir necha turi bor: *ma'qaliy, tavqe', nasx, ta'liq, nasta'liq, ko'fiy, riqo', shikasta, suls*. Bu yozuvlarning har biri o'ziga xos xattotlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bular orasida yozilishi jihatidan murakkabi *ko'fiy* va *suls* xatlaridir. Bu xatlar me'moriy yodgorliklar peshtoqiga, qabrtoshlarga matnlar bitishda ishlatilgan.

Arab yozuv turlaridan *nasta'liq* chiroyli yozilishi va oson o'qilishi bilan ajralib turadi. Shu bois bu yozuv O'rta Osiyo va Kavkazda rasmiy yozuv sifatida qabul qilingan. O'rta Osiyo va Kavkaz xalqlari yozma yodgorliklarning aksariyati shu yozuvda bitilgan.

Arab alifbosi jami 28 harfdan iborat. Arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvida 32 harf mavjud bo'lgan. Ma'lumki, bir tildagi tovushlarni ifodalovchi hamma harflar ham boshqa tildagi tovushlarni to'liq ifodalay olmaydi. Bunday hollarda alifboga o'zgartirish kiritish kerak bo'ladi, ya'ni muayyan tilning tovush tizimini aks ettiradigan harflarni qo'shish zarurati tug'iladi.

VIII asrdan boshlab arab alifbosidan forsiylar ham foydalanganlar. Forsiy xalqlar arab alifbosiga o'z tillaridagi tovushlarni ifodalovchi to'rtta harfni kiritganlar: : پ *(pe)*, چ*(chim)*, ژ *(je)*, گ *(gof)*. Shu bois arab alifbosidagi harflar soni 32taga yetgan. Eski o'zbek yozuvida ham ana shu 32ta harf istifoda etib kelindi.

Arab yozuvi asosidagi eski o‘zbek alifbosi

Harf ifoda etgan tovushlar	So‘z oxiridagi shakli	So‘z o‘rtasidagi shakli	So‘z boshidagi shakli	Alohida shakli	Harfning nomi
a,o	ـا	ـا	ا	ا	alif
b	ـب	ـبـ	بـ	ب	be
p	ـپ	ـپـ	پـ	پ	pe
t	ـت	ـتـ	تـ	ت	te
s	ـث	ـثـ	ثـ	ث	se
j	ـج	ـجـ	جـ	ج	jim
ch	ـچ	ـچـ	چـ	چ	chim
h	ـح	ـحـ	حـ	ح	he, hoyi huttiy
x	ـخ	ـخـ	خـ	خ	xe
d	ـد	-	-	د	dol
z	ـذ	-	-	ذ	zol
r	ـر	-	-	ر	re
z	ـز	-	-	ز	ze
j	ـژ	-	-	ژ	je
s	ـس	ـسـ	سـ	س	sin
sh	ـش	ـشـ	شـ	ش	shin
s	ـص	ـصـ	صـ	ص	sod
z	ـض	ـضـ	ضـ	ض	zod
t	ـط	ـطـ	طـ	ط	to(itqi)
z	ـظ	ـظـ	ظـ	ظ	zo(izg‘i)
‘(a,i,u)	ـع	ـعـ	عـ	ع	ayn
g‘	ـغ	ـغـ	غـ	غ	g‘ayn
f	ـف	ـفـ	فـ	ف	fe
q	ـق	ـقـ	قـ	ق	qof
k	ـک	ـکـ	کـ	ک	kof
g	ـگ	ـگـ	گـ	گ	gof
l	ـل	ـلـ	لـ	ل	lom
m	ـم	ـمـ	مـ	م	mim
n	ـن	ـنـ	نـ	ن	Nun
v,u,o‘			ـو	و	Vov
h (a)	ـه	ـهـ	هـ	ه	hoyi havvaz, he
i,e,y,ye	ـی	ـیـ	یـ	ی	Yo

Arab yozuvining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagicha:

1) matn o‘ngdan chapga qarab yoziladi;

2) bosh va kichik harflar farqlanmaydi;

3) harflar o‘zidan oldingi yoki keyingi harfga birika olish xususiyatiga ko‘ra guruhlanadi;

4) qo‘sh undosh va qo‘sh unlilardan faqat bittasi yozuvda ifodalanadi. Qo‘sh undoshlarni ifodalash uchun *tashdid* (ّ) belgisidan foydalaniladi.

5) arab yozuvida bir so‘z bir satrda yoziladi. Ayrim hollarda bo‘g‘in ko‘chirish zarurati tug‘ilsa, ko‘chiriladigan so‘zning so‘nggi harfi yuqoriga chiqarilib, qayirib qo‘yiladi. Qo‘lyozma manbalarda , odatda, bo‘g‘in ko‘chirilmaydi. Agar biron so‘zni keyingi satrga ko‘chirish lozim bo‘lsa, o‘sha so‘zdan oldingi so‘zning harflari satrdagi bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida cho‘zib yoziladi.

6) arab yozuvida ayrim harflar yozuvda ifodalansa ham, nutqda talaffuz qilinmaydi: خوارزم (xvorazm) – xorazm; خواجه (xvoja) – xo‘ja.

Arab imlosining o‘ziga xos murakkab xususiyatlaridan biri unli tovushlarning ifodalanmasligi bo‘lsa, ikkinchisi yozuvda tinish belgilarining qo‘yilmasligidir. Gapning xabar, so‘roq, undov mazmuni matn orqali anglashilgan. Keyingi davrlarda arab yozuvida so‘roq, vergul kabi tinish belgilari qo‘llana boshlagan.

Arab alifbosidagi harflar, asosan, o‘n yetti belgidan iborat: ا *(alif)*, ب *(be)*, ح*(he)*, د *(dol)*, ر *(re)*, س *(sin)*, ص *(sod)*, ط *(itqi)*, ع *(ayn)*, ف *(fe)*, ک*(kof)*, ل *(лом)*, م*(mim)*, ن *(nun)*, و *(vov)*, ه *(hoyi havvaz)*, ی *(yoy)*.

Bulardan ح*(he)*, د *(dol)*, ر *(re)*, س *(sin)*, ص *(sod)*, ط *(to)*, ع*(ayn)*, ک *(kof)* shakllarining ma’lum o‘rniga nuqta qo‘yish orqali yangi harflar hosil qilinadi.

Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur arab yozuvining murakkabliklarini qayd etgan holda, 20 yoshida (bu 1503–1504- yillarga to‘g‘ri keladi) *“Bobiriy xati”* ni yaratdi. *“Bobiriy xati”*ning muhim tomoni shundaki, unda unlilar “zer-zabar” kabi diakritik belgilar bilan emas, maxsus harflar bilan ifodalangan. Turkiy til fonetik tizimiga moslab yaratilgan bu yozuv to‘liq joriy etilmagan bo‘lsa-da, ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan. Buni “Boburnoma”dan olingan matn ham tasdiqlaydi: *Mirzobek tag‘oyidin ham Kamrong‘a tarjima va Hindqa kelgali aytqon ash’or va “Bobiriy xati” bila bitilgan sarxatlar yiborildi (429). Sarxat* “yangi husnixat mashq qiluvchi uchun ko‘rsatma sifatida muallim tomonidan yozib beriladigan

xat namunasi".[109] *Sarxat* namunaviy shakldagi husnixat bo'lib, ma'rifiy maqsadga xizmat qilgan. Sarxat milliy kalligrafiya taraqqiyoti haqida muayyan tasavvur beradi. *Sarxat*ning "Boburiy xati"da bitilganligi mazkur alifboning muayyan vaqtda amalda bo'lganidan dalolat beradi.

"Boburnoma"ning 2002-yildagi nashrida "Boburiy xati"ning topilgani, bu yozuvda Qur'on ko'chirilganligi haqida ma'lumot beriladiki, mazkur yangilik ma'naviyat ravnaqi uchun muhim ahamiyatga molikdir.[110]

XX asrning 20- yillari arab alifbosi ma'lum darajada isloh qilindi. Chunki arab alifbosida unli tovushlarni ko'rsatadigan alohida belgilar yo'q edi. Zer-u zabar (harfning osti va ustida qo'yiladigan belgilar) faqat «Qur'on» va arab tilida yozilgan diniy asarlardagina qo'llanar edi.

1921- yil 1–5- yanvarda Toshkentda chaqirilgan til-imlo qurultoyi, boshqa masalalar bilan birga, arab harflarining so'z boshi, o'rtasi va oxirida qo'llanish shakllarini soddalashtirdi. O'zbek tiliga xos bo'lmagan ص *(sod)*, ض *(zod)*, ط *(itqi)*, ظ *(izg'i)* harflari alifbodan chiqarildi.

U, o', i, a unli tovushlari uchun alohida harflar belgilandi.

1922- yil aprel oyida bo'lgan maorif va madaniyat xodimlarining ikkinchi qurultoyi ham birinchi qurultoy qarorini ma'qulladi.

Isloh talabiga muvofiq arab tiliga xos bo'lgan ayrim harflar (ص، ذ، ث، ظ، ط، ض) yozuv tizimidan chiqarib tashlandi. Ular talaffuzi jihatidan o'zbek tili tovushlariga yaqin bo'lgan harflarga almashtirildi. Eski yozuvdagi ص، ث harflari o'rniga isloh qilingan alifboda س harfi; ذ، ظ، ض harflari o'rniga ز harfi; ط harfi o'rniga ت harfi olindi.

Isloh qilingan eski o'zbek yozuvida	Eski o'zbek yozuvida	Hozirgi ko'rinishi
سابيت	ثابت	Sobit
سابير	صابر	Sobir
زاكير	ذاكر	Zokir
زەربه	ضربه	Zarba
زالیم	ظالم	Zolim
تاقەت	طاقت	Toqat

Eski o'zbek yozuvida unlilar ifodalanmas edi. Isloh qilingan arab alifbosida unlilar yozuvda ifodalandi.

[109] *Навоий асарлари луғати. Порсо Шамсиев таҳрири остида.-Т., 1972.-552-б.*

[110] *Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома.-Т.: "Шарқ" НМАК, 2002.*

Isloh qilingan eski o'zbek yozuvida	Eski o'zbek yozuvida	Hozirgi ko'rinishi
عەندە	اندا	anda
عاباد	آباد	odod
عو'چو'ن	اچون	uchun
عوتەر	اوتار	o`tar
عین	این	in
عیتیک	ایتیک	etik

Umuman, arab yozuvi turkiy tillar, jumladan o'zbek tili taraqqiyotida ratta ahamiyat kasb etdi.

1926-yilda Bokuda chaqirilgan turkologlarning 1-qurultoyi turkologiya taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Ushbu yig'inda turkiy xalqlar yozuvini arab grafikasidan yangi alifboga o'tkazish masalasi ko'rildi. Yangi yozuvdagi imlo qoidalari ishlab chiqildi. XX asr boshlarida amalga oshirilgan eng ahamiyatli o'zgarishlardan biri til, yozuv va imlo islohotlaridir. Jumladan, o'zbeklar, turkmanlar hamda qoraqalpoqlar bu davrda o'z yozuvlarini uch marta (1929, 1940, 1993), boshqa xalqlar - qozoqlar, qirg'izlar va tojiklar ikki marta (1929, 1940) almashtirdilar. Yozuvga doir islohotlar bir qator omillar ta'sirida amalga oshirilgan:

1) lingvistik omillar;
2) iqtisodiy omillar;
3) ijtimoiy-siyosiy omillar;
4) psixologik omillar.

Turkiy xalqlar, xususan, o'zbeklardagi yozuv almashuvi asosida ijtimoiy-siyosiy omillar turganini ko'rish mumkin.[111]

1966-yil 12–15- dekabrda birinchi turkologlar qurultoyining 40 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan konferensiya ham alohida ahamiyatga ega. Konferensiyada turkologiyada erishilgan yutuqlar, tadqiq qilinishi lozim bo'lgan masalalarga alohida e'tibor qaratildi. Turkiy xalqlar yozuvi, orfografiyasi va terminologiyasining taraqqiyot holati, takomillashtirish yo'llari muhokama qilindi.

Ilk lotin alifbosi (1930–1939). O'zbekiston Markaziy ijroiya komitetining 1928- yil mart oyidagidagi III sessiyasida lotin alifbosini davlat alifbosi, deb qaror qabul qilindi. Sobiq Ittifoq Markaziy Ijroiya komiteti Prezidiumi va Xalq Komissarlari Soveti bu qarorni 1929- yil 7- avgustdagi maxsus qarori bilan tasdiqladi.

---

[111] *Eltazarov J.D. O'zbekistonda XX asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixidan (sotsiologik tahlil).-T., 2006.*

Ilk lotin alifbosi:

Unlilar:

Ə, ə	til oldi (yumshoq), keng, lablanmagan **a** unlisi
A, a	til orqa (qattiq), keng, lablanmagan **o** unlisi
O, o	lablangan, o‘rta keng, til orqa (qattiq) **o‘** unlisi
Ɵ, ɵ	lablangan, o‘rta keng, til oldi (yumshoq) **o‘** unlisi
I,i	lablangan, tor, til orqa va til oldi **u** unlisi
Ь, ь	lablanmagan, til orqa (qattiq), tor **i** unlisi
I, i	lablanmagan, tor, til oldi (yumshoq) **i** unlisi
E, e	lablanmagan, til oldi, o‘rta keng **e** unlisi

Undoshlar:

V, v	jarangli, portlovchi, lab-lab, sof **b** tovushi
V, v	jarangli, sirg‘aluvchi, lab-lab va lab-tish sof **v** tovushi
G, g	jarangli, til orqa, portlovchi sof **g** tovushi
D, d	jarangli, til oldi, portlovchi sof **d** tovushi
З, ç	jarangli, portlovchi, qorishiq, til oldi sof **j** tovushi
Z, z	jarangli, til oldi, sirg‘aluvchi, qorishiq **j** tovushi
J, j	jarangli, til o‘rta, sirg‘aluvchi sof **y** tovushi
Z, z	jarangli, til oldi, sirg‘aluvchi sof **z** tovushi
K, k	jarangsiz, til orqa, portlovchi sof **k** tovushi
L, l	jarangli, yon, sirg‘aluvchi, sonor sof **l** tovushi
M, m	jarangli,lab-lab, burun, sonor sof **m** tovushi
N, n	jarangli, til oldi, burun, sonor sof **n** tovushi
P, p	jarangsiz, lab-lab, portlovchi sof **p** tosushi
R, r	jarangli, til oldi, titroq, sonor sof **r** tovushi
S,s	jarangsiz, til oldi, sirg‘aluvchi sof **s** tovushi
T,t	jarangsiz, til oldi, portlovchi sof **t** tovushi
F,f	jarangsiz, lab-tish, sirg‘aluvchi sof **f** tovushi
X, x	jarangsiz, chuqur til orqa, sirg‘aluvchi sof x tovushi
C,c	jarangsiz, til oldi, portlovchi, qorishiq **ch** tovushi
Є, є	jarangsiz, til oldi, sirg‘aluvchi sof **sh** tovushi
Q, q	jarangsiz, chuqur til orqa, portlovchi sof **q** tovushi
Ꝟ.ꝟ	jarangli, chuqur til orqa, sirg‘aluvchi sof **g‘** tovushi
H, h	jarangsiz, bo‘g‘iz, sirg‘aluvchi sof **h** tovushi

1934- yildagi imlo islohotidan keyin unli harflar soni 6taga tushirildi (yozma nutqda ishlatiladigan uchta unli: ***[ö], [ü] и [ı]*** tovushlarini ifodalovchi harflar alifbodan olib tashlandi). 1937-yilda kuchli eroniylashgan toshkent shevasi qat'iy tarzda o'zbek adabiy tilining talaffuz me'yori sifatida belgilandi.[112]

Kirill yozuvi asosida o'zbek alifbosi (1940- yildan – 1993-yilga qadar).

1940- yil 8-may kuni qabul qilingan farmonga ko'ra arman, gruzin, Boltiqbo'yi aholisidan tashqari bir qator xalqlar rus (kirill) yozuvi asosidagi alifboga o'tdilar. 1940- yildan boshlab amaldagi rus grafikasiga o'zbek tiliga xos ***ў, қ, ғ, ҳ*** harflari kiritilgan. Rus grafikasi asosidagi o'zbek alifbosida 33ta harf va ikkita maxsus belgi bor. O'zbek yozuviga rus tiliga xos ***ы, щ*** harflaridan tashqari hamma harflar qabul qilingan. ***Щ*** tovushi o'zlashgan so'zlar imlosida ***шч*** bilan, ***ы*** tovushi ***и*** bilan ifodalanadi.

ъ (ayirish), **ь** (yumshatish) belgilari tovush ifodalamaydi, rus-baynalmilal so'zlari imlosida qo'llanadi.

Turkiy tillarning asosiy qismi uchun xos bo'lgan uyg'unlashuv qonuniyati (singarmonizm) so'zda faqat old qator unlilari yoki orqa qator unlilarining kelishi bilan xarakterlanadi. Hozirgi o'zbek tilida umumturkiy [o] va [ö] unli tovushlari bir [o] harfi bilan ifodalanadi, [u] va [ü] unlilari - [u] bilan, [ı] va [i] unlilari - [i] harfi bilan beriladi.

Unlilar singarmonizmi elementlari qipchoq shevalaridagina saqlanib qolgan. Bu, asosan, ko'pgina hollarda umumturkiy [a] ning [o]ga o'tishi bilan belgilanadi.

Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi. Ma'lumki, yozuv masalasi xalqning, millatning ma'naviy madaniyati hisoblanadi. Yozuv almashuvi ham davr taqozosi tufayli yuz beradi.

Lotin alifbosiga qaytish tilni, uning tabiiy holatini saqlash va rivojlantirish maqsadiga yo'naltirilgan. Bu harakat millatning o'zligini saqlash va rivojlantirish demakdir, zeroki til millat mavjudligining birinchi shartidir.

Hozirgi o'zbek alifbosi lotin yozuviga asoslanganligi tufayli *lotin yozuvi asosidagi yangi o'zbek alifbosi* deyiladi

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n uchinchi sessiyasi

[112] *Шоабдурахмонов Ш. Ҳозирги ўзбек адаби тили.-Т.: Ўқитувчи,1980.*

(1993-yil 2- sentabr) "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy qilish to'g'risida" Qonun qabul qildi. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tish dunyo fani va texnikasiga yaqinlashish, o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini to'laroq va aniqroq ifodalash maqsadida amalga oshirildi.

1995-yilning 6-mayida "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirishlar kiritish haqida qaror qabul qilindi.

Lotin yozuviga o'tish o'zbek tilining tarixiy yozuvlarini o'rganishga monelik qilmaydi.

Ayrim turkiy tillar haqida ma'lumot

Qozoq tili

Qozoq tili o'z tarixiy taraqqiyoti davrida, birinchidan, g'arbiy turkiy qabilalar ittifoqi bo'lgan bulg'orlar, pecheneglar hamda Oltin O'rda, Katta No'g'ay o'rdasi kabi davlatlar, ikkinchidan, O'rta Osiyo va Qozog'iston hududidagi G'arbiy Turk xoqonliklari - qoraxoniylar va boshqa qabila ittifoqlari bilan yaqin aloqada bo'lgan. Qozoq milliy tili XV–XVI asrlarda to'liq shakllangan.

Qirg'iz tili

Qirg'iz tili (qadimdan *burut, yovvoyi tosh qirg'iz, qora qirg'iz* nomlari bilan atab kelingan). Bu tilda 2 mln. kishi so'zlashadi. Qirg'iziston Respublikasining milliy va davlat tilidir. Bundan tashqari, qirg'izlar Xitoy (150 ming kishi) va Afg'onistonda (50 ming kishi) ham yashashadi. Bu til Sharqiy xunn tarmog'ining qirg'iz-qipchoq guruhiga kiradi.

Qirg'iz tili adabiy tildan tashqari shimoliy va janubiy lahjalarga ega. Bu lahjalar o'zbek tili bilan aloqadorlik natijasida yuzaga kelgan, ular orasidagi tafovutlar quyidagilar:

a) so'z boshida shimoliy lahjada *ж̧*, janubiy lahjada *ж̧/у* qo'llanishi;

b) shimoliy lahjada cho'ziq unlilarning, janubiy lahjada diftonglarning borligi;

d) **ä** unlisining shimoliy lahjada mavjud emasligi.

Hozirgi qirg'iz tiliga eramiz boshida Enasoy bo'ylarida yashagan qirg'iz qabilalari asos solgan bo'lsa-da, uning hozirgi holati ancha kech shakllandi; keyingi davrlarda esa qipchoq tili unga o'z ta'sirini o'tkazdi.

Qirg'iz tili boshqa qipchoq tillaridan unlilarda ikkinchi cho'ziqlikning mavjudligi, lahjalarida so'z oxiridagi undoshlarning jaranglilashishi, unlilar orasidagi undoshlarning jaranglilashuvi bilan farqlanadi va bu xususiyatlari bilan oltoy tillariga yaqin turadi. Oltoy tili qirg'iz, xakas, shor, tuva, yoqut tillari bilan hamkorlikda hamda mo'g'ul, tungus-manchjur tillari bilan aloqadorlikda rivoj topdi. Shuning uchun ham bu turkiy tilllar boshqa guruh turkiy tillaridan farq qiladi va o'ziga xos xususiyatlari bilan turkiy tillarning Sharqiy Xun tarmog'iga kiradi. Qirg'iz va oltoy tillarining jug'rofiy jihatdan sharqda joylashganligi, mo'g'ul, tungus-manchjur tillari bilan bevosita aloqadorligi alohida guruh – qirg'iz-qipchoq guruhini tashkil qiladi.

Turkiy tilllarning Sharqiy xun tarmog'i G'arbiy xun tarmog'idan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi: unlilarning ikkinchi cho'ziqlikka ega ekanligi; jarangli va jarangsiz undoshlar orasidagi farqning kamligi; unlilar orasida jarangsiz undoshlarning jaranglilashuvi va hokazo. Qirg'iz va qipchoq guruhi Sharqiy xun tarmog'i tillari orasida quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi:

a) o'z qatlam so'zlarida *x* va *v`* fonemalarining yo'qligi;

b) ikkinchi bo'g'indagi *a* va *ä* unlilarining lab uyg'unligiga moslashuvi;

d) to'liq qo'shimchalarning qisqargan shaklga aylanish qonuniyati, shakldosh qo'shimchalar mavjudligi.

Qirg'iz tili oltoy tilidan quyidagicha farqlanadi:

1. Qirg'iz tilida olti, oltoy tilida sakkiz cho'ziq (ikkinchi cho'ziq) unli (olti unli+cho'ziq unlilar *ii, ıı)* lar mavjud.

2. Qirg'iz tilida ж undoshi mavjud, bu undosh oltoy tilida t`~d` undoshlariga o'tadi.

3. Qirg'iz tilida qaratqich kelishigi shakllari *-nin /-nen, -din/den, -tin/ ten;* chiqish kelishigi shakllari *-dan/-dän, -tan/-tän, -nan/nän;* oltoy tilida esa qaratqich kelishigi shakllari *-niŋ-neŋ,-diŋ/-deŋ, - tiŋ/-teŋ;* chiqish kelishigi shakllari *-daŋ/-däŋ, –taŋ/-täŋ, -naŋ/näŋ.*

Qirg'iz tili leksikasi sharqiy tarmoq tillarida bo'lganidek, mo'g'ulcha so'zlarning ko'pligi, aksincha, arabcha, forscha-tojikcha so'zlarning kamligi bilan xarakterlanadi. Oltoy tilida bu xususiyat yanada kuchliroq namoyon bo'ladi.

Oltoy tili

Oltoy tili – Oltoy o'lkasidagi Tog'li Oltoy o'lkasi aholisining adabiy tili. Oltoylarning soni hozir 100 000 kishi bo'lib, o'zida bir qancha urug' va qabilalarni birlashtiradi. O'z navbatida, oltoy tili etnik jihatdan shimoliy va janubiy lahjalarga bo'linadi.

Oltoy tili turkiy tillarning sharqiy tarmog'i, shuningdek, qirg'iz tili bilan birgalikda, bir kichik guruhga kiradi. Shunisi xarakterliki, shimoliy lahja hozirgi oltoy adabiy tili uchun asos qilib olingan; janubiy lahjalardan keskin farq qiladi. Oltoy tilining shimoliy lahjasi ayrim belgilari bilan turkiy tillarning Sharqiy tarmog'iga kiruvchi uyg'ur-o'g'uz guruhi tillariga o'xshaydi. Demak, bu til boshqa tillar kabi bir butunlikdan iborat emas, balki shimoliy va janubiy guruhlarni tashkil qiluvchi dialektlardan iborat bo'lib, ular fonetik, leksik va grammatik belgilariga ko'ra farqlanadi.

Xakas tili

Bu til xakas xalqining (umumiy soni 70 ming kishi) tili (*abakan, yenisey turklari* deb atalgan). Xakas tili uyg'ur-o'g'uz kichik guruhiga kiradi, o'zining alohida xususiyatlari bilan qamasin, kyuerik, shor, sariq uyg'ur, oltoy tilining shimoliy dialektlaridan farqlanadi.

Hozirgi xakas tilining barcha dialektlari quyidagi umumiy xususiyatlarga ega:

1) uch tor, lablanmagan unliga ega: *ı, i, y;*

2) tub xakas so'zlarida *š~j* almashuvi mavjud emas

3) y~z/s~g/t~r fonetik o'zgarishiga asoslangan turkiy tillar orasida *z/s* xususiyati bilan farq qiladi: *azax* "oyoq".

Xakas tili genetik jihatdan qadimgi qirg'iz tiliga, undan qadimiyroq bo'lgan qadimgi uyg'ur tillariga bog'lanadi. Hozir ham bu qadimgi tillarning belgilari xakas tilida saqlanib qolgan.

Hozirgi xakas tili uchun sag'ay va qovchin shevalari asos bo'lgan. Shuning uchun ham xakas tilining rivoji ikki guruh shevalariga bog'lanadi: 1) sag'ay-baltir guruhi shevalari. Bu shevalar "s" lovchi sheva hisoblanadi; 2) "š" lovchi qovchin-qaybal-qizil guruhi bo'lib, unga qovchin, qaybal, qizil, shor lahjalari kiradi.

Birinchi guruhga kiruvchi sog'ay va baltir shevalari bir-biridan ko'p farq qilmaydi. Sag'ay lahjasida Askiz tumani va Tashtip tumani aholisi gaplashadi. Baltir shevasida Askiz tumanidagi Monoq qishlog'i aholisi va Tashtip tumanidagi Arbati qishlog'i aholisi so'zlashadi.

Shor tili

Shor tili Kondoma, Mirassa, Toma daryolari bo'ylarida joylashgan Shimoliy Oltoy, Kuznetsk Oltoyi hududlarida istiqomat qiluvchi (umumiy soni 25 ming kishi) shorlar tilidir. Shorlar Xakas va Tog'li Oltoy muxtor viloyatlari bilan chegaradosh hududlarda yashaydilar. Shorlarning nomi dastlabki etnografik adabiyotlarda shorlar, qoraygan tatarlar, mras va kondom tatarlari, kondomliklar, kuznetsk tatarlari, abenliklar tarzida qayd etilgan. Shor tili turkiy tillarning uyg'ur-o'g'uz guruhidagi xakas kichik guruhiga mansub.

Yoqut tili

Yoqut tili N.B.Baskakov tasnifiga ko'ra uyg'ur-o'g'uz tarmog'ining shimoli-sharqiy guruhiga oid.

Yoqutlar qadim madaniyat shakliga ega bo'lgan turkiy xalqlardan biridir. Ular o'zlarini "saxalar" deb atashadi. Hozir Yoqutiston Respublikasi nomi o'zgartirilib, Saxa Respublikasi deb yuritilmoqda. Yoqut tili, asosan, Saxa Respublikasining milliy tili hisoblanadi. Saxa Respublikasi Konstitutsiyasi ham yoqut tilida yozilgan.

Chuvash tili va yoqut tili boshqa turkiy tillardan ajralib turadi. Bu tillar fonetikasida cho'ziq unli va ko'plab tovushlar yo'qolib ketgan. Yoqut tilida I-II shaxs o'zgarmaydi. Yoqut tili maneglay, even, rus tillariga yaqin turadi. Yoqut tilidagi ikki ming besh yuzga yaqin so'z mo'g'ul tilida ham uchraydi. Demak, yoqut tili turkiy tillarning qadimgi xususiyatlarini saqlash bilan bir qatorda, yaqin aloqada bo'lgan boshqa xalqlar tillari, chunonchi, mo'g'ul tilining asosiy jihatlarini ham o'zida mujassam etgan.

Yoqut tilida rus tiliga oid so'zlar ham ishlatiladi. Ko'pgina ruscha so'zlar yoqut tili talaffuz va grammatik me'yorlariga moslashtirilgan: *araspannya* – familiya; *solkuobay* – rubl.

Yoqut tilidagi ilk kitob 1812- yilda yozilgan. Yoqut tilining birinchi alifbosi 1922- yilda S.R.Novgorodov tomonidan yaratilgan. 1930–1939-yillarda lotin yozuvi amalda bo'lgan. 1940- yildan boshlab amaldagi rus grafikasiga qo'shimcha harflar kiritilgan.

Yoqut tili noturkiy tillar – tungus tillari bilan bog'langan. Ular boshqa turkiy xalqlardan qabilalarning nomlanishi jihatidan (mas. *saxa* yoqut, xakas qabilalari nomi, *sag'ay* t u v a qabilasining nomi, uryanxay yoqut

afsonalariga ko'ra mo'g'ul qabilalari nomi) ham farqlanadi, lekin ularning tili turkiy tillar bilan ba'zi bir umumiyliklarga ham ega (*š* undoshining mavjud emasligi bilan xakas tilining baltir va sag'ay lahjasiga o'xshaydi).

Shuningdek, yoqut tili ba'zi xususiyatlari bilan chuvash va boshqird tillariga ham yaqin turadi, (yoqut. *suol*, chuv. *sol*, "yo'l"; *s>h* xususiyati bilan boshqird tiliga o'xshaydi, *q>x* xususiyati bilan xakas tiliga, *č/š>s* o'zgarishi bilan boshqird yoki xakas tillariga o'xshaydi). Bu dalillar yoqut tilining boshqa tillar bilan qadimdan aloqadorligini bildiradi.

Hozirgi yoqut tili uyg'ur tili bilan ham umumiylikka ega, biroq quyidagicha farqlanadi:

a) so'z o'rtasida almashadigan *y~d~z* o'rnida t qo'llanadi: *atax* (*adağ*> *ayax / azaq* o'rnida) ;

b) *y~j~ж~ğ~č* o'rnida so'z boshida s qo'llanadi: *soul* "yo'l";

d) so'z o'rtasida *s~š/č* o'rnida *h* ishlatiladi: *bıhax /bısax<bıšaq* (*pičaq* o'rnida);

e) *ıa., ie, uo, ue* diftonglariga ega, boshqa turkiy tillarda bu xususiyat yo'q.

Tuva tili

Tuva Respublikasi xalqining milliy tilidir. Tuvalarning (*toba* ham deyiladi) umumiy soni 200 000ming kishini tashkil etadi, shundan 40 000 tasi Mo'g'ulistonda yashaydi. Tuva xalqi tarkibiga uryanxay-manchak yoki kukchilit urug'lari (ularning umumiy soni 4 000 kishi) ham kiradi. Tuvalar qadimdan soyotlar, soyonlar, soyonlilar, uryanxaylar, tonni-tuvalilar nomlari bilan atab kelingan. Tuva tili qadimgi o'g'uz, qadimgi uyg'ur tillarining xususiyatlarini o'zida saqlagan, shu bilan birga hozirgi tofalar (karagas) va yoqut tillariga yaqin turadi. Shu jihatdan tuva tili yuqoridagi tillar bilan birga uyg'ur kichik guruhini tashkil qiladi.

Tuva tilining asosiy xususiyatlari quyidagilar:

1. Fonetik tizimda:

a) n×, t× kabi bo'g'izda talaffuz qilinuvchi tovush juftliklariga ega;

b) ikkinchi cho'ziqlik mavjud: *xaar* "yopmoq" (*xar* "qor"), *chıl* "yig'ilmoq"

chıl "yil";

d) so'z boshida *q* o'rnida *x* qo'llanadi;

e) *y* burun tovushi mavjud.

2. Grammatika sohasida:

a) shart mayli qo'shimchalari o'ziga xos: *barzımza* "borsam"; shevalarda qadimgi shakllar qo'llanadi: *bardım erza* "borsam";

b) ravishdosh shakllarining variantlari ko'p.

3. Leksika sohasida:

a) mo'g'ulcha so'zlar ko'p uchraydi;

b) fin-ugor, samodiy, tungus-manchjur tillaridan ko'p so'zlar o'zlashgan.

Tuva tili og'zaki til sifatida rivojlanib keldi. Tuva yozma adabiy tili 1939–1941- yillarda lotin alifbosida ish olib bordi , undan keyin bu til rus alifbosiga o'tkazildi.

Tofalar (karagas) tili

Tofalar tili tofa (karagas) kichik etnik guruhi tili bo'lib, bu tilda so'zlashuvchi aholi Krasnoyarsk o'lkasida yashaydi, jami 1000 kishini tashkil etadi. Ular kelib chiqishiga ko'ra tuba qabila birlashmasiga kiruvchi nenets (samodiy)larga borib taqaladi. Tuba urug' nomi karagaslardan tashqari tuva, shor, xakas, oltoylar tarkibida ham saqlanib qolgan. Tofalar (karagas) tili turkiy tillarning uyg'ur-o'g'uz guruhiga mansub va tuva tili (qadimgi uyg'ur, qadimgi o'g'uz tillari) bilan birgalikda uyg'ur-tukyu kichik guruhiga kiradi. Tofalar tili fonetik, leksik, grammatik xususiyatlariga ko'ra tuva tiliga yaqin turadi. Tofalar o'z yozuviga ega emas, rus alifbosida ish olib boradi.

Yangi uyg'ur tili

Yangi uyg'ur tili O'rta Osiyo va Qozog'iston (200 ming kishi) hamda Sinszyan-Uyg'ur avtonom viloyati (Xitoy) uyg'urlari (6 mln. kishi) ning tili hisoblanadi. Uyg'urlar sariq uyg'urlar yoki yuyg'ular (10 ming kishi) va salarlar (50 ming kishi) kabi etnik guruhlarga ham bo'linadi. Uyg'ur tili eski o'zbek tili bilan birgalikda O'rta Osiyoda, qoraxoniylar davrida shakllangan. Ahmad Yassaviy hikmatlari eski o'zbek tilida bitilgan nusxalari g'arbiy va sharqiy turkiy tillar oralig'ida turadi. Bu tillar qoraxoniylar davrida (X–XI) yuzaga kelgan bo'lsa ham, unga tojik va eroniy tillarning ta'siri kuchli bo'lgan.

Hozirgi uyg'ur tilining ikki adabiy til shakli mavjud: 1) MDH davlatida yashovchi uyg'urlar adabiy tili (rus grafikasiga asoslangan); 2)

Sinszyanda yashovchi uyg'urlar adabiy tili (arab grafikasiga asoslangan). Bu til ko'p lahjaligi va me'yorlashmaganligi bilan ajralib turadi. Sinszyan uyg'urlari 4 lahjada so'zlashadi.

1. Qashqar – Yorkent lahjasi (Yangi Hisor shevasi).

2. Xo'tan-koreys lahjasi (cherchen shevasi). Ikkinchi guruh shimoliy dialektga quyidagilar kiradi: a) ko'cha turfon lahjasi (Qashqar, Ko'cha, Turfon, Komul, Hamiy hududlari); b) iliy yoki kuljin lahjasi va MDH mamlakatlarida yashovchi uyg'urlar shevalari. Bu guruh lahjalarining asosiy xususiyatlari:

a) *i* va *ı* fonemalarining borligi;

b) unlilar orasida *k* va *q* undoshlarining jaranglilashuvi;

d) ba'zi shevalarda, xususan, turfon shevasida *v>g* o'tishi; masalan; *aggel* (*evvel* o'rnida);

e) ili shevasida *r* tovushining o'ziga xos tarzda talaffuz qilinishi.

3. Oqsuy lahjasi. Uchinchi guruhga faqat lobonor dialekti kirib, u genetik jihatdan qadimgi qirg'iz tiliga bog'lanadi, biroq yangi uyg'ur tili bilan qorishib ketganligi bilan xarakterlanadi. Asosiy belgilari:

a) yon undoshning ta'sirida *l / d / t / z* undoshlarining o'zak va qo'shimchalarda almashinib qo'llanishi: *qızzar/ qızlar, taštar/ tašlar*;

b) *m / b / p /* almashuvi; *baspadı-basmadı*;

d) *ts/ss* regressiv assimilyatsiyasining mavjudligi: *unussa/unutsa*.

4. G'ansuy lahjasi. To'rtinchi guruhni salar va sariq uyg'ur shevalaridan iborat bo'lgan g'ansuy lahjasi tashkil qiladi. Salar lahjasi o'g'uz-qarluq tillari asosida yuzaga kelgan bo'lib, yangi uyg'ur tiliga qorishgan. Sariq uyg'ur lahjasi bo'yicha turkiy tillarning uyg'ur-o'g'uz guruhiga kiradi. Sari uyg'ur dialektining asosiy xususiyatlari:

a) so'z boshida jarangli undoshning kelmasligi: masalan, *pas* (*baš* o'rnida, "bosh");

b) *š>s* almashuvining mavjudligi: *tas* (*taš* o'rnida "tosh");

d) *č>š* almashuvining mavjudligi: *aš* (*ač* o'rnida "och");

e) *y>z* almashuvining so'z o'rtasida mavjudligi: *azaq-ayaq;*

f) *y>j* almashuvi mavjudligi: *jıl* (*yıl* o'rnida).

Yuqoridagi to'rt lahjaning asosiy xususiyatlari:

1. Unlilar orasida *i* va *ı* farqlanishi kuzatilmaydi.

2. *ir>ij; iyt >išt* kabi undoshlar almashuvi mavjud.

3. *t* ning yumshashi va *č* ga o'tishi kuzatiladi *t > č :tuš- čuš* "tush";

tiš > *čiš* "tish".

4. Tor unlilardan oldin *s* > *č* ga o'tishi: *sızıq* < *čızıq*;

5. *q/k* undoshlari unlilar o'rtasida o'zgarmaydi.

Uyg'ur lahjalariga xo'tanliklar (400 kishi) tilini ham kiritish mumkin. Ularning tillarini turli olimlar turli xalq tillariga: B.V. Vladimirsov uyg'ur tiliga. H.Vamberi o'zbeklar tiliga, G.N.Potanin qirg'izlar tiliga tegishli deb bilishgan. Xo'tanliklar tilida turli tillarning, xususan, yangi uyg'ur tilining (so'z oxirida *ğ* qo'llanishi: *očağ* "o'choq") belgilari saqlangan.

Ozarbayjon tili

Ozarbayjon tili – Ozarbayjon Respublikasining milliy va davlat tilidir. Ozarbayjonlarning umumiy soni 10 mln. kishidan ko'proq, shundan 5 milliondan ko'proq qismi Eronda yashaydi. Ozarbayjonlar ko'p urug'li xalq hisoblanadi, ya'ni ular Eronda yashovchi shahsuvanlar (250 ming), kojarlar (35 ming), qashqaylar (500 ming), bahorlu, inonlu, teymurtash, qaral, xurosoni, pichoqchi, garagozli (turkman va ozarbayjon qabilalari qorishmasidan kelib chiqqan - 350 ming kishi); avsharlar Eron va Afg'onistonda (500 ming kishi) istiqomat qilishadi; qorapapaxlar yoki terekemlar Turkiya va Eronda yashashadi (100 ming kishi). Ozarbayjon tili o'g'uz tillari guruhining o'g'uz-saljuq kichik guruhiga kiradi.

Turk tili

Turk tili Turkiya Respublikasidagi turk xalqining (50 mln.k.) milliy va davlat tilidir. Turk millati Bolgariya, Sloveniya, Kipr, Gretsiya, Eron, Suriya kabi Osiyo va Yevropa mamlakatlarida (200 ming), Amerikada (40ming kishi), Afrika va Avstraliyada (2 ming kishi atrofida) yashaydi. Turk tili o'g'uz guruhining o'g'uz-saljuq kichik guruhiga mansub. Onado'li turklari usmoniylar yoki usmonli turklar nomi bilan mashhur. Adabiyotlarda ularning qabila nomlari "ottoman turklari" yoki "ottomonlilar" ekanligi, G'arbga Osiyodan kelib qolishgani ta'kidlanadi. Saljuqiylar va boshqa o'g'uz qabilalari X–XI asrlarda ko'chib kelishgan bo'lsa ham, turklar xalq sifatida XIII asr oxirlarida shakllangan.

Hozirgi turk tili XIX asr o'rtalarida adabiy til sifatida yuzaga keldi. Turk jonli tili ikki sheva guruhidan iborat: a) dunay-turk – adrianopol, makedoniya, adakal, bosniya shevalari guruhi; b) sharqiy onado'li – kastamun, oydin, konya, karaman, sivas, anqara, smirin shevalari guruhi.

Turk adabiy tili arab va fors tillarining kuchli ta'siri ostida rivojlandi. Shuning uchun eski turkiy yozma adabiy tili va xalq jonli tili uslub jihatidan uchga bo'linadi. Birinchi uslub – so'zlashuv tili bo'lib, o'z xususiyatlarini saqlagan. Turk sultonlari fikricha, u *kaba turkča*, ya'ni "*qo'pol turk tili* deb ataladi. Ikkinchi uslub – tabaqaga xoslangan til: bunga savdogarlar, hunarmandlar va shaharliklar tili kiradi (u *orta turkče* "o'rta turk tili" deb ataladi) va bu til arabcha-forscha lug'aviy birliklar bilan boyigan.

Hozirgi turkiy adabiy tilining asosini Istanbul va Anqara shaharlari shevalari tashkil qiladi. Adabiy til rivoji uchun boshqa shahar shevalari ham o'z hissasini qo'shmoqda, biroq qishloq shevalari eski xususiyatlarini saqlab qolmoqda.

Tatar tili

Tatar tili Tatariston Respublikasining milliy adabiy tilidir. Shuningdek, tatar xalqi boshqa qo'shni viloyatlar va Sibir (Tomsk, Babarin, Tyumen, Tobolsk)da yashaydilar, ularning umumiy soni 7.5 mln. Bundan tashqari, Ruminiya va Bolgariyada 50 ming, Turkiya va Xitoyda 30 ming tatar millati vakillari istiqomat qiladi.

Tatar yozma tili ham Oltin O'rda davrida yuzaga keldi, uning taraqqiyoti, dastlab, uyg'ur tili va yozuvi hamda qoraxoniylar davri bilan bog'liq holda kechdi; bu paytda yozuv ishlari kotiblar – uyg'urlar qo'lida edi. Jo'ji ulusining g'arbida Qutb tomonidan bitilib (XIV asr), bizgacha yetib kelgan "Xusrav va Shirin" dostoni, To'xtamishxon, Temur Qutlug' va boshqa xon yorliqlarida uyg'ur tilining ba'zi elementlari saqlanib qolgan.

Qadimgi uyg'ur yozuvidan foydalangan xalqlar tilida qadimgi turkiy til xususiyatlari saqlanib qolgan. Bu ta'sir eski o'zbek adabiy tilida bo'lganidek, tatar tilida ham o'z ifodasini topgan.

Hozirgi tatar tilining asosini markaziy va shimoliy lahja tashkil qiladi. Tatarlar ham arab alifbosidan foydalanganlar. XX asrning 20-yillarida arab alifbosi isloh qilinib, tatar tili uchun xos bo'lmagan harflar chiqarib tashlandi, kerakli harflar qo'shildi; unlilar uchun maxsus harflardan foydalanildi. 20-yillar oxirida lotin alifbosiga o'tildi, 1938-yilda rus (kirill) alifbosi asosidagi tatar yozuvi joriy etildi. Hozirgi tatar tili alifbosida 39 ta harf mavjud.

Qrim-tatar tili

Qrim-tatar tili Oltin O'rda adabiy tilida bitilgan ko'p sonli yozma yodgorliklar, Qrim xoni (Saodat Girey) yorliqlari hamda boshqa hujjatlarda ham o'z aksini topgan. Qrim-tatar yozuvi bir necha bor isloh qilindi: dastlab, yozuv arab alifbosida bo'ldi, so'ng lotin, rus (kirill) grafikasiga o'tkazildi. Qrim-tatar tili genetik jihatdan belorus va litva tatarlari bilan ham aloqador; qrim yahudiylari ham qrim-tatar tilida gapirishgan.

Qamasin tili

Qamasin tili unchalik katta bo'lmagan qamasinliklar (400 kishi) tili, ular (qamasi, qanmaji) Krasnoyarsk o'lkasidagi Mana, Kana daryolarining yuqori oqimlarida istiqomat qilishadi. Qamasin mustaqil til emas, so'z o'rtasida va oxirida r~t/g~z/s~y fonetik o'zgarishi va *z/s* belgili ekanligi bilan xakas tiliga o'xshaydi.

Qamasinlar o'z yozuviga ega emas, ular rus alifbosida ish olib borishadi.

Boshqird tili

Boshqird tili Boshqirdiston Respublikasining milliy va davlat tilidir (boshqirdlar soni 2 mln. kishi). Boshqird jonli tili ko'p shevali bo'lib, ularni ikki lahjaga ajratish mumkin: *qıvaqan* yoki *tog'lilar* lahjasi. Birinchi lahja Boshqirdistonning shimoli-sharqi va janubi-sharqidagi tatarlar tili hisoblanadi; ikkinchi lahja respublika janubi-g'arbiy hamda markaziy tumanlari aholisining tilidir.

Boshqird tilining ayrim dialektlari ba'zi belgilari bilan boshqird adabiy tilidan, boshqird tilining o'zi esa boshqa turkiy tillardan umumiy xususiyatlari bilan ajralib turadi (bu holat boshqird tilining G'arbiy xun tarmog'i qipchoq-bulg'or guruhiga kirishi bilan ham izohlanadi). Ushbu xususiyat, ayniqsa, boshqird tilining undoshlar tizimida ko'rinadi; unlilar silsilasi tatar tili bilan bir xil.

Undoshlar tizimining asosiy xususiyatlari:

a) *z* fonemasining faqat o'zlashma so'zlarda uchrashi, o'z qatlam so'zlarida *z'* qo'llanishi: *qız* (*qız* o'rnida);

b) *č* faqat o'zlashma so'zlarda, o'z qatlam so'zlarida *s* fonemasining qo'llanishi: *bısaq* (*bıčaq* o'rnida) "pichoq";

d) ayrim o'zlashma so'zlar oxiridagi s (masalan, tatar tilidan o'zlashgan) boshqird tilidagi *š* bilan almashadi: *baš* - (*bas*- o'rnida "bosmoq";)

e) so'z va qo'shimchalar boshida keladigan *s* undoshining (tatar tilidan yoki boshqa turkiy tillardan o'zlashgan) boshqird tilidagi *h* bilan almashuvi: (*hıyır* o'rnida) "sigir";

f) so'z boshida keladigan *b* undoshining (ayrim shevalardan tashqari) *p* bilan almashuvi: *bišaq* (*pıčaq* o'rnida) "pichoq";

g) so'z boshida tatar tilidagi *y/j/ж* o'rnida *y* undoshining qo'llanishi: *yir* (*жçir* o'rnida) "yer".

Boshqird xalqi va tili ko'plab xalq va tillarning o'zaro aloqadorligidan shakllangan, bu aloqadorlikni boshqird tilida uchrovchi tatarcha, qipchoqcha, bulg'orcha unsurlarning mavjudligi tasdiqlaydi.

Boshqird jonli tili Oltin O'rda xonligining qulashidan so'ng shakllangan bo'lsa, boshqird adabiy tili XX asr boshlarida yuzaga keldi. Bungacha boshqirdlar, dastlab, eski tatar tilidan, so'ngra yangi tatar tilidan foydalanishgan. Boshqirdiston Muxtor Respublikasi tashkil etilgach, boshqird milliy tili *quvaqan* va *yurmatik* dialektlari asosida shakllangan. Boshqird yozuvi, barcha g'arbiy turkiy xalqlaridagidek, dastlab, arab, keyin lotin va eng so'ngida, rus alifbosi asosida ish olib bordi. Hozirgi boshqird tili har tomonlama rivoj topgan, unda ko'p sonli gazeta va jurnallar nashr qilinadi, ta'lim tizimi ish olib boradi.

Qaraim tili

Qaraim tili (qaray), Litvaning Vilnyus shahrida, Troki va Ponevejis, Ukrainaning Lutsk va Galich shaharlarida, shuningdek, Qrim yaqinidagi Yevpatoriya shahrida yashovchi qaraim xalqining tilidir. Bu tilda so'zlashuvchilarning umumiy soni 10 ming kishini tashkil qiladi.

Hozirgi qaraim jonli tili uch lahjaga bo'linadi: 1) shimoliy lahja, bu lahjada Litva qaraimlari, xususan, Vilnyus va Troki qaraimlari so'zlashadi; 2) janubiy lahja, bu lahjada Lutsk va Galich qaraimlari gaplashadi; 3) qrim lahjasi.

Shimoliy qaraim lahjasining asosiy xususiyatlari:

a) birinchi old qator unlining orqa qator unlilariga aylanishi; keyingi undoshlarning yumshoq talaffuz qilinishi:

e>`a, masalan, *s`and`an* (janubiy lahjada *s`end`en* "sendan");

o>`o, masalan, *k`ol`ag`a* (janubiy lahjada kolege<kolenke "soya");

b) ŋ>n undoshlarining **y** ga o'tishi: *maya* (janubiy lahjada *maŋa>mana* "menga"); janubiy lahjada *ataŋ>atan* "otang".

Janubiy lahjaning shimoliy lahjadan farqlari:

a) lab undoshlarining lablanmagan undoshlarga o'tishi, masalan: *elğen* (shimoliy lahjada *olğan* "o'lgan");

i>u o'tishining mavjudligi, masalan: *its* (janubiy lahjada *uč;* "uch"; *s* ning *š*ga o'tishi: *ilis* (janubiy lahjada *uluš*) "ulush".

b) *š*>s: sirg'aluvchi *š* undoshning *s* ga o'tishi, bu holat balqar tili hamda tatar tilining barabin shevasida ham uchraydi: *yasırın* (shimoliy lahjada *yašırın);*

č>s (ts): *balsıq* shimoliy lahjada *balčıx* "balchiq");

j>z almashuvi: *atsı zanlı* (shimoliy lahjada *ači janlı* "g'amgin");

d) *t`i ~ ği*>k`*i*<*gi* almashuvi: *k`is* "tish"; *k`iyermen* (*t`iyirmen* o'rnida "tegirmon").

Qaraim lahjasi qrim-tatar tiliga yaqinligi bilan xarakterlanadi.

Qaraim tili turkiy tillarning mo'g'ullar bosqiniga qadar mavjud bo'lgan xususiyatlarini saqlagan. V.V.Radlov va T.Kovalyovlarning fikricha, qaraim tili polovets tiliga yaqin, qaraimlar esa polovets (kuman) larning avlodlaridir. Hozirgi qaraimlarning tillari eng qadimgi turkiy tildan hisoblanadi. Qaraimlar, dastlab, bulg'or, hazar, o'g'uz yoki o'z, pecheneglar qabila ittifoqiga, keyinchalik, qipchoq-polovetslar ittifoqiga kirishgan. Qipchoq-polovetslar ittifoqi mo'g'ul-tatarlar ta`siri turkiy xalqlar tiliga singib borayotgan bir davrda shakllandi va shundan keyin polovetslar qaraimlar tarkibiga o'tdi. Sharqiy Yevropada qaraimlar hazarlar va boshqa turkiy xalqlar bilan ham diniy, ham etnik umumiylikka ega edi. Bu tildagi ko'plab lahjalar, shevalar qaraim xalqining ko'p urug'li bo'lganligini ko'rsatadi. T.Kovalyovning fikriga ko'ra, polovets tilining xususiyatlari qaraim tiliga mo'g'ullar bosqinidan so'ng o'tgan. Shuning uchun ham bu o'zlashmalar o'zida polovetslik xususiyatini hozirgacha saqlab qolgan.

Qaraim jonli tili qator belgilariga ko'ra mustaqil til, biroq, u bir tomondan, qadimgi qipchoq (polovets) tillari guruhiga kirsa, ikkinchi tomondan, shu guruhga xos bo'lgan hozirgi tillarning xususiyatlarini o'zida mujassam etgan.

Qaraim yozuvi dastlab iudaistlar yozuvida shakllangan bo'lib, tor doirada – faqat diniy tizimda ishlatilgan, ya'ni, cherkov kitoblarini yozishdagina qo'llangan. Faqat XX asr boshlarida qadimgi yahudiy alifbosi asosidagi qaraim yozuvida vaqtli matbuot – gazeta va jurnallar nashr qilina boshladi, bu madaniyat yo'nalishlari faqat tarjima xarakteriga ega edi; qaraim tilida nashr qilingan she'riyat, folklor namunalari va

boshqa yozuvlar faqat tarjimachilik xarakteriga ega, tarqalish doirasi ham juda tor edi. Hozirgi qaraimlar esa Litva tarkibiga kirgan, ular rus tilidan hamda kirill yozuvidagi qaraim adabiy tilidan to'liq foydalanishmoqda.

Qumiq tili

Qumiq tili Dog'istonda yashovchi qumiqlar (umumiy soni 200 ming kishi) tili bo'lib, qipchoq tili guruhining qipchoq-polovets kichik guruhiga kiradi. Bu til mo'g'ullar bosqiniga qadar qipchoq va o'g'uz qabilalarining birlashuvidan yuzaga kelgan. Qumiq tili boshqa qipchoq va qipchoq-polovets tillaridan (leksik xususiyatlaridan tashqari) quyidagi belgilari bilan farqlanadi:

a) so'z boshida jarangsiz k o'rnida g jaranglisining qo'llanishi: *giši* (*kiši* o'rnida);

b) portlovchi-cho'ziq *x, h* undoshlarining mavjudligi;

d) qumiq tili uchun quyidagi grammatik shakllar xarakterli: ravishdosh shakllari *-ağan/-egen*, qaratqich kelishigining qisqa shakllari *–nı/-ni* sifatdosh qo'shimchasi *-ar/er va -ır/ir* ning qo'llanishi.

Qumiq adabiy tilining asosini xasavyurt va bo'ynoq lahjalari tashkil etadi. Bu til 1917- yildan keyin tashkil topdi. Qumiq tili dastlab, arab yozuvida, keyin lotin yozuvida, 1939 -yildan so'ng rus alifbosi asosida ish olib boradi. Hozir qumiq tilida gazetalar, jurnallar, siyosiy hamda badiiy adabiyotlar, shuningdek, boshlang'ich va o'rta maktab darsliklari, qo'llanmalari nashr qilinadi.

Gagauz tili

Gagauzlar Ukraina va Moldaviyaning Bendera hamda Izmail tumanlarida (200 ming kishi), Shimoliy Bolgariya va Ruminyada (5 ming kishi) yashashadi. Gagauzlar Bessarabiya gagauzlari, Dunayorti gagauzlariga, bular, o'z navbatida, shimoliy yoki bulg'or hamda g'arbiy va Yunoniston gaguzlariga bo'linadi.

Gagauzlarning turli-tuman hududlarda joylashuvi turli sheva va dialektlarni keltirib chiqargan. Gagauz tilida o'g'uz tili belgilari ustun. Lahjalar, asosan, leksik xususiyatlari bilan farqlanadi.

Gagauz tiliga bolqon turklari, gajal, tozluq, gerlovliklar, qizilboshlar, yuruq, qaramanli, surg'uch qabilalarining tillari yaqin. Gagauzlar va bolqon turklari bulg'or, o'g'uz, qipchoq urug'larining avlodlari hisoblanadi. Shuningdek, gagauz tili o'g'uz tili guruhiga kirishi bilan birga, bulg'or tili bilan aloqador, xususan, qipchoq-polovets va qaraim tillari bilan hamkorlikda bo'lib kelgan.

Bundan tashqari, gagauz tilining shakllanishida roman (rumin va moldaviya), ayniqsa, slavyan (rus va bolgar) tillarining ham ta'siri sezilarli. Bu ta'sir nafaqat leksika sathida, balki sintaksisda ham mavjud. Gagauz tilida gap qurilishi, gapda so'zlar tartibi rus tilidagi kabidir.

Truxman tili

Truxman tili Stavropol turkmanlarining tilidir; truxmanlar Turkmanistondan ko'chib kelishgan va Stavropol o'lkasining turli joylarida o'rnashishgan. Bu Shimoliy Kavkaz turkmanlari chavdur, sonchxoji va ikdir kabi kichik urug'lar bilan bog'liq xalqlardir.

Truxman tili turkman tilining asosiy belgilarini saqlab qolgan, biroq unga qo'shni no'g'ay tili sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. No'g'ay tilining truxman tilidagi ta'sirini, quyidagicha guruhlash mumkin:

Fonetika sohasida:

a) cho'ziq unlilar sifatining o'zgarganligi, masalan, *ač* (*aač* o'rnida), *yol* (yool o'rnida), *tašla* (*daašla* o'rnida);

b) *a* va *e* unlilari ishtirokidagi lab uyg'unligining yo'qolganligi: oturon // *oturan* "o'tirgan" *kopak* // *kopek* "it".

d) so'z boshida va unlilar orasida kelgan jaranglining jarangsizlashuvi (m>g). Masalan: *taš* (*daš* o'rnida), *etib*// *edip* "etib".

e) p va q portlovchi undoshlarining unlilar orasida sirg'aluvchi undoshlarga o'tishi: teva (*depe* o'rnida) "tepa", *čıxar* - (*čıqar* - o'rnida).

Grammatika sohasida:

a) ko'plik shaklining *n,ŋ, m* sonor undoshlaridan keyin *-nar* // *- ner* ko'rinishlari borligi;

b) sifatdoshning bo'lishsiz shakli *-mas/-mes* ning qo'llanishi;

d) *baradurın/ baryatırın* fe'l shaklining ishlatilishi (turkman tilida *borar* va *barodıran*) "boradigan".

Turkman va truxman tillarining leksik sathdagi farqlanishi ham kuzatiladi. Truxman tilining bir qancha shevalari bor, bu shevalar no'g'ay va boshqa tillar bilan aloqadorlikda yuzaga keladi.

"Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi" fanidan referat mavzulari

1. Turkiy tillar haqida umumiy ma'lumot.
2. "Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi" kursida o'rganiladigan asosiy masalalar.

3. Turkiy tillar tasnifi.

4. Turkiy tillarning fonetik xususiyatlari.

5. Turkiy tillarda unlilar tizimi. Singarmonizm hodisasi. Ikkilamchi cho'ziqlik.

6. Turkiy tillarda undoshlar tizimi.

7. Hozirgi turkiy tillar leksikasining qiyosiy tahlili.

8. Turkiy tillar taraqqiyotidagi leksik-semantik o'zgarishlar.

9. Turkiy tillar leksikasining iste'mol doirasiga ko'ra tasnifi.

10. Iste'mol doirasi chegaralangan so'zlar.

11. Turkiy tillarda terminologiya masalalari.

12. Turkiy tillarning umumiy grammatik xususiyatlari.

13. Turkiy tillarning morfologik xususiyatlari.

14. Turkiy tillarning umumtaraqqiyot bosqichiga xos morfologik xususiyatlar.

15. Turkiy tillarning agglyutinativ tabiati.

16. Turkiy tillarda affiksal morfemalar taraqqiyoti.

17. Affikslar tarkibidagi o'zgarishlar. Sodda va murakkab affikslar. Affikslarning monofunksional xarakteri.

18. Grammatik ko'plik tushunchasining ifodalanishi.

19. Turkiy tillarda kelishiklar tizimi.

20. So'zlarni turkumlarga ajratish mezonlari.

21. Ot turkumiga xos grammatik kategoriyalar.

22. Sifatning morfologik xususiyatlari.

23. Turkiy tillarda son va uning xususiyatlari.

24. Turkiy tillarda olmoshlar.

25. Fe'lning grammatik kategoriyalari.

26. Grammatik ma'noning ifodalanishi.

27. Turkiy tillarda turkum sinkretizmi. Ot-fe'l sinkretizmi.

28. Turkiy tillar grammatik qurilishining tarixiy-tipologik xususiyatlari.

29. O'rxun - enasoy yozuv yodgorliklarining fonetik, grammatik xususiyatlari.

30. Turkiy tillarning hozirgi taraqqiyot darajasi.

31. Qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz tillarining sintaktik xususiyatlari.

32. Tuva, buryat, boshqird tillarining o'ziga xos sintaktik tabiati.

33. Turkman, ozarbayjon, turk tilining grammatik xususiyatlari.

34. Turkiy tillar leksikasi.
32. Yordamchi so'zlar va ularning vazifalari.
33. Sonomimema va videomimemalar.

Ayrim terminlar izohi

Agglutinativ tillar –o'zak va qo`shjimchalar chegarasi aniq bo'lgan tillar

Arxaizm (yun.) – ma`lum davr uchun eskirgan, iste`moldan chiqa boshlagan til birligi (so'z, frazeologizm va b.).

Affiks (lot.) – qo'shimcha.

Assimilyatsiya – qator kelgan nutq tovushlarining bir-biriga ta'sir qilib o'ziga moslashtirishidir.

**Bog`lama** – fe'l bo'lmagan so`zni fe'lga xos ma'no va vazifaga moslovchi yordamchi fe'l.

Dialekt (yun.) –umumxalq tilining ma`lum bir hududda qo'llanadigan ko'rinishi.

Fonetik transkripsiya – talaffuzni aniq ifodalashga xizmat qiladi va xorijiy tillar lug`atida keng qo`llaniladi. Har bir talaffuz qilingan tovushni aks ettirish fonetik transkripsiyaning asosiy vazifasidir. Transkripsiya har qanday alfavitga asoslangan bo`lishi mumkin. Ba`zi maxsus tovushlarni belgilash uchun esa diakritik belgilardan, boshqa alifbelardan qo'shimcha belgilar olishdan, mavjud belgilarni teskari yozish yo'lidan foydalaniladi. Fonetik transkripsiya chet tilini o'rganishda muhim ahamiyatga ega..

Fonematik transkripsiya – Grammatika kitoblarida misollarning morfologik strukturasini ko'rsatish uchun ko'proq ishlatiladi, chunki bunday hollarda so'z talaffuzidan ko'ra so'z tarkibi ahamiyatlidir; mazkur transkripsiya asosan fonemalarni qanday o'rinda ishlatilgan bo'lishidan qat'i nazar, doim bir xil belgi bilan ko'rsatishdir.

Flektiv tillar –o'zak morfema va affiksal morfema chegarasini ajratish qiyin bo'lgan tillar.

Unga xos belgilar:

- bir affiks bir necha ma'noni beradi
- affiks bir vaqtda ham shaxs, zamon va sonni ko'rsatishi mumkin.
- affiks bir necha variantga ega bo'lishi mumkin
- o'zak va negizga affikslar qo'shilganda tovushlar almashinuvi kuzatilishi mumkin.

- o'zak va negiz, negiz va grammatik affikslar o'rtasidagi chegarani belgilash qiyinchilik tug'diradi.

Fonetika – tilshunoslikning nutq tovushlari, ularning hosil bo'lishi, tiplari, tovushlar o'zgarishi, bo'g'inlar, ularning tuzilishi tiplari, strukturasi; urg'u, urg'u tiplari va intonatsiya haqidagi tarmog'idir.

Grammatika–(yun.)-tilshunoslikning so'z shakllari (shakl yasalishi), so'z birikmalarining turlari, gap turlari (tilning grammatik qurilishi) haqidagi bo'limi.

Grammatik ma'no – so'zning shakliy qismi grammatik shakli ifodalaydigan ma'no.

Grafika (yun.) –nutq tovushlarini yozib ifodalash vositalarining muayyan tuzilishi.

Leksema (yun.) – tilning lug'at tarkibiga xos birlik; til qurilishining lug'aviy ma`no anglatuvchi birligi.

Numerativ–hisob so'zlari.

Olinma so'z - o'zlashma so`z.

Qiyosiy fonetika – qardosh tillar uchun umumiy hodisa va qonuniyatlarning holati, qo'llanish miqdorlari, o'ziga xosligi qiyos qilinadi.

Singarmonizm – unli tovushlarning moslashuvi, ohangdoshligi, uyg`unligi demakdir. Bu hodisa faqat turkiy tillarda uchraydi.

Tavsifiy fonetika – nutq tovushlari, ularning xususiyati va xarakteri qayd etiladi. Fonetikaning sillabika, akustika, intonasiya, tovush o'zlgarishi va uning qonuniyatlari haqida ma'lumot beriladigan sohasi.

Tarixiy fonetika – nutq tovushlari taraqqiyoti o'zgarishi bilan bog'langan hodisalar, qonuniyatlar beriladi. Tilga xos fonetik jarayonlar tarixiy yodgorliklar orqali yoritiladi.

Transkripsiya – tovush va harf orasida nomutanosiblik bor bo'lgan tillarda ushbu yozuv muhim ahamiyat kasb etadi, undan o'qish-o'qitish ishlarida keng foydalaniladi.

Shartli qisqartmalar:

BN– Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома.-Тошкент: "Шарқ" НМАК -2002.

ДТС – Древнетюркский словарь.-Л.:Наука,1969.-676 с.

ДЛТ – Девону луғотит турк. I– III.-Тошкент, 1960–1963. I.500 б.; II.428 б.; III.463 б.

ЭСТЯ – Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков.-М.: Наука, 1974–1989.

O‘TEL–Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). -Тошкент. 2000. -600 б.

QR–Носириддин Бурҳониддин ўғли Рабғузий. Қисаси Рабғузий.-Тошкент,1992.

boshq. - boshqird tili
no‘g‘. - no‘g‘ay tili
ozarb. - ozarbayjon tili
qar. - qaraim tili
q.-balq. - qorachoy-balqar tili
qum. - qumiq tili
tat. - tatar tili
turkm. - turkman tili
uyg‘. - uyg‘ur tili
chuv. - chuvash tili
o‘zb. - o‘zbek tili

gag. - gagauz tili
olt. - oltoy tili
qad.t. - qadimgi turkiy til
q-qalp. - qoraqalpoq tili
qirg‘. - qirg‘iz tili
qoz. - qozoq tili
turk. - turk tili
tuv. - tuva tili
xak. - xakas tili
yoq. - yoqut tili

Adabiyotlar

1. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. -Toshkent, 2009.

2. Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси.-Тошкент: Фан,2009. -259 б.

3. Абдураҳмонов А., Рустамов А. Қадимги туркий тил.-Тошкент: Ўқитувчи, 1984.

4. Абсалямов З.З. Наречие в современном башкирском языке: Автореф. дисс. … канд. филол.наук. -М., 1974.

5. Агламова М.Т. Способы выражения повелительности и желательности в тюрских языках: Афтореф. дис. … канд. филол. наук. -Ташкент, 1966.

6. Азәрбајчан дилинин грамматикасы. I. II. -Бакы, 1960.

7. Азәрбајчан дилинин диалектоложи лугәти.- Бакы. 1974.

8. Айдаров Г. Язык орхонского памятника Бильге - Кагана. - Алма -Ата, 1966.

9. Аманжолов А.С. Материалы и исследования по истории древнетюркской письменности. Автореф. дисс. …д-ра филол. наук. - Алма-ата, 1975. -49 с.

10. Амансарыев Ж. Туркмен диалектологиясы. - Ашгабат,1970.

11. Андреев И.А. Чувашский язык. - М.,АН СССР, 1966.

12. Arikoğlu, Ekrem. Örnekli hakasça – türkçe Sözlük.- Ankara, 2005.-558 s.

13. Аспекты компаративистики.- М., РГГУ, 2007.-380 с.

14. Атаныязов С. Туркменистанын топонимиясы. - Ашгабад: Ылым, 1981.-176 б.

15. Әхәтов Г. Х. Хәзерге татар теленең лексикасы. - Уфа: Ун-т. 1975.-131 б.

16. Аширалиев К. Древнетюркские элементы в современных тюркских языках. На материале орхоно-енисейских памятников. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. - Фрунзе, 1969. -21 с.

17. Аъламова М. Туркий тилларда буйрук-истак майли // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент,1966.-№4.-Б.30-34.

18. Базарова Д.Х., Шарипова К.А. Развитие лексики тюркских языков Средней Азии и Казахстана. - Ташкент: Фан, 1990.

19. Баскаков Н.А. Тюркские языки. - М.,1960.

20. Баскаков Н.А. Введение в изучение тюрских языков. - М.,1969.

21. Баскаков Н.А. Историко-типологическая морфология тюркских языков. - М., Наука, 1979.

22. Баскаков Н.А. Алтайская семья языков и её изучение. - М.: Наука, 1981.

23. Баскаков Н.А.Историко-типологическая фонология тюркских языков. - М., Наука, 1988.

24. Благова Г.Ф. Тюркское склонение в ареально-историческом освещении. - М.: Наука, 1982.

25. Бурлак С.А., Старостин С.А. Сравнительно-историческое языкознание. - М.,2004.

26. Boz Erdoğan, Yaman Ertuğrul. Üniversiteler için türk dili (yazili ve sözlü anlatim). - Savaş yayinevi, 2011.

27. Дадабаев Х.А. Сословная терминология в старотюркских письменных памятниках XIV–XV вв. // Адабий мерос. - Тошкент, 1989.- №2 (48).-Б. 17-27.

28. Дадабаев Х., Юнусов А. Наименование единиц административно-территориального деления в старотюркских письменных памятниках XI–XIV вв.//Адабий мерос. - Тошкент, 1990.-№53.-Б.36-43.

29. Дадабаев Х.А. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI–XIV вв. - Ташкент: Фан,1991.-168с.

30. Дадабаев Х. Историко-лингвистический анализ лексики старописьменных памятников. - Ташкент: Фан. 1994.-156 с.

31. Данилова Н.И. О соотношении личных и указательных местоимений в якутском языке// Исследования по якутской грамматике и диалектологии. –Якутск, 1979.

32. Dil aralaştirmalari. Uluslararasi hakemli dergi. - Ankara, 2007.

33. Дмитриев Н.К. Строй тюркских языков. - М.:Наука, 1962.

34. Дыренкова Н.П. Тофаларский язык // Тюркологические исследования. - М.,1963.

35. Дьячковский Н.Д. Звуковой строй якутского языка.Ч. I: Вокализм. - Якутск, 1976.

36. Егоров В.П. Этимологический словарь чувашского языка. - Чебоксари, 1964.

37. Гаджиева Н.З. Синтактический строй тюркских языков. - Казань,1963.

38. Caferoğlu A. Türk dili tarihi.I, II. 3-baski. - Istanbul: Enderun kitabevi, 1969. -S.247.

39. Gökdağ, dr.Bilgehan A. Salmas Ağzi. Güney Azerbaycan Türkçesi Üzerine Bir İnceleme. Karam yayinlari | 16. - Çorum, 2006.-261 s.

40. Иванов С.Н. Родословные древнотюрок Абу-л-Гази-хана: Грамматический очерк. - Ташкент. 1969 .

41. Иллич-Свитыч В.М. Опыт сравнения ностратических языков. - М., 1971.

42. Исследования по якутской грамматике и диалектологии. – Якутск, 1979.

43. Исследование по лексике и грамматике тюркских языков. - Ташкент: Фан, 1980. -148 с.

44. Исмоилов И., Мелиев К., Сапаров М. Ўрта Осиё ва Қозоғистон туркий тиллари лексикасидан тадқиқот. - Тошкент.: Фан, 1990. - 257 б.

45. Исхаков Ф.Г. Пальмбах А.А. Грамматика тувинского языка: Фонетика и морфология. - М., 1961.

46. Исхаков А. Қазақ тілі морфологияси. - Алма-Ата, 1964.- 279 с.

47. Исҳоков М., Содиков Қ., Омонов К. Мангу битиглар. -Тошкент: ТДШИ, 2009.

48. Закиев М.З. О периодизации истории тюркских письменных литературных языков // Советская тюркология, 1975. - №5. -С.3-11.

49. Зиннатуллина К.З. Залоги глагола в современном татарском литературном языке. - Казань, 1969.

50. Золхоев В.И. Фонология и морфология агглютинативных языков (особенности функционирования систем фонем). - Новосибирск, 1980.

51. Kasapoğlu Çengel, Hülya. Kirgiz Türkçesi Grameri. Ses ve şekil bilgisi, Akçağ /700. - Ankara, 2005.- 424 s.

52. Кляшторный С.Г. Древнетюркские рунические памятники как источник по истории Средней Азии. - М., 1964. -215 с.

53. Кононов А.Н. О фузии в тюркских языках // Структура и история тюркских языков. -М., 1971.

54. Кононов А.Н. Грамматика тюркских рунических памятников VII-IX вв. - Л., 1980.

55. Коркина Е.И. Наклонения глагола в якутском языке. - М., 1970.

56. Кормушин И.В. Явление фузии в истории алтайских языков и его значение для решения проблемы общности алтайских языков // Проблемы общности алтайских языков. - Л., 1971.

57. Кормушин И.В. Древние тюркские языки. Учебное пособие. - Абакан: Изд. Хакасского ГУ им. Н.Ф.Катанова, 2004.

58. Котвич В. Исследования по алтайским языкам. -М., 1962.

59. Котвич В. Местоимения в алтайских языках // Исследования по монгольской филологии. - М.,1978.

60. Левитская Л.С. Историческая морфология чувашского языка. - М., 1976

61. Лингвистический энциклопедический словарь. - М.: Сов. Энц-я, 1990. -685с.

62. Лексика тюркских языков. Историческое развитие лексики тюркских языков. - М., 1961. - 467 с.

63. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. - М.-Л.:АН СССР, 1951. -451.

64. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов. - Тошкент, 1960-1963. Т. I-III; Индекс-луғат, 1967.

65. Махматкулов М. Аналитический способ словообразования в языке древнетюркских памятников. Автореф. дисс. ...канд .филол. наук.-Ташкент,1973.-21 с.

66. Миртожиев М. Ўзбек тили фонетикаси. - Тошкент: Фан, 2013.

67. Мусабаев Ғ. Қазіргі қазақ тіліндегі сын есм категорияси. - Алма-Ата, 1961

68. Мусаев К.М. Грамматика караимского языка. - М., 1964.

69. Мусаев К.М. Лексика тюркских языков в сравнительном освещении (Западно-кыпчакская группа). - М.: Наука, 1975. - 359 с.

70. Мусаев К.М. Лексикология тюркских языков. - М.: Наука, 1984. -228 с.

71. Мусаев К.М. Синтаксис караимского языка. - Москва, 2003.

72. Муталлибов С.М. Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк. - Тошкент, 1959.

73. Мухторов А. Ўзбек адабий тили тарихи. - Тошкент: Ўқитувчи, 1995. - 160 б.

74. Наджип Э.Н. Исследования по истории тюркских языков XI–XIV вв. - М., 1989.- 281 с.

75. Насилов В.М. Язык орхоно-енисейских памятников. - М.: МГУ, 1960.-101 с.

76. Насилов В.М. Древнеуйгурский язык. - М., 1963.

77. Насилов В.М.Язык тюркских памятников уйгурского письма XI–XV в.в.-М., 1974.

78. Натачкова Д.Ф. Материалы к изучению истории лексики хакасского языка. В. кн: Вопросы хакасской филологии. - Абакан. 1962.- С.18-20;

79. Necati Şen, Arş. Cör. Ülker. Sivas İli ve Yöresi Ağizlari. Etnik Yapi–Dil İncelemesi. Metinler. Sözlük. - Ankara: Gazi Kitabevi, 2006. XXXIX -724 s.

80. Неъматов Х. Историческая морфология узбекского языка XIV-XV веков. - Ташкент: Фан,1988.

81. Orhon bildirileri kitabi. Afyonkarahisar, 2010.

82. Очерки сравнительной морфологии алтайских языков. - Л.:Наука,1978.

83. Покровская Л.А. Грамматика гагаузского языка: фонетика и морфология. - М., 1964.

84. Поцелуевский А.П. К вопросу о происхождении формы настоящего времени в тюркских языках юго-западной группы. - Ашхабад, 1975.

85. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. - СПб.: Типография Императ. Академии наук, 1893–1905. I.-1052с.; II.-1814 с.

86. Раджабов А.А. Язык орхоно-енисейских памятников древнетюркской пись-менности. Автореф. дисс .. . канд. филол. наук. - Баку, 1967.-19 с.

87. Рассадин В.И. Фонетика и лексика тофаларского языка. - Улан-Удэ, 1971.

88. Рассадин В.И. Морфология тофаларского языка в сравнительном освещении. - М., 1978.

89. Рассадин В.И. Монголо-бурятские заимствования в сибирских тюркских языках. - М: Наука, 1980.-116 с.

90. Рафиев А. Туркий тилларнинг киёсий-тарихий грамматикаси. - Тошкент, 2004.

91. Рахмонов Н. Қадимги туркий тил. - Тошкент, Ўқитувчи, 1989.

92. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг туркий қатлами. - Тошкент:Университет, 2001. -350 б.

93. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. - Тошкент: Mumtoz so'z, 2011.

94.Рустамова С. Маҳмуд Кошғарий луғатининг лексикографик хусусиятлари. Филол. фан. номзоди. ...дисс. - Тошкент, 1998. -24 б

95. Сагиндиков Б. Сравнительный анализ лексики тюркоязычных памятников XIV века: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. - Алма-Ата, 1977. -32 с.

96. Санжеев Г.Д Сравнительная грамматика монгольских языков. - М., 1963.

97. Сафаров М. Наблюдения по лексике тюркских языков // Исследования по лексике и грамматике тюркских языков. - Ташкент: Фан, 1980.-С.126-130.

98. Севортян Э.В. О некоторых вопросах структуры предложения в тюркских языках // Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. III. Синтаксис. - М., 1961.-С. 5-18.

99. Севортян Э.В Аффикси глагольного словообразования в азербайджанском языке. - М.,1962.

100. Севортян Э.В Аффиксы именного словообразования в азербайджанском языке. - М., 1966.

101. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на гласные. - М.:Наука,1974.-767с.

102. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на букву "Б". - М.:Наука,1978.-349 с.

103. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на букву "В", "Г", "Д". - М.: Наука,1980. -395 с.

104. Севортян Э.В., Левитская Л.С. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на букву "Ж", "И".-М.:Наука,1989. -292 с.

105. Серебренников Б.А. О причинах устойчивости агглютинативного строя // Вопросы языкознания. - 1963.- N 1.

106. Серебренников Б.А. О некоторых проблемах исторической морфологии тюркских языков // Структура и история тюркских языков. - М., 1971.

107. Серебренников Б.А. Методы лингвогеографических исследований // Общее языкознание: Методы лингвистических исследований. - М., 1973.

108. Серебренников Б.А., Н.З.Гаджиева. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. - М., Наука, 1986.

109. Современный казахский язык. - Алма-Ата, 1962.

110. Содиков К. XI-XV аср уйғур ёзувли туркий ёдгорликларнинг график-фонетик хусусиятлари. Филол. фан. д-ри...дисс. - Тошкент, 1992. -167 б.

111. Sodiqov Q. Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi. - T., 2006.- B. 208 .

112. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков: Фонетика. - М., 1984.

113. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Мофология. -М.-Л: Наука, 1988.

114. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков: Лексика / Э.Р.Тенишев, Г.Ф.Благова и др.; Отв. ред.Э.Р.Тенишев. - М.: Наука, 1997.-800 с.

115. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков: Лексика. - М.,2001.

116. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Морфология. - М.-Л.:, Наука, 1988.

117. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Коллектив авторов. Пратюркский язык-основа. Картина мира пратюркского этноса по данным языка. - М.: Наука, 2006.

118. Сыдыков С. Монгольско-тюркские языковые параллели. - Фрунзе: Илым, 1983. -163 с.

119. Татаринцев Б.И. Монгольские языковые влияние на тувинскую лексику. - Кызыл, 1976.

120. Текин Т. Проблема классификации тюркских языков / / Проблемы современной тюркологии. - Алма-Ата, 1980.

121. Тенишев Э.Р. Строй саларского языка. - М., 1976.

122. Тенишев Э.Р. Строй-сарыг-ягурского языка. - М., 1976.

123. Тенишев Э.Р. О наддиалектном характере языка тюркских рунических памятников // Turcologica. -Л., 1976.

124. Тюркские языки.-М.: Наука,1985.

125. Тюркская и смежная лексикология и лексикография (Сборник к 70-летию Кенесбая Мусаева). М., 2004.

126. Убрятова Е.И. Опыт сравнительного изучения фонетических особенностей языка населения некоторых районов Якутской АССР. - М., 1960.

127. Умаров Э.А. "Бадаи-ал-лугат" и "Санглах" как лексикографические памятники и источники изучения староузбекского языка XVI-XVI вв. Дисс….д-ра филол. наук. - Ташкент,1989. -296 с.

128. Усмонова Ш.Олтой тилларида маиший лексика. Фил.фан. д.-ри... дисс.-я.-Тошкент, 2011.

129. Фазылов Э. Материалы по истории узбекского языка / / Вопросы тюркологии. - Ташкент, 1965.

130. Федотов М.Р. История чувашского языка. Звуки. - Чебоксари, 1971. -С. 8-20.

131. Хабичев М.А. Карачаево-балкарское именное словообразование. - Черкесск, 1971.

132. Хэзирки заман туркмен дили. - Ашхабад, 1960. -С.277-279.

133. Хамитова А. Туркий тилларда сифатнинг интенсив формасига доир (ўзбек, уйғур, қозоқ тиллари материаллари асосида) // Ўзбек тили ва адабиёти. -Тошкент, 1966.-№5.-Б.41-44.

134. Харитонов Л.Н. Залоговые формы глагола в якутском языке. - М., 1963.

135. Xudoyberdiyev J. Mahmud Koshg'ariy hayoti va "Devonu lug'otit turk" bo'yicha yaratilgan asarlar ko'rsatkichi. - Тошкент:Akademnashr, 2011.-160.

136. Этимологический словарь тюркских языков.Общетюркские и межтюркские основы на букву "к". Выпуск второй. Отв.ред. Благова Г.Ф. - М.:Индрик.2000.- 154 с.

137. Юдахин К.К. Киргизско-русский словарь. - М.:Сов. Энцикл.,1965.-973 с.

138. Цинциус В.И. К этимологии алтайских терминов родства // Очерки сравнительной лексикологии алтайских языков. - Л., 1972.

139. Чарыяров М.П. Времена глагола в тюркских языках юго-западной группы: Автореф.дис. ... д-ра филол. наук. - Ашхабад, 1970.

-140. Черкасский М.А. Тюркских вокализм и сингармонизм. - М., 1965.

141. Шайгулов А.Г. Введение в изучение алтайский языков. - Уфа. 1984.

142. Шайкевич А.Я., Абдуазизов А.А., Гурджиева Е.А. Введение в языкознание. - Ташкент:Ўқитувчи, 1989. - 228 с.

143. Шалекенова М.К. Местоимения в современном каракалпакском языке: Автореф. дисс. канд. филол. наук. - Алма-Ата, 1970.

144. Ширəлијев М. Азəрбајчан диалектолокијасынын əсаслары. - Баку, 1962.

145. Щербак А.М. Названия домашных и диких животных / Историческое развитие лексики тюркских языков. - М.: Акад. наук, 1961.-С.84.

146. Щербак А.М. Сравнительная фонетика тюркских языков. - Л., 1970.

147. Щербак А.М. Очерки по сравнительной морфологии тюркских языков: (Имя). - Л., 1977.

148. Щербак А.М. Очерки по сравнительной морфологии тюркских языков: (Глагол). - Л., 1981.

149. Щербак А.М. Введение в сравнительное изучение тюркских языков. Институт лингвистиеские исследований РАН. - Спб.1994. -192 с.

150. Eltazarov J.D. O`zbekistonda XX asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixidan (sotsiologik tahlil). - T., 2006.

151. Юлдашев А.А. Аналитические формы глагола в тюркских языках. - М., 1965.

152. Юлдашев А.А. Принципы составления тюрско-русских словарей. - М., 1972.

153. Ўзбек халқ шевалари луғати. - Тошент: Фан, 1971. - 407 б.

154. Ўринбоев Б. Туркий филологияга кириш. - Самарканд, 1989.

155. Қўчкортоев И., Исабеков Б. Туркий филологияга кириш. - Тошкент: Ўқитувчи,1984.

156. www.google.tr

157. www. google.uz

158. www. ref.uz

TARQATMA MATERIALLAR

O‘zbek tilidagi unli tovushlar tasnifi

Lab ishtirokiga ko‘ra	Lablanmagan	Lablangan
Til ishtirokiga ko‘ra	Til oldi	Til orqa
Tor	i	u
O‘rta keng	e	o
Keng	ä	a

Turk tilidagi unli tovushlar tasnifi:

Lab ishtirokiga ko‘ra	Lablanmagan		Lablangan	
Til ishtirokiga ko‘ra	Keng	Tor	Keng	Tor
Old	e	ı	ö	ü
Orqa	a	ı	o	u
Cho‘ziq	â	ı		û
Qisqa	a.e	ı, i	o,ö	u,ü

Chuvash tlidagi unlilar tasnifi:

Til ishtirokiga ko‘ra	Old		Orqa	
Yutilishiga ko‘ra	Yutilmagan	Yutilgan	Yutilmagan	Yutilgan
Baland	i	ÿ	ı	y
Past	e	e	a	a

Turkiy tilli xalqlar tarqalgan hududlar



1. Chuvashlar
2. Tatarlar
3. Boshqirdlar
4. No'g'aylar
5. Qo'miqlar
6. Qorachoy-balqarlar
7. Qaraimlar
8. Qrimtatarlar
9. Qozoqlar
10. Qirg'izlar
11. Qoraqolpoqlar
12. O'zbeklar
13. Turkmanlar
14. Oltoylar
15. Shorlar
16. Tuvalar
17. Tofalar (karagaslar)
18. Yoqutlar va dalganlar
19. Xakaslar
20. Kyueriklar
21. Ketsiklar
22. Chulim tatarlari
23. Qamasilar
24. Truxmanlar
25. Gagauzlar
26. Bolqon turklari
27. Ozarbayjonlar
28. Turklar
29. Uyg'urlar

Turkiy tillarni davrlashtirish



(Footnotes)

1 Серебренников Б., Гаджиева Н. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков.-М,1986.

2 Серебренников Б.А., Гаджиева Н. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков.-М, 1986. -С. 94.

3 III shaxs ko'plik uchun keyingi paytda *-sinlar* bilan parallel holda *-(i) shsin* bilan yasalgan shakl ham qo'llangan. Bu holat ko'proq jonli so'zlashuv tiliga xos.

Qaydlar uchun

Mundarija

So‘z boshi....3
Kirish....4
1-§.Turkiy tillar taraqqiyotining umumiy tavsifi....9
2-§.Turkiy tillar fonetikasi....23
3-§.Turkiy tillar leksikasi....40
4-§.Turkiy tillar morfologiyasi....51
5-§ Turkiy tillarda grammatik ma’noni ifodalash usullari....59
6-§. Turkiy tillarda so‘z turkumlari....60
7-§.Turkiy tillarda ot so‘z turkumi....62
Turkiy tillarda kelishiklar tizimi....67
Turkiy tillarda egalik tushunchasi....77
8-§.Turkiy tillarda sifat....90
Turkiy tillarda sifatning intensiv shakli....93
9-§.Turkiy tillarda son so‘z turkumi....100
10-§.Turkiy tillarda olmosh....103
11-§.Turkiy tillarda fe’l so‘z turkumi....108
Zamon tushunchasi....109
Mayl kategoriyasi....113
12-§.Turkiy tillarda ravish....122
13-§.Yordamchi so‘zlar....131
14-§.Taqlid so‘z (mimema)lar....142
15-§.Turkiy tillar sintaksisi....146

Turkiy tillarda gap qurilishi.....150
Gap turlari.....155
16-§. Sodda gap sintaksisi.....157
17-§. Qo'shma gap sintaksisi.....159
Turkiy xalqlar yozuvi tarixi.....171
Ayrim turkiy tillar haqida ma`lumot.....186

H.A. Dadaboyev, Z.T. Xolmanova

TURKIY TILLARNING QIYOSIY-TARIXIY GRAMMATIKASI

«Tafakkur Bo'stoni»
Toshkent – 2015

Muharrir *Z.T. Taxirov*
Musahhih *A. Xo'jabekov*
Sahifalovchi *U. Vaxidov*
Dizayner *D. O'rinova*

Litsenziya AI № 190, 10.05.2011y
Bosishga 2015 yil 5 oktabrda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'ozi.
Times New Roman garniturasi. Shartli bosma tabog'i. 14,0. Nashr tabog'i 14,2.
Shartnoma № 31/13. Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 35/13.

«Tafakkur Bo'stoni» nashriyoti. Toshkent sh., Yunusobod, 9-mavze, 13-uy
Telefon: (+99893) 589-05-78. E-mail: tafakkur0880@mail.ru

«Tafakkur Bo'stoni» nashriyoti bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh., Chilonzor ko'chasi, 1 uy.



«TAFAKKUR BO'STONI»
NASHRIYOTI

